

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**«TARIX» ta'lim yo'nalishi
I-kurs talabalari uchun**

**O'ZBEKISTON TARIXI
fanidan**

MA'RUZALAR MATNI

Andijon-2016

Tuzuvchi: t.f.n. dots
S. XOSHIMOV

Taqrizchilar: tarix fanlari nomzodi,
dosent
E. YUSUPOV

SO'Z BOSHI

XX asr oxiri o'zbek xalqi tarixida olamshumul ahamiyatga molik davr bo'ldi. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga kirdi, asriy orzusi ushlangan xalq o'z taqdirini o'z qo'li bilan yaratadigan bo'ldi. Kelajagi buyuk davlatni qurish va mustahkamlash uchun jamiyatni harakatga keltiruvchi komil insonlarni etishtirish talab etiladi. Buning uchun jamiyatning har bir a'zosi dastavval, o'zligini anglashi kerak. Prezidentimiz I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" deb atalgan risolasida, - "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarixni yaxshi bilmasdan turib yuksak mavqega erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas. Ma'naviyatini tiklashi, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Takror aytaman, u irodali insondir... Jamiyatning har bir a'zosi o'zo'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi. Irodasini mustahkamlaydi"- deb ta'kidlaydilar.

Respublikamizda keyingi vaqtda, diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi milliy qadriyatlarimizga yot, zararli oqimlarning suqilib kirib, ayrim yoshlarimizning o'zligini yo'qotib qo'ygan manqurtlarga, har xil manfur guruhlarining malayiga aylanib qolishi Prezidentimiz Islom Karimovning yuqoridagi gaplari naqadar to'g'ri ekanini yana bir bor isbotladi. 1998 yilda respublikamizning bir guruh faylasuf, tarixchi, siyosatshunos, sotsiolog, psixolog, pedagog va adabiyotshunos olimlar bilan uchrashuvida yurboshimiz "... pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon Hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos - bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart" - deb ta'kidladilar. Darhaqiqat, xalqimizning fidoiy, sog'lom fikrlovchi, bilimdon ziyolilari ommaga milliy mafkurani tushuntirishi va singdirishi lozim.

I.A.Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolasida yana shunday deb yozadilar : "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz Haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur". Shuning uchun Prezidentimizning yuqorida eslatib o'tilgan risolasida tarixni O'rganishni davlat siyosati darajasiga ko'tarish masalasini ilgari surdi.

Shuning uchun ham O'zbekiston tarixi fani barcha oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlarida, litseylar va kasb-Hunar kollejlari, umumta'lim maktablarida o'qitilmoqda, bitiruvchilar esa yakuniy Davlat attestatsiyalarini topshirmoqdalar.

Prezidentimiz bu ishga shaxsan o'zlari, bosh-qosh bo'lmoqdalar. U kishining tarixchi olimlar bilan uchrashuvlari, Vazirlar Mahkamasining bu masalaga bag'ishlangan bir qator qarorlari va farmoyishlari yuqoridagi fikrimizning isbotidir.

1998 yil sentyabrg' oyida Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi respublika oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari uchun 15 kunlik ilmiy seminar tashkil qildi. Seminarda O'zbekiston tarixi fanining dolzarb muammolari va yangi dasturi muhokama etildi.

1998-1999 o'quv yilidan boshlab oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis yo'nalishlarida O'zbekiston tarixini muammoli ma'ruzalar tarzida o'rganish yo'lga qo'yildi.

I-MAVZU:
KIRISH. “O’ZBEKISTON TARIXI” FANINING
PREDMETI, METODOLOGIYASI, MANBALARI, DAVRLARI VA VAZIFALARI.

R E J A:

1. O’zbekiston tarixi fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o’rni. “O’zbekiston tarixi” fanining predmeti va ob’ekti.

2. “O’zbekiston tarixi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Moddiy va yozma manbalari.

3. Davrlar tavsifi, uzviyligi va aloqasi. Metodologiyasi, vazifalari va ahamiyati.

-1-

O’zbek xalqining ezgu orzusi ro’yobga chiqib, o’z mustaqilligini qo’lga kiritdi. Mustaqillik tufayli uning boy madaniy o’tmishidan saboq olish, Vatan tarixini chuqurroq va izchil tadqiq etish va qimmatli xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning “...tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo’lmaganidek, O’z tarixini bilmagan kishining kelajagi ham bo’lmaydi”, -- deganlari ayni haqiqatdir.

O’zbekiston tarixi fanining predmeti O’zbekistonning uzoq o’tmishdan shu kunlargacha bo’lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’naviy taraqqiyoti jarayonidir. O’zbekiston tarixi fani dunyoda eng qadimiy va boy tarixga ega bo’lgan o’zbek xalqining bir necha ming yillik tarixiy va ma’naviy taraqqiyotini o’rganuvchi va o’rgatuvchi fandır. Markaziy Osiyoda, jumladan, O’zbekistonda yashab kelayotgan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga munosib hissa qo’shib kelmoqdalar. O’zbek xalqi Markaziy Osiyodagi barcha xalqlar qatorida doimo o’rgan, hurlik, ozodlik va mustaqillik uchun mustamlakachilar va yot kelgindilarga qarshi kurash olib borgan va shu jihatdan u o’zining chuqur ildiz otgan an’alariga egadir.

O’zbekiston tarixi fanining o’zo’rganish manbalari bor.

Bular:

- 1) Arxeologik yodgorliklar;**
- 2) Yozma yodgorliklar;**
- 3) Etnografik materiallar;**
- 4) Xalq og’zaki ijodi (fol’klar);**
- 5) Texnik vositalar va mahsulotlardir.**

O’zbekiston tarixini o’rganganda uni ma’lum davrlarga bo’lib o’rganish muhim ahamiyat kasb o’tdi. Zamonaviy tarix fani Vatanimiz tarixini quyidagi davrlarga bo’lib o’rganadi:

- 1) Ibtidoiy-jamoa tuzumi;**
- 2) Eng qadimgi davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi;**
- 3) Ilk feodalizm davri;**
- 4) Rivojlangan feodalizm davri;**
- 5) Mustamlaka davri;**
- 6) Sho’rolar hokimiyati davri;**
- 7) Mustaqillik davri.**

Oliy o’quv yurtini bitiruvchi bakalavr bilishi kerak bo’lgan umumiy bilim doirasi O’zbekiston tarixi fani oldiga quyidagi vazifalarni qo’yadi:

Birinchidan, Vatan tarixini o’qish va o’rganish jarayonida yoshlarda tarixiy bilimlar, ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar shakllanmog’i lozim. Chunki tarixiy voqea va hodisalarni bilmasdan, ular haqida tushuncha va tasavvurga ega bo’lmasdan turib g’oyaviy-siyosiy dunyoqarash haqida gap yuritish mumkin emas;

Ikkinchidan, Vatan tarixini yoritish, o’qitish va o’rganish jarayonida chuqur ilmiylik, xolislik, tarixiy haqiqatning ustivorligi asosiy va bosh yo’nalish bo’lishi lozim;

Uchinchidan, Vatan tarixining har bir satri, har bir varag’i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi

bilan sug'orilgan bo'lishi va milliy g'oya va milliy mafkurasining kamol topishiga xizmat qilishi darkor;

To'rtinchidan, Vatan tarixining boshidan oxiriga qadar singib ketgan asosiy g'oya - otashin vatanparvarlik, baynalminalchilik, insonparvarlik kabi ulug' fazilatlarga qaratilmog'i kerak.

Beshinchidan, Vatan tarixi fani mustaqil respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy qadriyatlarining yanada mustahkamlanishi va ravnaq topishiga xizmat qilishi, davr va zamon bilan ham nafas bo'lmog'i ayni muddaodir.

-2-

Tarixiy voqealarni o'rganishda qanday ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sovetlar davrida uni o'qitish ishlari marksistik metodologiyaga bo'ysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga komfirqa mafkuraviyligi, partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga - ekspluatatorlar va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag'allar, mulkdorlar va yo'qsillar tarzida bo'lindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari, ruhoniylar qoralandi, nomlari badnom qilindi. Tarixiy voqealar jamiyat a'zolarining bir qismi - kambag'allar va yo'qsillarni himoya qilgan, ularning manfaatiga bo'ysundirilgan holda yoritildi. Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning diniy e'tiqodlari oyoqosti qilindi, ruhoniylar quvg'in ostiga olindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma'rifatparvar shoiru-ulamolar, yozuvchilar ikkiga - materialistlar va idealistlarga bo'lindi. Ulardan u yoki bu dinga e'tiqod qilganlari idealist deb ataldi, ta'qib etildi, ularning faoliyatini o'rganish ta'qiqlandi, o'zlari tahqirlandi, asarlari xalqdan yashirildi, yo'qotib yuborildi.

Oqibatda ko'pgina tarixiy voqea-hodisalar soxtalashtirildi, o'tmish qoralandi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz haqoratlandi. Yosh avlodga ularni jirkanch illat, xurofot, eskilik sarqitlari deb o'rgatildi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo'ldi. Tarix esa shu totalitar tuzumning xizmatkoriga, targ'ibotchi va himoyachisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi.

Endi, Vatanimiz tarixini yoritishda o'tmishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga konkret ravishda misollar bilan to'xtab o'taylik. Avvalo, shuni aytish kerakki, ilgari bizda "Vatan tarixi" ("O'zbekiston tarixi" deb tushuning) degan narsaning o'zi deyarli yo'q edi. Faqat dorilfunun va muallimlar tayyorlash oliygohlarining tarix fakul'tetlarida 70-100 soatlik qisqa kurs o'qitilar edi, xolos. Boshqa oliygohlarda, o'rta maxsus ilmgohlarda Vatan tarixi mutlaqo o'qitilmas edi. O'rta maktablarda Vatan tarixidan bir necha mavzulargina SSSR tarixi mavzulariga ilova sifatida o'qitilar edi. Darslar rus tilida olib boriladigan sinflarda esa O'zbekiston tarixi, turli bahonalar bilan, deyarli o'qitilmas edi.

Vatan tarixiga bag'ishlangan mavjud darslik, risola va qo'llanmalarda tariximizni yoritish borasida bir qancha qo'pol xato va kamchiliklarga yo'l qo'yib kelinardi.

Birinchi yirik xato shundan iborat ediki, hamma joyda ham "SSSR tarixi" deb atalgan bu fan aslida, deyarli Rossiyaning tarixidan iborat bo'lgan fan edi. Uni adolat nuqtai nazardan olganda, haqiqiy fan deb ham bo'lmasdi, chunki unda tarix fanining an'anaviy printsiplariga amal qilinmas, ya'ni tarix qanday bo'lsa o'shandayligicha, o'zgartirmay, zamonga va siyosatga moslashtirmasdan turibo'rganilmas edi.

Ikkinchi xato - Vatanimizda sodir bo'lgan tarixiy hodisa va voqealar zo'rma-zo'raki, ma'lum sun'iy qoliplarga solib o'rganilar edi. **Bulardan biri - formatsion qolip.** So'nggi ilg'or ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Vatanimizda quldorlik munosabatlari formatsiya sifatida, ya'ni ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzum sifatida bo'lgan emas. Bu haqda ilgari ham, iymonib bo'lsa ham aytilardi. Hozir baralla aytilmoqda. 1992 yil "O'qituvchi" nashriyoti o'rta

maktablarning 8-9 sinf o'quvchilari uchun materiallar sifatida nashr qilgan "O'zbekiston xalqlari tarixi" kitobida quyidagi jumalarni o'qiydiz: "Quldorlik munosabatlari O'rta Osiyo aholisining turli qatlamlari va guruhlarida muhim o'rin tutgan emas. Ishlab chiqarishda, ayniqsa qishloq xo'jaligida qullar emas, balki o'rgan jamoachilar bari bir etakchi ahamiyat kasb etgan".

Formatsiyada ikki asosiy sinf bo'lib, biri boyliklarni etishtirishda etakchi kuch bo'lib hisoblanadi. Masalan, qadimgi Rimda, Misr va Eronda qullar yirik plantatsiyalarda ishlab, boylikni yaratishda, ya'ni ishlab chiqarishda etakchi kuch bo'lib xizmat qilganlar. Aytganimizday, bizda bunday bo'lmagan. Demak, quldorlik muhim o'rin tutmagan, qullar ishlab chiqarishda etakchi ahamiyat kasb etmagan. Shuning uchun bu jamiyatni quldorlik formatsiyasi bo'lgan jamiyat, deb da'vo qilish tarixiy haqiqatga xilof. Bizda quldorlik munosabatlari rivojlanmagan, chunki qul mehnati o'zini oqlamagan. Shuning uchun qullardan xonadon yumushlarida foydalanganlar ("xonaki" qulchilik) va hokazo. Quldorlik bizda ukklad bo'lgan (ukklad-asosiy, yetakchi rolg'o'ynamaydigan ijtimoiy va siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimidir). Ukklad turli formatsiyada bo'lishi mumkin. Masalan, bizda Buxoro va Xorazmda quldordik munosabatlari ukklad sifatida 1920 yilgacha mavjud bo'lgan.

Ikkinchi qolip - sinfiylik qolipi. Ya'ni har bir hodisa va voqeaga sinfiylik nuqtai nazaridan baho berilgan. Masalan, "bosmachilar" deb atalgan kishilarga yoppasiga sinfiy dushmanlar deb, ularga-aslida noHaqlikka qarshi kurashganlarga faqatgina xalq manfaati uchun kurashuvchi inqilobchilar, deb qaraganlar. Vaholanki, "bosmachilar" safida millatparvar kuchlar, sovetlar siyosatidan norozi bo'lib, noiloj "bosmachilar"ga borib qo'shilganlar ham bo'lgan. Sovetlar tomondan esa sharoitdan foydalanib, "g'ayridin"larni qirib, boyib olishni maqsad qilib qo'ygan va O'z niyatlarini niqoblash uchun qizil gvardiyachilar kiyimini kiygan arman millatchi burjua partiyasi a'zolari bo'lgan dashnoqlar kabi jinoyatchi unsurlar ham bor edi.

Uchinchi qolip - mafkuraviylik qolipi. Ya'ni har qanday voqea va hodisalarga, dunyoqarashga uning markscha-lenincha mafkuraga mos kelish-kelmasligiga qarab baho berilardi. Masalan, Vatanimiz tarixida jadidchilik muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy hodisadir. O'z davri uchun demokratik, millatparvarlik, ilg'or ziyolilik harakati bo'lgan jadidlarharakati, o'z kamchiliklariga qaramay, Vatan mustaqilligi, istiqloq va taraqqiyot yo'li uchun kurashgan fidoyilarharakati edi. Ammo ularning qarashlari, faoliyatlari mafkuraviylik qolipiga joylanmadi, natijada ular tarixiy asarlarda salbiy baho oldilar. Ularning ko'pchiligi qatag'on yillari qurboni bo'ldilar.

Vatan tarixnavisligida yo'l qo'yib kelingan xatolarning uchinchisi, Rossiya tarixnavisligiga ko'r-ko'rona moslashish, taqlidchilik va ko'chirmachilikdir. Bu borada ikkita tendentsiyani ko'ramiz:

birinchisi - O'zbekiston tarixini davrlarga bo'lish ham da tarixiy hodisa va voqealarni baholashda rusiyazabon tarixchilarga taqlid qilish va ulardan ko'chirish tendentsiyasi. Masalan, hozirgi O'zbekiston hududiga 1917 yil inqilobidan keyin biror bir davlat qo'shin tortib kelmagani holda, ilgari nashr qilingan barcha darslik va qo'llanmalarda "O'zbekiston chet el intervensiyasi va fuqarolar urushi davrida" deb atalmish mavzular bor edi. Faqat Zakaspiy o'lkasida, u ham bo'lsa, etti oycha intervensiya bo'lgan xolos. O'zbekiston hududiga kelgan bir necha josus intervensiya tushunchasiga sig'maydi. Yana, Rossiya tarixidan ko'chirib, bizda ham fuqarolar urushi 1918 yil may-iyung' oylarida boshlanib, asosan, 1920 yilda tugallandi, deyilardi tarixga oid asarlarning barchasida. Bu mutlaqo noto'g'ri. Qo'qondagi Turkiston Muxtoriyati ("Qo'qon Muxtoriyati") kuchlariga qarshi hujum 1918 yil 30 yanvardan 31 yanvarga (yangi hisobda - 11 fevraldan 12 fevralga) o'tar kechasi sodir bo'lgan. Ana shu sana O'zbekistonda fuqarolar urushi emas, milliy-ozodlik urushi boshlangan kun deb sanalishi kerak. Endi "fuqarolar urushining" tugallanishi masalasida arxiv materiallariga murojaat qilamiz.

1922 yil 8 iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti to'rtinchi plenumining beshinchi majlisida ma'ruza qilgan Turkiston Xalq Komissarlari Kengashining raisi Q. Otaboev keltirgan faktlar shundan dalolat beradiki, o'sha vaqtda Qo'qon uezdining uchdan ikki qismi, Marg'ilon uezdining teng yarmi, Andijon uezdining 6 volosti, demak, Farg'ona vodiysi hududining yarmi

qo'rboshilar qo'lida edi. 1922 yilning ikkinchi yarmida ahvol Shunday bo'lgach, qanday qilib 1920 yilda "fuqarolar urushi" asosan tugadi deyish mumkin.

Aslida milliy-ozodlik urushi asosan 1923 yilning oxirlari - 1924 yil boshlariga kelib tugadi, deb aytish uchun to'la asos bor, desak to'g'ri bo'ladi. Aslida bu Harakat 1935 yili to'la tugatilgan.

Ikkinchi tendentsiya - O'zbekiston tarixini yoritganda, birinchi navbatda, Markazning - Moskvaning, rus shoviniist olimlarining ko'nglini ovlash, ularning diliga ozor bermaslikka intilish tendentsiyasi. Bu tendentsiyaning mohiyatini ochish uchun quyidagi misolni keltirish o'rinlidir. Bu misol Amir Temur va G'arb masalasiga aloqador. Bizga ma'lumki, Amir Temurni Yevropa tanigan va unga tan bergan. Vizantiya imperatori Manuil, Frantsiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV va Ispaniya qiroli Genrix II Amir Temur bilan aloqa o'rnatishga intilganlar, elchilar yuborganlar (masalan, Klavixo), xatlar yozganlar. Ular turk sultoni Boyazid Yildirimning Evropaga yurishiga Halaqit bera oladigan yagona qudratli kuch Amir Temur deb Hisoblaganlar va yalinib-yolvorib yordam so'raganlar. Bu hodisa XIV asr oxiri XV asr boshlarida sodir bo'ldi. G'arbiy Evropa Rossiyani risoladagi davlat deb, rus podshosi Petr I ni risoladagi davlat arbobi deb, faqat XVIII asr boshlariga kelib tan oldi. Amir Temur G'arbiy Evropa tomonidan Buyuk Pyotrdan 300 yildan ortiq vaqt oldin tan olingan. Bu tarixiy haqiqat shoviniist rus tarixchilariga ma'qul tushmagan, chunki mustamlakachi davlatlar, shu jumladan Rossiya chorizmi ham jahon afkor ommasini aldar edi, biz qoloq, yarim yovvoyi xalqlarni qanotimiz ostiga olib, ularni tsivilizatsiya sari olib boramiz deb o'z bosqinchiligining Haqiqiy mo'hiyatini yashirar edi. G'arbiy Evropa tan olgan Amir Temurning qudratli davlati va buyuk shaxsi ana shu mustamlakachilik falsafasiga to'g'ri kelmas edi. Shuning uchun bu fakt tarixiy asarlarimizga kirmadi. O'zbek tarixchilari bu haqda so'z ochishga hayiqdilar, "moskvalik ustozlari"ni ranjitishni istamadilar. Temurni ulug'lash, birinchidan, "millatchilikka" kirar edi, ikkinchi tomondan Rossiyaga va Buyuk Pyotrga "hurmatsezlik" edi. "Bu qanday gapki, - o'yulardi shoviniistlar, - Pyotr I ni XVIII asrda zo'rg'a tan olgan G'arbiy Yevropa, 300 yil avval qandaydir osiyolik Temurga sig'insa?!"

Tarixni yoritish ana shunday mantiqqa asoslanar edi.

Ikkinchi misol. Ilgari nashr qilingan kitoblarimizga qarasak, Eron ahamoniylariga, makedoniyalik Iskandarga, arab istilosiga va mo'g'ul zulmiga qarshi mislsiz qahramonlik ko'rsatib kurashgan xalqimiz chorizm bosqiniga qarshi, deyarli hecham kurashmagan emish. Haqiqat esa bunday emas. Xalqimiz istilochilarga qarshi keskin kurash olib borgan. Kurashganda ham tengsiz janglarda o'ta qahramonlik ko'rsatishgan. Masalan: 1852-1853 yillarda Oqmachit (Hozirgi Qizil O'rda)- Qo'qon xonligining eng chekka qal'asining qahramonlarcha kurashi, 1865 yil Toshkent mudofaasi qahramonlikning yuksak namunasi bo'ldi. 1864 yilgi Hujumi sharmandalarcha barbod bo'lgach, general Chernyaev Niyozbek qal'asini egallab, Toshkentga suv va don o'tkazmay qo'ydi. Bu haqda Toshkent mudofaasining shohidi, "Tarixi jadidi Toshkent" kitobining muallifi tarixchi Muhammad Solih Toshkandiy shunday deb yozgan: "General Chernyaev Toshkentni ... 42 kun suvsiz, oziq-ovqatsiz qoldirdi... Toshkent fuqarosi vatani va dini uchun qattiq turdilar ... ochlik va tashnalikka qaramay, toshkentliklar mardona jang qildilar".

1865 yil 15 mayga o'tar kechasi rus qo'shinlari holdan toygan Toshkentga bostirib kirdilar. Shundan so'ng ham uch kun ko'cha janglari davom o'tdi.

Yana bir misol, 1886 yil 2 maydan 8 iyungacha davom etgan Samarqand qo'zg'oloni rus generallarini tahlikaga solib qo'ydi. Kuch jihatidan ustun bo'lgan general Kaufman holdan toygan mujohidlarni zo'r qiyinchilik bilan engdi va qo'lga tushgan qo'zg'olonchilarning hammasini qatl qildi.

Qo'qon xonligini olish ham oson bo'lmadi. Bu haqda Turkistonning birinchi general-gubernatori Fon Kaufmanning o'zi shunday deb yozgan edi: "Biz xon bilan emas, balki xalq bilan to'qnashdik. Uni bostirish oson bo'lmadi. Ruslar hali O'rta Osiyoda bunday (Qo'qondagidek) uzoq va qattiq qarshilikka duch kelmagan edilar".

Nega bular haqida baralla yozilmadi, yozilganda ham qo'rq-pisa bayon etib kelindi. Asosiy sabab: rus "ustozlar"ni ranjitmaslik. Tarixchi olimlarimiz ikkita Rossiya borligini - ochko'z podsho va vahshiy generallar Rossiyasi bilan bir vaqtda xalqlar turmasi bo'lgan mazlumlar Rossiyasi borligini unutilar yoki eslashni istamadilar.

Rusning buyuk farzandi A.N.Gertsen: "Kimki rus xalqini rus hukumatidan ajratolmas ekan, hech nimani tushunmaydi", degan edi.

Chorizmga qarshi xalq kurashini ana shu nuqtai nazardan bemalol yoritsak bo'laveradi. Ammo johillar buni istamadi, fozillar esa istiholaga borishdi, vaholanki, buyuk qozoq shoiri O'ljas Sulaymonov aytganidek, "tarixiy haqiqat johilni qanchalik tahqirlasa, tarixiy yolg'on ham fozilni shunchalik tahqirlaydi".

Bugun zamon o'zgardi. Jonajon yurtimizga istiqloq keldi. Mustaqilimiz. Prezident I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat" kitobida qayd qilganidek, "Istiqloq tufayli kishilarimizning Vatanga, ona zaminga mehri, munosabati shakllanib boryapti ... Bugun Vatanning har bir asl farzandi o'zini ota yurtning ajralmas bo'lagi, deb his etyapti va bundan faxrlanyapti".

Yangi sharoitda Vatan tarixiga munosabat ham o'zgardi. Hozirgi kunda universitetdan tortib o'rta maktablarga, hamma o'quv yurtlarida "O'zbekiston tarixi" alohida mustaqil o'quv fani sifatida o'rganilmoqda. Bitiruvchilar Vatan tarixidan Davlat Attestatsiyalarini topshirmoqdalar.

Jurnallar va gazetalarda Vatan tarixiga doir ko'plab ilmiy va ommabop maqolalar chop etilyapti. ko'plab risolalar nashr etilmoqda. Faqat 1992 yilning o'zida oliygohlar va o'rta maktab, bilim yurtlari uchun o'quv qo'llanma va o'quv materiallari sifatida 5 ta kitob nashr etildi. 1994 yilda ham maktab o'qituvchilari va o'quvchilari uchun 5 ta kitob nashr etildi. Bu ilgari ko'rilmagan hodisa va tarixnavisligimizning ulkan yutug'idir.

Afsuski, hozirgi tarixnavisligimizda ham bir qator eski, xato va kamchiliklar takrorlanmoqda, bir qator salbiy tendentsiyalar yangidan paydo bo'lmoqda.

Birinchi salbiy hodisa - o'zini "tarixchi" deb hisoblayotganlarning nihoyatda ko'payib ketganligi. Tarix ilmiy fan, uning o'z tadqiqot uslubiyati bor, tarixiy tadqiqot olib borish uchun ma'lum tayyorgarlikka, malakaga ega bo'lish zarurligini pisand qilmaslik aslo mumkin emas. Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin, degan duru hikmat gap bor, buni e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Bu borada ayniqsa, hurmatli shoir, yozuvchi va jurnalistlarimiz o'ziga xos musobaqa boshlab yubordilar.

Misol uchun, Turk xoqonligi davrida turklar aholidan soliq yig'ib berishni mahalliy hokimlarga topshirib, marhamat ko'rsatdilar, ammo mahalliy hokimlarning bir qismi yig'ilgan soliqlarning ancha qismini olib qolib, qolganini turklarga olib borib berganlar. Buni bilgan turk hukmdorlari 618 yili boshqaruv islohoti o'tkazdilar. Aybdor mahalliy hokimlarni qirib tashladilar. Ular o'rniga turklardan yoki o'zlariga sodiq bo'lgan mahalliy hokimlardan noib tayinladilar. Bu tarix 8-9 sinflar uchun nashr qilingan kitobning o'zbekcha nusxasida quyidagicha beriladi: Turklar ... dastavval mahalliy hokimlarga marhamat ko'rsatdilar... 618 yili ular boshqaruv islohoti o'tkazishadi, ko'pgina mahalliy hokimlarni o'zlariga noib qilib oladilar", aybdor mahalliy hokimlarning qirib tashlanganligi to'g'risida lom-lim deyilmagan. Mualliflar o'quvchilarda turklarga nisbatan xayrixohlik ruhini tarbiyalamoqchi bo'lsalar kerak. Shu kitobning ruscha nusxasida mualliflar bu voqeani shunday ta'riflaydilar: "...tyurki ...oblojili dan'yu mestno'x praviteley... v 618 godu tyurki provodyat reformu upravleniya, mnogie mestnie dinastii praviteley bili fizicheski unichtojeni, a na ix mesto posajeno' tyurki. Ostavshixsya v jivix mestnix praviteley prevratili v svoix namestnikov". Bu erda mahalliy hokimlarga marhamat haqida gap-so'z yo'q. Mualliflar rus sinflari o'quvchilarida an'anaviy rus-turk dushmanchiligini avj oldirmoqchi bo'lsalar kerak? Mana, tarixni siyosatga moslashtirib bayon qilish nimalarga olib keladi.

Hozirgi kunda jarida, ro'znoma, ba'zi risola, radio va teleeshittirishlarda ko'p uchraydigan yana bir jiddiy kamchilik tarixni "o'zimizniki" va "begonalarniki"ga ajratib yoritish. Bu xavfli

xato, chunki bu milliy mahdudlikka olib boradi, xalqaro aloqalarimizga, milliy birligimizga putur etkazadi. Bu kamchilik: barcha o'zimizga aloqador voqea va shaxslarni yaxshilab maqtab, boshqalarga aloqador bo'lgan narsalarga buyuk millatchilik ruhida baho berishga urinishdir. Sinfiylikni rad etdik, garchi uni to'lasicha rad etib bo'lmaydi. Ammo tarixni yoritishda haqiqat, mantiq bo'lishi kerak-ku axir!

Ba'zi asar yoki maqolalarda Buxoro amiri Sayyid Olimxonga ham xayrihohlik ruhi bor, lekin amir qirib yuborgan "yosh buxoroliklar" rahbarlaridan biri, amirning ashaddiy dushmani Fayzullo Xo'jaevni amirga qarshi qo'ymasak, tarix soxtalashtiriladi-ku! Qo'rboshilarga ham, ular bilan shiddatli kurash olib borgan afsonaviy Mirsharopovga ham adolatli, xolis munosbatda bo'lish kerak, ammo bir xil baho berib bo'lmaydi!?

- Bo'ladi, -deydi "xalqparvar", "millatparvar" ziyoli,-mumkin, chunki ikkalasi ham o'zimizniki: Fayzullo Xo'jaev - millatimiz g'ururi, Behbudiyni o'ldirgan, jadidlarni so'yg'an amir Olimxon ham o'zimizniki".

Xullas, Vatan tarixini yoritishda hissiyotga o'ta berilish bizni tarixiy haqiqatdan uzoqlashtiradi, tarixni soxtalashtiradi.

Bunday xatolar - tarixni zamonga, siyosatga moslashtirib, zo'rma-zo'raki o'zgartirish, biz aytib o'tgan, 1994 yilda nashr qilingan kitoblarda ham uchraydi: Masalan: R.E.Rajabova va boshqalarning "9 sinf uchun darslik" deb tavsiya etganlari "O'zbekiston tarixi" kitobida jumladan, quyidagi g'alizliklar bor: Fevral inqilobidan so'ng "qo'shhokimiyat, ya'ni ikki diktatura ... vujudga keldi". Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ham ma'lumki, diktatura - bir sinfning, bir guruhning, yoki bir shaxsning chegaralanmagan hokimiyatidir. Bir zamonda va bir makonda ikki diktatura bo'lishi mumkin emas, aks holda u diktatura bo'lmaydi. To'la hokimiyatga ega bo'lmagan Muvaqqat hukumat bilan Sovetlarni ikki diktatura deb tushuntirish ilmdan yiroq narsadir.

Yana shu kitobning 26-sahifasida quyidagilarni o'qiydiz: "Turkiston o'lkasi ... hukumati tarkibidagi 8 o'rin so'l eserlarga va 7 o'rin bolg'shevik va maksimalistlarga berildi". Aslida: hukumatga a'zo bo'lgan 4 maksimalist eserlar partiyasining bir oqimiga mansub kishilardir. Demak, hukumatda 12 ta eser, 3 ta bolg'shevik bo'lgan. Turkiston Sovet hukumatining barcha xatolari va yovuzliklarini, kitob mualliflari, faqat bolg'sheviklar ishi demoqchi bo'ladilar. O'sha erda "Muxtoriyat va mustaqillik e'lon qilish fikrini hamma qo'llab-quvatlaydi", degan paradoks jumla ham bor. Muxtoriyat (avtonomiya) va mustaqillik bir-birini inkor etadigan tushunchalar ekanligi aksioma. Qanday qilib bir vaqtda bu ikki narsani "hamma qo'llab-quvvatladi?". Bolg'sheviklarning xato va kamchiliklari bisyor bo'lgan. Bu haqda ikki xil fikr bo'lish mumkin emas. Ammo tarkibidagi 15 a'zodan 12 tasi eser bo'lgan hukumat kirdikorini faqat bolg'sheviklarga taqash tarixiy-ilmiy haqiqatga ziddir.

Kitobning 23-betida "Qo'qon Muxtoriyati"ning haqiqiy mohiyatini ko'rsatuvchi raqamlar diqqatga sazovor. "Muvaqqat Hukumat hay'atiga s'ezd 8 kishini saylaydi... (4 musulmonning ismi shariflari ko'rsatiladi)... Qolgan to'rtta joy ovrupoli vakillarning egallashi uchun qoldirildi. Aslida bu 4 ovrupoli, Turkiston Halqlarini ezib kelgan rus kapitalistlari va bankirlari edilar. Markaziy Ijroiya Qo'mitaning 54 a'zosidan 18 nafari yevropalik edi. "Qo'qon Muxtoriyati" deb kamsitilib, noto'g'ri atalgan Turkiston Muxtoriyatining Vatanimiz tarixidagi o'rni beqiyos buyukdir. U so'zsiz progressiv hodisa edi. Lekin mualliflar aytganidek, uni to'la milliy manfaatlar uchun kurashgan hukumat deb bo'lmaydi va yozilajak tarixda uning xatolari va fojiali taqdiri ob'ektiv yoritilishi kerak. Zero, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixi"ni tayyorlash va nashr etish to'g'risida chiqargan qarorida, yuqorida aytganimizdek, quyidagilar ta'kidlandi: "O'zbekistonning yangi tarixi"ning har bir qismi va bo'limlarini yozishda biryoqlama, sub'ektiv yondashuvlarga yo'l qo'ymasdan, yagona, xolisona tadqiqot uslubiga amal qilish kerak".

-3-

"O'zbekiston tarixi" fanining hozirgi mustaqilligimizni mustahkamlash, komil insonni tarbiyalashdagi roli mislsizdir. Shuning uchun ham Prezidentimiz I. Karimov tarix fani taqdiriga

qiziqib, uni rivojlantirish, buning uchun esa tarixiy tadqiqotlarni to'g'ri yo'lga solib yuborish ishida tashabbus ko'rsatmoqdalar.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida "O'zbekistonning yangi tarixini yaratish markazini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 1996 yilning 16 dekabrda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixi"ni tayyorlash va nashr etish to'g'risida" qarori e'lon qilindi. Bu qarorda Vatan tarixini yoritishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- xalqimiz o'tmishidagi millat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan tarixiy jarayonlarni chuqur ilmiy tadqiq etish, xolisona yoritish;

- O'zbekistonning yangi tarixini yozishda tarixiy bosqichlar va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot uzluksiz jarayon ekanligini nazarda tutish, tarixiylik va vorisiylik tamoyillariga amal qilish;

- O'zbekiston xalqining buyuk tarixiy merosga ega ekanligi va umumbashariyat qadriyatlariga munosib hissa qo'shganligini e'tirof etgan holda o'ziga xos davlat qurilishi an'analari va ularga nisbatan fikrlar, qarashlar xilma-xilligini Hisobga olish;

- "O'zbekistonning yangi tarixi"ning har bir qismi va bo'limlarini yozishda biryoqlama, sub'ektiv yondoshuvlarga yo'l qo'ymasdan xolisona tadqiqot usuliga amal qilish;

- "O'zbekiston tarixi"ga oid voqea-hodisalarni yoritishda uning ko'hna Turonzamin, Turkiston tarixining tarkibiy qismi bo'lganligini yodda saqlash:

- O'zbekiston tarixi dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar ham da jahon taraqqiyoti jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligini va ularning bir-biriga o'zaro ta'sirini Hisobga olish;

- tadqiqot yaratishda eski kommunistik-bolpshevistik mafkura aqidalariga va o'tmishni soxtalashtirishga yo'l qo'ymaslik, tarixiy jarayonlarni xolisona baholash;

- yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari, vatanparvarlik va umuminsoniylik ruhida tarbiyalashda tarixiy voqea-hodisalarning ahamiyatini e'tiborga olish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 1998 yil 27 iyulda e'lon qilingan qarori Respublikamizda tarix fanining qaytadan tiklanishi va rivojlanishida tarixiy voqea bo'ldi.

Qarorda Vatanimizda tarix fanining rivojlanishini ta'minlaydigan ishlarni tashkiliy jihatdan qayta qurish, texnikaviy jihozlash, kadrlar tayyorlash; bu ishlarni mablag' bilan ta'minlash chora-tadbirlari belgilangan. Bu chora-tadbirlar, asosan, bir narsaga - "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi haqqoniy tarixini o'rganish, mamlakatimiz va chet ellarda mavjud tarixiy manbalar tahlili asosida olingan ilmiy natijalarning jahon miqyosidagi e'tirofiga erishish, ularga tayangan holda ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, turli adabiyotlar yaratish va mazkur bilimlarni keng yoyish ham da tarix sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash"ni ta'minlash va bu ishda Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatining bosh maqsadi bo'lishi kerak, deb ko'rsatilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yirik davlat arbobi va iste'dodli olim Islom Karimovning bir qator kitoblarida va nutqlarida iqtisod va siyosatga, ma'naviyatning turli sohalariga bo'lgani kabi Vatan tarixiga ham, o'tmishimizga to'g'ri munosabatda bo'lish zarurligi haqida ham qimmatli fikrlar bor. Masalan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, u o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida shunday deb yozadi: "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'maganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi".

"Xalqimizning otashqalb farzandi" kitobida I.A.Karimov O'zining Vatan tarixiga qarashlarini izchilik bilan rivojlantirib, quyidagilarni yozgan: "Bugungi zamon bahosini berish uchun avvalambor, kechagi kunga - o'tmishga nisbatan qanday munosabatda ekanimizga baho berish kerak".

I.A.Karimovning "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat" kitobidagi bir fikrga diqqat qilish

joizdir. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, quyidagi so'zlar tarixchi - tadqiqotchilarimiz izlanishlari uchun metodologik asos bo'la oladi: "Biz yangi hayot uchun bel bog'ladik, biroq o'tmishga malomat toshlarini otmadik. Halqimizning o'tmishga tosh otish - gunohi azim, degan asl aqidasi yodda tutdik... O'tmishni taftish qilish yoki uni inkor etish - o'z ildizimizni o'zimiz kesishimiz bilan barobar ekanligini yaxshi angladik..."

Bu gaplarni tarixchilarimiz, ba'zi ijodiy ziyolilarimiz ham o'qib, ham uqib olishlari kerak, chunki ilgari ular bunga amal qilmadilar va hozir ham to'la amal qilayotirlar, deb bo'lmaydi.

Shuning uchun ham Prezidentimiz 1998 yilning iyun oyi oxirlarida bir guruh etakchi tarixchilar hamda, ziyolilarning ayrim vakillari bilan suhbat o'tkazdilar. Bu suhbat "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan sarlavha bilan "Muloqot" jurnalining 5-sonida va alohida risola sifatida nashr qilindi.

Prezidentimiz suhbatda Vatan tarixining bir qator dolzarb muammolari haqida so'z yuritdilar. Bular asosan quyidagicha:

1. Vatan tarixini yaratishning yagona kontsepsiyasi yo'q. Obro'li tarixchi olim fikri ilmiy hukm bo'lib qolmoqda. Munozara, turli fikrlik yo'q.

2. Bugun xalqning xolis tarixi yaratilmagan, bor qo'llanmalar talabga javob bermaydi.

3. O'zbek davlatchiligining rivojlanish bosqichlari konkret ko'rsatilmagan. O'zbek millatining shakllanish tarixini, davlatchiligimizning paydo bo'lishi asoslarini ko'chmanchi xalqlarga bog'lashga intilish kuchli.

4. O'zbek davlatchiligi asosi tubjoy xalqlardan, masalan, Xorazmdan boshlanganligi, bunga "Avesto" guvoh ekanligi baralla aytilmadi.

5. Tezda jiddiy tadqiqotlarni tuzish kerak, bu ma'naviyatimiz uchun ham, siyosat uchun ham kerak, chunki u tarix ma'naviyatni shakllantirishga, siyosatga xizmat qiladi, yangi, xolisona yozilgan tarixsiz siyosatda xatolarga yo'l qo'yish mumkin.

Prezidentimiz, avvalo, yangi Vatan tarixini yaratish ishi orqaga surilib kelinayotganligidan qoniqmaganliklarini bildirdilar, olib borilayotgan tadqiqot ishlari talabga javob bermasligini aytdilar. Bunga asosiy sabab Vatan tarixini yoritishning yagona kontsepsiyasi yo'qligi, dedilar.

Komil insonni tarbiyalashda Vatan tarixining roliga Prezidentimiz alohida urg'u beradilar. "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", - deb yozadi Prezidentimiz "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasida.

"Ma'naviyatni tiklash, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir". Yana "Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir".

Xulosa qilib shunday deydilar: "Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz Haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur". Bu vazifalarni bajarish uchun nima qilish kerak. Vatan tarixi fanining vazfalarini Prezidentimiz lo'nda qilib ko'rsatdilar. "Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-sham oyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat deb, tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirish berish kerak. Fan jamiyat va taraqqiyotni olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim". Tarixni bilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur, - deb ko'rsatadi I. Karimov.

Tarixni o'rganishning muhim nazariy-metodologik asoslari bor. Bulardan biri dialektik metoddir.

Insoniyat hayoti, jamiyat taraqqiyoti dialektik jarayondir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishi, uzluksiz Harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi.

Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq

holda o'rganishni taqozo o'tdi. Negaki, har bir xalq tarixi milliylik, o'ziga xos betakror xususiyatlari bilan jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiy bog'lanishidir.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa bashariyat tarixi bilan cham barchas bog'langan. Qadim zamonlardan yaqin yillargacha Vatanimiz O'rta Osiyo mintaqasidagi ko'pgina davlatlar: Afg'oniston, Eron, Shimoliy Hindiston kabi mamlakatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo'lib keldi. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro ta'sir va aloqada bo'lganlar, qo'shilish jarayonini boshidan kechirganlar, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog'liq o'tgan. Shu sababli O'zbekiston tarixini qo'shni mamlakatlar tarixi bilan bog'liq holda o'rganish taqozo etiladi.

Tarixiy voqea-hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik-haqqoniy, adolatli yondoshuv muhim metodologik qoidadir. Xolislik qoidasini tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmui bilan birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi.

Tarixni o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea-hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo o'tdi. Voqea - hodisalarni o'rganishda tarixiy bog'lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda bo'lganligini bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan u o'z taraqqiyotida qanday bosqinchilarni bosib o'tdi, uchinchidan, u Hali ham mavjudmi?, Hozir qay ahvolda, qanday bo'lib qoldi?, degan savollarga aniq javob berishi zarur bo'ladi.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamoni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, porloq hayot, turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'z o'tmishini yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab etsak, hozirgi zamoni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz. Shuningdek, hozirgi zamoni bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to'g'ri idrok etish o'tmishni, tariximizni chuqur anglashga ko'maklashadi.

Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida urug'chilik tuzumi emirilib, xususiy mulkchilik kelib chiqib, urug' jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bo'lingach, tarixiy voqea va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, Har bir ijtimoiy tabaqa O'z manfaati nuqtai nazaridan Harakat qiladigan, ularning manfaati bir-biri bilan to'qnashadigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bo'lgan voqealarni, tarixiy jarayonni O'rganishda ijtimoiy yondoshuv printsipligiga rioya etish zarur bo'ladi. Ijtimoiy yondoshuv metodologiyasi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini Hisobga olgan holda O'rganishni taqozo o'tdi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa-kambag'allar, yo'qsillar yoki mulkdor, boylar manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondoshuv bo'lib, u tarixni soxtalashtiradi, to'g'ri xulosaga olib kelmaydi.

Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora o'rgan, boshqaruvchilar, amaldorlarsiz bo'lmasligini isbot etishning Hojati bo'lmas kerak. Shunday ekan, barcha davlat arboblarni, amaldorlarini yoppasiga qoralash mumkin emas. Jonajon Vatanimiz ko'hna tarixi ham ular orasida xalqparvar, arboblar bo'lganligidan guvohlik berib turibdi.

Ijtimoiy yondoshuv printsipligini davlat arboblarni, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yo'l boshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga ko'rsatgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatni u yoki bu yo'ldan rivojlanishidagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz tarixini O'rganishda milliy qadriyatlar, an'analari va urf-odatlarini, islom dini

tarixi, odamlarning diniy e`tiqodlari, diniy ta`limotlar va ularning asoschilari faoliyatini ta`hlil qilishga, yoritishga tsivilizatsion munosabatda bo`lib, ularni hurmatlash, eozozlash nuqtai nazaridan yondoshmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan ma`naviy madaniyatini, axloqi, mezonlarini ikkiga - ekspluatatorlik madaniyati va axloqi ham da ekspluatatsiya madaniyati va aHloqga bo`lish va birinchisini qoralashdan iborat lenincha yo`riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko`rsatadi. Ma`naviy merosga bunday yondoshuv ma`naviy qashshoqlashuvga, milliy qadriyatlarining, urf-odatlarining oyoq osti qilinishiga, Ko`pgina olimlar, ma`rifatparvar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak. Tarixni o`rganishda yuqoridagi metodologik qoidalar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar O`tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalaniladi.

Xullas, biz O`zbekiston tarixi fanining Prezidentimiz aytganlaridek "... davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozimligini unutishga aslo haqqimiz yo`q".

Prezidentimiz "Fidokor" gazetasi muxbiri bilan bo`lgan suHbatlarida komil insonni yaratishda, milliy g`oya va milliy mafkurani shakllantirishda tarix fanining roliga yana bir bor yuqori baho berib Shunday dedilar: "...Milliy mafkurani shakllantirishda eng katta manba - bu xaqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab bo`lmaydi."

Tayanch tushunchalar:

Arxeologiya, yozma yodgorliklar, etnografik materiallar, xalq og`zaki ijodi, formatsiya, antropologiya, tarixni soxtalashtirish, sinfiylik qolipi, mafkuraviylik qolipi, O`zbekiston tarixi davrlari, tendentsiya tushunchasi, rus shovinistlari, mustamlakachilik siyosati, Qo`qon Muxtoriyati, kontseptsiya, "Avesto", O`zbekistonning yangi tarixi, milliy qadriyatlar, ma`naviyat.

Nazorat savollari:

1. O`zbekiston tarixi fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. O`zbekiston tarixi fanining manbalari nimalardan iborat?
3. O`zbekiston tarixini yoritishning qanday nazariy asoslari bor?
4. O`zbekiston tarixini O`rganishda qanday metodologik asoslarga tayanish kerak?
5. Tariximizni yoritishda ilgari qanday kamchiliklarga yo`l qo`yilar edi?
6. Hozirdachi?
7. Prezidentimiz I.A.Karimov tarix fani oldiga qanday vazifalarni qo`ydi?
8. Komil insonni tarbiyalashda O`zbekiston tarixining roli va ahamiyati nimadan iborat?
9. O`zbekiston tarixi qanday davrlarga bo`linadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Milliy mafkura - mamlakat kelajagi poydevori. "Xalq so`zi" gazetasi, 7 aprel, 2000 yil.
2. Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q", T."Sharq", 1998.
3. Karimov I. "Ozod va obod Vatan, o`rgan va farovon Hayot - pirovard maqsadimiz" "Ishonch" gazetasi, 25 yanvar 2000 yil
4. O`zbekiston tarixi (1-qism), T."Universitet", 1997.
5. O`zbekiston tarixi (talabalar uchun qisqacha ma`ruzalar matni), T., "Universitet", 1999.
6. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

2-MAVZU:

O'rta Osiyoning qadimgi muste davri odamlari va ularning mehnat faoliyati

R E J A:

1. *Mavzu tarixshunosligi. Ibtidoiy jamoa davri-insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida.*
2. *O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumining o'ziga xos xususiyatlari. O'rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumini davrlashtirish.*
3. *Qadimgi odamlarning mashg'ulotlari va xo'jalik. Selungur, Ko'lbuloq, Teshiktosh, Obirahmat yodgorliklari.*
4. *Diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi.*

-1-

Ma'lumki, sivilizatsiya - kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotida erishilgan madaniyat darajasini anglatadi. O'zbekcha-ruscha lug'atda tsivilizatsiya so'zi - madaniylashgan, madaniyatga erishgan, madaniyatli degan ma'nolarni anglatishi izohlab o'tilgan.

Demak, sivilizatsiya - insoniyatning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasini anglatadi. Shu o'rinda Prezidentimiz I. A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli risolalarida "... bizning Vatanimiz nafaqat Sharq balki, umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda"¹, deb ta'kidlaganlarida ming bor haqdirlar. Chunki, o'zlikni anglash, eng avvalo o'tmishni o'rganishdan, tarixga ehtiyoj sezishdan boshlanadi. Darhaqiqat, o'zini anglayotgan, o'zini tushunayotgan Har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, ota-bobolari nimalar bilan shug'ullangani va qanday umr kechirganini bilib olishga intiladi. Ularning vazifalari va meroslari bilan faxrlanadi.

Olamni tadqiq etish - tafakkurimizni boyitish, dunyoqarashimizni kengaytirishning yagona yo'li. Olamni anglash Hissi insonning O'zligini anglashga, O'zligini tushunishga, olam va odam xaqida o'ylashga daovat etuvchi beqiyos qudratdir. U jami insonga xos bo'lgan idrok va irodani uyg'otadigan mo'jizaviy kuchdir.

Tarixiy tafakkur, tarixiy xotira mana shu tarzda shakllanadi, inkor etib bo'lmaydigan, soxtalashtirilmaydigan mutloq xaqiqatga, oliy qadriyatga aylanadi. Inson kalbi uning ongiga O'z o'tmishini o'rganish orqali ta'sir o'tdi.

Ayni o'zlikni anglash insonning o'z o'tmishi va ajdodlariga qiziqishdan boshlanishi Haqiqat ekanligini teran anglamoq kerak. Vatan tarixini chuqurroq va izchil ta'qiq etish va qimmatli xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezident I. Karimov milliy g'oya haqida fikr bildirar ekanlar, "... u millatimizning, xalqimizning O'zligini anglashiga, O'zining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo'qotmasdan, ularni tiklab, avaylab, eozozlab, yangi, O'sib kelayotgan avlodga etkazib berish uchun xizmat qilishi kerak", --deb ta'kidladilar.

So'nggi 15-20 yillar ichida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq bo'lmoqda-ki, Vatanimiz hududida qadimgi tsivilizatsiyaning paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq asrlarni O'z ichiga oladi. Vatanimizning eng qadimgi davrlariga - ilk tosh asriga oid bo'lgan Selung'ur, Ko'lbuloq, Qo'tirbuloq, Uchtut kabi makonlar ochildiki, ulardagi topilmalarga qarab, Haqli ravishda Markaziy Osiyo odamzodning ilk ajdodlari paydo bo'lgan mintaqaga kiradi, degan g'oyani ilgari surish imkoniyati tug'iladi. Undan tashqari ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi davrlarida Markaziy Osiyo hududida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jaryonlari ancha kuchaydi. Bu mintaqada yashagan qadimgi qabilalar tabiiy baliqchilik, Hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlarini egallaganlar.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati taraqqiyotining eng uzoq davom etgan davri bo'lib, bundan bir necha million yillar oldin boshlangan degan ilmiy-nazariy fikr isbot etildi.

¹ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.1998.

Biroq shuni nazarda tutmoq lozimki, ibtidoiy jamoa tuzumining boshlanishi dunyoning turli hududlarida turli davrlarga to'g'ri keladi. Masalan, Afrikada bu davr 2,5-3 million yil ilgari boshlangan bo'lsa, Amerikada 20-30 ming yil ilgari deb taxmin qilinadi. Markaziy Osiyo hududi minglab yillar davomida odamlarning mehnati tufayli obod bo'la borgan. Agar biz uzoq O'tmishga, keksa tarixga, fikran nazar tashlaydigan bo'lsak, er yuzasida qanday O'zgarishlar paydo bo'lganligini, odamlar qiyofasi O'zgarib borganligini, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqasi kelganligini tasavvur qilishimiz mumkin.

Bevosita Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid tadqiqotlar Hususida to'xtar ekanmiz, A.Okladnikov, V.Masson, V.Ranov, YA.G'ulomov, O'.Islomov, A.Asqarov, M.Qosimov va boshqa olimlarning Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy odamning tarqalish jarayoni, qadimgi makonlarning geografik joylashuvi, toshdan qurollar yasash uslublari xo'jalikning rivojlanishi va oilalarning paydo bo'lishi, ibtidoiy mafkura, xo'jalik turlari, metallning Hunarmandchilikka kirib kelishi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

-2-

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixining eng qadimgi davri bo'lish bilan birga, u eng uzoq davom etgan davr ham dir. Bu davrni o'rganishning o'ziga xos Hususiyati, uni qadimgi mualliflar qoldirgan yozma manbalar asosida o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu davr tarixini O'rganishda arxeologiya, antropologiya, etnografiya kabi fanlarning ahamiyati kattadir. Bu fanlar to'plagan materiallarni solishtirish usuli bilan uzoq o'tmishdagi moddiy va ma'naviy madaniyatning Ko'pgina tomonlarini tiklash mumkin.

Markaziy Osiyoning ibtidoiy tuzumi davrini O'rganishdagi eng katta muammolardan biri - uzoq tarixiy davrni tashkil etuvchi bu bosqichni davrlarga bo'lish muammosidir. Biroq so'nggi yillardagi olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, Hozirgi paytda Markaziy Osiyo hududi ibtidoiy jamiyat rivojlanishining quyidagi davrlariga bo'linadi:

1) **Paleolit** - (qadimgi tosh davri - "palayos" - "qadimgi", "litos"- "tosh"); a) odam miloddan 3-3,5 million yil avval paydo bo'ldi. Eng qadimgi topilmalar Sharqiy Afrikaning Olduvay darasidan topilgan bo'lib, "Olduvay madaniyati" deb yuritiladi. Odamzodning paydo bo'lishi davri 3,5 mln. - 700 ming yillik davrni O'z ichiga oladi; b) ilk paleolit. Ashel davri - 700-100 ming yilni O'z ichiga oladi. Markaziy Osiyodagi ilk paleolit davri yodgorliklari miloddan 500-100 ming yil avvalgi davrlarga oid bo'lib, ashel davri deb ataladi, v) O'rta paleolit. Bu davr Mustpe davri madaniyati (miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar) deb yuritiladi; g) YUqori (so'ngi) paleolit - miloddan avvalgi 40-30-12 ming yilliklarni O'z ichiga oladi).

2) **Mezolit** (O'rta tosh davri, "mezos" - "o'rta", "litos"- "tosh") - miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar.

3) **Neolit** (yangi tosh davri - "neos"- "yangi", "litos"- "tosh") - miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar.

4) **Eneolit** (mis - tosh davri) - miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar.

5) **Bronza davri** - miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar.

6) **Temir davri** - miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlari.

Har bir yangi davr yangi tartibdagi madaniyatning rivoji Markaziy Osiyo hududida bir vaqtda ro'y bermagan yoki bir xil bo'lmagan. Masalan, neolit davri - dehqonchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi janubiy Turkmanistonda miloddan avvalgi 6 ming yillikda boshlangan bo'lsa, Markaziy Osiyoning qolgan hududlarida dehqonchilik Hali noma'lum edi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini O'rganishning muhim muammolaridan biri - antropogenez - ya'ni odamning paydo bo'lishi va rivojlanishi muammosidir.

Odamning paydo bo'lishi qachondan boshlangan va u kim tomonidan yaratilgan degan masalada diniy va dunyoviy tadqiqotlarda bir-birini inkor etuvchi xulosalar mavjud. Yakkaxudolik g'oyasini ilgari surgan dunyodagi barcha dinlar, jumladan islom dini ham biz yashab turgan Hayotdagi barcha borliqni, odamzodning O'zini ham , Hudoyi taolo tomonidan

yaratilganligini bashorat qiladi.

Dunyoviy fan vakillari esa o'z ilmiy-g'oyaviy qarashlarida, butun borliq va tirik mavjudot hech kim tomonidan yaratilmagan, u azaldan bor bo'lgan moddiy narsadir, deb isbotlovchi olimlarning qarashlarida talaygina muvaffaqiyatlarga erishdi. Turli mamlakatlarda qadim zamonlarda yashagan mutafakkirlar odamning paydo bo'lishi haqida ilmiy fikrlarni bayon qilganlar. Xitoy, Yunon olimlari miloddan avvalgi VI-V asrlardayoq odamning kelib chiqishi tamomila tabiiy hodisa deb ta'riflashga uringanlar. Yunon faylasufi Arastu (mil. av. 384-322 yy.) "odam-Hayvonot dunyosida tabiat erishgan barcha narsalarning cho'qqisidir" deb yozgan edi. Qadimgi Rimda yashagan mashhur vrach va anatom Klavdiy Galen (miloddning II asri) odamning badan tuzilishi maymunnikiga juda o'xshash ekanligini ko'rib maymun anatomiyasini o'rgandi. "Odam" degan tushunchaning keng ma'nosini dastlab ochib berganlardan biri XVIII asrda yashagan mashhur frantsuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo bo'ldi. Mashhur shved tabiatshunosi Karl Linney (1707-1779 yy.) Hayvonot odamning tabiatdagi o'rnini topishga harakat qildi va odamni Hayvonot dunyosidagi olti guruhdan biri sut emizuvchilarguruhiga kiritdi. Uning dunyoni bilish sohasidagi asarlarida ko'pgina kamchiliklar bo'lishiga qaramay, odamning paydo bo'lishi haqidagi bilimlarning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1956-1960 yillarda ingliz olimi Liki Sharqiy Afrikadagi Olduvay darasidan odamsimon maymunlarning qoldiqlarini topdi. Olim bu topilmalarga asoslanib u bundan 1 million 750 ming yil ilgari deb ta'kidlaydi. Likining o'g'li Richard Keniya va Efiopiyada qazishma ishlarini olib borib ko'plab odamsimon maymunlarning qoldiqlarini topdi. Ularni bundan 2,5-3 million yil ilgari yashagan degan xulosaga keldi. Juda ko'plab olimlarning fikricha, Afrikadagi bu topilmalar er yuzasidagi eng qadimgi odamlarning dastlabki vakillari hisoblanib, olimlar bu topilmalarga shartli ravishda zijantrop deb nom berdilar.

Uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayoni natijasida odam Hayvondan ajralib chiqqan. 1891-1892 yillarda gollandiyalik olim Dyubua Indoneziyaning Yava orolidan maymun-odamning (pitekantrop) suyak qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'ldi. Bu topilmalarning yoshi 1,5 million yil deb taxmin qilindi.

Eng qadimgi odam qoldiqlari Xitoy odami - (sinantrop), shuningdek, Germaniyaning Geydelberg, Vengriyaning Budapesht shahri yaqinidan ham topilgan. Uzluksiz mehnat jarayonida sinantropalar jismoniy jihatdan rivojlanib, qadimgi odamlarning paydo bo'lishi uchun zamin hozirladilar.

-3-

Markaziy Osiyoning tog' oldi va tog'lik hududlarida (Qizilqum, Qoraqum, O'hangaron, Chirchiq daryolari vodiylari, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Farg'ona vodiysi va uning tog'lik hududlari) ibtidoiy jamoa tuzumining yodgorliklari topilgan.

Bu topilmalarga asoslanib, Markaziy Osiyoni insoniyat tsivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biriga qo'shish mumkin. Biroq, Hozirgi kunda odamzodning dastlabki Vatani dunyoning qaysi bir qit'asida ekanligi haqida yagona bir fikrga kelingan emas.

Vatanimiz hududida yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari: Farg'ona viloyatining So'x tumanidagi Selung'ur, Buxoro viloyatidagi Uchtut, Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq kabi makonlar ilk paleolit davriga o'g'ir. Bu borada arxeolog olimlar A.Okladnikov, O'.Islomov, M.Qosimov, T.Xo'jaevlarning xizmatlari kattadir. O'.Islomov 1980 yildan boshlab yangi kashfiyotlar qildi. Selungur g'orida yashagan ajdodlarimiz tosh davrining yuqori (paleolit) bosqichida emas, balki ashelp davrining birinchi bosqichida yashaganliklarini isbotladi. O'.Islomov o'zi ochgan kashfiyotiga suyanib, Selung'ur g'orida yashagan ajdodlarimizning yoshi yaqin bir million yil atrofida degan xulosaga keladi. Bu g'ordan topilgan odamning qoldiqlari Farg'ona vodiysi hududidan topilganligi sababli shartli suratda "Ferganatrop", ya'ni "Farg'ona odami" nomi bilan fanga kiritildi.

O'rta tosh davriga kelib ibtidoiy kishilar Markaziy Osiyoning butun maydoniga keng tarqaldi. Ularning turmushda yangi ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Eng muhimi, ibtidoiy

to'dadan urug'chilik jamoasiga O'tila boshlandi. Hozirgi zamon odamlariga O'xshash odamlar (kromanpen) vujudga kelishi uchun zamin Hozirlandi. Bu davr ishlab chiqarish qurollari takomillashayotgan, nutq madaniyati O'sib borib, fikrlash ancha oshgan, olov sun'iy tarzda yaratila boshlangan, ovchilik ancha rivojlanib, keng hududlarga tarqalgan davr edi. Sovuq iqlim tufayli paleolit odamlari olovni kashf etdilar. Sun'iy olov chiqarish va uni saqlashni O'zlashtirdilar. O'choq - ibtidoiy odamlarning bir erga to'planishlarida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu davrning ibtidoiy kishilari g'orlar va unqurlarda O'zlariga makonlar tanlay boshladilar. So'nggi paleolitdan boshlab ibtidoiy odamlar g'orlardan chiqib, engil turar joylar qura boshlaganlar. Natijada ular faqat tog'li hududlarda yashab qolmay, vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklardan daryo va ko'llar soHillariga kelib joylasha boshladilar. So'nggi paleolitning eng katta yutuq'i antropogenez jarayonining tugallanishi va Hozirgi zamon odamlarning (kromanoen) paydo bo'lishidir. Bu davrning O'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ibtidoiy to'dadan urug'chilik tuzumiga (matriarxat) O'tilishidir. Urug'chilik ibtidoiy jamiyat tarixining alohida bosqichini tashkil etib, bu ijtimoiy Hayotdagi qator O'zgarishlarning paydo bo'lishiga zamin yaratib berdi.

Shunday qilib, paleolit davrida odamning paydo bo'lishi jarayoni asosan tugadi. Ibtidoiy odamlar xo'jalik yuritishning eng oddiy yo'llaridan, murakkabroq (terib –termachlabdan-ovchilik, baliqchilikka) o'tdilar. Olov kashf etildi. Insoniyat ibtidoiy to'da davridan urug'chilik tuzumiga o'tdi. MeHnat qurollari takomillashib, turlari Ko'paya bordi.

Ibtidoiy odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyoda o'rta tosh - mezolit davri nisbiy tarzda mil.avv. 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib, iqlim barqarorlashadi, Hayvonot va o'simlik dunyosi O'zgaradi. Bu davrning katta yutuqlaridan biri - kamon va o'qning kashf etilishidir.

Neolit uzoq davom etgan tosh asrning so'nggi va yakunlovchi bosqichi bo'lib, geografik muhit va shart-sharoitning turli-tumanligi, neolit davri qabilalarida meHnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, turar joylar va xo'jaliklarning turlicha bo'lishiga olib keldi. Bu davr qabilalari Markaziy Osiyo hududida xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va Hunarmandchilik shakllarini rivojlantirib yubordi.

Neolit davri kishilarining eng katta yutuqlaridan yana biri kulolchilik bo'lib, ular loydan Har xil idishlar yasash va ularni olovda pishirishni o'rganib oldilarki, bu o'sha davr uchun nihoyat katta kashfiyot edi. Shuningdek, to'qimachilik, dastlabki suvda suzish-qayiqsozlik ham paydo bo'ldi.

Eneolit - mis - tosh davrida ibtidoiy odamlar metall bilan tanishdilar. Ungacha ibtidoiy odamlar 2,5-3 mln. yillar davomida (paleolit, mezolit, neolit davrlarida) faqat toshdan, yog'ochdan va suyakdan yasalgan qurollardan keng foydalananganlar.

Mis davriga o'tilishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada yuksalganligini ko'rsatadi. Bu o'rinda shu narsaga asosiy e'tiborni qaratmoq kerakki, mezolit oxirida va neolit davrida terib termachlab ovqat topishdan yovvoyi o'simliklarni ekish va o'tqazish yo'li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilikka o'tildi. Bu esa eneolit zamonida yuqori xo'jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik va uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot etishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo'lgan. Eneolit davrida dunyoning barcha hududlarida ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi kuzatildi. Markaziy Osiyodagi yangi madaniy tarixiy jarayonlar (eneolit davri) quyidagilar bilan bog'liq:

1. Xo'jalikning boshqa ham ma turlariga qaraganda erni Haydab dehqonchilik qilishning ustunlik qilishi;
2. Toshdan ishlangan qurollar Ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;
3. Ibtidoiy jamoalarining paxsadan va hom g'ishtdan tiklangan katta-katta uylari;
4. Kulolchilikda muhim texnika yutuq'i - xumdonlarning ishlatilishi;
5. o'troqlik va qurilishda Hom g'ishtning paydo bo'lishi;

6. Turli Hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i tuzumi (matriarxat)ga xos haykalchalarning paydo bo'lishi.

7. Rangdor sopol buyumlar, ya'ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi. Shu bilan birga, eneolit davrida Markaziy Osiyo axolisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko'tariladi. Lekin, bu erdagi qabilalarning

madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari Markaziy Osiyo axolisi orasida notekis rivojlanish bo'lganligini ko'rsatadi. Unumdor xo'jaliklarga asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan, qo'shimcha xo'jaliklar bilan mashg'ul bo'lganlari esa madaniy jihatdan bir necha yuz yilliklar orqada qolgan.

Madaniy notekislik jarayoni bilan bog'liq ravishda Markaziy Osiyoning turli viloyatlarida neolit bilan eneolit bir vaqtda paydo bo'lgan.

Turkmanistonning janubida mis-tosh davrining boshlanishi mil.avv. IV ming yillikka oid bo'lsa, O'sha davrda Markaziy Osiyoning Shimoliy va Sharqiy tog'li hududlaridagi qabilalar asosan ovchilik, biliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, bu ikki davr xronologik jihatdan emas, madaniy xo'jalik rivojlanish darajalari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Metallchilikning kashf etilishi va xo'jalikda mis qurollarning joriy qilinishi bir necha asr davomida sodir bo'lgan. Odamlar O'z mehnat qurollarini yasashi uchun Har xil mustahkam toshlar qidirish jarayonida tabiiy misga duch keladilar. Bu esa mehnat qurollarini yanada takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyoning janubiy qismida (Turkmanistonda) miloddan avvalgi **VI-ming yillikda** dehqonchilik xo'jaligi paydo bo'ladi.

Qadimgi qabilalar mis - tosh davriga O'tgach madaniy xo'jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Yangi xo'jalik turlari dehqonchilik va uy chorvachiligi

avvalgidek Turkmanistonning janubiy-g'arbida qulay geografik sharoitda rivojlandi. Bu paytda quyi Zarafshon va Amudaryo Havzalarida yashovchi qabilalar Hali madaniy O'simliklar O'stirishga O'tmagan edilar. Markaziy Osiyoning Sharqiy qismidagi tog'li hududlar axolisi ibtidoiy xo'jaligida esa ovchilik ustunlik qilar edi. Bundan Shunday xulosa chiqarish mumkinki, ilk rivojlangan mis-tosh davrida Markaziy Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanadi. Janubiy Turkmanistondagi olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida turar joylar, qadimgi sug'orish tarmoqlari va sug'oriladigan erlarning chegaralari aniqlandi, mis-tosh davri madaniyati va tarixi Har tomonlama O'rganildi. Eng qadimgi sug'orish tarmoqlari Shunday sharoitga ega bo'lgan soylar etaklarida vujudga kelganligi isbot qilindi.

Tog' daryolari bo'ylarida yashovchi qabilalar qadimgi sug'orma dehqonchilikda arpa, bug'doy, beda, poliz va boshqa ekinlar ekib asosan, soylar suvlaridan foydalanganlar.

Ibtidoiy odamlar hayotida bronzaning kashf etilishi ibtidoiy Hayotda olg'a qarab tashlangan qadam bo'ldi. Bronzaning misga qaraganda tez

eruvchanligi misga nisbatan bir muncha qattiqligi, uni ibtidoiy odamlar hayotidagi tutgan roliga izoh berish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Bronza davrining xo'jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga katta ta'sir qiladi. Ishlab chiqarishning o'sishi natijasida moddiy madaniyat ham yangicha asosida taraqqiy o'tdi.

Bu davrga mansub madaniyat izlari O'zbekistonning Xorazm, Zarafshon, Qashqadaryo va Farg'ona vodiylaridan topilgan. Bu hududlardagi manzilgohlarni O'rganib Shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu davrda ikki xil madaniyat Hukm surgan. Birinchisi, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar madaniyati (qadimgi qabilalar dehqonchilik qilish uchun qulay erlarga

joylashib olib,

yuksak dehqonchilik madaniyati yaratganlar), ikkinchisi, xuddi birinchi madaniyat soHiblari darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'lgan holda qurg'oqchilik erlarda, tog' oldi yaylovlarida chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Metalldan ishlangan qurollar qadimgi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli, Markaziy Osiyoning dasht va tog' oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tarixiy voqea kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik meHnat taqsimoti edi. O'zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmda Tozabog'yob madaniyati (shu nomli kanal atrofida topilgan) nomi bilan mashhur. Tozabog'yob madaniyatiga - mansub Ko'kcha makoni atrofidagi qadimiy mozorlar ochilganda, odam jasadlarining boshlari g'arb tomonga qaratib qo'yilgan va ularning bosh tomonidan idishlar va bronza zeb-ziynatlar topilgan. Umuman, Tozabog'yob madaniyatiga mansub yodgorliklar Xorazmda 50 dan ziyod topilgan. Ular yarim erto'la uylardan iborat, atrofida kanallar va qadimgi sug'orish maydonlari bo'lgan.

Xorazmdagi bronza davri axolisining asosiy tirikchilik manbai dehqonchilik va chorvachilik bo'lgan. Tabiiy sharoit kanal qazib, suv chiqarishga asoslangan hududlarda sug'orma dehqonchilikning turli kO'rinishlari vujudga kelgan. Chorvachilik ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ilmiy adabiyotlarda Quyi Zarafshonning bronza davri yodgorliklari Zamonbobo nomi bilan ataladi. Bu davrga mansub yodgorliklar orasida Zomonbobo kO'lining Shimoliy soHilidan topilgan ibtidoiy dehqonlar qabristoni, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu qabriston 50 yillar boshlarida akademik Ya.G'ulomov tomonidan ochilib, dastlabki natijalar fanda joriy etilgan.

Zamonbobo yodgorligini e'tiborli tomoni Shundaki, zomonboboliklar asosan dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan kun kechirib, chaylasimon kulbalarda istiqomat qilganlar. Topilgan tosh asboblarda saqlanib qolgan jaydari arpa va bug'doy kabi boshoqli O'simlik qoldiqlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular toshqinlardan Hosil bo'lgan zax erlarda dehqonchilik qilib, O'zlari etishtirgan donlardan umoch, qO'g'irmoch kabi emaklar

tayyorlaganlar. Qazishmalardan topilgan uy Hayvonlarning suyaklari zamonboboliklarning qadimdan oq echki, qo'y va qora mol kabilarni boqib, chorvachilik mahsulotlaridan ham keng foydalanganliklarini ko'rsatadi.

Topilgan ayrim urchuq toshlar hamda suyakdan yasalgan suzan va ignalarga qarab xulosa chiqarsak, ular qo'y va echki junlaridan ip yigirib, kiyim-kechaklar uchun mato to'qiganlar. Zamonboboliklar jamoasida Hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan, kulolchilik, bronzani eritib undan Har xil ashyolar yasash, ayniqsa, toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

Sopol idishlar asosan qo'lda yasalgan naqshsiz, tuxumsimon va yassi tubli bo'lib, ular orasida qisman charxda ishlanganlari ham uchraydi. Topilmalar orasida Kushka, Baktriya yoki Marg'iyonada yasalgan idishlar yoki Badaxshon qimmatbaho toshlaridan ishlangan bezaklar bo'lib, ular, zomonboboliklardan janubroqda yashagan o'troq dehqon jamoalari hamda shimolroqda istiqomat qiluvchi chorvador aholi bilan ham mahsulot ayribosh qilib madaniy aloqada bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning janubidagi Surxondaryo vohasi ibtidoiy aholining o'troq makonlaridan biri hisoblanib, vohada bronza davri yodgorliklari - qadimgi sug'orish hududlari - Ulonbuloqsoy, SHerobod, Bandixon va Mirshodida topib tekshirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, qadimgi sug'orish erlari tog' tizimlariga ancha yaqin. Bu hududda 1968 yili Termizdan 70 km, Shimoli-g'arbdagi Sopollitepa degan bronza davri manzilgohi topib tekshirilgan. Sopollitepa tarixi 3 ta madaniy qatlam va qurilish davriga bo'linadi. Birinchi davr uylarida 30 ta kichik oila, ikkinchi davrida 61 ta oila va uchinchi davr uylarida qishloq axolisi 155-315 kishidan iborat bo'lishi mumkin. Shuningdek, Sopollitepa moddiy manbalari bu erda uy Hunarmandchiligi yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Ular xilma-xil Hunarmandchilik bilan ham shug'ullanganlar. Xilma-xil matolardan kiyimlar tikkanlar. to'qimachilikka oid sopol va

toshdan ishlangan urchuqlar buning dalilidir.

Talabalar e'tiborini shunga qaratmoq joizki, patriarxat urug'ining rivojlanishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi bilan katta jamoa birliklarining boylik orttirishlari uchun qulay vaziyat yaratilgan, deyish mumkin. Chunki, qablardan topilgan buyumlar dastlabki mulkiy tengsizlikdan dalolat teradi. Ba'zi qablarda qurollar, idishlar, taqinchoqlar ko'p topilgan bo'lsa (boy qabrlar), ba'zilarida bunday topilmalar kamchilikni tashkil o'tdi (qashshoq qabrlar).

-4-

O'zbekiston hududida so'nggi yillarda olib borilgan arxeologik tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, ibtidoiy jamiyat madaniy taraqqiyotida katta-katta O'zgarishlar sodir bo'ldi. AHoli xo'jalik yuritishning ma'lum ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda ko'llar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog' oldi hududlarida chorvachilikka (qisman ovchilik) o'tib oldi. Bu davrda Markaziy Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham O'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Paleolit zamonida vujudga kelgan urug'chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan. Ammo, bu davrda ona urug'i (matriarxat)ning mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish xo'jaligining rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnati va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Bundan Shunday xulosa chiqarish mumkin: Bronza davri jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilik rivojlanishida erkaklar etakchilik qilganlar. Xotinlar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'liga O'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Ota urug'i tuzumining rivojlanib borishi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi ayrim oilalarning boylik orttirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. Jamoadagi ba'zi shaxslar qo'lida boylik (dehqonchilik qurollari, dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari va boshqalar) to'planib borgan bo'lsa, ba'zi shaxslar qashshoqlashib ularga qaram bo'lib bordi.

Shunday qilib, so'nggi bronza va ilk temir davriga kelib Markaziy Osiyoda dastlab mulkiy tabaqalanish, keyin esa ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari ro'y berib, urug'chilik tuzumi xarobalarida sinfiy jamiyat paydo bo'ldi.

Vatanimiz hududidagi eng qadimgi shaharlar va davlatlar tarixini o'rganishda bizga arxeologiyaga oid qazishmalar, ko'hna asarlar, eroniy yozuvlar, Yunonlik, misrlik, xitoylik mualliflar yozib qoldirgan ma'naviy meroslar yordam beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mil.avv. I-ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida iqtisodiy Hayotdagi siljishlar tufayli ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, bu mahsulot ma'lum shaxslar qo'lida to'plana boshlaydi. Qishloq kengayib shaharlar, viloyatlar va davlat uyushmalarining ma'muriy markazi bo'la bordi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid Uzunqir, Yerq'rg'on, Daratepa, Sangirtepa, Lolazor, Xo'ja-Buvton, Afrosiyob, Qorovultepa, Qo'rg'oncha kabi 50 dan ziyod ko'hna shahar manzilgohlar ochib o'rganilgan.

So'g'diyonaning poytaxti bo'lgan Afrosiyob (Samarqand) ko'hna shahri asrimizning 40-yillaridayoq ochilgan edi. Afrosiyobda miloddan avvalgi I-ming yillik O'rtalarida aholi yashaganligining izlari juda ko'p. Ko'hna shahar axolisi asosan Hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

Afrosiyob shahar hayotining rivojlanishi So'g'diyona va butun Markaziy Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy Hayotning yuksalishi va inqirozi bilan muvofiq aloqalarning muhim markazi edi. Samarqand jahon savdo va madaniy markazlaridan biri sifatida o'z mavqeini to'la darajada, lekin uzilishlar bilan o'rta asrlarda ham saqlab qoldi.

So'g'diyonaning "ikkinchi poytaxti" bo'lgan Yerq'rg'on (Qashqadaryo) miloddan avvalgi VI-IV asrlarda umumiy maydoni 40 gektarga yaqin bo'lgan ma'muriy markaz edi. Ko'pchilik tadqiqotchilar, xususan Yunon-rim tarixchilari bu markazni Ksenippa viloyatining markaziy shahri deb hisoblaydilar. Qishloqlarning rivojlanishi natijasida Markaziy Osiyoning shahar ko'rinishidagi manzilgohlari va shahar lari Ko'paya bordi. Shaharlar qalin devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ma'lum masofada baland minoralar ham bo'lgan. Qadimgi ko'hna shahar

lardan topilgan moddiy madaniyat buyumlari aholining dehqonchilik, Hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi. Ushbu madaniyatning tarkib topishi va rivojlanishini kuzatish ham da uni qadimgi Sharq tipidagi ibtidoiy shahar tsivilizatsiyasining yangi markazlari sifatida baholash, ayni vaqtda uning xronologiyasini aniqlashtirish lozimligi paydo bo'ldi.

Arxeolog olimlarning ta'kidlashlaricha, Parkana (Farg'ona)da 70 ta katta-kichik shahar lar bo'lgan. Uning hukmdori Gushan (Hozirgi O'zgan) shahrida yashagan bo'lib, u erda jamoa shahar chasi va alohida kishilar yashaydigan qO'rg'onlar bo'lgan.

AHoli Hunarmandchilik sohalari, savdo bilan shug'ullanganlar. Qurilgan yo'llarning mavjudigi bunga qulaylik yaratgan.

Baqriyaning poytaxti qadimgi **Baqtra** (Hozirgi Balx) shahrida qazishma ishlari olib borilib, u erdan topilgan qulolchilik buyumlari ko'hna shahar ning eng qadimgi qatlamlari miloddan avvalgi I-ming yillikning O'rtalariga oid ekanligidan dalolat beradi. Juda ko'p o'troq manzilgohlar va ulardagi topilmalar viloyatda aholi qulolchilik, temirchilik, bronza quyish, to'qimachilik, shuningdek, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi davlat uyushmalarning paydo bo'lishi juda muhim masaladir. I.A.Karimovning "Hozirgi davr davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda O'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz lozim" deganlari ming bor Haqiqatdir.

Chunki Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari haqidagi yozma ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Ba'zi bir ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyoda Eron ahamoniylarigacha qadimgi davlat uyushmalari bo'lganmi? yoki bunday davlat uyushmalari mavjud emasmi? degan muammo Hozirgacha to'la echimini topgan emas. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda ilk davlat tuzumi vujudga kelishini yoritib beradigan asosiy yozma manba "Avesto" va qadimgi dunyo mualliflari qoldirgan ma'lumotlardir. Mavjud yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar bilan solishtirilganda bu makonda qadimgi davlat uyushmalari bo'lganligini isbotlovchi ishonchli dalil, ashyolar mavjud ekanligi ilmiy asosda taHlil qilib beriladi.

O'tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida Avestodagi ma'lumotlar, Gerodot va Gekagtey asarlari "Katta Xorazm" shuningdek, Ktesiyning Qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini O'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilarimiz ilmiy xulosalarida bu davlatlarning shaklanish jarayoni Eron ahamoniylarigacha bo'lgan davrda, deb hisoblaydilar va uni miloddan avvalgi IX-VII asrlar bilan bog'laydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Alptxaym, S.P.Tolstov, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov, B.G.G'ofurov, A.Sagdullaev va boshqalar). Yunon olimi Geradotning ma'lumotlariga qaraganda, Markaziy Osiyoda "Har tomoni adrlar bilan o'ralgan tekislikda qachonlardir xorazmiylar yashagan". Ko'pchilik tadqiqotchilar bu markazni Hozirgi Xorazm o'rnida bo'lmasdan, janubroqda, Marv (Turkmaniston) yoki Xirotda (Afg'oniston)da bo'lgan - deyishadi. Biroq, mil.avv. I-ming yillikning O'rtalariga yaqin davrda "Katta Xorazm" davlati mavjud bo'lganligiga shubHa qilmasa bo'ladi. Sopollitepadagi yana ilk davlat uyushmasi Qadimgi Baqtriya davlatidir. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, uning tarkibiga SO'g'd va Marg'iyona ham kirgan. Yunon muallifi Ktesiy Baqtriya haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarixchi olim Baqtriya davlatidagi ko'plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtra (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas tunganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Gerodotda Baqtriya Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olinadi. Tadqiqotchi olimlarning fikrlariga qaraganda Qadimgi Baqtriya qudratliligi jihatidan ancha ustun bo'lib, ular orasida alohida mavqega ega edi. Baqriyaning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda yoki Old Osiyoga qadar ham mashhur edi.

So'nggi 10-15 yil ichida Baqtriya, So'g'diyona va Marg'iyonadan olingan yangi arxeologik ma'lumotlar ilk davlat uyushmalari paydo bo'lishini yanada kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu ma'lumotlarga qaraganda, ilk temir davri Baqtriya, Marg'iyona, Xorazm va

So'g'diyona umumiy jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalari dehqonchilik, chorvachilikdan ixtisoslashgan hunarmand-chilikning ajralish va shahar markazlari shakllanishi asosida paydo bo'ladi.

So'nggi yillardagi arxeologik ma'lumotlar Markaziy Osiyo ilk davlatlar shakllanishining muhim muammolarini yoritish, shuningdek, ular rivojlanishining quyidagi davrlarini aniqlash imkoniyatini beradi:

1). Bronza davri - unchalik katta bo'lmagan dehqonchilik vohalari asosida ilk davlat uyushmalarining shakllanishi.

2). Bronza asridan temir asriga o'tish davri (mil.avv. X-VIII-asrlar). Etnik-madaniy va g'oyaviy vaziyatlarining o'zgarishi sharoitidagi harbiy-siyosiy uyushmalar. Ba'zi viloyatlarda bo'lib o'tgan ko'chish jarayonlari davridagi o'troq manzilgohlar sonining qisqarishi va ilgari odamlar yashagan joylarda yangi aholi manzilgohlarining shakllanishi, harbiylar va harbiy boshliqlarning ijtimoiy qatlamlariga bo'linishi.

3). Ilk temir davri (mil.avv. VII-VI asrlar). Qadimgi Baqtriya misolidagi (aynan Baqtriya, So'g'diyona va Marg'iyona) yirik davlat uyushmalari paydo bo'lishi. Bunday davlat uyushmalari paydo bo'lishining tezlashuviga ichki ijtimoiy-iqtisodiy sabablardan tashqari tashqi, omillar ham sabab bo'lgan.

Markaziy Osiyodagi turli xalqlarning qadimgi davrlardagi diniy qarashlari va e'tiqodlari, payg'ambarlari va ular ta'limotlarining yoyilishi Ko'pgina olimlar orasida ilmiy munozaralarga sabab bo'layotgan masaladir. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng yoyilgan va asosiy din zardushtiylik edi. Bu ta'limotning asoschisi Zaradushtra va uning faoliyati, bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" va paydo bo'lgan hudud haqidagi masalalar ham Hozirgi kunda Ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi. Umuman olganda, Zaratushtraning Vatani Markaziy Osiyo deb hisoblovchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Ma'lumotlarda islomda "Qur'on", nasroniylarda "Bibliya" bo'lganidek "Avesto" - zardushtiylik dinining matnlari to'plamidir. Zardushtiylik ta'limoti er, suv, Havo va olovni muqaddas deb Hisoblagan.

"Avesto" kitobi turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan - qadimgi geografik tushunchalar - daryolar, tog'lar, ko'llar nomlari, hududiy etnik qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar haqida, siyosiy tuzum, diniy nashatlar, zardushtiylik falsafasi, dunyo tarixi rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Tarixdan ma'lumki, zardo'shtiylik miloddan oldingi VII-asrdan, milodning VII asrigacha qariyb ming yil Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarda diniy e'tiqod sifatida yashadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Zardo'sht Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko'rsatgan ilohiyotchi faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan. Zardo'sht zardo'shtiylik dinining payg'ambari sifatida tan olingan va e'tirof etilgan bo'lib, uning ta'limoti Markaziy Osiyo xalqlari tarixida va ma'naviy madaniyatida ulkan rol o'ynadi.

I.A.Karimov bu haqda shunday dedi: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, manashu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim O'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi".

Saymali tosh darasidagi qoyatosh suroatlarini biz O'rganayotgan davr sanoatining ilk namunasi, deb atash mumkin.

Farg'ona tizma tog'larining Kukigart dovoni yaqinidan topilgan bu qoyatoshlardagi suroatlar majmuasi qadimgi Farg'ona axolisining boy ma'naviy madaniyatidan yaqqol dalolat

beradi.

Saymali tosh qoya suroatlarining ilk davriga xos juda Ko'p qismini shakli majmualar tashkil o'tdi va ular nihoyatda aniq nuqtalar bilan grafik tarzda ifoda etilgan. Arxeologik tadqiqotlarni o'rganish orqali shu narsalar ayon bo'ldiki, saroy rasmiy tantanalari va turmushda musiqa katta ahamiyatga ega bo'lgan. Nay, ud, nog'ora, arora, qayrilgan shox shaklidagi karnay, qomoncha bilan chalinadigan asboblar mavjud bo'lgan. Qo'shiqchilar, raqqoslar, ko'zbo'yamachilar bo'lgan. Afrosiyob shahar chasidan topilgan loydan yasalgan Haykalchalar, shaklli tasvirlar, moychiroqlar va boshqa buyumlar o'ziga alohida e'tiborni tortadi.

Bu davrda Hind daryosining yuqori oqimidagi viloyatlar va Markaziy Osiyo xalqlari davlat ishlarida oromiy yozuvidan foydalanganlar. Keyinroq esa oromiy yozuvidan to'rtta yozuv ajralib chiqdi. Bular parfiya, sO'g'd, baqtriya va Xorazm yozuvlari bo'lib, ular Markaziy Osiyo hududida salkam ming yil (arablar kelgunga qadar) saqlanib qoldi.

Bu davrning o'ziga xos xususiyati shuki, Markaziy Osiyo, Mesopatamiya, Misr, Eron, Yunoniston, Xitoy, Hindiston madaniyatlarining bir-biriga o'zaro ta'siri ijobiy rol o'ynaydi. Omuxtalik bu davr madaniyati va sanoati uchun Hos xususiyat bo'lib,

mahal liy belgilarning Xindiston, Xitoy, Misr, Yunoniston madaniyati unsurlari bilan aralashib ketganligini o'zida ifodalaydi.

Bu borada Eron, Xitoy, Xindiston bilan mahal liy Halqlarning tijorat-iqtisodiy aloqalari ham katta rol o'ynagan.

“Ipak yo'lidan” – Vaxsh, Qorategin va Oloy vodiysi orqali Qashqarga, G'arbiy yo'l Parfiyadan Eron orqali Suriyaga olib borgan. Boshqa yo'l quyi Amudaryo bo'ylab davom etgan. “Oltin yo'l” Davon (Farg'ona) orqali Issiqko'ldan o'tib Sibirga tomon cho'zilgan. Xindistondan ziravorlar, mushkanbarlar, Xitoydan ipak matolar, temir, nikel va mo'yna keltirilgan. Shunday qilib, Markaziy Osiyodagi moddiy va ma'naviy madaniyatni shakllanishi va rivojlanishida O'rta va yaqin Sharq xalqlarining o'zaro ta'siri katta bo'lgan.

Demak, tariximizning mana Shunday oltin zarvaraqlarini O'rganishimiz yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, “... ajdodlarmiz-ning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat”.

Tayanch tushunchalar:

Sivilizatsiya tushunchasi, tarixiy xotira, olamni anglash hissi. Ibtidoiy jamoa tuzumi, antropologiya-odamning paydo bo'lishi va rivojlanish muammolari, yakkaxudolik, qadimgi ajdodlarimiz yashagan manzillar: Teshiktosh, Selung'ur, Ko'kbuloq, Uchtut, etnografiya, arxeologiya, sinantrop, xitoy odami, neandertal, ibtidoiy to'da, urug'chilik jamoasi, Afrosiyob, “Avesto”, zardushtiylik.

Nazorat savollari:

1. Sivilizatsiya nima?
2. Markaziy Osiyo hududidagi ibtidoiy jamiyat rivojlanishi davrlari qaysilar?
3. Markaziy Osiyo Hududidagi ibtidoiy davr madaniyati O'choqlari qaysilar?
4. Eneolit davridagi ijtimoiy taraqqiyotning bir xil rivojlanishini asoslang.
5. Afrosiyob tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. Shahar markazlarining shakllanishi nimalarga asoslanadi?

• *Foydalanilgan adabiyotlar:*

1. Karimov I. Milliy mafkura - mamlakat kelajagi poydevori. “Xalq so'zi” gazetasi, 7

aprel, 2000

yil.

2. KarimovI. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T."Sharq", 1998.
- 3.KarimovI. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon Hayot - pirovard maqsadimiz" "Ishonch" gazetasi, 25 yanvarp 2000 yil
- 4.O'zbekiston tarixi (1-qism), T."Universitet", 1997.
- 5.O'zbekiston tarixi (talabalar uchun qisqacha ma'ruzular matni), T., "Universitet", 1999.
6. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

3-MAVZU: O'rta Osiyo hozirgi qiyofadagi odamlarning shakllanishi va antropogenez jarayoni tugallanishi davrida

R E J A:

- 1. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit davri.**
- 2. Zamonaviy qiyofadagi odamning shakllanishi.**
- 3. So'nggi paleolit makonlari. Ilk urug'chilik jamiyati.**

Vatanimiz xalqlari dunyoning eng qadimiy tarixiga ega bo'lgan xalqlar sarasiga kiradi. Bu jihatdan markaziy Osiyo xududidagi yashab kelayotgan ajdodlarimiz Shimoliy Afrika , O'rta yer dengizi atroflari va kichik Osiyo xududlarida yashab kelayotgan xalqlar bellashadilar. Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, uning rivojlanishi va taraqqiyoti to'g'risida fanda xar xil yondashuvlar va qarashlar mavjud. Biz ularni shartli suratda ikkiga bo'lib o'rganamiz. Birinchisi diniy qarash ikkinchisi Dunyoviy qarashdir. Biz yashab turgan moddiy Dune azaldan bo'lganmi yoki u biror kimsa tomonidan yaratilganmi? yerda xayot qachon paydo bo'lgan va Kim tomonidan yaratilgan kabi masalalarda diniy va dunyoviy adabiyot bir-birini inkor etuvchi xulosalar Bilan yondashadi. Yakka xudolik goyasini ilgari surgan dunyodagi bircha dinlar big' yashab turgan xayotdagi barcho boliqni odamzodni o'zini ham hudoyi taollo tomonidan yaratilganligi bashorat qiladi. Jumladan: «bibilyada» odamzodni xudoyi taollo bundan yetti ming yil avval «qizil loydan» yaratilganligi taqiqlanadi. Bu g'oya Quroni Karimdan ham o'z aksini topgan. Islom dini g'oyasi rivoyatlariga qaraganda «Xidoya» talool qudrat qo'li Bilan tuproqni hqmir qilib Odamningshaklini yasab», unga qirq kun bo'lganda jon berdi». Momo Havoni esa Odam atoning chap biqinida yaratadi. Kishilik jamiyati Odam ato birlan Momo Havodan tariqalgan emish . odam alahisalom bir mingu Qirq yosh umr ko'ribdilar. Shu davr mobaynida Odam ato va Havodan ic;irQ bir farzand dunyoga kelibdi. Mirzo Ulug'bekning yozishicha;

"Yigirma bitta Qorindan yigirma bir nafar bir nafar o'yil va yigirma nafar Qiz ham da ming nafar nabira ko'rgani aniiqlangan". Abulyoziy Boxodirhon "Shajarai turk" asarida "Odam Ato o'z o'ylonlaridan qirq ming kishini ko'rib o'ldi" deb yozadi. Odamzodning birinchi vakillari Kurtoni Karimda Odam Ato va Momo Xavo, "Bibilya"da Adam va yeva, zardushtiylik dinida esa lym nomlari ostida beriladi.

Borliqning dunyoda tirik mavjudotning yaratilishi xaic;ida dunyoviy fan vakillari ham o'z fikr-xulosalariga egadirlar. Dunyoviy fan vakillari o'z ilmiy-yoyaviy dunyoQarashlarga K,arab bu masalada ikki guruxga bo'lindilar. Dunyo, butun borliQ va tirik mavjudot xech kim tomonidan yaratilmagan, u azaldan bir moddiy bir narsadir, deb isbotlovchi materialist olimlar materiayani birlamchi deguvchilar guruxini tashkil etadilar. YyX xar bir narsaning xam ibtidosi bor, sababsiz oic;ibat xam bo'lmaydi, butun borliic; yer, suv, o'rmon, dasht, cho'llar va barcha jonzotlar, shu jumladan odma xam K,andaydir bir iloxiy kuch, xudo tomonidan yaratilgan, deguvchilar idealistlar-ong, ideya, ruhining birlamchiligining taryib Kiluvchilar guruhiga uyushadilar.

Xullas odamzodning eng uluy va dono vakillari o'z aqlu zakovatlarini ishga solib, qadim-qadimdan boshlab moddiy dunyo va uning yaratilishi yerda tirik mavjudotning, shu jumladan odamzotning paydo bo'lishi muammolari bilan shuyullanib keladi va bu borada talaygina

muvoftiqiyatlarga erishdi. Fan sohasidagi so'nggi kashfiyot amerikalik olimlar qalamiga mansubdir. Ular 1959 yilda Sharqiy Afrikaning Olduvay daryosida eng qadimgi odm suyagi qoldiqlarini topdilar. Bu yerda odam suyaklari bilan birga har hil hayvonlar; to'no'iz antilopa suyaklari va tosh qurollar ham topildi. Bu topilmalarning barchasiga olimlar Zinjantrop deb shartli nom berdilar. Zinjantrop topilgan geologik qatlamning sanasi 1,5-2 million yil deb taxminan qilinmoqda.

Markaziy Osiyo hududi dunyoning eng qadimgi odamlari yashagan makon bo'lganligi yuqoridagi taqiqlanadi. Ammo bu xududda odamzodning dastlabki avlodlarning paydo bo'lganligi necha yil bo'ldi, degan savolga olimlar turli hilda javob berib keldilar. Batzi manbalarda dastlabki odam izlari bundan 500 ming yil ilgari topilgan deyilsa, boshqalarida 800 ming yil sanasi tilga olindi. Arxeologlarning eng so'nggi hulosasiga ko'ra, eng qadimgi odamsimon maymunlar ajdodi hisoblangan zinjantroplardan keyin paydo bo'lgan pitekantiroplar bundan 1 million yil ilgari yashaganlar. Biroq na zinjantroparning va na piekantroparning izlari mamlakatimiz hududida shu paytda qadar uchramagan. Bundan 500-600 ming yillar burun yashagan odam ajdodining izlari Xitoydan topilgan. Olimlar uni sinantropolar deb ataganlar. Ular asosan g'orlarda yashaganlar. Sinantropolar davridan boshlab odam birinchi marta olovni kashf o'tdi va undan o'z hayotidan foydalana boshladi. Olimlarning fikricha, ana shu «Sinantropolar zamondash ibtidoiy odam izlari» Markaziy Osiyoning bir necha joylarida uchraydi. Bu davrda odamlar hali to'da-to'da bo'lib yashar edilar. Ularning kundalik tirikchiliklari asosan yovvoyi daraxtlarning mevalari, o'simlik ildizlari, qurt-qumursqa, mayda jonivorlardan iborat bo'lgan. Odamlar birgalashib yirik hayvonlar ham ov qilganlar. Ammo bu ish o'ta havfli bo'lib Ko'p hollarda fojiali oqibatlariga olib kelardi. Bu davrda odamlar hali metal ishlatishni bilmaganlar, ularning asosan oddiy toshlardan, yirik hayvonlarning suyaklardan, shohlaridan va daraxtlarning qattiq shohlaridan mexnat quroli sifatida foydalanganlar. Shu sababdan bu davrni «Qadimgi tosh davri» deb yuritiladi. Paleolit davri uch bosqichdan iborat: ilk paleolit, o'rta paleolit va yuqori paleolit.

Ilk paleolit davrining diqqatiga sazovorligi Shundaki, bu davrda odamlar, ularning dastlabki qurollari paydo bo'ldi. Achinarli tomoni Shundaki tosh qurollaridan boshqa mehnat qurollari bizgacha yetib kelmagan. Bu davming toshqurollari apxeonor olimlar tomonidan yetarli darajada va yaxshi o'rganilgan. Bu mehnat qurollari dastlabki mehnat quroli topilgan makon - joy nomi bilan ashel (Farangiston) qurollari deb nom olgan. Olimlarning ilmiy xulosalariga qaraganda ashel davri bundan bir million yil burun boshlangan va miloddan avvalgi 200-100 minginchi yillargacha davom etgan. Bu davrda yer kurrasida bir qator tabiiy geografik o'zgarishlar yuz berdi. Himolay, Tibet, Pomir va Tyanshan singari baland va osmono'par tog'lar qad ko'tardi. Geologlarning hisobiga ko'ra, tabiatning yozi issiq, quruq va qishi sovuq, yog'ingarchilik kam bo'lgan. Natijada Markaziy Osiyoning hozirgi cho'l va dashtlari shakllangan, shu shroitga moslashgan hayvonot dunyosi vujudga kelgan, o'simliklar olami qaror topgan. Ashel davrining oxirlarida havo keskin soviy boshlagan, tog'larda yirik muzliklar vujudga kelgan, ular vaqti-vaqti bilan goh Ko'payib, goh kamayib turgan. Yangi-yangi daryolar vujudga kelib, Chu, Sarisuv, Qashqadaryo va Zarafshon daryolarida suv Ko'p bo'lgan. Chu bilan Sarisuv Sirdaryoga, Qashqadaryo bilan Zarafshon Amudaryoga quyilgan. Past tekisliklarda uzluksiz yomg'ir yog'ib turgan. Havo goh sovib, goh isigan. Natijada o'simliklar dunyosida ham o'zgarishlar yuz bergan. Chg'l mintaqasiga xos o'simliklar kata-katta maydonlarni egallaydi. Markaziy Osiyo mintaqasida bu davrda mastodont, o'rmon fili, ibtidoiy ot, qadimgi tuya, bizon, qoplon, kiyik, g'orda yashovchi sirtlon va mamont kabi hayvonlar yashagan. Tabiatdagi bunday o'zgarishlar mintaqaning ayrim tumanlarida ilk ajdodlarimizning makon topishiga imkon bergan. Vatanimiz xududida yashagan ilk ajdodlarimizning manzilgohlari Farg'ona vodiysining So'x tumanidagi Seleng'un g'oridan va Toshkent viloyatining Angren shaxri yaqinidagi Ko'lbuloq makonida topib o'rganildi. Bu borada arxeolog olimlar A.P.Okladnikov, U.Islomov, M.R.Qosimov, V.P.Alekseev, T.Q. Xo'jayovlarning xizmatlari kattadir. O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir azosi U.Islomov 1980 yildan boshlab Selung'ur g'orida arxeologiyaga aid takroriy ishlar olib borib (birinchi bu ishni 1958 yilda akademik A. P. Okladnikov boshlagan) yangi kashfiyotlar qildi. U g'ordan topilgan tosh qurollari va hayvon suyaklarini chuqur o'rganib Selung'urda yashagan ajdodlarimiz g'orni qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichida emas, balki ashel davrining birinchi bosqichida o'zlashtirganliklarini

isbotladi U. Islomov o'zi ochgan kashfiyotga suyanib, Selung'ur g'orida yashagan ajdodlarimizning yoshi yaqin bir million yil atrofida degaya xulosaga keldi. Selung'ur odamining qoldiqlari Farg'ona vodiysi xududidan topilganligi, sababli unga shartli suratda «*Fergantrop*», yani «*Farg'ona odami*» degan nom qo'yildi. Qadimgi tosh davri (paleolit) ning o'rta bosqichi (bundan qariyb 100-40 ming yil avval) arxeologiya fanida *Must'e davrideb* ataladi. Bu davrda muzlash keng tarqala boshlagan, iqlim sharoiti ancha yomonlashgan. Bu hoi ibtidoiy odamlarni tabiat kuchlariga qarshi kurashga va himoyalanihga majbur qilganlar ilgarigidek yirik hayvonlarni ovlaganlar, o't chiqarishning turli yo'llarini ixtiro qilganlar, turli sharoitlarda yashash uchun o'zlariga boshpanalar, izlaganlar va qurganlar. Vu davrda yangi mehnat quollaridan qo'l cho'qmori paydo bo'lgan. Tg'da-tg'da bo'lib yurish bu davrda ham davom etgan. Insoniyat tarixi shajarasida bu davrning odami neandertal odami nomi bilan yuritiladi. Neandertal odamlar yashagan madaniyat makonlari Markaziy Osiyo hududining 50 dan ortiq, joyida topilgan. Surxondaryo (Teshiktosh), Samarqand (Omonqo'ton, Qo'tirbuloq Zirabuloq, Xo'jamazgil deb nomlangan buloq yoqalari) , Toshkent (Obirahmat, Xo'jakent, Paltov nomli ungur va g'orlarida Ko'lbuloq, yoqasi), Navoiy (Uchtut) hududlari, qo'shni Tojikiston (Qorabura, Jarqo'rg'on) va Qirg'iziston (Tossar va Georgiy do'ngligi) hududlarida musthe davriga oid yodgorliklar juda ko'plab topilgan. Xususan, 1938 yilda Boysun tog'ining Teshiktosh deb atalgan g'oridan topilgan yodgorliklar alohida qimmatga egadir. Bu yerda o'tkazilgan arxeologiyaga oid izlanish natijasida ko'pgina ashyoviy dalillar bilan bir qatorda g'or devorining ostidan 9 yashar bolaning qabri topilgan. Undagi suyak qoldiqlari mayitning chalqanchasiga yotqizilgani va qabr atrofi hayvon shoxlari bilan o'ralganligidan dalolat beradi. Bundan shu narsa matlum bo'ladiki, neandertal odamlarnng asosiy mashg'yoloti hayvon ovi bo'lgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, teshiktoshliklar o'zlari uchun muqaddas hisoblangan hayvon shoxlari bilan bolalarini o'rab, «narigi dunyoga» jo'natganlar. Bu hoi neandertal odamlar yashagan zamonda asta-sekinlik bilan diniy tasawurlarning dastlabki belgilari paydo bo'la boshlaganligini ko'rsatadi.

Teshiktosh g'oridan topilgan arxeologiyaga oid matlumotlarni chuqur o'rganish asosida uning yoshi aniqlandi va olimlar bu ashyolar muste davrining ilk bosqichiga tegishlidir, deb xulosa chiqardilar.

Qdimgi tosh davrining so'nggi bosqichi bundan 35-40 ming yil ilgari boshlangan va milodimizdan ilgargi 12-10 ming yillikkacha davom etgan. Bu davr tarixda yuqori paleolit nomi bilan ataladi. Yuqori paleolit davrida Markaziy Osiyo hududida iqlim quruq va mo'tadil bo'lgan. Sovuq iqlim sharoitida yashagan hqyvonlar - serjun karkidonlar, yovvoyi otlar, kiyoiqlarpaydo bo'lgan.

Yuqori paleolit bosqichiga kelib, ibtidoiy to'da davrining vayronalarida kishilik jamiyatining dastlabki bo'g'ini - ibtidoiy jamoa davri tarkib topdi. Bu davrda toshdan mehnat qurollari yasash uslubida, ibtidoiy xo'jalik shakllarida, ibtidoiy odamning turmush tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, odamlar dunyoqarashida, hatto uning jismoniy tuzilishida ham keskin va jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Jumladan, bu davr odamida rosmana peshana va pastki jag' shakllanadi. Bu davr odamlarining suyaklari neandertal davri odamlariniki singari yirik emas, oyoq, qo'l harakatlarida ham chaqqonlik paydo bo'ladi, xozirgi zamon odamlariga hos jismoniy xususiyatlari vujudga keladi. Olimlar bu davr odamini homo Sapiens (aqlli, ongli odam) deb atadilar. Antropolog olimlarning olmiy kuzatuv va xulosalariga ko'ra keyingi 35-40 ming yillar davomida odamzodning biologik va jismoniy tuzilishida aytarlik katta o'zgarishlar bo'lmagan. Xudi shu davrda dunyoning barcha qitalarida bo'lgani singari Markaziy Osiyo hududida ham mongoloid irqiga mansub hozirgi zamon ko'rinishidagi avlod shakllandi. Bu irqqa amnsb vakillar Shimoliy, Markaziy va Sharqiy Osiyo xududlarida yashaganlar. Ularning bo'ylari past, bosh suyaklari dumaloq, qosh-ko'zlari, sochlari qora, yuzlari va peshanalari keng, ko'zlari qisq bo'lgan. Buning asosiy sababi avlod-ajdodlarimiz yashagan mo'tadil geografik iqlim sharoitining uzoq yillar davomida ularning tanasiga tabiiy tasirini natijasidir. Ovrupadagi oq tanlilar va Afrika qitasidagi qora tanli negrlar xususida ham xuddi shu fikr va g'oya asoslidir. Aytmoqchimizki, oq tanlilarning "Oliy irq" ekanligi, ularning boshqa Irq vakillari ustidan hukmron bo'lishlari va butun dunyoga

egallik qilish huquqini davol qilishlari butunlay noto'g'ri qarashdir. Bu g'oya va qarash fashistik irqchilik nazariyasining asoiy o'zagidir. Bu nazariyasidan fashistlar Germaniyasi 1939-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushi yillarida dunyoga hokimlik qilishni davol qilib foydalangan edilar.

Yuqori paleolit davrida Markaziy Osiyo hududida yashagan odamlarning mehnat qurollari ham ancha takomillashdi, suyak va shoxdan yasalgan buyumlar: igna qarmoq, har xil bezaklar shakllangan, tosh qurollar ancha ixcham lashgan. Parma paydo bo'lgan, asosan bu davrda tosh va suyaklarni parmalaganlar.

So'nggi paleolit davrining yutuqlaridan biri - nayzaning ixtiro qilinishi bo'ldi. Nayza tufayli ovchilik rivojlandi, xususan tirik hayvonlarni birgalashib ovlash axamiyat o'tdi.

Paleolit davrida tasviriy san'at rivoj topdi. Bu davrda odamlar yashash uchun o'zlariga uylar qurganlar, toshlarga rasm solganlar, to shva suyaklarga hayvonlar, baliqlar va odamlarning qiyofalarini o'yganlar. Tosh va suyakdan yasalgan haykalchalarda ona urug'iga etiqod qilinganligi tasvirlanadi. Demak, bu davrda jamiyatda «ibtidoiy to'da» o'rnini Matriarxat - ona urug'i jamiyati, yani «urug'chilik jamoasi» egallaganligini ko'ramiz.bu davrga kelib ayollar jamiyatda yetakchi mavqeni egallaganlar. Jinslar o'rtasida mexnat taqsimoti kelib chiqqan. Ayollar oziq-ovqatlarni saqlash, ovqat tayyorlash, oilani zarur yoqilgi bilan tauninlash, bola boqish va tarbiyalash ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Erkaklar esa asosan ovchilik bilan shug'ullanganlar, mehnat qurollari tayyorlaganlar. Bu davrda qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikoh taqiqlangan, yani Ekzogamiya paydo bo'lgan. Bu esa insonning biologik jihatdan takomillashib borishini taminlagan.

Odamlar o'rtasida o'troq hayot kechirish tobora ustun mavqega ega bo'la borgan. Urug'chilik jamiyatida dastlabki diniy etiqodlar va marosimlar kelib chiqqan: Animizm (ruhga sig'inish), Totemizm (ajdodlar ruhiga sig'inish), Magiya (sehrgarlik) shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyoda so'nggi paleolit davriga mansub topilmalar, yodgorliklar kam, albatta bu tarixiy o'tmishimizni yetarli darajada o'rganilmaganligi oqibatidir. Paleolit davrida odamlar yashagan makonlar Samarqand shahar istirohat bog'i hududida, Buxoro viloyati Qorator tog'ining yon bag'rida, Ohangaron ustaxonalari, To'ytepadagi Ko'kbuloq makonlari va Oqtosh g'oridan topilgan.

Markaziy Osiyo hududida bugungi kunda yuqori paleolit davriga oid 30 dan ortiq yodgorlik madaniyatlarini topib o'rganildi.

Tayanah tushunchalar:

Ibtidoiy jamoa, chopper, mikrolit, tosh davri, Paleolit, «Fergantrop», Must'e davri

• Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I. Milliy mafkura - mamlakat kelajagi poydevori. "Xalq so'zi" gazetasi, 7 aprel, 2000 yil.
2. KarimovI. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T."Sharq", 1998.
- 3.KarimovI. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz" "Ishonh" gazetasi, 25 yanvar 2000 yil
- 4.O'zbekiston tarixi (1-qism), T."Universitet", 1997.
- 5.O'zbekiston tarixi (talabalar uchun qisqacha maoruzular matni), T., "Universitet", 1999.
6. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

4 - MAVZU: Mezolit va neolit davrida O'rta Osiyo

R E J A:

1. Orta Osiyoda mezolit davri va makonlari.

2. O'rta Osiyoda neolit davri va makonlari

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida Mezolit deb atalmish davr o'ziga xo'shib davr xisoblanadi. «Mezolit» Yunoncha so'z bo'lib, «mezos» - «o'rta», «litos» - «tosh» birikmalaridan tashkil topgan va «o'rta tosh» davri manosini anglatadi. Bu davr olimlarning xulosalariga ko'ra bundan 12-10 ming yillar ilgari boshlanib 7-5 ming yillikkacha davom etgan, mezolit davrida Markaziy Osiyo iqlimi issiqlasha borgan, yog'ingarchilik ko'p bo'lgan, daryo bo'ylari va botqoqliklarida to'qay va o'rmonlar vujudga kelib, o'simliklar va hayvonot dunyosi asta-sekin hozirgi zamon hayvonlari va o'simliklari qiyofasini o'z boshlagan. O'rmonlarda Buxoro bug'ulari, los, ayiq, to'ng'iz, cho'l va adirlarda esa sayg'oq, qulon, ot, ho'kiz to'dalari yurardi. Bu davrda ovchilik hayot manbai xisoblanar edi. Bu borada o'q-yoyning kashf etilishi katta ahamiyat kasb o'tdi. O'q-yoy inson kashf etgan birinchi mexanizmdir. O'q-yoy odamning tabiat kuchlariga qarshi kurashda buyuk burulish bosqichi bo'ldi, ovchilik endi yangicha mazmun kasb o'tdi va uning Yangi usullari pay do bo'ldi. O'vda keladigan daromad manbai ko'paydi, o'vda qo'lga kiritilgan hayvonlarning istemoldan ortiqchasi qo'lga o'rgatila boshlandi. Inson qo'lga o'rgangan va u bilan do'stlashgan dastlabki hayvon itdir. It bilan bir vaqtda odamlar bug'uni ham qo'lga o'rgatganliklari arxeologiyaga oida manbalarda qayd etiladi.

Mezolit davrining o'ziga hos yana bir xususiyati shuki, bu davrda ovchilikning ahamiyati oshishi bilan birga termachilikning o'rni ham ortdi. Bu davr termachiligi qadimgi tosh davri termachiligidan keskin farq qilardi. Bu davrda endi odamlar o'simliklarni ildizi bilan birga istemol qilmasdan, balki ularni saralab shirin va mazali o'simliklarni istemol qilishni o'rgandilar. Bu hoi odam tanasining sifat jihatidan tozalanishi va kamol topishiga, inson aqli va tafakkurining o'sib rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatdi. Termachilik bilan asosan ayollar shug'ullanardilar.

Mezolit davrida Markaziy Osiyoning deyarli barcha tumanlari xususan ikki daryo oralig'i aholi yashashi uchun juda qulay imkoniyatlarga ega joylar bo'lgan. Farg'ona vodiysining tog'li va tog'oldi tumanlarida, Markaziy Farg'onaga vujudga kelgan katta va kichik ko'llar bo'ylarida mezolit davri ajdodlarining juda qo'plab manzilhoxlari topildi. Olim U. Islomov va uning hamkasblari bu xududda 1970-1980 yillarida keng miqyosda arxeologiyaga oid qidiruv ishlarini olib bordilar va So'x yaqinida Obishir nomi bilan aholi o'rtasida malum bo'lgan unqurlarda mezolit davri jamolarining qarorgohlarini kashf etdilar. Bu joylar hozir tarix fanimizda Obishir - 1 va Obishir - 2 nomlari bilan ataladi. Ayniqsa Markaziy Farg'onada 100 dan ortiq mezolit davri yodgorliklari topildi. Ularning asosiy qismi qadimgi ko'l yoqalarida joylashgandir.

Mezolit asriga oida boshqa guruh yodgorliklari Toshkentning Sariqamish tumanida qadimgi Bo'zsuv havzasida ham topildi. Bunda ham arxeolog olim U. Islomov olib borgan ilmiy qidiruv ishlari o'z natijalarini berdi. Bulardan tashqari O'zbekistonning Surxandaryo viloyati Ayritom, Kataqo'rg'on, Zaranchuk-gut, Dukanxona, Eski Termiz, Podaxona, Oqtosh, Ko'xitongning Machay soyi ustida qad ko'targan qoya ostidagi g'orda ham mezolit davriga oid arxeologiyaga doir malumotlar topib o'rganildi.

1970-1971 yillarda Machay g'orini tekshirgan olim U. Islomovning fikricha, machayliklar shoxli mayda hayvonlar xonakilashtirganlar. Bu g'ordan topilgan malumotlar ushbu yodgorlikning mezolit davrining eng so'nggi bosqichi va ilk neolit (yangi tosh) davriga tegishli ekanligini tasdiqlamoqda.

Mezolit davri odamlarining diniy tasavvurlari haqida Qayla, Tutkaul, va Machay qabristonlaridan topilgan yodgorliklar malumot beradi. Har uchchala qabriston ham mezolit davrining so'nggi bosqichi - ilk neolit davriga to'g'ri keladi. Qayla g'ori yaqinidagi qabristonda tana suyaklari chalqanchasiga yotqizilgan bo'lib, oyoqlari bir oz bukilgan. Dafina ustiga qizil rang (oxra) sepilgan. Ularning yon verida dengiz chig'anoqlaridan qilingan taqinchoqlar, bosh tomonda esa mayda toshmunchoqlar terib qo'yilgan. Tutkaulda 4 ta, Machayda 7 ta qabr qoldiqlari ochilganda ularda ham xudi shu xolat kuzatilgan.

Mezolit davri odamlar tasavvurida «narigi» dunyoga ishonish, olovga talpinish aloxida ahamiyat kasb etgan. Buni Qayla qabristonidan topilgan mayitga sepilgan qizil rang bo'yog'i isbotlaydi.

Ibtidoiy rassomlar odamlarning tabiat kuchlariga munosabatlarini, dunyoqarashlarini qoyalarga chizilgan rangli suratlari orqali ifodalaganlar. Shu xildagi

Xullas Zarautsoy qoya suratlari mezolit davri rassomlarining dunyoqarash doirasini, ularning diniy tasavvurlarini, o'sha davr mafkurasi darajasini tasviriy san'atda qay darajada aks ettira olganliklari haqida fikr yuritish uchu nasos bo'ladi.

Insoniyat o'z taraqqiyot yo'lida mezolit davridan so'ng Neolit deb atalmish davrni ham o'tkazdi. «Neolit» Yunoncha so'z bo'lib, «neo» - yangi va «lit» tosh, yani «yangi tosh» davri degan manoni anglatadi. Neolit davri mehnat qurollariga ishlov berishda silliqlash, pardoqlash, zarralash va parmalash usullarining ixtiro etilishi etiborga loyiqdir. Bu narsa ibtidoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarining oldingi davrlarga nisbatan tezroq rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Yangi mehnat qurollari: toshboltalar, ponalar, tosh-teshalar, iskanalar paydo bo'ldi. Shu boisdan Ovro'pa olimlari hatto neolit davrini «boltalar asri» deb atashni ham taklif etgan edilar. Toshboltalar daraxt kesishda uy qurilishi ishlarida ovchilikda o'zining tengi yo'q mehnat quroli ekanligini isbotladi.

Mehnat qurollari ancha takomillashgan neolit davriga kelib odamlarning yuqori paleolit, ayniqsa mezolit davridagi singari xayot kechirishlariga zaruriyat qolmadi. Ular g'troq xayot kechirishga o'tdilar. Bu davrga kelib doimiy yerto'lalar, kulbalar qurish, loydan, guvaladan uylar solish, qishloqlar barpo etish neolit davri odamining asosiy odatiga, turmush tarziga aylanib bordi. Ana shu tariqa doimiy g'troqlik xo'jaligi vujudga keldi. Bu hoi dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'lli mintaqalarda, azim daryo va ko'l bo'ylarida o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga sabab bo'ldi, chorvachilik qaror topdi.

Yangi tosh davri jamoalari hayotida pay do bo'lgan yana bir yangilik - bu bo'lajak hunarmandchilik ho'jaligining muhim tarmog'i xisoblangan sopol buyumlar (keramika) ishlab chiqarishning kashf etilishi bo'ldi. Insoniyat hayotida kata voqea bo'lgan bu yangilikka asoslanib ayrim arxeologlar, hatto neolit davrini «sopol asri» deb atashni ilgari surganlar.

Neolit davri kashfiyotlaridan yana biri xunarmandchilikning vujudga kelishidir. Endi ibtidoiy odamlar faqar hayvon terilaridan yasalgan kiyim -kechaklarnigina emas, balki uning junidan ham da o'simliklar tolasidan to'qilgan matolardan kiyim-kechaklar tikib kiyadigan bo'ldilar. Bu davrda jamoada hali ibtidoiy urug'chilik «kommunasi» xukmron bo'lib, ona urug'i davom etar edi. Shu boisdan dunyo olimlari neolit darini matriarxat urug'chilik tartiblarining gullagan davri, deb baho beradilar.

Bu davrda matriarxat urug' jamoasining guruhli nikoh doirasida juft oila qurish vujudga keldi. Ayollar tug'ilgan farzandlarining otalaridan o'z urug' jamoasi manfaatiga ishlab berishni talab qiladigan bo'ldilar. Ana shu tariqa ichkuyovlik mazmunidagi juft oilaning dastlabki ko'rinishlari shakllandi. Endi ayollar o'zlari uchun aniq sherik tanlab, jinsiy aloqalar asosan ana shu doimiy sheriklar bilan amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu oilada ayolning huquqi cheklanmagan bo'lib, erkaklar ularga qaram bo'lganlar. Markaziy Osiyo hududlarida xo'jalik miloddan oldingi 5 ming yillikning boshlariga kelib ikki yo'nalishda rivojlanib borgan. Jumladan, Turkmanistonning Kopedtog' etaklarida qabilalar madaniy o'simliklarni o'stirishga o'ta boshlaganlar. Markaziy Osiyoning Shimoliy dasht va cho'l xududlarida yashagan qabilalar esa ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Dehqonchilik uchun juda kulayliklarga boy hududlardan biri Ashgabatdan 40 km lar cham asi Shimoli-g'arbda joylashgan, turkmanlar Chaqmoqli deb atagan joy edi. Bu yeming - «Chaqmoqli» deb atalishining boisi Shundaki, turkman cho'ponlari bu joydan chaqmoqtosh terishar ekan. Chaqmoqli asli o'z atrofidan baland bo'lib, uning ustini 2-3 metrli ko'chma qum bosgan. 1952 yilda olib borilgan arxeologiyaga oid ishlar chaqmoqli tepaligi neolit davri dehqon jamoalarining qarorgohi ekanligini aniqlashga yordam berdi. 1956-1957 yillardan etiboran arxeolog V. M. Masson olib borgan bu yerda izlanishlar tarix va arxeologiya fani vchvn katta natijalar berdi. Bu yerda guvaladan yasalgan bir xonali, devor osti uchog'i va markazida sandal kuldoni - chuqurchali kulbalar topildi. Uning devorlari somonli loy bilan shuvalgan, hatto guvalaga somon ham qorishtirilganligi aniqlandi. Xonaning to'rt tomoni supali bo'li6, u yotish va

dam olish uchun mo'ljallangan. Xonalar orasida tor yo'laklar bor. Bu yo'lak va xonalardan nomi yuqorida tima olingan chaqmoq toshdan ishlangan yuzla6 tosh qurollar topib o'rganildi. Chaqmoqtoshlar sochilib yotgan joy keng taqir joy bo'lib, unda bahorgi yomg'irdan so'ng ko'lmak suvi to'plangan. Oydin kechada ko'lmak suvi qop-qora bo'lib ko'ringani uchun turkman cho'ponlari bu joyni «joyi tun», yatni qorong'i joy deb nomlaganlar. Ana shu tariqa bu joy fan olamiga «Joyi tun madaniyati» nomi bilan kirdi. Joyi tun (Joytun) madaniyatini o'rganish chog'ida bu yerda juda ko'plab mehnat qurollari - qistirma o'roq pichoq suyakdan ishlangan igna, bigiz va boshqa anjomlar topildi. Joytunni o'rganish jarayonida uning atrof tumanlarida ham arxeologiyaga oid qidiruv ishlari yo'lga qo'uyildi. Natijada Joytun madaniyatiga doir o'nlab neolit jamoalarining qarorgohlari (Nayzatepa, Vami, Chupontepa va boshqalar) ochildi va o'rganildi. Bu yer aholisi dehqonchilik, chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Chorva hayvonlari: qoramol, qo'y va echkilarning suyak qoldiqlari Joytun va shu madaniyatga daxldor bo'lgan barcha yodgorliklardan topilgan. Joytun madaniyatining yoshi olimlarniyu hisob-kitoblariga ko'ra, bundan 7-8 ming yil burun o'tgan, yatni uning yoshi miloddan avvalgi VI- V ming yilliklar bilan o'lchanadi. Bulardan tashqari, akademik olim S. P. Tolstov tomonidan qadimgi Xorazm yerlarida, Amudaryoning quyi havzasida «Kaltaminor madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan, madaniyat yodgorligi topildi. Bu madaniyat Xorazm hududidagi Jonbosqala nomi bilan matlum bo'lgan 4 ta makonii tekshirish orqali aniqlandi va o'sha makon yaqinidagi joy nomi bilan Kaltaminor madaniyati nomini oldi. Bu milodimizdan ilgarigi IU-111 ming yillikda yashagan ovchilar va baliqchilar jamoasi madaniyatidir. Kaltaminorliklar sopol buyumlar ishlab chiqarishda ham ustasi farang bo'lganlar. Xo'jalikning uchinchi tarmog'i termachilik bo'lgan. Buni manzilgohdan topilgan jiyda urug'lari tasdiqlaydi.

Neolit davri madaniyati topilmalari Vatanimizning Zarafshon, Qashqadaryo vohalari va boshqa hududlarda ham mavjud va ular olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tayanch tushunchalar:

Ibtidoiy jamoa, chopper, mikrolit, tosh davri, mis-tosh davri, bronza davri, temir davri, matriarxat, ibtidoiy to'da, ururchilik jamoasi, boltalar asri, o'zlashtiruvchi xo'jalik.

• Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Milliy mafkura - mamlakat kelajagi poydevori. "Xalq so'zi" gazetasi, 7 aprel, 2000 yil.
2. Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T."Sharq", 1998.
3. Karimov I. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz" "Ishonch" gazetasi, 25 yanvar 2000 yil
4. O'zbekiston tarixi (1-qism), T."Universitet", 1997.
5. O'zbekiston tarixi (talabalar uchun qisqacha maoruzular matni), T., "Universitet", 1999.
6. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

5-MAVZU: Eneolit, bronza va ilk temir davrida O'rta Osiyo

R E J A:

- 1. O'zbekiston hududida eneolit va bronza davri. Dehqonchilikning vujudga kelishi. Xo'jalik va moddiy madaniyat.**
- 2. So'nggi bronza davri madaniyatlari. Dastlabki mehnat taqsimoti.**

3. *Temirning kashf etilishi. Ikkinchi mehnat taqsimoti.*

-1-

Milodimizdan avvalgi III ming yillikning oxirlariga kelib, Markaziy Osiyo hududida tosh davri tugadi, u o'z o'rnini eneolit va keyinchalik bronza asriga bo'shatib berdi. Arxeologiyaga oid qazilma manbalarning guvohlik berishicha, ibtidoiy odam metall olamiga dastlabki misni ixtiro qilish orqali kirgan. Odamlar misdan uncha katta bo'lmagan pichoqlar, bigiz, ignalar, boltalar, uzuklar, munchoqlar, isirg'alar tayyorlaganlar. Shuning uchun metallii qo'llashning bu ilk davri **Eneolit - Mis-Tosh** davri deb ataldi.

Bu davrda dehqonchilik va chorvachilikda ham birmuncha malaka hosil qilingan; yashash uchun zarur bo'lgan o'simliklarni suntuq o'stirishga o'ta boshlanganlar. Batzi ov qilingan hayvonlarni qo'lda boqish o'tdi tusiga kira borgan.

Sekin-asta mehnat qurollari takomillashtirilib, rudali metallar, mis, qalay, kumush, oltinni ixtiro qilganlar va ularni eritish, quyish, ulardan foydalanish yo'llarini o'rganganlar.

Bronza mis va qalay aralashmasidan iborat bo'lib, u misga qaraganda katta afzalliklarga ega. Ishlab chiqarishda bronzaning ishlatila boshlanishi bilan jamiyat taraqqiyotida **Bronza davru** boshlangan. Insoniyat jamiyat taraqqiyotida xalq xo'jaliri, texnika va madaniyat sohasidagi erishilgan yutuqlar ana shu davr bilan bog'liqdir. Zarafshonning quyi oqimidagi Zamonbobo ko'lida va Sarazmda o'tkazilgan arxeologiyaga oid tadqiqot natijalari yuqoridagi fikrlar haq ekanligiga guvohlik beradi. Zamonbobo ko'li atrofidagi qabrlar ochib, qo'rilgan. Ularda bittadan, ikkitadan va hatto uchtadan ko'milgan mayit qoldiqlari naqshli sopol idishlar va har xil buyumlar topilgan. Erkaklarning qabrlarida chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar, pichoqsimon yapasqi buyumlar topilgan. Ayollarning qabrlarida esa qizil va sariq oxra, surma uvoqlari, misdan ishlangan kichik-kichik kurakchalar ham da lojuvarddan, aqiqdan, firuzadan ishlangan bezaklar; tosh bezaklari va hatto oltindan yasalgan marjonlar bo'lgan.

Kuzatish natijasida Zamonbobo manzilgohidagi aholi dehqonchilik bilan, chorvachilik bilan ham shug'ullangan, degan xulosaga kelingan. Bunday madaniyat yodgorliklari O'zbekistonning Surxondaryo (Sopollitepa, Jarqo'ton), Xorazm (Tozabog'yob), Toshkent (Achikul, Yangier tumani, Toshkent kanali atrofi, Burg'yulq), Namangan (Buvana mozor), Andijon (Dalvarzin tepa), Qashqadaryo (Yerqo'rg'on, To'rtko'ltepa) va boshqa viloyatlarida ham kuplab topilgan.

So'nggi bronza davri yodgorliklari Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari hududida devorlar bilan o'ralgan qishloqlar paydo bo'lganligiga guvohlik beradi. Bu Markaziy Osiyoda qadimgi shahar larning vujudga kela boshlash jarayoni edi. Bu qadimgi xo'jaliklarning taraqqiy etganlimi, Ko'p oilaviy jamoalarning boyliklari oshib borganligi, jamiyatda sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlanganligini ko'rsatadi.

Rivojlanib borayotgan dehqonchilik va chorvachilik madaniyati va iqtisodi zaminida katta ilali jamoalarda erkaklarning mavqeyi Osha borgan va matriarxat yemirilib, ota-huquqi, patriarxat qaror topgan. Endi qarindoshchilik otaga qarab olib boriladigan bo'lgan. Bolalar ham ota mulki xisoblanib merosni otadan ola boshlagan. Jamoalarning mol-mulklarini qo'riqlash extiyoji harbiy qabila ittifoqlarini qujudga keltirgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi yillar va asrlar osha rivojlana borib, o'z o'rnini sinflardan tashkil topgan davlat hokimiyati hukmron bo'lgan jamiyatga bo'shatib berdi. Bu taraqqiyot davomida urug'chilik jamoasi ikki bosqichni bosib o'tdi. Birinchi bosqichda urug' ijtimoiy ishlab chiqarishga asoslangan edi. Bu davrda jamoa onalar hukmronligi -matriarxatga asoslangandi. O'sha davrning urf-odatlariga ko'ra bir jamoa atzolari o'rtasida oila qurish, ya'ni er-xotin bo'lish mumkin emasdi. Albatta bir jamoa erkaklari boshqa bir jamoa ayollari bilan «oila» qurishlari lozim edi. Ammo ayol bilan «oila» qurgan erkak bamisoli mehmon edi, ishi bitgach o'z jamoasiga qaytib ketardi. «Oila»ni boshqarish, uni boqish, bola tarbiyasi va taqdiri bilan uning ishi bo'lmasdi. Bu ishlar bilan asosan ona shug'yllanar edi. Tug'ilgan bola xolasini, tog'asini taniganu, ammo otasini tanimagan. Shu boisdan bola oldida ota nufuziga qaraganda tog'a mifuzi e'tiborliroq va qimmatliroq bo'lgan. Chunki, tog'a ona urug'i jamoasini nafaqat moddiy jihatdan, balki barcha sohalarda himoya qiluvchi va qo'uriqlovchi shaxs bo'lgan. Bunday tartib-qoida natijaeida urug'

jamoasida ortiqcha iste'molchilar Ko'paygan va barcha qiyinchiliklar ona zimmasiga tushgan. Jamoani boqish, ularni oziq-ovqat bilan tatminlash albatta oson ish emas edi. Buning ustiga dehqonchilik va chorvachilik ixtiro etilgan, onalar uchun xo'jalikni boshqarishda yana ham katta qiyinchiliklar kelib chiqardi. So'zsiz, bunday tartib uzoq davom etishi mumkin emas edi. Sabr-toqatlari to'lib-toshgan onalar farzandlarining otalari oldiga o'z talablarini qo'yganlar va haqiqiy oila muammolari bilan shug'ullanish, bolalarni boqish ho'jalik ishlarini bajarishni ulardan talab qilganlar. Ana shu tariqa ikki jamoa urug'idan er-xotindan iborat juft oila shakllanadi. Bu hodisa jamiyat hayotida o'ziga xos burilish nuqtasi bo'ldi. Chunki juft oilaning tashkil topishi bilan jamoa mulkchiligiga asoslangan ibtidoiy urug'chilik jamoasi zaminiga zil ketdi. Nega deganda urug' jamoasidan tash qarida tashkil topgan bu oilaning iqtisodiy zamini xususiy mulkchilikka asoslanar edi. Oila manfaati bilan urug' jamoasi manfaati o'rtasida o'ziga xos kelishmovchilik nomuvofiqlik va ziddiyat paydo bo'lardi. Urug' jamoalaridan tashqarida juft oilalar jamoasi tarkib topdi. Ularni o'zaro birlashtiradigan manfaat omili albatta ishlab chiqarish edi. Shu sababdan bo'lsa kerak, olimlar bunday juft oilalarni «oilalar jamoasi» yoki «ishlab chiqarish jamoasi» deb ataganlar. Shunday qilib, taraqqiyotning bu bosqichiga kelib urug' jamoasi yemirilish sari yo'l tutdi, u o'zining tub matnodagi ishlab chiqarish va jamoa mulkchiligiga asoslangan qiyofasini yo'qota bordi.

Juft oilalar negizida ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo'lishida birinchi va asosiy omil - jamoa ixtiyorida ortiqcha mulkning hosil bo'lishi va jamoalararo mahsulot ayirboshlashning vujudga kelishi hal qiluvchi o'rin tutdi. Albatta, bu jarayon chorvachilik va dehqonchilikning kashf etilishi oqibatida oilalar ixtiyorida ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarining to'planishi bilan bog'liqdir. Endi har bir oila o'zidagi ortiqcha mahsulot va buyumlarni qo'shni oiladagi o'zida yo'q mahsulotlar bilan almashlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunday jarayon dastlab ikki urug' jamoalari o'rtasida olib borildi. So'ngra bu jarayonga urug' jamolari ham faol qatnasha bordilar. Ammo juft oila mulki bilan jamoa mulki endi sig'isha olmay qoldi. Bu o'zaro ziddiyatlar oilalar bilan oilalar, urug' jamoalari bilan urug' jamoalari o'rtasida o'zaro janjal, to'qnashuv va hatto urushlar darajasiga yetib borardi. Bu to'qnashuvlar oqibatida yengilgan oila va urug' jamoaning boyliklari g'oliblar qo'liga o'tardi. G'oliblar bu boyliklarni o'z mulklariga va boylikoariga qo'shar edilar. yengilgan va tobe bo'lgan oila urug' jamoasi vakillarni esa asir etib olib, ularni qulga aylantirar edilar. Bu qullar ham g'oliblarning mulki hisoblanganlar va ular ustidan o'z bilganlaricha hukmronlik qilganlar. Ana shu tariqa shaxsiy mulk sekin-astalik bilan rivojlanib, xususiy mulkka aylangan, haq-huquqsiz qullar kelib chiqqan. Birok bu mulkni qo'riqlash, qullrni itoatda saqlash va zo'rlab ishlatish uchun zo'rikka tayanuvchi qo'shimcha qurollangan kuchlarga ehtiyoj ham kelib chiqqan. Bunday ehtiyoj ni oilalar va urug' jamoalarining matlum bir qismi qoplagan. Ana shu tariqa jamiyatda mulkdorlar, xujayinlar, quldorlar, tobelar, mazlumlar, qullar va zo'rlikka tayanuvchi qurollangan kuch - yatni ibtidoiy davlat ko'rinishi elementlari vujudga keladi. Bu urug'chilik jamoasi o'z boshidan ikkinchi taraqqiyot bosqichini kechirish davriga kirganligini ko'rsatadi. Bu davrda endi urug'chilik jamoasi yemirilib, sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Jamoaning ijtimoiy tarkibida tub sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ijtimoiy va oila hayotida erkaklarning o'rni va ahamiyati oshadi. Patriarxat - ona hukmronligi o'rnini Patriarxat -ota hukmronligi egallaydi. Xuddi mana shu davrda jamoadagi ortiqcha daromad -xususiy mulk va uni ayirboshlash jarayoni bilan bog'liq va mushtarak tarzda birinchi ijtimoiy mehnat tahsimoti kelib chiqdi. Chunki jamoa atzolari bir vaqtning o'zida ham chorvachilik, ham dehqonchilik bilan shug'ullana olmas edilar. Shu bois ular o'zlariga qulay va maqul sohani tanlab ola boshladilar. Albatta, bu narsa jamoa joylashgan hududning tabiiy-geografik jihatdan xo'jalik yuritishning qaysi sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligi bilan bog'liq edi.

Xulosa shuki, jamiyat taraqqiyotining matlum bir rivojlanish bosqichida chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi va birinchi mehnat taqsimoti yuz berdi. Bu hoi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy avoslarining, tezkorlik bilan rivojlanishiga olib keldi. Buni arxeologiyaga oid tarixiy tadqiqotlar ochiq-oydin isbotlaydi. Jumladan, bronza davrining yodgorligi bo'lgan Sopollitepada yuqoridagi fikrni tasdiqlovchi

ashyolar keragicha topilgan. Bu yerdan topilgan manbalarning guvovlik berishicha, Sopollitepa 8 ta oilaning manzilgohi bo'lgan. Ularni birlashtirgan narsa urug' jamoasi bo'lmagan, balki eng avvalo ishlab chiqarish manfaatlari edi. Bu manzildagi 8 ta katta oila tarkibida patriarxal tizim asosida qurilgan yuzdan ortiq juft oilalar uyushgan, har bir katta oila jamoasini boshqarish ishi ular orasidan saylangan oqsoqol ixtiyorida bo'lgan. 8 ta katta oila jamoalari oqsoqollari oliy oqsoqollar kengashiga birlashganlar. Oqsoqollar kengashining atzolari, qadimgi diniy kitob «Avesto»da aytilganidek, *Nmanapati* nomi bilan yuritilganlar. *Nmana* - katta oila jamoosi demakdir, *Nmanapami* - katta oila boshlig'i matnolarini anglatadi. Agar ana shu tizimga asoslana-digan bo'sak, Sopollitepa 8 ta nimanadan tashkil topgan VIS ekanligini ko'ramiz. VIS -qabila jamoasi, katta qishloq degani. Vis - pati esa ana shu nimanalarni birlashtirgan oliy kengash boshlig'i, qabila oqsoqoli, katta qishloqning boshlig'idir. Bu Shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish mo'ttabar zotlar - oqsoqollar (nmanapatilar) qo'lida bo'lgan, ular jamoa hayoti bilan bog'liq, bo'lgan barcha muammolarni oqsoqollar kengashi orqali amalga oshirganlar.

Oqsoqollar kengashi katta kuchga ega bo'lgan. Ularning qulida diniy va dunyoviy hokimiyat birlashgan. Katta oila jamoasining oqsoqoli ayni vaqtda o'sha oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru ustoz va murabbiy ham edi. Qabila - qishloq oqsoqoli esa butun qishloq ahlining ana Shunday boshlig'i bo'lgan. Ularning topshirio' va buyruo'lari jamoa atzolari uchun qonun hisoblangan. Xususiy mulk pay do bo'lishi bilan iqtisodiy va sinfiy tabaqalanish tezlashib bordi. Mulk eng avvalo jamoa oqsoqollari, harbiy boshliqlar, mo'ttabar shaxslar qo'lida to'plangan. Sinfiy tabaqalanish jarayoni kuchaygani sari jamiyatni boshqarish og'irlashib boradi. Bunga sabab jamoa boyligini taqsimlash, jamoani boshqarishda demokratik prino'iplar buzilib bordi, adolatsizliklar kelib chiqdi. Bu tarixiy jarayonlar bronza davrining oxiri va ilk temir davriga to'g'ri keladi. Markaziy Osiyoda ilk temir davri miloddan avvalgi 1 ming yillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib ibtidoiy jamoa tuzumi uzining oxirgi bosqichini o'tayotgan edi. Odamlar birinchi bor temirdan xom ashyo sifatida mehnat qurollari ishlab chiqarishda foydalanganlar. Temir ibtidoiy jamoa tarixida buyuk texnik inqilobga sabab bo'ldi. U dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishiga katta tatsir kursatdi. Temir ibtidoiy jamoa tuzumini buzib yubordi va xo'jalik tabaqalanishini tezlashuviga olib keldi. Temir tufayli. chorvachilik dehqonchilikdan uzil-kesil ajraldi, Ko'plab hayvonlarning egalari bo'lgan aslzodalar paydo bo'ldi, xususiy mulkni mustahkamladi, jamiyatni sinflarga bo'lishni tezlashtirdi. Temir tufayli xo'jalikda ikkinchi mehnat taqsimoti kelib chiqdi, endi hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Xunarmandchilik ixtisoslashuvining sodir bo'lish natijasida ilk shahar larning belgilaridan biri sifatida bozor vujudga keldi, keng ko'lamdagi mol ayirboshlash kuchaydi. Ayrim shaxslar qo'ulida boyluk to'planish jarayoni tezlashdi. Temirning qishloq ho'jaligiga keng ko'lamda kirib borishi tufayli yerga xususiy egalik qilish paydo bo'ldi, Avvallari yerga egalik qilish shartli bo'lib, uniig egasi yerni sotib yubora olmas edi. Endi yer egasining xuquqi cheklanmagan bo'lib, u o'z egasining abadiy mulki bo'lib qoldi. So'nggi bronza davri yodgorliklari Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari hududida devorlar bilan o'ralgan qishloqlar paydo -bo'lganligiga guvovlik beradi. Bu Markaziy Osiyoda qadimgi shaharlarning vujudga kela boshlash jarayoni edi. Bu qadimgi xo'jaliklarning taraqqiy etganlimi, Ko'p oilaviy jamoalarning boyluklari oshib borganligi, jamiyatda sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlanganligini ko'rsatadi.

Rivojlanib borayotgan dehqonchilik va chorvachilik madaniyati va iqtisodi zaminida katta ilali jamoalarda erkaklarning mavqeyi Osha borgan va matriarxat yemirilib, ota-huquqi, patriarxat qaror topgan. Endi qarindoshchilik otaga qarab olib boriladigan bo'lgan. Bolalar ham ota mulki xisoblanib merosni otadan ola boshlagan. Jamoalarning mol-mulklarini qo'riqlash extiyoji harbiy qabila ittifoqlarini qujudga keltirgan.

Yangi tosh asriga kelib O'rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo'lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bronza davriga kelib dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi, ixtisoslashagan hunarmandchilik xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi Ko'payib, mehnat qurollari yanada takomillashib bordi. Jamiyatda ishlab chiqaruvchi xo'jalikning paydo bo'lishi va jadallik bilan rivojlanishi O'z navbatida ijtimoiy hayotdagi O'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo, umuman O'zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo bo'lishi masalalari tadqiqotchilar orasida hamon bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Bu O'rinda ushbu jarayonga asosiy turtki bo'lib yanada jadallashtirgan omillarni aniqlash nihoyatda muhimdir. Bronza davridayoq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosini tashkil etgan. Sug'orma dehqonchilikning yuqori unumdor shakllari jamiyatda hal qiluvchi O'zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo'shimcha mahsulot va xususiy mulk kO'rinishlari paydo bo'ldi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza davrida, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi hududlarida esa ilk temir davrida shakllanib rivojlandi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, O'rta, quyi) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar -Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi ham dastlabki davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib O'rta Osiyoning juda Ko'plab bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklaridan (Sopolli, Jarqo'ton, Qiziltepa, Anov, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, CHust, Dalvarzin va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan metall qurollar topib O'rganilgan. Mehnat qurollarining metaldan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

So'nggi bronza davriga kelib kulolchilik charxining keng ishlatila boshlanishi natijasida turli shakldagi yuqori sifatli sopol idishlar ishlab chiqarila boshlanadi. Kulolchilikning rivojlanishi natijasida Sopolli, Oltintepa, Gonur, Jarqo'ton, Afrosiyob kabilarda kulolchilik mahallalari paydo bo'ladi. Shuningdek, hunarmandchilikning toshga, metalga, yog'ochga, suyakka ishlov berish turlari ham keng tarqaladi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi, alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatchilik paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot Ko'payishiga turtki bo'ldi.

6-MAVZU: O'rta Osiyodagi ilk davlat uyushmalari

REJA:

- 1. Zardushtiylik e'tiqodining vujudga kel O'rta Osiyoda ilk shaharlarning vujudga kelishi. Ijtimoiy tabaqalanishning boshlanishi.***
- 2. Turar joylar, hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik ishi.***
- 3. Zardushtiylikning tarqalishi va uning O'rta Osiyoning eng qadimgi xalqlari ma'naviy hayotiga ta'siri.***
- 4. "Avesto" kitobi va undagi tarixiy ma'lumotlar.***

Ilk davlatlarning paydo bo'lishida o'zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Dastavval shuni aytish joizki, O'rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab o'zaro munosabatlarni rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib Shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o'troq dehqonchilik aholisi O'rtasida O'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashadi. Bu o'rinda O'sha davrda shakllanib keyinchalik ancha rivojlangan qadimgi yo'llarning ahamiyati beqiyos bo'ldi. O'rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo'shni davlatlar bilan ham o'zaro aloqalarni rivojlantirganlar. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, qimmatbaho Badaxshon (Tojikiston) lojuvard toshlari mil avv. III ming yillikdayoq Mesopotamiya va Misr shaharlarida nihoyatda qadrlangan va bu hududlar bilan o'zaro mol ayirboshlash munosabatlari O'rnatilgan. Undan tashqari, Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Eron, O'rta Osiyo yodgorliklaridagi so'nggi

bronza va ilk temir davri topilmalaridagi juda Ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar O'rtasidagi O'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan dalolat beradiki, bu jarayon ham ilk davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mil avv. III - II ming yilliklarga kelib O'rta Osiyo jamiyatida sodir bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari bu hududlarda ilk shaharlarning paydo bo'lishiga imkon yaratdi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlar paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Ma'lumki, mil.avv. II ming yillikka kelib qadimgi O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida O'troq qabilalar rivojlanib aholining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy O'zgarishlar - O'troq dehqonchilikning rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimining murakkablashib borishi, O'zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekiston hududlarida dastlabki shaharsozlikning paydo bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi.

O'lkamiz hududlarida dastlabki shahar madaniyatining shakllanishi ham jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi uzoq va bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. O'zbekistonning turli hududlarida tadqiqotchilar qadimgi shahar xarobalarini topib tekshirdilar. Ko'p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha bu ko'hna shaharlar ba'zilarining yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob, Ko'ktepa (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, ErqO'rg'on (Qashqadaryo vohasi) va boshqalar kiradi. Bu ko'hna shaharlar tarixi hozirgi Samarqand (Afrosiyob-Maraqanda), Kitob-Shahrisabz (Uzunqir) yoki Qarshi (Erqo'rg'on) hududlarida davom o'tdi.

O'lkamiz hududlarida qadimgi shaharsozlik madaniyatining asoslari quyidagilardan iborat:

- aholining O'troq dehqonchilikka O'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;
- hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivojlanishi natijasida iqtisodiy hamda madaniy aloqalar va savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga qaraganda shahar madaniyati dastavval **Shimoliy Baqtriyaga** (Surxon vohasi) keyin esa **So'g'diyona** (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro vohasi), **Xorazm** va **Farg'ona** hududlariga tarqaladi. Qadimgi shaharlar -tarixiy rivojlanishdagi urbanistik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, shaharlar tarixini O'rganish jarayonida dastavval eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi; aniq hududlar yoki viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta'siri; ekologik, geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta'sir doirasi; shaharlarning vazifasi; qadimgi shahar markazlarining tarixiy-madaniy jarayonlardagi o'rni va ahamiyati masalalariga keng e'tibor qaratish lozim.

Ko'pchilik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz shunday xulosaga kelish mumkinki, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyati mil avv. II ming yillikdayoq, ya'ni, bronza davridayoq shakllana boshlaydi. Bu davrda ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi natijasida mehnat unumdorligi ortib boradi. Natijada turli tarixiy viloyatlarda joylashgan yirik mustahkam manzilgohlar o'rni va atroflarida (Sopolli, JarqO'ton, Namozgoh, Qiziltepa, ErqO'rg'on, Bandixon, Uzunqir) dastlabki shahar markazlari shakllanib rivojlana boshlaydi.

Xullas, O'rta Osiyodagi urbanizatsiya jarayonining xronologiyasi va shakllari nisbatan turlicha bo'lib, bu jarayon faqat ichki tabiiy-geografik va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar hamda qo'shni jamoalardagi madaniy ta'sir bilan bog'liq bo'lmasdan, dastavval, Yaqin va O'rta Sharqdagi (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Eron) jahon urbanistik markazlari bilan ham chambarchas bog'liq edi.

O'lkamiz hududlaridagi ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqesi bilan ajralib turgan. Bu shaharlar asosan aholisi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan

vohalarda, qadimgi savdo yo'llari bo'ylarida, hukmdorlar qarorgohlari atroflarida paydo bo'lgan. Bunday shaharlar O'zlari joylashgan vohalarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markazlari vazifasini bajargan bo'lishi shubhasizdir.

-1-

Markaziy Osiyodagi turli xalqlarning qadimgi davrlardagi diniy qarashlari va e'tiqodlari, payg'ambarlari va ular ta'limotlarining yoyilishi Ko'pgina olimlar orasida ilmiy munozaralarga sabab bo'layotgan masaladir. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng yoyilgan va asosiy din zardushtiylik edi. Bu ta'limotning asoschisi Zaradushtra va uning faoliyati, bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" va paydo bo'lgan hudud haqidagi masalalar ham Hozirgi kunda Ko'pchilik tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi. Umuman olganda, Zaradushtraning Vatani Markaziy Osiyo deb hisoblovchi olimlar Ko'pchilikni tashkil o'tdi.

Ma'lumotlarda islomda "Qur'on", nasroniyalarda "Bibliya" bo'lganidek "Avesto" - zardushtiylik dinining matnlari to'plamidir. Zardushtiylik ta'limoti er, suv, Havo va olovni muqaddas deb Hisoblagan.

"Avesto" kitobi turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Shu jumladan - qadimgi geografik tushunchalar - daryolar, tog'lar, ko'llar nomlari, hududiy etnik qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi mamlakatlarning ro'yxati, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar haqida, siyosiy tuzum, diniy nasihatlar, zardushtiylik falsafasi, dunyo tarixi rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Tarixdan ma'lumki, zardushtiylik miloddan oldingi VII-asrdan, milodning VII asrigacha qariyb ming yil Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarda diniy e'tiqod sifatida yashadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Zardusht Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko'rsatgan ilohiyotchi faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan. Zardusht zardushtiylik dinining payg'ambari sifatida tan olingan va e'tirof etilgan bo'lib, uning ta'limoti Markaziy Osiyo xalqlari tarixida va ma'naviy madaniyatida ulkan rol o'ynadi.

I.A.Karimov bu Haqda Shunday dedi: "Eng mO'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, manashu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim O'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi".

"Avesto"ning paydo bo'lgan davri arxeologik davrlashtirish bo'yicha so'ngi bronza va temir davriga to'g'ri keladi (mil-av IX-VII asrlar). Markaziy Osiyoda shu davr Yaz 1 va unga to'rdosh bo'lgach Chust, Kuchuktepa va Tillatepa madaniyatlariga tarqalgan. Ular moddiy madaniyati namunalari "Avesto"da keltiriladigan ma'lumotlar bilan mos kelishi Ko'plab avestoshunos va arxeolog tadqiqotchilari tomonidan qayd etilgan.

O'rta Osiyo hududlarida davrida "nom"tipidagi shaxar-davlatlar paydo bo'lganligi Oltintepa dashtli Jarqo'rg'on yodgorliklari misolida kuzatilsa, so'nggi bironza va ilk temir davrida esa "nom" tipidagi xududiy davlatlarining kakilanish jaroyonlari kechgan. hududiy avlodlar bir yoki bir necha kichik daryolar bo'zanlari xududlarini birlashtirib, markaziy shahar va shu shahar atrofida jamlangan qishloqlar majmuasidan iborat bo'lgan.

"Avesto" paydo bo'lgan paytda, ya'ni Yaz 1 davrida O'rta Osiyo hududlarida ilk marotaba mudofaa devorlari bilan o'ralgan arklar paydo bo'lgan bo'lsa (Yaztepa, Kuchuktepa, Tillatepa, Qiziltepa va boshqalar), "Avesto"da jamiyatning siyosiy va huquqiy masalalari to'g'risidagi ma'lumotlarni topish mumkin. Jumladan, Mitraga ibodat qilganda, sig'inganda unga boy yoki kambag'al odamlarning farqi yo'qligiga ishora etilganligini o'qishimiz mumkin:

"Ibodatni ijodat-qilgumdir men albat,

Xoh faqir, xoh podshohning"

Avesto davri jamoasi xaqida gap ketganda, eng kichik jamoa birlashmasi urug' sifatida

namoyon bo'lsa, urug'lar birlashib, mamlakat yoki davlatni tashkil etgan. Avesto davri jamoasining takomillashib olganligini quyidagi satirlarda o'qiydiz:

**"Agar uyda uy boshi, Urug'da urug' boshi
Qiblada yo'lboshchi Mamlakatda hukmdor,
Bo'lsa kazzob aldoqchi Mitra halol aylagay."**

Zikr etilgan bilish mumkinki, o'rganilayotgan davrning ijtimoiy va siyosiy birlashmalari oila (uy) - urug'-qabila-mamlakat (davlat)dan iborat bo'lib, ularni oila boshlig'i (ota), urug' boshlig'i, qabila yo'lboshchisi ishchisi va shox boshqargan.

"Avesto"da tariflangan mamlakatlar, podshoxliklar to'g'risida xabarlar asosida ilk davlatlar borasida yangi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin:

"Mazda bergan ko'rkaboy Xaoshyanxa Paradata Xara tog'i ostida Ashiga namoz yo'llab..."

Bu malumotdan shu anglash mumkinki, Paradata sulolasidan bo'lgan Podshoh Xushang (Xaoshyanxa) mamlakatni xar xil devlardan, ofatlardan, balo-qazolardan qutqarish uchun Ashidan madat so'raydi va vu sulola boshlig'i mamlakat "nom" tipidagi hududiy davlat bo'lgan.

"Avesto"ning Yasht qismida ilk qabilalardan bo'lgan Usan va Xausravning butun oriyalar mamlakati o'stidan hukmronlikka intilganligi bayon qilingan. Kavilar mamlakati yoki kavilar davlati masalasi ilk marotaba A. Kristensen, I.M. Dyakonov, so'ng G.Noli tomonidan fanga olib kirilgan. Fikrimizcha, hozirgi kunda bu g'oyani rivojlantirayotgan, yangidan-yangi fiklar bilan boyitayotgan olim I.V. Pyankov bo'ladi. Uning "Avesto" va "Shohnoma" bo'yicha olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, kabilalar davlatining rivojlanishi xronologik jihatdan ikki: ilk va so'nggi davrlarda bo'linadi. Ilk qabilarning asoschisi Kavi (Kay-Qubot) bo'lib, uning merosxo'ri kavivaxu hisoblanadi. Kavi Apivaxuning to'rtta o'g'li ham "kavi" unvonida bo'lgan. O'g'illarining orasida Usan (Kay-Qovus) va Usanning nabirasi Xaosrov (Kay-Xisrav) kavilar siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan. Xausrav kavilarni kichik podshohliklarga bo'lib boshkargan. Shundaylardan biri Kazi Vishtasp bo'lib. Baqtriyang hukmdori bo'lgan. I.V.Phyankov "Avesto" da eslanadigan Usan, Xausravlarni ilk kavilar hukmdorlari deb hisoblaydi. Olimning fikricha, Zardushtning o'z yurtiday panohtop olmay Baqtriyadan, uning shohi Vishtasp honadonidan makon topishidan boshlab kavilar davlati rivojlanishining ikkinchi boe qichi boshlanadi. ilk kavilarga u Kavi Vashtaspning hukmronlik davrini va Zardusht-ning uni saroyida yashagan davrini VII asrning ikkinchi yarmi deb hisoblanishini asosqilib oladi.

Nadi-Ali kishlog'i yonpdan R.Girshman tomonidan topilgan mil.avv. VIII asrga old Surxdag yodgorliginp LM.Dhyakonov ilk kavilar hisoblaydi. Demak, yuqorpdakeltirib o'tilgan ma'lumotlar orqali "Kavi" unvo nida bo'lgan hukmdorlar podshohlar xususida bilib olishimiz mumkin va bugungi kunda udo'aning yashab o'tgan xronolso'aps davrlari. hududlari DeiDinlashmoqda. Akestoning Yasht qismida ko'chyanchi tur qaoilasining shohi Frangrashyan O'Afrosiyob) butun oriyalarYasht kitobida ifodalangan geografik nomlar ham da urug nomlari, shuningdek, unpng qadimiy xarakter kasb etishi Ko'p marotaba tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlangan. Yasht alqovlarida eslanadigap Paradata, Atviya. Xyona va Kavi kabi nomlarni tarixchilar yaxshi bilishmaydi. Ularni "Avesto" asosida tiklash ishlari endi amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib. olib borgan kuzatishlarimiz natijasida shu narsa ay on bo'ldiki, "Avesto"ning Yasht kitobida qayd etilgan Pa- radata (Paretaka). Atviya. Xyana, Kavi va Tur kabi qabila kabul qilishlozim.

Keyinchalik kavilar atalgan likni qabul qilgan kavilarga nisbatan esa yaxshi mu-nosabatda, bo'linganligi qayd etilgan. Ilk kavilar-ning yashagan davrini I.V. Phyankov milav 900-775 yillar bilan belgilaydi, buntilga olinadi. Ma'lumotlariga" qaraganda, Kavi Usannikg o'g'li Shyavarshan Frangrashyanga, ya'ni (urlar mamlakatiga qochadi, va "baland ilohiy Kaygxe" ustida Xshatrosauka qo'rg'oniga asos soldim Hapja (oriylar yurti), Gava Sugda (So'gd), Muru (Marg'iyona). Baxdi (Baqtriya), Xarayva (Xiro) singari yirik davatlar paydo bo'lgan.

Vatanimiz hududida yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan xalqlardan biri ekanligini tarixda «Avesto» nomi bilan ma'lum bo'lgan muqaddas kitob ham isbotlaydi. Dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri Zardushtiylik (O'tashparastlik, zoroastrizm) dinidir. «Avesto» ana shu zardushtiylik dinshshng muqaddas kitobi hisoblanadi. Unda Markaziy Osiyo hududlarida yashagan

barcha turkiy xalqlar, fors-tojik, ozarbayjon, afg'on va boshqa xalqlarning qadimga davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy mada-niyatlari o'z aksini topgan. Manbalarda «Avesto» kitobining muallifi Zardusht (ba'zi manbalarda Zardusht) bo'lganligi qayd etiladi. U hayotda yashab o'tgan tarixiy shaxs. Taniqli faylasuf olim Ibrohim Karimov «Muloqot» oynomasining 1992 yil 11 12-(23-24) sonlarida chop etilgan «Zardushtiylik haqida xaqiqat» maqolasida Zardushtning

miloddai avvalgi 589-512 yillarda, ya'ni bundan 2600 yil muqaddam yashab o'tganligini yozadi. Olimning ta'kidlashicha, Zardusht Spitoma Markaziy Osiyo qududida faoliyat ko'rsatgan ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan. Uning uch o'g'il va bir qizi bo'lgan. Zardusht 40 yoshga yetganda o'zigacha bo'lgan Ko'p xudolilik. Diniy aqidalariga ham da tabiat hodisalariga qarshi chiqib, yakkaxudolikka asoslangan birinchi diniy kitob «Avesto»ni yaratgan. Zardusht zardushtiylik dinning payg'ambari sifatida tan oltshgan va e'tirof etilgan.

Shu paytga qadar zardushtiylik haqide olimlar o'rtasida turlicha qarash va g'oyalar mavjud. Bu eng' avvalo zardushtiy dinning qizisi maskanda iaydo bo'lgai? Vkkinchisi, yakkaxudolik dini bo'lgenni yoki Ko'pxudolik kabi ma'g-ladir.

Ba'zilar Zardushtiylik dinini Midiyada kelib chiqqan desalar, ayrimlar unv Zronda iaydo. Bo'lgan, deb isbotladilar. Zardushtning vatani Zrovdar deb ksbotlovchi olimlardan biri E. Bervnviig fikricha, zardushtiylik dlni «Dind - ErOiqz bilasi dshdadan kelib chiqqah».

Olimlarning katta bir guruhi: V. V. Stgruve, V. V. Trever, S. T. Tolstov, N. Proxorov va boshqalar zardushtiylik dinining vatani Markaziy Osiyo deb isbotladilar. A. O. Makovelhskiy ham shu fikrga qo'shilishga mo'yildir. Bu guruh olimlar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da yakkayu yagona xudo Oxuramazda («Oxuramazda» «Yuksak dahshsh hukmron» demavdir) yaratgan 16 mamlakatning nomi berilgan. Bu mamlakatlardan ikkitasi afsonaviy bo'lsa, to'qqiztasi Markaziy Osiyoga tegishli bo'lgan viloyat va shaharlardir. Qolgan beshtasi Hiidiston, Ozarbayjon, Armaniston hududlariga qarashlidir. Masalan: So'g'diyona (Tava), Marg'iyona (Marv), Balx (Baxdi), Nisoya (Ashg'abot atrofi), Hirot, Kobul, Tus (Xuroson), Gurgon (Urganch), Varana (Turkmaniston va Eron chegaralari oralig'i) tilga olinadi. «Avesto» kitobida yer dumaloq shaklda yaratilganligi, uning atrofi okeanlar bilan o'ralganligi, nomlari keltirilgan mamlakatlarda xudo Oxuramazda ezgulik qonunlarini Zardusht orqali vahiy qilganligi haqida yozilgan payg'ambariga aylanganligiga diqqat e'tiborni qaratadi.

Zardushtiylik bo'yicha ilgarigi Ko'pxudolilik dinidan rasmodat bo'lib qolgan murdalarni olovda kuydirib, kulini dafn etishni qat'iy qoralab, marhum suyaklarini maxsus ostadon (yssuar)larga solib, ko'mishdan iborat yangicha odatlar joriy qilingan. Bunday ostadonlar tadqiqotchi Yu. A. Rapoportning ta'kidlashicha, asosan Markaziy Osiyo hududlari yer ostidan topilayotir, Eron hududida esa bita yarmta uchramoqo'a, xolos. Bu hoi zardushtiylikshg vatani Markaziy Osiyo deb aytish uchun tarixiy asos bo'la oladi.

Zardusht yaratgan ilohiy kitobning o'zi bizgacha yetib kelmagan. Faqat u haqda yozilgan tarixiy manbalar bor, xolos. Zardusht yashagan davrda kishilik jamiyati ilgarilab rivojlana bordi. Ko'chmanchilikka asoslangan Markaziy Osiyoda eski turmush tarzi o'rnini o'troq yashash egallay boshladi, sug'oriladigan dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik borgan sayin taraqqiy o'tdi. Yangi-yangi shaharlar, obod qishloqlarning paydo bo'lishi o'troq yashash turmush tarzining afzalliklarini ko'rsata bordi. Ana shu o'troshik turmush tarzining odamlarga benixoya kulfatlar keltirayotgan ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini ommaga yetkazish davrning asosiy muammosi bo'lgan. Ana shu zaruriy muammoni Zardusht ham madan oldin ko'ra olgan va uni hal qilish yo'llarini topa olgan. Xalqlarni, qabilalarni biryaash tiryab, farovonlikka erishtirishning birdan bir yo'li yakka xudolik vahdoniyatga o'tish, deb bildi va o'zining butun ongli faoliyatni shu muqaddas ishga bag'ishlab, yakka xudolik uchun olib borilgan urush (jixod)da o'zi ham halok bo'ldi.

Zardushtiylikning muqaddas kitoblari to'plami «Avesto» Iskandar Zulqarnayn hokimiyati inqirozga yuz tutgach, milodimizdan; burungi 250- yillarda, arshoxiylar davrida yana tiklana boshlagan va u yangi matnlar bilan to'ldirilgan, Sosoniylar hukmronligi davrida (milodning III-VII asrlarida) bu ish poyoniga yetkazilgan. «Avesto»ning 1-uchta kitobi qadimgi tilda va bittasi pahlavny tidda tiklangan.

Birinchi kitob «Videvdat», ya'ni devlarga qarshi qonun deb ataladi. «Yosin» va «Visparad»ni qo'shganda u «Videvdat» «Sade» deb ham yuritiladi. «Videvdat»ni poklanish qonun qoidalari majmuasi deb aytsak bo'ladi. Ikkinchi kitob «Yosin» bo'lib, Zardusht xat (noma)lari uning asosiy mazmunini tashkil o'tdi. Bu kitob 72 bashoratdan iborat bo'lib, birinchi bashoratida tabiat va halolliklar hukmdori, ham ma narsani biladigan va xamma narsaga qodir Oxuramazdaning vahiylari haqligiga imon keltirishga doir duolar bor. 19- bashoratda olam yuzaga kelmasdan oldin mavjud bo'lgan xudo sha'niga shukronalar bay on qilinadi.

Kitobda poklaiish (yuvinish gigienasi), yovuzlikni qarg'ayotgan paytda tanani qanday maromda tutishlik, shayton iblislarni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig' bo'lish, kechirim so'rashga doir duolar ham katta o'rin olgan. Jumladan, imonni saqlab qolish, gunohdan forig' bo'lishlik uchun quyidagi duoni o'qish tavsiya qilinadi: «Ey, olamning hukmdori Oxuramazda! Men barcha gunohlarimga iqorman, ularni takrorlamaslik uchun senga so'z beraman, har qanday yomon niyat (fikir) lardan, har qanday yomon so'zlardan, har qanday yomon amallardan voz kecham an; men fikrlagan va gapirgan yoki qilmoqchi bo'lgan va qila boshlagan va qilgan ham ma nojo'ya ishlarimdan voz kecham an; niyatlarim, so'zlarim va amaliy ishlarim orqali bundan buy on ishonchingki oqlayman, qilgan gunohlarimni keng karaming ila kechirgil, tanam va jonimni u dunyoyu bu dunyoda munavvar etgil, ey parvardigorim». Ikkinchi kitobning 7 ta bobida Zardusht orqali xabar berilgan bashoratlar o'z ifodasini topgan. Zardusht xudo Oxuramazdadan o'z axloqiy qonun-qoidalarini ma'mm qilishni so'raydi. Oxuramazda butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi ezgulik va yovuzlik. to'g'risida vahiy qiladi. Bir-biriga qarama-qarshi bu boshlangich kuchlar doimo birgalikda mavjud bo'lib, ular hayot va o'lim, osmon va jahannam ma'nolarini bildiradi. Jahannam Oxuramazda vahiysida «Hayotning eng yomon onlari», osmon esa running eng yuksak holati sifatida gavdalanadi. Olamdagi yovuzlik va notakomillik hodisalar va ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Ularni bartaraf etish esa istiqboldagi ish bo'lib, imonli kishilarning faolligi tufayligina bunga erivdiladi. Imonli kishilar Oxuramazda yuborgan qonun qoidalar, tartibotlar, nasihat va o'gitlarga amal qilsalar ezgulik yovuzlik uetidan albatta g'alabaga erishib boravergdi.

Kitobda kayd etilishicha, olam qarama-qarshiliklar asosida qurilgan: jismoniy narsalarda yorug'lik bigsan zulmat, jonli tabiatda hayot bilan o'lim, ma'naviy olamda ezgulik bilan yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o'rtaeida doimiy qarama-qarshiliklar bor, diniy sohada ezgulikni qaror topshirish ruhi bilan yovuzlik ruhi o'rtasida keskin kurash boradi. Oxuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axriman unga qarshi kurashib odamlarni yomonlyk sari, yovuzyaiklarga boshlayveradi. Kitobning 30-bashoratida ta'kidlaiishicha, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashda oraliq yo'q, har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Shu boisdan dindorlikda imon e'tiqod barkamollik nishonasi sifatida muhim o'rin tutadi. Imon e'tiqod odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkoniyat beradi, Imonli e'tiqodli odam albatta ezgulik, yaxshilik sari intiladi. Yovuz ruhlar dev, pari, iblis va boshqalar gunohlar, adashishlar, yolg'onlar, kasalliklar timsoyai sifatada tasvirlanadi. Oxuramazda odamlarii ulardan saqlanish, o'zini chetga olishga da'vat o'tdi. Yosinning 14-bashoratida xudo: «Men ezgu fikr (niyat) larni, ezgu so'zlarii va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mezdayosin qonunlariga asoslangan tartibotlarni ulug'layman», deydi, Bundan ko'rinadiki, zardushtiylik imoni uch tayanchga asoslanadi: fikrlar sofliigi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidir. Ohuramazda odamlarni « o'z istaklarida xolis bo'lib, bir-birlari bilan murosa qilib yashashni o'tdi qilishlari, g'arazgo'ylik, hasadgo'ylik, kattazanglik (dimog'dorlik), shuhratparastlik, qonumsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurishi uchun» intalishga chaqiradi. «Bergan so'zning ustidan chiqish, unga yeodkq qolish, savdo sotiqa shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtda to'lash, aldanchilik va xiyonatdan xoli bo'lish» imonlilik alomatlaridir, deyiladi, Imonli odam o'g'irlik va talonchilikdan, 4 begonalarning mol-dunyoysiga ko'z olaytirishdai, o'z-o'ziga xiyonat qilish, ya'ni imonga xilof ishlardan o'zini saqlay biladigan komil insondir. «Tanlaringizga nisbatan qalbingiz haqida Ko'proq qayg'uring», ya'ni avval ma'naviy dunyoingaz musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi, deydi Oxuramazda.

«Avesto»da shaxsning axloqiy xislatlari, haqgtsilik, adolatlilik ulug'lanadi. Bunday ezgu

sifatlarga Oxuramazdaning o'zi ham ega bo'lib, u shu bilan birga ezgulikka zid bo'lgan yovuzlyakka murosasiz dushmandir. Asarda Oxuramazda tilidai bunday deyilzdi:

*«Men borliqning Qo'riqchisiman.
Nomdir menga tag'in Himoyat
Yana bir nom bilguvchilikdir
Voqiflikdir yana bir tarzim,
Mening nomim Haqgo'ylik erur
Menivg pomim aldovsizlikdir.
Mening nomim Asraguvchidir
Mening nomim erur Qaqshatqich,
Ostin-ustun qilguvchi ham men
Barchani vayron etguvchi ham men,
Yo'qlikdan bor etguvchi ham men,
Yana bir nomim ezgu harorat,
Haqqoniyat yana bir ismim».*

«Avesto» kitobida materialistik dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Yer, suv, havsni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shiladi. Oxuramazda «erga yaxshi, sog'lom urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q.» deydi. Xudoi taoloning bu aytganlariga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzdab joaivorni xudo yo'liga qurbonlikka so'ykshdan afzayaroq hisoblangan. Ohuramazda yerga ekin ekishni yerdagi yoyauzliklarga barham berishdan iborat, deb hisoblaydi. Bashoratlardan birida: «Olam go'zalligi dehqondan, dehqonchilikdav, kimki yerga urug' qadabdi, u odamiylikka imov keltiradi, yagona shu yo'lgina haqiqat bo'lib, qolgani sarobdir», deyiladn. Boshqa bir bashoratda esa quyidagn jummalarni: o'qiydi «Bug'doy o'stirila boshlasa, devlarni terbosadi, sovrilgan. Bug'doy tayyor bo'lsa, devlar zaiflashib qoladi. Un tayyor bo'lgach, devlar kolayu fig'on chekishadi. Devlarni mag'lub etish uchun xonadonda ham isha unli oaqat bo'lishi lozim. Bu ovqatni odam yegandan so'ng devlar juda qizishib ketishadi va qocha boshlashadi».

Oxuramazda qonunlarida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, uni jamoa o'rtasida adolatli. taqsimlash eig savobli ishlardan xdsoblangan. Undan keyingi savobli ish esa, oziq-ovqat tayyorlash, uy hayshnlary va chorva mollarini Ko'paytirishdan iborat bo'lgan. Zardusht xudo nomidan hukmdorlarga qarata bundaya deydi: «Yomea ovqatlangan xalq na yaxshi, kuchli ishlovchilarga va na sog'lom, baquvvat. Bolalarga ega bo'ladi. Yomon ovqatlanipvdan odob-axloh ham aynib ketadi. Agar non mo'l-ko'l bo'lsa, muqaddas so'zlar ham yaxshi qabul qilinadi». Bir qarashda oddiygina ko'rinadkgan bu so'zlarda juda katta falsafiy ma'nolar, tarbiyaviy o'gitlar borligiga amin bo'lamiz. Zardushtiylik o'gitlarida ona zamrgnga, dehqonchilikka, hunarmao'dchilik, chorvachilik, Vatan va xalqqa ulur muhabbat ruhi markaziy o'rinni egallaydi. Buni byaz zardushtiylikning Navro'z, Ro'za, Mehr va boshqa barcha marosimlarida ochiq-oydin ko'ramiz. Yosinning 29-bashorat 5-hikmati va 50- bashorat 8-hikmatida ibodatdan so'ng ikki kaftni oldinga ochiq holda yozib ko'targan holda Olloxdan o'z talablarini qon-dirishni ilzdjo qilish rasm-rusmi haqida gap boradi. Undagi bashoratlarda yer, osmon, ummon boshlanishi, jannat xdqida fikrlar bay on qilinadi.

Bashoratlardagi Odam Ato haqidagi fikrlar o'ziga xos bnr tarzda bayon etiladi. Unda ta'kidlanishicha, Iyim nomi bilan atalgan birinchi odam Oxuramazda irodasiga ko'ra 900 yil yashaydi va u shu davrda odamlarni, hayvon va qushlarni parvarksh qiladi, qizil shu'lali olozni Ko'paytiradi, Oxuramazda Iyimga oltin nayza bilan oltin qamchi sovg'a qiladi. yer odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganda u nayzani yerga sanchib yerni kengaytirishni iltijo qilib xudodan so'raydi va unga erishadi. Oxuramazda Odam Atoga yerga sovuq ofat kelayotganligini va uni oldini olish lozimligini o'tdi. Iyim o'ziga bir uy qurib xayvonot va o'simlik zotlarining eng yaxshilaridan bir juftdan olib bu uyda ularni saqlab qoladi va shu tariqa Odam Ato tirik tabiatni ofatdan saklab qolishga erishadi.

Ammo Odam Ato o'z qilgan ishlaridan ortiqcha mag'rurlanib ketadi va xudo tomonvdan taqiqlangan ne'mat- qoramol go'shtidan iste'mol qilib qo'yadi, U xudoning qahriga uchraydi va abadiylikdan judo bo'ladi. Odamzod hayotining bu byirinchi bosqichidan so'ng kkinchi bosvdch

boshlaiadi. Ikkinchi davr Zardusht faoliyati va uniig diniy islohoti bilan bog'liq. Bu davr din va imon uchun kurash bilan xarakterlanadi. Olib borilgan 3000 yillik kurashlardan so'ng Zardusht farzandi boshchiligida dunyoda tinchlik, osoyishtalik va farovonlik yuzaga keladi. Yomonlik va yovuzlik kuchlari timsoli bo'lgan dev Axriman yengiladi. Uchinchi davrda qiyomat qoyim bo'ladi, Barcha o'lgailar tirilib xudo oldiga keladilar va o'z qilmishtke chirmishlari bo'yicha unga hisobot beradilar. Xudoi taolo ham ma ishlardan voqif va uni ko'rib turibdi. Xudoni aldab bo'lmaydi. Zardushtiylik dini bo'yicha odamzod olamdan o'tgach uch kunga qadar joni uning tanasida saqlanadi. To'rtinchi kunida har bir odam zoti go'zal qiz qiyofasio'ash o'z mahrami farishta yo'l boshchiligida narigi dunyodagi qilKo'prik «Chinvot»dan o'tdi. Yaxshi va yzgu ishlar qilgan insonlarga bu Ko'prik kengayib turadi va yo'l beradi. Undan omoneson o'tgan har bir zot abadiy rohatfarog'atga jannatga yo'l oladi va o'liklar tiriladigan kunda o'z tanasiga jon kirishini kutib yotada. Yomon va yovuz ishlar bilan shug'ullanganlarga «Chinvot» qilday torayadi va ular jahannam azoblariga maxdum bo'ladilar, do'zaxga tushadilar.

«Avesto»ning uchinchi kitobi «Vasparat» deb ataladi. Bu kitobda. olamni, haisha narsani bilishga oid pandu nasihatlar o'rin olgan. Kitob asosan ibodat namozlari yig'indisi bo'lib, 25 qismdan iboratdir. Bu kitob «Bundaxash», qadimiy Eron tili paxlaviy tilidan yozilgan. Yeshtlar va Yosinlar uch qatlamdan iborat: birinchisi xalq zposlarining Zardushggacha bo'lgan qo'shiqlari (she'rlari), ikkinchisi Zardusht xat (noma)lari va uchinchisi Zardusht urushda halok bo'lgandan deyarli bir asr key in kitob holiga keltirilgan va «Kichik Avesto» nomi bshgan yuritiladigan qismi hisoblanadi. Shiming uchun «Avesto»ning dastlabki ilk va kichik (so'nggi) qismlarida uning assiy qismi Zardusht nomalarinm bir-biridan farq qila bilish kerak. Zardushtnomalar ko'i xudolikni, o'tga va tabiatning stixiyali kuchlariga sajda qilib sig'inmshni qoralaydi va yakka xudolikka da'vat qiladi. Shu paytga qadar ilmiy adabiyotlzdarda bildirilgan fikrlar asosan «Kichik Avesto»ga asoslangan g'oyalar bo'lgan. Bunda Ko'p xudolilik bilan yakka xudolilik goyasi aralashib, qorishib ketganligadan Zardushtiylikni Ko'p xudolilik va ikki xudolilik dini sifatida qarab kelganlar. Bu yakka xudolilikka asoslangan Zardushtiylikni asosiy yo'nalishi Ko'p xudolilikdan iborat bo'lgan mazdaniylik bilan aralashtirish oqibatidir. Zardushtgacha ham Oxura, Matra, Mazda va boshqa xudolar hakida fikrlar bo'lgan. Ammo u xudolar xuddi odamlardek hayot kechirganlar. Zardusht talqinidagi Xudo Oxuramazda esa Oliy ibtido bo'lgan, uning xotin, bolachaqalari yo'q. U ham ma narsani, butun borliqni yaratuvchi Oliy ruh bo'lib, barcha ezguliklar va yaxshiliklar bilan odamlar qalbini munavvar qiladi. Zardusht asos solgan yakka xudrlilik dini Eronda Aham oniylar hokimiyat tepasiga kelib, ular Markaziy Osiyoni bosib olgach zavolga uchraydi. To'g'ri, Eron shohlari o'z saltanatlarini barqaror qilishda zardushtiylik dinining aham iyati va o'rniga yetarli darajada baho berganlar. Ammo bu dindagi o'rtahol dehqonchilik, mo'tadil kamtarona hayotdan iborat turmush tarzini ilohiylashtirib, quldorlik munosabatlarini qoralash Eron shohlariga yoqmaydi.

«Kichik Avesto»da Oxuramazda olamni yaratuvchi va tartib o'rnatuvchilikdan ko'ra Ko'prok kabilaviy xudolarni birlashtiruvchi bosh xudoga aylanib koladi. Aham oniylar Yunonistonni bosib olish uchun olib borgan urushlari ham da Yunonlarning Eron va Turonni ishg'ol kilishlari oqibatida Oxuramazda Yunonistonda bosh xudo Zevs, Zardusht esa Aflotun (Platon) sifatida talqin etiladi. Aham oniylar Zardushtiylikni o'z e'tiqodlariga bo'ysundirgan bo'lsalar, Iskandar Zulqarnayn bu dinni butunlay yo'q qilib tashlamoqchi bo'ldi, bu dinga oid kptoblarni butunlay yoktirib yubordi. «Avesto» haqida Abu Rayhon Beruniyning «Utmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida szib qoldirgan ma'lumotlari diqkatni tortadi. Beruniy bunday yozadi: «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shutng uchun «Abisto»ning beshdan uchi yo'qolib ketdi. «Avesto»o'ttiz nask (qism) edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask cham asi qoldi».

O'lkamiz arab xalifaligi ko'shinlari tomonidan fath etilib, islom dinining tarqalishi davrida ham zardushtiylik va uning mukaddas kitobi «Avesto» qattiq ta'qib ostiga olindi.

Zardushtiylikning Markaziy Osiyoda vujudga kelganligi va uning jahon madaniyatiga ko'rsatgan ijobiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. «Avesto»ning biztacha yetib kelganligi uchun eng avvalo ingliz va frano'uz olimlaridan. minnatdor bo'lishimiz kerak. Chunki, 1755 yilda frano'uz olimi A. Dyupperon Dindistonga ilmiy safar qilib, u yerdati zardushtiy (mazdaiy) lar orasida uch yil yashadi,

ularning ibodatlari, urfodatlari bilach yaqikdan tanishdi va «Avesto»ni frano'uz tiliga tarjima kildi. «Avesto» G'arbiy yevropa, Eron va Hindiston orqali bizga yetib kelganligidan undaga nomlar, ismlar va terminlar asliga tug'ri kelmaydi.

Beruniy yozgan rivoyatlarga qaraganda Zardusht Baqtriya podshohi vishudsl (Gushtasp) huzuriga kelib, «Avesto» ni unga tortiq qnladi. O'ng va so'l tomoilari kesilgan qo'ylak kiygan, yuziga parda tortilgan, qo'lida bir eski qog'ozni Ko'kragiga mahkam bosganicha Zardusht kunduz kuni Gushtasp qasriga tushadi. Shunda tom ochilgan va Gushtasp kunduzgi uyqudan uyg'onib ketgan. Zardusht «Avesto» kitobini Gushtasp oldiga qo'ydi va xudoga iltijo qildi. «Avesto» agar shu kktob hzqiqagan seniki bo'lsa, sen shu kitob bilan meni podshoh huzuriga yuborgan bo'lsang, meni misniig zararidan saqlagin», dedi, So'ng uning iltijosiga ko'ra, qizdirib eritilgan mis keltirildi, uni Zardushtning Ko'kragiga va qorni ustiga quydilar, Mis tanasi ustidan oqib tuklarga donachalar bo'lib yopishdi, lekin kuydirmadi. Shu mahado'an e'tiboran Gushtasp Zardusht e'tiqodkni qabul qildi va o'ziga tobe o'lkalarga bu ehti qodni qabul qilishni buyurdi.

Tarixdan ma'lumki, zardushtiylik miloddan oldingi VII asrdan milodimizning VII asrigacha qariyb ming yil Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarda diniy e'tiqod sifatida yashadi.

Zardusht yashagan va «Avesto» kitobi yozilgan davrda Markaziy Osiyoda aholiving asosiy qismi o'troq hayotga, dehqonchilik va hunarmlndchilshja o'ta boshlagan, ko'chmanchi chorvachilikka e'tibor kuchaygan, qadimgi shahar lar va deqqonchilik viloktlari (So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya, Parfiya, Xorazm) ning shakllannsh jarayoni kechayotgan palla edi. Vatanimiz xalqlari hayotida yuz berayotgan bu ijtimoiy va iqtioodiy o'zgarishlar uning taraqqiyot yo'yaiga gov bo'layotgan mafkurash yangilashni, yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan diniy islohiyatni amalga oshirishni talab etar zdi. «Avestoda ana shu islohiy talab o'z ifodasini topdi.

«Avesto» asarida pagriarxal urug' jamoasi haqida, uning so'nggi kismi Videvdotda iktisodiy tengsizlik, sinfly tabaqalanish haqidagi muammolar ochiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi vaundagi sinfiy tabaqalanish jarayoni to'g'risida kimmatali ma'lumotlar beriladi. Shunday qilib, «Avesto» miloddan avvalgi IX-VII asrlar Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot qa qida g'oyatda muhim ma'lumotlar beruvchn xalqimizning merosiy ma'naviy boiligidir.

«Avesto»da keltirilgan jamiyatggang ijtimoiy tarkibi haqida ma'lumotlarga suyanib fikr yuritadigan bo'lsak, miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi choragida Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, yangi, ilk synfiy jamiyat tarkib topayotgan jarayonning guvoh i bo'lamiz.

Tayanch tushinchalar:

Zardushtiylik, Zardo'sht, Gushtasp, Gatalar, yakka xudolik, monoteizm, Videvdot.

Nazorat savollari:

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I. Milliy mafkura - mamlakat kelajagi poydevori. "Xalq so'zi" gazetasi, 7 aprel, 2000 yil.
- 2.Sh.Karimov, R.Shamsuddinov. «Vatan tarixi» Toshkent, "O'qituvchi", 1997.
- 3.«Jamiyat va boshqaruv» jurnali, N° 4, 2004 .
- 4.«O'zbekiston tarixi» 6-sinf uchun darslik. Toshkent, "O'qituvchi", 2003.
- 5.Asqarov A. O'zbekiston tarixi. (Eng qadimgi davrlardan milodning Y asrigacha) T. O'qituvchi. 1994.
6. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

7-MAVZU: Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So'g'diyona davlatlari

REJA:

1. *Katta Xorazm davlati.*
2. *Qadimgi Baqtriya davlati .*
3. *Qadimgi Sug'diyona konfederasiyasi.*
4. *O'rta Osiyoning eng qadimgi xalqlari.*
5. *Qadimgi yozuvlar.*

1.

Vatan tarixining dolzarb muammolaridan biri davlatchiligimiz tarixidir. Shuning uchun ham Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov 1998 yil iyun oyining oxirlarida bir guruh etakchi tarixchilar va ziyolilar vakillari bilan uchrashganda bu masalaga alohida ahamiyat berdi. O'zbek davlatchiligining paydo bo'lishi, asoslari va rivojlanish bosqichlari konkret ko'rsatilmaganligini ta'kidlab o'tdi.

Bu muammoning kun tartibida turish sabablari Shundan iboratki, keyingi vaqtda O'zbek davlatchiligi tarixini Vatanimiz hududiga turli davrlarda kirib kelgan ko'chmanchi xalqlar davlatlaridan boshlashga intilish kuchayib bordi. Baazilar buni zo'r istihola bilan niqoblab aytсалar, baazilar jar solib, shu ko'chmanchilik davlatlari bilan farxlanishga chaqirdilar.

Islom Karimov suhbatida "Ko'chmanchilar kelgunga qadar bu erda davlatchiligimizga asos bo'lgan mahal liy davlatlar bormidi O'zi?", deb savol berganlari bejiz emas. Davlatchilik masalasi ham ilmiy, ham siyosiy masala. Bu Haqda Prezidentimiz Islom Karimov Shunday deydilar:

"Davlatchilik bugungi kunda O'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. Nega deganda, O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo'layotgan, kerak bo'lsa, Halqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar Hali bor. Bunday alamslar orasida qanday qilib bo'lsa ham bizni yana sobiq SSSR ga qaytarish niyatida yurganlar yo'q, deysizmi? O'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu daovoning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir".

Tarixchilarimiz oldiga Prezidentimiz Havola qilgan bu muammo jiddiydir: u hali jiddiy tadqiqotlarni kutadi. Ammo shunga qaramay, mavjud ilmiy fikrlarning oqini-oqiga, qorasini-

qorasiga ajratib, yagona ilmiy to'xtamga kelsa bo'ladi. Shuning uchun ham I.Karimov: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oraliida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim O'lkada buyuk maonaviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy xujjatdirki, uni Hech kim inkor etolmaydi", deganida to'la Haqli edi.

"XO'sh, O'zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo'ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi?", degan savollarga javob berish mumkinmi? Asosan mumkin. Buni Prezidentimizning yuqoridagi so'zi ham ko'rsatib turibdi.

O'zbek davlatchiligi tarixiga to'xtalishdan oldin, umuman davlatchilik tushunchasi masalasida biroz so'z yuritishga to'ri keladi. Davlatchilik deganda davlatning paydo bo'lishi, yaoni davlat bo'lib uyushishi, uning tuzumi va tizimini tushunamiz. Davlat, aslida jamiyatni tashkil etishning siyosiy shaklidir. Davlat - bu Hokimiyatning fuqarolar bilan bo'lgan aloqalar va munosabatlar majmuasidir. Davlatning paydo bo'lishi, uning tuzumi va bu davlatning boshqarish tizimi mamlakat va xalqlarning ijtimoiy taraqqiyotida muhim O'rin tutadi. Bu soHada qonunchilikning roli buyukligini alohida ko'rsatish kerak. O'zbek xalqining qonunchilik anoanalari juda qadimiydir. Qonunchilik bizning Vatanimizda miloddan avvalgi yillardayoq shakllangan va O'rta asrlarda takomillashgan. Haqiqatda esa mustaqillikka erishganimizdan

keyingina qonunchilik O'z mavqeiga ega bo'ldi. Prezidentimiz ola surgan besh tamoyildan biri - qonunning ustivorligi tamoyili ekanligi ham buning isbotidir. Chunki, qonunchilikka asoslanmagan davlat tuzumi mamlakat taraqqiyotining samaradorligini taominlay olmaydi.

Davlatchilikning asosiy poydevorlari borki, davlat bu poydevorlarsiz O'z vazifasini ado etolmaydi. Bular Hokimiyat va ijroiya organlari, sud, politsiya, moliya va soliq tizimi, armiya, Konstitutsiya va boshqa qonunlardir.

Davlatning muhim vazifalari bor. Bu vazifalar davlatning ichki va tashqi siyosatini yurgizish orqali amalga oshiriladi. Ichki siyosat, asosan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini taominlashga qaratilgan bo'lsa, tashqi siyosat davlatning mudofaasini mustahkamlashga, chet el davlatlari

bilan iqtisodiy, Harbiy va madaniy aloqalarini boshqarishga, diplomatik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi.

Endi rejadagi I-masala ustida fikr yuritamiz.

Davlatchiligimiz asosi qaerda va qaysi zamonda boshlanadi, degan savolga kelsak, tarixchilarimiz, ayniqsa, buyuk o'zbek olimi **Yahyo G'ulomov** va rus akademigi **S.P.Tolstovlarning** ilmiy xulosalariga asoslanib, asosan Xorazmda yuzaga kelgan "Avesto" muqaddas kitobiga tayanib, davlatchiligimizning asosi, Prezidentimiz suHbatda aytganlariday, bundan 2700-3000 yil muqaddam Xorazmda boshlangan deb javob berish mumkin bo'ladi. Akademik A.Asqarovning ilmiy fikriga ko'ra, Parkana (Farg'ona), Baqtriya davlatlari ham 2800-3000 yil ilgari yuzaga kelgan. Biroz keyinroq Vatanimiz tarixida muhim O'rin egallagan SO'diyona davlati vujudga keldi. Ilgari aytganimizday, kO'chmanchilar tuzgan davlatlarning Vatanimiz davlatchiligidagi o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ammo davlatchiligimizning shakllanishi jarayonida "tubjoy" davlatlarning o'rni va roli beqiyos buyukdir.

Davlatchiligimiz tarixini asosan, besh bosqichga bo'lib O'rganamiz. Birinchi bosqich sO'nggi bronza davri (miloddan oldingi I ming yillik boshlari)dan Eron AHmoniyolari istilosigacha bo'lgan davr (miloddan avvalgi VI asr O'rtalari).

Tarixchi olim A.Saodullaevning yozishicha ("O'zbekiston tarixi" "Universitet nashriyoti, 1997") ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni taHlil qilish shuni kO'rsatdiki, mil.avv. I ming yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshladi. SO'nggi bronza davrida meHnatning dastlabki yirik taqsimoti rO'y beradi. CHorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqadi. Iqtisodiy Hayotdagi siljishlar tufayli ortiqcha mahsulot paydo bo'lib, bu mahsulot maolom shaxslar qo'lida tO'plana boshlaydi. Qishloqlar kengayib shahar larga aylanib borar ekan, bu shahar lar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining maomuriy markazi bo'la bordi. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari haqidagi yozma maolomotlar juda kam. Mavjud yozma manbalar arxeologik tadqiqotlar bilan solishtirilganda birmuncha ishonchli bo'ladi.

Maolomki Har bir davlatning bosh yacheykasi oiladir.

"Avesto" maolomotlariga ko'ra, ilk quldorlik davrida Markaziy Osiyo jamiyati alohida oilalardan tashkil topganini ko'ramiz. Erga uru jamoasi, egalik qilgan, bir nechta urular qabilaga birlashgan, nisbatan yirik qabilalar birlashib viloyat ("daxyo") bo'lgan, bu viloyatlarni boshliq ("qavi") boshqargan. Qabila boshliqlari maolom vaqtda tO'planib kengashib turishgan. "Avesto" qadimgi jamiyatni koxinlar, Harbiylar, dehqonlar, chorvadorlar va Hunarmandlar kabi tabaqalarga bo'ladi. Qadimgi xO'jaliklar chorvachilik va dehqonchilikka alohida eotibor berganlar.

Akademik A.Asqarovning yozishicha, Yunon mualliflarining xabariga ko'ra, bu zaminda qabilalar konfederatsiyasi asosida tarkib topgan dastlabki davlat bo'lgan. Bular "Katta Xorazm" va "Baqtriya podsholigi" bo'lib, ular Harbiy demokratik printsiplar asosida tarkib topgan. Afsuski, yozma manbalarda ular haqida uzuq-yuluq va juda qisqa maolomotlar uchraydi.

"Avesto" maolomtlari asosida mashHur xorazmshunos olim S.P.Tolstov, Ovrupo olimlaridan V.Xenning ham da I.Gershovichlar "Katta Xorazm" davlati haqidagi arxeologik izlanishlar va tarixiy-geografik maolomtlarni solishtirib O'z qarashlarini bayon etganlar.

Masalan, S.P.Tolstov “Avesto”da Zaratushtraning vatani Aroyanam Vaychax-qadimgi Xorazm boʻlgan deydi.

“Avesto”ga koʻra, Zaratushtraning Vatani Aroayanom Vaychax Daitiya daryosining sohilida joylashgan. S.P.Tolstov va qator boshqa olimlar Daitiya bu Amudaryodir deydi. Qadimgi Xorazm Amudaryo xavzasida joylashgan viloyat ekan, Zaratushtra Oʻz taʼlimotini shu zamindan chiqib boshqa viloyatlarga tarqatgan, degan xulosaga keladi S.P.Tolstov.

“Avesto”da “Katta Xorazm”ga tegishli viloyatlar sanab Oʻtiladi. Bunga koʻra, Oʻrta Osiyoning deyarli katta qismi “Katta Xorazm”ga tegishli ekanligiga qanoat Hosil qilish mumkin.

Miloddan avvalgi IV asrda Amudaryo quyi oqimi hududida Qadimgi Xorazm davlati tashkil topdi. Uning podshosi sifatida Farasman ismli shaxs Yunon tarixchilari tomonidan tilga olinadi. Iskandar Zulqarnayn Hindiqush orqali Baqtriyaga, undan SOʻdiyona qoʻshin tortib kelganda Xorazm podshosi Farasman uning Huzuriga sova-salomlar bilan kelgan va Shimol tomonlarga yurish qilmoqchi boʻlsa, Oʻz qoʻshini bu unga yordamga tayyor ekanligin bildirgan.

Markaziy Osiyo hududida ahamoniylarga qadar tashkil topgan ikkinchi davlat bu Baqtriya podsholigidir. Bu davlat haqidagi dastlabki maʼlumotlar Yunonistonlik tabib Ktesiyda uchraydi.

Keyingi yillarda qadimgi Baqtriya hududida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari Yunon mualliflarining “Qadimgi Baqtriya podsholigi” haqidagi Hikoyalari zaminida tarixiy Haqiqat borligiga ishora qiladi. Bunga misol qilib Janubiy Baqtriya Oltin - 1 va Oltin - 10 ham da Baqtriya shahri vayronalarini, Shimoliy Baqtriyada Kuchuktepa, Qiziltepa, Tallashkantepa, Bandixon-2 kabi yodgorliklarni koʻrsatish mumkin. Ularning Har biri mahal liy Hokimliklarning Oʻrdasi boʻlgan. Qadimgi Baqtriya podsholigi esa ana shu tuman va viloyatlarni birlashtiruvchi Harbiy-demokratik tipdagi konfederatsiya edi.

Shunday qilib, Oʻrta Osiyoni ahamoniylar saltanati bosib olgunga qadar (bu voqealar miloddan avvalgi VI-IV asrlarda sodir boʻlgan edi) bu ona zaminda Harbiy-demokratiya printsiplari asosida tarkib topgan ikkita davlat mavjud boʻlgan. Bular haqida “Avesto” va Yunon mualliflari juda qisqa boʻlsa-da, tegishli maʼlumotlar qoldirganlar. Bu davlatlar “Katta Xorazm” va Qadimgi Baqtriya podsholigi edi. Ularning hududiy doirasi, ichki davlat tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy ham da madaniy aloqalar haqida, ular Oʻtgan davr haqida Hali olimlar orasida Koʻp ilmiy munozaralar boʻladi, ular haqida Koʻplab maxsus ilmiy tadqiqotlar Oʻtkaziladi va yangidan-yangi asarlar chop etiladi.

Eron ahamoniylari bosqinlari (milodda avvalgi VI-IV asrlar) va makedoniyalik Iskandar istilolari (miloddan avvalgi IV-III asrlar) davrida Vatanimiz xalqlarining uzoq va shonli kurashlariga, daxshatli qOʻzolonlariga (Spitamen) qaramay, mahal liy davlatchiligimiz barham topdi.

Markaziy Osiyo (miloddan avvalgi 522-521 yillar)da boʻlib Oʻtgan xalq qOʻzolonlari Doro I ni qattiq ichki siyosat olib borishga majbur oʻtdi. U Hatto saroy aristokratiyasi Huquqlarini ham cheklab, mamlakatda Hokimiyat tartiblarini Oʻrnatdi.

Gerodotning Habar berishiga qaraganda, Doro I Oʻz imperiyasini alohida viloyatlarga-satrapliklarga boʻlib idora qilgan. Har bir satraplik Har yili davlat xazinasiga maʼlum miqdorda soliq toʻlashga majbur edi.

Makedoniyalik Iskandar vafoti (miloddan avvalgi 323 yil)dan keyin taxt uchun kurashlar natijasida Sharq erlari lashkarboshi Salavkga oʻtdi. U miloddan avvalgi 293 yil Sharqni idora qilish ishini Oʻzining Spitamen qizi Apamadan boʻlgan oʻgʻli Antiox I ga topshirdi

Miloddan avvalgi III asrning Oʻrtalariga kelganda (miloddan avvalgi 250 yil) salavkiylar saltanatinig Oʻrta Osiyodagi mavqei butunlay tushib ketdi. Saltanatning Sharqiy satrapliklari markaziy Hokimiyatga boʻysunishdan bosh tortib, ularning Har biri mustaqil siyosat yurgizishga intildi. Ayniqsa, bu vaziyat Parfiya va Baqtriya satrapliklarida koʻzga yaqqol tashlanar edi. Bu vaqtda Baqtriya satrapi Diodot edi. Strabonning fikriga qaraganda Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishi, baqtriyaliklarning markaziy Hokimiyatga nisbatan isyoni edi. Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishiga Diodotdan tashqari, Evtidem ham aralashgan. Evtidem xuddi Oʻsha vaqtda SOʻdiyona Hokimi boʻlib, u Diodotga tobe edi.

Shunday qilib, miloddan avvalgi III asr O'rtalarida davlatchiligimiz yana O'z taraqqiyotining ikkinchi mustaqillik pallasiga kirdi.

Mustaqillikka erishgan Baqtriya Diodot I davrida qudratli davlatga aylandi. Miloddan avvalgi 212 yilda Evtidem Yunon-Baqtriya davlatining podshosi edi.

Miloddan avvalgi 206 yildan boshlab Yunon-Baqtriya davlati uchun salavkiylar tomonidan endi Hech qanday xavf yo'q edi.

Evtidemning O'li Demetriy davrida (miloddan avvalgi 199-167 yillar) Baqtriyaning hududi kengayib Har jihatdan yuksaldi. Uning nomi bilan Ko'plab joylarda tangalar zarb etildi. Davlatni boshqarish borasida islohot O'tkazildi. Bunga ko'ra davlatni mayda Hokimliklarga bo'lib boshqarish joriy etildi. Demetriy mahal liy aslzoda vakillarini davlatni boshqarish ishiga tortadi.

Nihoyat, miloddan avvalgi 141 va 128 yillar orasida Yunon-Baqtriya Shimoldan kelgan ko'chmanchi yue-chjilar barham berdilar.

Vatanimiz tarixida muhim rol O'ynagan Sharqning bu davlati 120 yildan ortiq vaqt yashadi. Tarixchilar bu davrda oldin Baqtriya qaram bo'lgan, keyin, miloddan avval II asrda, mustaqil bo'lgan SO'diyona haqida ham Ko'p gapiradilar.

-2-

Davlatchiligimiz tarixining ikkinchi bosqichida muhim rol o'ynagan davlatlardan biri qadimgi Xorazm davlatidir. Qadimgi Xorazm tarixining bilimdoni S.P.Tolstov asarlarida massaget qabilalari ittifoqi, ularning Saksafar, Omarg va To'maris kabi vakillari tog'risida fikr yuritib o'tadi. S.P.Tolstov To'marisi debriklar malikasi, Omargni esa saklarning podshosi edi, deydi. Saksafarga kelganda u siyovushiyalar sulolasiga tegishli qadimgi Xorazm podshosi Shaushafar bo'lishi kerak, degan g'oyani olg'a suradi. S.P.Tolstovning bu mantiqiy o'xshatishida tarixiy haqiqat bo'lsa, u holda miloddan avvalgi VI asrda qadimgi Xorazm o'z hukmdoriga ega bo'lgan. Saksafar Xorazm davlatining ilk podsholaridan biri bo'lgan.

Akademik Ya.G'ulomovning ta'kidlashicha, Sirdaryo O'rta oqimi havzasida, (hozirgi Toshkent, qisman Sirdaryo viloyati va Janubiy Qozog'iston hududida), miloddan avvalgi III asr boshlarida tashkil topgan Qang' davlati davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyatga ega. Bizningcha, makedoniyaliklar qo'shinlariga qarshi uyushgan mahalliy va ko'chmanchi qabilalar davlati bo'lgan Qang' davlati asosan, ko'chmanchilar davlati bo'lib, mahalliy xalq ularga mudofaa zaruratidan qo'shilgan. Shunga qaramay, Qang' davlatining davlatchiligimiz tarixida O'z o'rni bor.

Qadimgi manbaalarda Qang' davlatining qanday idora qilinganligi, uning davlat tuzilishi to'risida ma'lumotlar etib kelmagan. Ammo faqat bir marta to'nich Xanp sulolasi tarixida (miloddan avvalgi II-I asrlarga oid) Qang'uy podshosi O'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutishi haqida eslab o'tiladi. Demak, quldorlik jamiyati sharoitida tashkil topgan Qang' davlatida Oliy kengash asosiy rol o'ynagan.

Davlat kengashida qabila boshliqlari, Harbiy sarkardalar faol qatnashib, muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar Hal etilgan. Podsho Hokimiyati demokratik printsiplar asosida tashkil topgan davlat tizimi edi. Qang' davlatiga qarashli erlar bir necha viloyatlarga bo'lingan. Ularni boshqargan boshliqlar jobu yoki yobular deb atalgan. Qang' xoqonlari mamlakatni ana shu jobularga tayanib boshqarar ekan, ular, odatda, hoqonlarga yaqin kishilardan, ularning qavm-qarindoshlaridan, yirik uru-qabila boshliqlaridan tayinlangan. Qang' davlatiga tobe viloyatlarni boshqarish ishi mahal liy Hokimlar qo'lida bo'lib, ular markaziy Hokimiyatga boj to'lab turgan. Ana Shunday tobe viloyatlarga qadimgi Xorazm, So'g'd erlari, Ural tog'oldi rayonlari (alan va yan qabilalari) kirgan.

Qang' davlati VII asr yashab, milodning V asri O'rtalarida emirildi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida, jumladan, o'zbek xalqi tarixida bu yarim ko'chmanchi davlat zaminida yashovchi Qadimgi Eron tilining Shimoliy shaxobchasida so'zlashuvchi tubjoy xalqlar Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy, Turkiston, Ettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy tilda so'zlashuvchi qabilaar bilan yaqinlashdi.

Qadimgi manbalarda bu davrda Farg'ona (Davan, Parkan) davlati bo'lganligi haqida ham yoziladi.

Farg'ona vodiysining qadimgi tarixi haqida gap ketganida, odatda, uning miloddan avvalgi VII-VI asrlardan to milodiy eraning V asriga qadar bo'lgan davr tarixini ko'z o'ngimizga keltiramiz. Chunki, undan avvalgi davr qadimgi Farg'ona tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi va V asrdan boshlab esa uning feodal davri tarixi boshlandi. Bu davr ijtimoiy-siyosiy hayotida erkin jamoa xo'jaligi jamiyat rivojida asosiy qatlamni tashkil etardi.

Farg'ona ahamoniylarga ham, makedoniyaliklarga ham tobe bo'lmagan. Xitoy manbalarida yozilishicha, miloddan avvalgi II-I asrlarda Davan aholisi dehqonchilik va Hunarmandchilik bilan shuullangan, xo'jaliklari yuksak rivojlangan. Davan davlati boy shahar larga va kuchli qo'shinga ega bo'lgan.

Davlatchiligimiz tarixida Farg'ona davlat tuzumi muhim, hatto ibratli ahamiyat kasb o'tdi.

Miloddan avvalgi II asrda (Xitoy elchisi Chjan TSYan bu yurtga kelgan davrlarda) qadimgi Farg'onada kuchli siyosiy davlat tizimi shakllangan edi. Podsholik tepasida mahal liy aholining aslzodalaridan chiqqan Hukmdor turardi. Ulardan baozilarining nomlari xitoychada Mugua, CHan, Fin, YAnolyu deb berilgan. Hukmdorning yonida eng yaqin qarindoshlaridan ikkita yordamchi bo'lgan. Hukmdor davlat ishlarini olib borishda oqsoqollar kengashiga suyangan. Oqsoqollar kengashi Hukmdor bilan birgalikda davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, siyosiy va diniy masalalarni Hal etgan. Shu bilan birga, oqsoqollar kengashi Hukmdor faoliyatini muhim masalalarda nazorat qilib borgan. Oliy kengash oldida Hukmdorning Huquqi cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik: diplomatik masalalarda Hal etuvchi kuch va Huquq oliy kengash qo'lida edi. Oliy kengash Hukmdorni Hokimiyatdan tushirishi, uning o'rniga yangisini saylashi mumkin bo'lgan. Xitoy manbalarining xabar berishiga qaraganda, O'zga davlat va uning qo'shini bilan bo'lgan janglarda davanliklarning malubiyati uchun oliy Hokimiyat egasi-Hukmdor oqsoqollar kengashi qarori bilan O'lim jazosiga tortilgan.

Davan davlatining siyosiy tuzumi shahar larning yoki voha-davlatlarining erkin ittifoqidan tashkil topgan konfederatsiya edi.

Xitoy ayoqchisi CHjan TSYanning Davan davlatining qudrati haqidagi maolumotlari ham eotiborga loyiqdir. Davan 60 ming qo'shinga ega edi. Piyoda askarlar oddiy qurollangan, otliq qo'shin Harbiy maHoratda tengsiz bo'lgan. Ularning ot ustida turib kamondan uzgan O'qlari dushmanni doda qoldirardi. Ularning ayollari ham qamondan O'q uzishda O'z erlaridan qolishmagan.

Davanliklar g'arbda qang'liklar, shimolda usunlar, sharqda esa uyurlar bilan yaqin aloqada bo'lishgan. Xitoy bilan bo'lgan janglarda ularni Har doim Qang'O'ylar qo'llab-quvvatlaganlar.

Qadimgi Farg'ona davlatini milodiy eraning dastlabki yuz yilliklarida mahal liy aslzodalar sulosasi boshqargan. Xitoy manbalariga qaraganda, qadimgi Farg'onani 419 yilgacha bir sulola (xonadon) vakillari uzluksiz boshqarib kelgan. O'rta osiyo hududlarida Eftaliylar davlati qaror topgach, qadimgi Farg'ona davlati o'z mustaqilligini yo'qotgan.

Davlatchiligimiz tarixida Kushon podsholigi ham diqqatga sazovordir. Kushonlar ko'chmanchi qabilalar bilan qo'shib ketgan massagetlar bo'lib, Spitamen qo'lonidan so'ng Sharqiy Turkiston va MO'uliston chegaralariga ketib qolgan edilar. Xitoy tarixchilari ularning yue-chjilar deydi. Miloddan avvalgi II asr O'rtalarida ular xunlardan engilib Farg'onaga qaytib keladilar. Miloddan avvalgi 140 yilda Baqtriyaning tushkunlikka uchraganidan foydalanib SO'd orqali Baqtriyaga O'tadilar. Bu erda ular 5 qabilaga bo'lingan. Kushon qabila boshlii Kudzula Kadfiz qolgan 4 qabilani tobe etib O'zini Hukmdor deb eolon qilgan. Kushon davlati keyinchalik butun Markaziy Osiyo, Afoniston, Pokiston va Xindiston erlarini qo'shib olib, yirik imperiyaga aylandi va milodiy IV asrgacha yashadi. Bu davrda Kushon shohlari pul va din islohoti o'tkazishdi.

Biroq, ushbu davlat har qancha buyukligiga qaramay, ko'chmanchilar davlati edi va davlatchiligimiz taraqqiyotida muhim rol o'ynadi deb aytish xolis tariximizni yaratish tamoyillariga xilofdir.

Shunday qilib, davlatchiligimizning 2-bosqichi haqida gapirganda, biz asosan, Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Farg'onani ko'rsatishimiz kerak.

Milodiy IV asrdan boshlab Vatanimizga Ko'plab kO'chmanchilar bosib kirdilar, ular Markaziy Osiyo, asosan hududimizdan tashqarida tarkib topgan kO'chmanchilar davlati tarkibiga kirib qoldi. Ammo bu davrda tubjoy davlat - Xorazmning yana tiklanganligini ham ko'ramiz.

III asrda tobora zaiflashib borayotgan Qang' davlati tasarrufidan birinchilardan bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. Uni mahal liy afrigiylar sulolasiga mansub xorazmshoxlar idora qila boshladi. O'z mustaqilligini tiklab olgan Xorazm davlatining poytaxti dastlab Qoraqalpoistonning Hozirgi Ellikqalao tumani hududida joylashgan qadimgi Tuproqqalao shahar Harobasining o'rnida bo'lgan.

Beruniyning yozishicha, 305 yilda xorazmshox Afrig O'z qarorgoHini Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shaHriga ko'chiradi. Qayta tiklanib uning yonida joylashgan Alfir qasri ichida shox O'ziga yangi saroy qurdiradi. Shu vaqtlardan boshlab Xorazmning Afrigiy podshoHlari betiga shox va orqasiga suvoriy tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakatning ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo'lib oladilar.

Keyin Markaziy Osiyoga Ettisuv va Sharqiy Turkistondagi kO'chmanchi xion qabilalari Hujum qilib, xioniylar davlatini tuzdilar. Bu davlat 120 yildan oshiqroq yashadi. SO'ng Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali toxarlar kirib keldilar. V asrning 20-yillarida kelgan bu kO'chmanchilarga Kidar ismli Hukmron yo'lboshchi edi. Shuning uchun bu davlat Kidariylar davlati ham deyiladi. U Eronga qarshi uzoq kurashb, V asr O'rtalarida inqirozga uchradilar va O'z navbatida Shimoldan kelgan kO'chmanchi eftalitlar bilan tO'qnashadilar va Shimoliy Hindistonga chekinadilar.

Eftalitlar (eftalitlar nomi Eftalon qabilasi nomidan olingan) davlati Eronni engib, VI asr boshlarida Markaziy Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonni birlashtirgan yirik davlatga aylanadi.

V asrning ikkinchi va VI asrning birinchi yarmida Oltoy va Janubiy Sibirida yashovchi turk qabilalari birlashdilar. 551 yil ular Bumin bosh bo'lgan buyuk imperiya - Turk Hoqonligini tuzdilar. Ular VI asrning 60-yillarida eftalitlarni engib, Markaziy Osiyoni egalladilar.

VI asr oxirlarida boshlangan O'zaro qabilaviy urushlar va sulolaviy kurashlar oqibatida Turk Hoqonligi 603 yilda ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Ulardan biri MO'ulistonda tashkil topgan Sharqiy Turk davlati, ikkinchisi esa O'rta Osiyo, Junoriya va Sharqiy Turkistonning bir qismini O'z tasarrufiga olgan arbiy turk Hoqonligi edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyo oldin eftalitlar, so'ng Turk Hoqonligiga bo'ysungan bo'lsa ham u erda 15 ga yaqin davlatlar tashkil topgan bo'lib, ularning yiriklari: SO'd, Toxariston, Xorazm, CHoch, Farg'ona edi. Bu davlatlar ichki siyosatda mustaqil bo'lib, Hoqonlikka xiroj tO'lab turganlar.

VII asr boshida Arabiston yarim orolida yashovchi arab qabilalari Islom dini asosida birlashdilar va atrof erlarni istilo qila boshladilar. Bu vaqtda Turk Hoqonligi ichki qabilaviy nizolar oqibatida siyosiy inqirozga yuz tutib, parchalanib ketgan. Bundan foydalangan arablar VII asr ikkinchi yarmi - VIII asr boshlarida Markaziy Osiyoni bosib oldilarki, natijada davlatchiligimizga barham berildi.

Saltanatni idora qilish va davlat tizimining takomillashuvida IX-XII asrlar uchinchi bosqichni tashkil o'tdi.

Ta'kidlash kerakki, bu davrdagi bir qator qo'shni kO'chmanchilar davlatlari Vatanimizga bosib keladilar, maolom davrda Vatanimiz hududlari bu davlatlar tarkibiga kirdi. Ular Vatanimiz tarixida maolom iz qoldirsalarda, davlatchiligimiz rivojida ko'zga tashlanadigan rol O'ynamadilar. Bular Qorluqlar (VIII-IX asr), O'uzlar (IX asr oxiri XI asr boshlari), Toxiriylar (822-873 yillar), Safforiylar davlati (873-875), Qoraxoniylar davlati (X asr O'rtalari), G'aznaviylar (X asr oxiri), Saljuqiylar davlati (XI-asr) edi.

-3-

Ammo bu davrda tashkil topgan - somoniylar va XorazmshoHlar davlati davlatchiligimiz

rivojida alohida O'rin egallagan tubjoy davlatlar bo'lib, ular davlat tizimining shakllanishida muhim rol o'ynaganlar.

VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan oir siyosiy vaziyat abbosiylarning MovvarounnaHr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini O'zgartirishga majbur o'tdi. Endilikda ular Sharqiy viloyatlarni boshqarishda davlat ishlariga mahalliy zodagonlarni jalb qilish va ular qo'li bilan bu viloyatlarni xalifalik tasarrufida tutib turishga Harakat qiladilar. Natija abbosiylar O'ylagandek bo'lib chiqmadi. Mahal liy zodagonlar MovarounnaHr va Hurosonni asta-sekin O'z tasarrufiga olibgina qolmadilar, balki xalifalik markazida ham da Hokimiyatni boshqarishda tobora Ko'proq rol O'ynaydigan bo'lib qoldilar.

Ular masalan, 813 yilda Maomunning xalifa bo'lishida katta rol O'ynadilar. Bular orasida MovarounnaHrlik Somonxudot ham bor edi. Maomun uning yordamini unutmadi. Uning nabiralari Nux - Samarqandga, AHmad - Farg'onaga, YAHyo SHosh va Ustroshonga, Ilyos - Xirotda noib etib tayinlandi. O'zaro kurashlarda engib chiqqan Ismoil Somoniy (AHmadning nabirasi, 874-907 yillar Hukmronlik qilgan) MovarounnaHrni, Xurosonni birlashtirib yagona Hukmron bo'lib oldi va Somoniylar davlatiga asos soldi (888

yil). Bu saltanat X asr oxirigacha davom o'tdi.

Ismoil Somoniy O'rta asrlarning qobiliyatli, serayrat va zukko davlat arbobi edi. U MovarounnaHrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlat tuzishga intiladi. U O'z Vatanida barqaror tinchlikni taaminlab, uni mustahkamlashda Hukmronlik qobiliyatining ham ma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Avvalo katta qo'shin tO'plab, kO'chmanchilar dashtiga askar tortadi. 893 yilda Taroz shaHrini fatx etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi.

MovarounnaHr mustaqilligining barqarorligi, avvalombor, markazlashgan mustahkam Hokimiyatning qaror topishiga boliq edi. Shuning uchun ular buni yaxshigina anglagan ixcham davlat maomuriyatini tashkil etadilar. Bu maomuriyat podsho dargoHi va devonlar Hokimiyatidan iborat edi.

DargoHda amir xarami ham da saroy aoyonlari navkar va xizmatchilar turar joylari bo'lgan. N.Narshaxiyning maolumi bo'yicha Somoniylar davlatini devoni vazir, devoni mustafiy, devoni amid al-mulk, devoni soHibi shurat, devoni soHibi muayyid yoki barid, devoni mushrif, devoni muallikayi xos, devoni muxtasib, devoni avkof va devoni kazo nomlari bilan yuritiladigan devonlar boshqaruvi idora etgan. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv maHkamasi hisoblangan va davlatning maomuriy, siyosiy va xO'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida bo'lgan. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. Mustavfiy devoni xazina (moliya), kirim-chiqimlar, amid al-mulk devoni-davlat xujjatlari va elchilik aloqalari, soHibi shurat devoni-Harbiy, xususan amirning turkiy gvardiyasi va uning taominoti. SoHibi muayyid devoni - maktubot va axborot, yaoni pochta, mushrif - saroy ish boshqaruvchisi, muallikayi xos devoni - davlat mulklari, muxtagisb devoni - bozorlardagi toshu-tarozilar, narxu-navo ham da fuqarollarning mafkurasi, kazo devoni - adliya, avkod devoni masjid va madrasalarning vaqf xO'jaliklari bilan shuullanar edi.

Nasr Ibn AHmad (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi man shu maxsus binoga joylashgan. MaHkama xizmatchilari saroy aHli, ruhoni va zodagon dehqonlardan iborat bo'lib, ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab va fors tillarini puxta egallaganlar. Ular Quroonni va shariatning asosiy qoidalarin yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan.

Shubxasiz, bu O'rta asrlarning O'ziga xos feodal-amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy anoanalarga asoslangan bu madaniyat somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan.

Markaziy maHkama viloyatlardagi mahal liy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda, matbuot va axborot (pochta) devonidan tashqari, barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari, bir tomondan, mahal liy Hokimga, ikkinchi tomondan markaziy maHkamaning tegishli devoniga bo'ysunar edi. Viloyat Hokimlari baozan vazir deb yuritilgan. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahal liy Hukmdorlar ham da zodagon

dehqonlardan tayin etilgan, bulardan tashqari, Har bir shahar da rais - shahar boshlii ham da muxtasib-nazoratchi bo'lgan. Ularni Hokimning bevosita O'zi mahal liy aslzodalar yoki Ko'pincha oliy tabaqa ruhoniylarning nufuzli vakillaridan tayinlagan. Mansabdorlarning xizmat xaqi uchun davlatning yillik daromad byurolari (byudjeti)ning deyarli yarmi sarf etilgan.

Davlatchiligimiz tarixida katta rol O'ynagan davlatlardan yana biri Xorazmshohlar davlatidir. Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe edi. X asr oxiri va XI asrning boshlariga kelib, Xorazm Hokimi Maomun va uning O'li Ali Somoniylar davlati tugaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga Harakat qilib qO'rdilar. Lekin MovarounnaHrdagi Qoraxoniylar, Xurosondagi aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, Ko'p Hollarda MaHmud aznaviy va uning O'li Maosudga qaram edi. aznaviylar davlatining inqirozi va Xurosonda Saljuqiylarning Hukmronligi O'rnatilgandan keyin Xorazm davlati dastlabki yillarda mustaqil siyosat olib borishga Harakat qilgan bo'lsa-da, tez orada Saljuqiylarga qaram davlatga aylandi.

Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishida Ko'p xizmat qilgan Hukmdor Qutbiddin Muhammad Otsiz (1127-1156) edi. Saljuqiy Sulton Malikshox davrida Xorazmda Hukmdor bo'lgan Anushteginning nabirasi Otsiz O'zi tobe bo'lgan Saljuqiy sultonlarning Har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Ayyor, diplomat va moHir sarkarda bo'lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib bordi. U Xorazm erlarini ancha kengaytirib, Sirdaryoning quyi oqimidagi erlarni, Mangishloqni bosib oladi. Shundan so'ng u bir necha bor (1138, 1141-1142, 1147-1148 yy) Sulton Sanjarga qarshi isyon qildi va malubiyatga uchrab Saljuqiylarga butunlay tobe bo'lib qoldi. Lekin shunga qaramasdan u Xorazmning mustaqilligi uchun mustahkam asos yarata oldi. Sulton Sanjarning O'limidan so'ng (1157y) Saljuqiylar davlati deyarli yo'q bo'ldi va Xorazmni mustaqil davlat sifatida siyosat olib borishi uchun keng yo'l ochildi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubxasiz, Xorazmning Hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlandi. Xorazm davlati ayniqsa Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. 1187-1193 yillarda u Nishopur, Ray va Marv shahar larini bosib oladi. 1194 yilda esa saljuqiylar sultoni Tugrulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga kiritdi. Oradan bir yil O'tgach Takash xalifa askarlariga zarba berib, Iroqqa bostirib kirishga muvaffaq bo'ladi. Shunday qilib, O'rta asrlarning isteododi davlat arboblardan hisoblangan Takash Old va O'rta Osiyoda Xorazmshoxlar davlatidek yirik va qudratli feodal Hokimligini barpo o'tdi. Uning zamonida Xorazm davlatining hududlari ikki barobar kengaydi. Uning Shimoli-arbiy va arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengizi soHillaridan janubi-garbda Iroqqa qadar borar, janubi-Sharqiy hududlarda azna viloyatidan, Shimoliy-Sharqiy chegarasi esa Ettisuv va dashti Qipchoqdan O'tar edi.

Otasi boshlagan urushii 334 yilda ugli davom ettiradi. 30000 kishilik piyoda, 5000 suvoriy va 150 ta kema bilan kurollangan Aleksandr Makedonskiy 10 yil mobaynida Suriya, Finikiya, Misr, Eron, Turonni zabt o`tdi va X,indiston sari yurdi.

Iskandar askarlari Urta Osnyo tuprogida milod.dan avvalgi 329 yilda paydo bulishdi. Tarixchi olim va ayni vaktida lashkarboshilar — Ptolemey Lag va Aristovullar Iskandar kushinida xnzmat kilishar, ular barcha vokea va xodisalarni yozib borishar edi. Taassufki, bu ma`lumotlar bizga kadar etib kelmagan. •FaHatgina, keyinrok yashab utgan Arrian (II asr), Plutarx (I—II asrlar) va YUstin (II asr)larning asarlari orkali ayrim lavxalar etib kelgan xolos. Iskandarning Urta Osiyoga yurishlari tugrisida XIX asr rus olimi V. V. Grigorev «Poxod Aleksandra Makedonskogo v

Zapadn`sh Turkestan» (1881) va I. G. Droyzei «Istoriya Ellinov» I—III tomlari) asarlarida shu xususda birmuncha ma`lumotlar berishadi.

Iskandar X, indikush togidan utgach miloddan avvalgi 329 yild?. kuchli madaniyat egasi bulgan Baktriyani xam uz tasarrufiga oladi. Baktriya va Sugdiyoning xokimi Bess ahamoniylar avlodidan bulgani holda Doro III ni zaxarlab uldirishda katnashadi. Shu bois Iskandar uziga tegmasligiga u mid kiladi. Birok Iskandarning lashkarlari Amudaryoni kechib utgach, u Sugdiyonga 1<ochdi. Luning uchun xam Iskandar Baktriyani osonlik bilan kulga kiritadi. Bess bilan birga uning bir kancha beklari xam Spitamen va Daxa kuchmanchilari panohiga utishadi. Bess Amu dare dan utayotganida shu kezgacha axoliga kuprik vazifasiNi utab kelgan yagona kemani yokib tashlaydi va uzi Hashkadaryo vodiysiga yul oladi.

Iskandar dare tomon shoshiladi, biroq shu erda tuxtalib kolishiga tugri keladi. Bu erda na kuprik, na bir kema, na bir yogoch bor edi. Shundan keyin u uz chodirlaridan kop yasattirib ichiga poxol tiktiradi va daryodan kechib o`tdi. Uning askarlari shu erdan Termiz yoxud Kalif shaxri tomonga yul oladilar.

Bu vaktida Spitamen mamlakat ichkarisiga karab ketadi. Iskandar bu erda sokchilar kuriklab turgach Bessga duch keladi va u ni katl kildiradi. Tarixchilardan Arrpan va Kvint Kurtsiy Rufning xabar berish> laricha Sugdiyoning knchik shaxarlarndan birida Iskandar Miletlik branxid avlodlariga duch .keladi, Ular Iskandarni juda xursand karshi oladilar. Bi~ rok IHandar uz yurtdoshlarini kirpb tashlab shaxarlarnnp vayron kilaDi.

Bu pantga kelib Iskandar gyurgul — 27 yoshda bulib xalp bnrer marta engilmagan edi. U Samarkandni kaday kulga kiritgapn noma`lum, biroq u erda ancha lashkar koldirib, Sirdaryo tomonga yul oladi va Xujapdga yaknilashadi. Bu erda u endi Uetrushanaking Hsnning karshiligiga duch keldi. U ni tograrda tuxtatishga urpnishdi, galla, ozikovkat saklovchilarnnp uldirshidi, Iskandar yaralandi. Birok barpbnr tspalgk zgallandi, kuplar esa uzlari koyadan kulab tushmshdi. Arrianning yozishicha 30000 knshpdan 8000 kgppi s`yun kolgan xolos.

Sprdaryo etagida Iskandar koshiga suv orti saxlarp tpraxaudalarning elchilari kelishdi. Iskandar . pppg uzp esa saklarning xar kkki tarmegidan chuchnb,

shu erda kal`a kurmokchi buldi. Birok, shu paytda Sugdiyonda Spitamen kuzgolon kutargar xakpda xabar keldi. Huzgolon kutarilishining boisi zsa «Iskandarbarcha kabila boshliklarini Baktriyadagi Zarpaspda yigpb. sungra yuk kilib yuborish niyatida», degan gap tapkplganida edi. Diodorning guvoxlik berishicha, Urta Osiyo xalklarining ozodlik uchun kurashlarini uch boskpchga bulib urganish kerak buladi: «1) Iskandar kuzgolon kutargan sugdnylarpi engib, 120 ming axolipp kirib yubordi; 2) U baktriyaliklarga jazo berib, sugdiylarni kaytadan uziga buysuidiradi va keraklg. joylarda kal`alar barpo ztadi; 2) Sugdiylar kuzgolop kutaradilar va toglardagi kal`llarga kochib yashiringamlar asrilikka olinadi».

Ma`lumki, axoli Sirdaryodagr! o`tdi kal`ada jok saklash uchun yashiringan edi. Beshta kal`ani u ikki kun ichpda katta narzon va shturm kiluvchi mashinalar yordamida oldi. K,olgan ikkitasiga zsa xiyla ishlatib, shuningdek laxm kavlab kirib borildi. Ayniksa Kiroshat (Xuroson) kal`asi va mameken kabilasi yashaydngan shaxar kattik karshilik kursatdi. Shu paytda Spitamen Marokanda (Samarkand)dagi Yunon lashkarini engdi, baktriyaliklar maxv etildi va Sirdaryo ortidagn saklar xujum boshlashdi, degan xabar tarkaldi. Iskaidlr Spitamenga karshi maxalliy sugd tildk ni bmladngan Farnuxni yubornb, uzi xoznrgi Xujand; va Bekobod shaxarlari oraliida (taxminap Farxod; GESi) istexkomli shaxar bunyod ztishga knrishadp. Ung etti kun degapda barcha uy za iishootlarknng tomi yopiladi. Bu shaxarAleksandr Esxata, ya`ii Chekka Aleksandriya deb ataladi. Iskandarning yollaima askarlarn shu erda karor topadi.

Bshok, orada kup oakt utmay, saklar umpng deshkarlariga xujum knlmokchp ekanliklari ma`lum S YArador bulishiga karamay u ildamrok xarakatga choglanadi. Shundan keynn suvoriylar mashssllargl joylashtiradi, engil kurollangg. esa xavo "uldppilgan teri koplarn arinnta`mil:lapdi. Xullas karnay sadolari va uksysmgirini yogdirnb ulao Snrdaryodan utadilar. Saklar ularningxujumpga dssh bera olsalarda, biroq kochishga majbur buladnlar. Ular 1000 ta ulik askar va 1500 yaradorni koldnrib petshiadi. Albatta, Iskandar xam katta talofat kurdi. Boz

ustiga askarlar ichida yurak burugi kasali boshlanadi. Shunday kilib, ular ortga kaytishadi.

Urush tugagach dare ortidagi saklardan elchilar, kelishadi va uzlarining xujum kilish piyatlari bulmaganini aytishadi. Shundan keyin Iskandar 150 ta asirni kaytarib beradi.

Iskandarning bupday iltifot kursatishining boisi Shunda bulsa kerakki, bu paytda Marokanda axoliey Spptmer tomonga utgan va bu shaxarda uping mavkei pasaygan. Iskandar Kiropoldagi askarlarininrbnr kisminii Marokandaga tashlagan edi. Shundan keyingina Spitamen Marokandanp bush koldirib Basilatp (SHox shaxri)ga karab yurdi.

Farnux boshchiligidagi Iskandar askarlari Spitamennl tz`kib ztib bordilar va chulga surrab chikardilar. Birok makedonuyaliklar orasidagi kelishmozhilpkdan foydalangan Spitamen ular ustidan galaba kozsnadi. Kuchmanchi daxlar va maxallnn axoli yordamida u yana Marokandani kamal kiladi. Shunda Iskandar Aleksandriya Esxatada bir gornizoinn koldirib, uzi Marokapda sari yuradi. Slitamen esa kamalnk bushatib Buxoro tarafga chekinadi, sungra chulga chikyb oladi. Arrianning yozishicha Spitamen Politemit (Zarafshon) suvlari sugorayotgan barcha xududlarki kezib chikadi va ortiga kaytgach minglab xonadonlarni yokib yuboradi, dala va boglarni toptaydi, 120 ming axolini kirnb tashlaidi.

Sugdiyona kuchlarni koldirib Iskandar Baktriyada kishlash uchun ketadi. Shu bilan Sugdiyona xalklarpnng uz ozodliklari uchun kurashlarnpng birinchi boskichi yakunlanadi.

Miloddan avvalgi 329—328 yilda Iskandar Baktriya eparxlari (beklari)ning kurultoyini chakiradi, xoin Bessniig kilguliklarini koralaydi va uzi zabt etgap erlarda mavkeini mustaxkamlab olish yuzasidan ayrim masalalarnn xal etishga urinadi. Bu paytda unga Nearx boshlik Yunon yollanma askarlari yordamga kelishadi. Shuningdek Ovrupo skiflari va Xorazm shoxi Farasmandan elchilar kelib Iskandar kolxlar va amazpkalar (xorazmliklarning kushnilari)ga karshi yursa dustlik va yordam kursatishlarini bildirishadi. Iskandar xam elchilarga iltifot kursatib, albatta ularning yordamidan foydalanajagi, xozir esa Hindiston sari yurishga tayyorlanayotganini bildiradi.

328 yilning yozida Iskandar Sugdiyona ikkinchi marta yurish kiladi. Bu paytga kelib sugdiylar uning tasarrufidan chikib olgan edilar. Shunday kilib makedoniyaliklarga karshi kuzgolon boshlanadi. Iskandar esa maxalliy axolining karshiligini sindira olmaydi. Arrianning xabar berishicha, «juda kup sugdiylar kal`alarga yashirinib olishgan» va suet karshilik kursatishayotgan edi. Shuida Iskandar turli taktikalarni kullaydi, ya`ni u ayrimlarini kuch *Siloy* egallasa, ayrimlariga karshi jazo choralarni kulladi. Shu tarika bir vaktlar gullabyashnagan Sugdiyona kam nufusli xarobazorga aylanib koldi.

Sugdiyona karshi xarbiy xarakatlardan sung jaxongir Iskandar bir necha otryad va ikki lashkarboshisimi Spitamenni ta`kib etib borish uchun yuboradi. Bu paytda Spitamen Shimoldagi massaget kabilalarr! orasida yashirinib yurgan edi. Makedoniyaliklarning yakinlasha boshlaganrtndan xabar topgach Spitamen sugdiy Bag shaxrining istexkomiga karshi xujum uyushtirmokchi buldi. Payt poylab turgan makedoniyalik,lar esa unga karshi xujum kildilar va ikkinchi galda Spitamen engildi. Shundan keyin sugdiyonaliklar va baktriyaliklar uning kul ostidan chikib dushmanga asir tushishdi, massagetlar esa Spitamen bilan chulga kochishdi. Spita menning ulimi xakida ikki xil rivoyat yuradi. Biri massagetlar chulga Iskandarning uzi yurish boshlaydi, deb eshitib, Spriamenni uldiradilar va Iskandarga yuboradilar. Ikkinchisi — uning rafikasi axoli koni tukilishiga barxam berish maksadida uni uldirishga majbur buladi.

Xususan, Spitamenning ulimi bilan sugdiyonaliklarning ozodlik kurashlarining ikkinchi boskichi tugaydi. Birok Iskandar sugdiylar va baktriyaliklarni uz tasarrufida tutib 1<olish uchun bu erlarda shaxarlar va isteHkomlar bunyod etib u erga makedoniyaliklar va Yunonlarni, shuningdek kunikuvchan maxalliy axolini joylashtiradi. Kurtsiy Rufning yozishicha miloddan avvalgi 327 yilda Murgob vodiysida, Margiyona xududida u oltita yangi shaxar bunyod kiladi. Uz vasiyatiomasida bitganlariga kura Iskandar Osiyoda shaxarlar kurib ovrupoliklarni kuchirib keltirmokchi, Ovrugyu shaxdrlariga esa osiyoliklarni kuchirib utkazmokchi bulganini yozib koldirgan.

Iskandarning Sugdiyona karshi yurishining uchinchi boskichi butunlay boshkacha tarzda

kechadi. 328 yildayok u uz saroyida muayyan maxalliy an`analarni joriy kiladi, maxalliy fukarolarni uz lashkarlari safiga, zadogon va tanikli zotlarni saroyga jalb kiladi, makedoniyaliklarning urfodatlari bilan ularni tanishtiradi. Xususan, maHalliy zodagonlar Iskandar xizmatiga kira boshlaydilar. BiroKg unga karshilik kursatuvchilar ham yuk emasdi. Ularning ayrimlari toglarga yashiringan, ayrimlari esa yaxshi istexkomli shaxarlarni egallab olishgan edi.

Xususan, buygshsunmaganlarga karshi Iskandar uzining uchinchi yurishini boshladi. Buni tarixchi olim Diodor «sugdiyonaliklarning uchinchi kuzgoloni va tog kal`alariga kochganlarniig asirga olinishi», deb baxolagan edi.

Shulardan biri — «sugd kal`asi»da (X,isor togidagi Navkat manzilgoxi taxmin kilinadi) Yunonlar Oksiart deb ism kuyishgan juda e`tiborli sugd yashiringan edi. Uning nrtxoyatda guzal Roxshanak (Roksana) degan kizi bor edi. Yunon va Makedoniya askarlari uni Doroning rafikasidan keyin Osiyoda eng guzal deb xisoblashardi. Arrianning xabar berishicha, Iskandar uni bir kurishda sevib koladi va uz asirasi bulishiga karamay unga uylanadi. Shunday kilib Iskandarning eng kuchli dushmanlaridan biri Oksiart uning saroyida katta xurmat extiromga sazovor buladi. Boshka bir kal`ada eng kuchli eparxlar, shu jumladan Xarien xam yashiringan edi. Ular uz ixtiyori ila taslim bulishdi xamda e`tibor topishdi.

Xususan Urta Osiyo xalklari ustidagi axomoniylar zulmi Yunonmakedon zulmi bilan almashdi. Bu zulmdan kutulish uchun Sugdiyona 150, Baktriyaga 180 yil kerak buldi.

Ayrim Ovrupo tarixchilari Yunonmakedon zobitlarining madaniy ta`siriga katta baxo beradilar. Birok, madaniyatning tarkatilishi (garchi u xar kanday yuksak darajada bulmasin) yuz minglab axrlini kirgin kilish xisobiga erishilmasligi lozim. Boz ustiga maxalliy axolining xam uziga xos madaniyatini yakson kilinishini oklab bulmaydi. Shuningdek Iskandar lashkarlari aslida yollanma kishilar va asirlardan tashkil topgan bulib, ularning uzlari xam Yunon madaniyatidan yirok edilar. Yunon madaniyati esa Urta Osiyoga Iskandardan avvalrok, tinch yul bilan kirib borgan edi. Bu madaniyatning ayrim namunalarini arxeologlar xamon topib turishadi.

Mamlakatni boshqarishni tashkil etishda xam Iskandar xech bir yangilik kirita olmadi. Mamlakat xuddi ilgarigidek boshkarilaverdi. Fakatgina eroniy satraplar urniga makedoniyaliklar kuyildi xolos. Albatta, eronlik xokimlardan farkli ularok ular uz tangalarini zarb kildirish va lashkar tuplash xukukiga ega edilar. X,okimlar devonida episkop — nazoratchilar bor edi vauxam makedoniyalik edi. Episkop ayni vaktida lashkarboshi xam xisoblanardi. Moliya boshkaruvi uchun xam aloxida lavozi tayin kilingandi.

Axolining ijtimoiy hayotidagi uzgarishlarga kelsak Iskandar davrida xali kuldorlik xam karor topib ulgurmagani edi, garchi axdmoniylar davridayok kul tutish raem bulgani holda ular oddiy uy xizmatidagi kishilar edi xolos. Bu xakda «Ovasto»da xam aytilgan.

Iskandar dastalab YAKsart bo`yida o`z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu erdagi qo`zg`olonlarni bostirdi. So`g`diyona mil. avv. 329 yil kuzida Spitaman boshchiligidagi qo`zg`olonni (Maroqandada) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo`shinlarni jo`natdi. O`zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvaffaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshchiligida Maroqandaga jo`natilgan qo`shinlar Spitaman tomonidan mag`lubiyatga uchradi. Iskandarning o`zi asosiy kuchlar bilan So`g`diyona qaytishga majbur bo`ldi. O`rta Osiyo hududlarida ko`tarilgan qo`zg`olonlar Yunon-makedon zulmidan ozod bo`lishga qaratilgan bo`lib, Iskandarning “varvar”larni osonlikcha bosib olmoqchi bo`lgan rejalarini puchga chiqardi.

So`g`diyona tog`li hududlaridagi bosqinchilar qadami etmagan joylarda qo`zg`olonchilar yashirinib olgan edilar. So`g`diyona deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo`lib, uning g`alabalariga katta umid bog`lagan edilar. Iskandar esa, mil. avv. 329-28 yillar qishlovini Baqtriyada (ba`zi manbalarda Navtakada deyiladi) o`tkazar ekan vaqtni behuda ketkazmadi. U bu erda Xorazm hukmdori Farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Iskandarning Xorazmga yurish rejasi to`xtatildi.

Mil avv. 328 yilning bahoridan Yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal'alar, tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Iskandar 30 ming qo'shinini 5 guruhga bo'lib, bu guruhlariga ishonchli sarkardalar-Gefestion, Ptolemey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi.

Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida Ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o'rinda Spitamanning jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doimo raqiblarining zaif joylarini izlar va ularga aynan o'sha joylardan zarbalar berar edi. Spitaman so'g'diy va baqtriyalik zodagonlar, hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil. avv. 328 yilning oxirida Spitaman o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladi. Spitaman tajribali davlat arbobi va sarkarda bo'lib, u bosqinchilarni Ona-yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbirni ko'rdi, choralardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning zaif tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Iskandar harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamandan ustun edi.

Spitaman halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qal'alari qo'zg'olon o'choqlariga aylanadi. YOzma manbalarda eslatilgan "So'g'd qoyasi" (yoki "Arimaz qoyasi"), "Xorien qoyasi" shular jumlasidandir.

Makedoniyalik Iskandar mahalliy aholini kuch bilan engish nihoyatda og'ir ekanligini anglab etganidan so'ng turli yo'llar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi. Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatini tubdan o'zgartirdi. Xususan, zardo'shtiy qohinlariga birmuncha erkinliklar berib o'zi ham bu dinni qabul qildi. Qo'zg'olon boshliqlari Oksiart, Sisimitr, Xorien kabilarni avf etib, mol-mulklarini qaytarib berdi. Hatto, qo'zg'olonga qatnashganlarga mukofotlar tarqata boshladi. Mahalliy aholi bilan qarindoshlik munosabatlarini o'rnatib Oksiartning qizi go'zal Roksanaga (Rohshanak) uylandi. Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Iskandar hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketdilar. Mil. avv. 327 yilning oxirida So'g'diyonadagi qo'zg'olonning so'nggi o'choqlari ham bostirildi.

Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida kurash olib borar ekan, O'rta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko'rsatdilar. Ular Yunonlar o'ylaganidek, "varvarlar" va madaniyatdan orqada qolgan emas, balki o'z davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Iskandar qo'shinlari butun Sharq davlatlarini o'zlariga bo'ysundirganlarida So'g'diyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Iskandar tarixini yozgan Ko'pgina qadimgi davr tarixchilari ham e'tirof etadilar.

O'zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi qadimgi davrlardan boshlab bosqinchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borib o'z ozodligi va mustaqilligi yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilganlar. Ammo, kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi Ko'p hollarda bosqinchilar ustunligini ta'minlagan.

Makedoniyalik Iskandarning mil.avv. 334-324 yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O'rta Osiyo, Hind daryosining quyi oqimigacha bo'lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat tashkil topdi. Yunon-makedonlarning 330-327 yillardagi O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o'sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi. O'rta Osiyoga Ellin (Ellada) madaniyati kirib keldi. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy-ma'muriy tartib joriy etildi. Bu tartib O'rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul munosabatlarining rivojiga turtki bo'ldi. Xususan, bu davrda O'rta Osiyoda dastlabki tanga pullar zarb etildi. Yunon yozuvi kirib keldi. SHaharsozlik, me'morchilik va amaliy san'o'tdi birmuncha o'zgarishlar bo'lib o'tdi.

Ammo, Makedoniyalik Iskandar davlati ham turli xalqlar, elatlar va qabilalarning zo'rlab birlashtirilgan yig'indisidan iborat bo'lib, faqat qo'rqitish va qurol kuchi orqali idora qilinar edi. Mil.avv. 323 yilda makedoniyalik Iskandarning Bobilda to'satdan vafot etishi siyosiy vaziyatning

keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi. Yunon diadoxlari (hukmdorlar, amaldorlar) o'rtasida hokimiyat uchun shafqatsiz kurash boshlandi.

Bu paytda Yunonlar va makedonlar O'rta Osiyoda hokimiyatni boshqaruvchi qatlamini tashkil etar edilar. Makedoniyalik Iskandar vafotiga qadar Baqtriya va So'g'diyona satrapi asli makedonlardan bo'lgan Filipp edi. Undan keyin esa bu hududlar asli Kipr orolidan bo'lgan Yunon Stasanor qo'l ostiga o'tdi. Bu paytda ikki diadox-Evmen va Antigon Iskandar davlatining asosiy erlarini qo'lga kiritish uchun o'zaro kurashayotgan edilar. Filippning katta qo'shinlari bilan yordam bergani tufayli Antigon Iskandar davlatining katta qismiga hukmronlik o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ammo, uning bu hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi.

Mil.avv. 312 yilda Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri Salavka diadoxlari bilan bo'lgan kurashda ustun kelib Bobil, Suziana, Midiya va boshqa qo'shni viloyatlarni bosib oldi va Ko'p o'tmay Old Osiyo, Eron va O'rta Osiyo hududlariga ham o'z hukmronligini o'rnatdi. Ammo, Hindistondagi harbiy-siyosiy vaziyat tufayli bu hududlardagi muvaffaqiyat Salavkiylar foydasiga hal bo'lmadi. Mil. avv. IV asrning oxirlarida bu erda Chandragupta asos solgan kuchli Maurya davlati Salavkaga qattiq qarshilik ko'rsatganligi sababli Salavka sulh tuzishga majbur bo'ldi.

Uning Hindistondagi mag'lubiyati salavkiylarning O'rta Osiyodagi noiblari ahvoriga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat bu erda salavkiylarga qarshi kurash kuchayishiga sabab bo'ldi. Mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining Ko'p sonli qo'zg'olonlari bu kurashlardan dalolat beradi. Ular salavkiylarning tayanch nuqtalari bo'lgan Marg'iyonadagi Aleksandriya va avtidan, Aleksandriya Esxatani vyron etadilar. Tadqiqotchilarning fikricha, bu kurashlar natijasida yirik etnik ko'chishlar bo'lib o'tgan bo'lishi mumkin. Xullas, salavkiylar hokimiyatni egallagan paytdayoq ularning O'rta Osiyodagi ahvoli tahlikali edi. Aynan shu sababli O'rta Osiyo viloyatlari erlaridan mahrum bo'lishdan qo'rqib ketgan Salavka I o'z vorisi Antiox I boshchiligidagi Sharqiy noiblik (straplik)larni ta'sis o'tdi.

Antiox I vayron etilgan qal'alarni tikladi, yirik va qalin devor bunyod o'tdi (Marg'iyona devori), qo'zg'olonlari bostirdi. U salavkiylar qudratini namoyish etish maqsadida atrof o'troq va ko'chmanchi aholi ustiga harbiy yurishlar uyushtirdi. Antiox I tomonidan o'tkazilgan bir qancha harbiy-siyosiy va diplomatik tadbirlar tufayli O'rta Osiyodagi salavkiylarga qarshi harakatlar bostirildi.

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, "Salavka ba'zi bir joylarni muzokaralar yo'li bilan egalladi, ammo, Baqtriya, Parfiya, So'g'd yerida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishga to'g'ri keldi". Bu ma'lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi: "Salavka I baqtriyaliklar, so'g'diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan Ko'p urushlar olib borgach, ular erlariga hukmronlik qila boshladi". Hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, bu hududlarning bosib olinishi mil. avv. 306-301 yillariga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyodagi viloyatlar salavkiylar davlati siyosiy tarixida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Salavka Iskandar davrida Spitamanning qizi Apamaga uylandi. Qarindoshchilikni hisobga olibmi yoki boshqa maqsadni nazarda tutibmi, Salavka mil. avv. 293 yilda o'g'li Antiox I ni Sharqiy satraplarga, jumladan O'rta Osiyo erlariga hokim etib tayinlaydi.

O'zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. avv. 293-261 yy.) Antiox /arbgga qilgan Ko'pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o'z davlatining Sharqiga, shumlardan O'rta Osiyo erlariga kam e'tibor qaratdi. Bu paytda uning viloyatlarida iqtisodiy o'zgarish yuz beradi. Ancha tinch hayot boshlanib qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. Salavkiylar davlati markazidan chetda bo'lishiga qaramasdan, O'rta Osiyo ular davlatining eng muhim qismi edi. O'rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, salavkiylar bu hudud bo'ylab o'tgan savdo yo'llari bo'yida shaharlar va qishloqlar qurdirib ularda hunarmandchilik, o'zaro almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantirganlari bejiz emas.

Salavka I Antigon bilan hokimiyat uchun talashib, Sharqiy hududlar va Kichik Osiyo uchun keyingi kurash jarayonidayoq yo'l-yo'lakay o'z hokimiyatida boshqaruv tartibini joriy eta boshlagan edi. U Iskandar an'alariga sodiq qolganligini ko'rsatish maqsadida satrapiyalarni

yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik manbalari ma`lumotlariga qaraganda Salavka I davlati Ahmoniylar va Iskandar davlatlariga nisbatan ancha kichik bo`lib, hokimiyat 27-28 satrapiyalarga bo`lingan.

Har qaysi satrapiyani shoh tomonidan tayinlab qo`yilgan satrap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma`muriy, ham harbiy boshqaruvni qo`lga olganlar. Satrap-strateg ma`muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o`ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig`uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo`jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda salavkiylar satrap-strateglari Yunoncha nomda tilga olinadi. (Stratonik, Aleksandr, Gieraks va b.). Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan Yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, O`rta Osiyoda Yunon hokimlari va ular atrofida to`plangan Yunon-zodagonlar bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilar edilar. Salavkiylar hokimiyati, O`rta Osiyodagi harbiy manzilgohlarda (katoykiyalarda) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi. Aholiga jabr-zulm qilishda mahalliy hukmron guruh vakillari ham ishtirok etardilar.

O`z davrida salavkiy hukmdorlari shaharsozlik bilan faol shug`ullanganlar va keyinchalik «Salavkiya» deb atalgan shahar markazlariga asos solganlar. Markaz sulola vakillaridan birining nomi bilan atalgan hollarda unga polis huquqi (to`liq mustaqil bo`lmagan) berilgan. Bunday shaharlar ma`muriy nazorat ostiga olingan. Shuningdek, bu shaharlarda Yunon aholisi jamlanishi lozim edi. Salavkiylarning shaharsozlik faoliyati haqida Pliniy, Strabon, Ammian Martsellin kabi antik davr mualliflari ma`lumotlar beradilar. Bu ma`lumotlarga ko`ra, Marg`iyona Antioxiyasi, Skifiyadagi Antioxiya, Tarmat Antioxiyasi (Termiz bo`lishi mumkin), Oyxonim kabilar polis huquqiga ega bo`lgan. Salavkiylar davlatida shaharlarga tobe qishloqlar o`zining jamoa tuzilishini saqlab qolgan bo`lib, ularning tobeligi jamoaviy xususiyatga ega bo`lgan va ular polis hududiga kiritilmagan.

Salavkiylarning O`rta Osiyodagi istilochilik siyosati haqida to`liq ma`lumotlar saqlanmagan. Ammo, qo`shni viloyatlarga oid Ko`p sonli ma`lumotlardan xulosa chiqaradigan bo`lsak, salavkiylarning istilochilik siyosati O`rta Osiyoni ham chetlab o`tmagan. Bu siyosatni amalga oshirish maqsadida Ko`p sonli Yunonlar ko`chirib keltirilgan. Ular yangi bunyod etilgan shaharlar hamda Yunon harbiy manzilgohlari – katoykiyalarida istiqomat qilganlar. Ayrim hollarda mahalliy aholi vakillari ham hokimiyat boshqaruvida ishtirok etganlar.

Salavkiylar davri Baqtriya, Marg`iyona, So`g`diyona va Parfiya hududlarida Ko`p aholili shaharlar Ko`p edi. Marakanda, Baqtra, Niso kabi Ko`plab qadimgi shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo`jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

O`rta Osiyodagi Yunonlar bilan aloqalar mahalliy xalqlar madaniyatining ba`zi tomonlarini g`arbga tarqatuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Ayrim tadqiqotchilar to`g`ri ta`kidlaganlaridek, ellin madaniyatida sof Yunon madaniy ijodi emas, balki Yunon va Sharq mamlakatlarining o`ziga xos qo`shilishi o`z aksini topdi. Ellin madaniyatining rivojlanishida O`rta Osiyo xalqlari ham muhim rol o`ynadilar. O`rta Osiyoning katta qismi salavkiylar davlatiga qo`shib olinishi g`arb va Sharq o`rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga turtki berdi. Shu bilan birga mahalliy madaniyat, savdo-sotiq, shahar hayoti, hunarmandchilik va sug`orish ishlari izchil rivojlanib bordi.

Shunday qilib, O`rta Osiyoning salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri Yunon-makedon istilosi tufayli vayron etilgan iqtisodiy hayotni tiklash, baqtriyaliklar, so`g`diylar, parvfiyaliklar va boshqa O`rta osiyo xalqlarining salavkiylarga qarshi kurashish uchun birlashuvi davri bo`ldi.

10 -MAVZU: Yunon-Baqtriya podsholigi va Parfiya davlati

R E J A:

1.Parfiya davlati.

2. Yunon-Baqtriya podsholigi.

Mil. avv. III asrning 60-50-yillariga kelib Kichik Osiyo va Bolqon yarim orolida salavkiy hukmdorlari o'rtasida hokimiyat uchun kurashlar avj oldi. Natijada salavkiylar davlatining Sharqiy satraplari siyosiy hayotida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mil. avv. 250 yilga kelib dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylar davlatidan ajralib chiqib o'zlarini mustaqil deb e'lon qildilar.

Parfiya haqidagi dastlabki ma'lumotlar mil. avv. VII asrga oid Ossuriya hujjatlarida uchraydi. Mil. avv. VI asrning boshlarida Parfiya kuchli Midiya hukmronligi ostiga tushib qoladi.

Parfiya qo'shni Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyona kabi serhosil erlarga ega emas edi. Tadqiqotchilarning "Qoraqum-Parfiya davlatining beshigidir" degan fikrlari bejiz emas. Biroq mamlakat harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim hududda joylashgan edi. Midiyaliklarga u skiflar hujumidan saqlanishi uchun zarur bo'lsa, Kir uchun boy Xorazm vohalariga chiqish yo'lidagi darvoza vazifasini o'tar edi. Makedoniyalik Iskandarning Parfiyani istilo qilishiga sabab Shimoldagi ko'chmanchi qabilalarni itoatda tutish bo'lsa, salavkiylar uchun Parfiyani qo'lda saqlash Shimoliy chegaralarning xavfsizligini ta'minlash demak edi.

Mil. avv. 247 yilda Parfiyada Arshak boshchiligidagi parmlar qabilasi Niso shahriga hujum qilib uni egallaydi. Shu yili parmlar Arshakni o'zlariga podsho qilib saylaydilar. Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha Arshak uzoq muddat podsholik qilgan va katta mavqega ega bo'lgan. Sulola (Arshakiylar) asoschisi o'zining tashkilotchiligi, jasurligi va mohir diplomatligi sababli qisqa muddat ichida mustaqil davlat tuzishga erishgan. Mil. avv. 235 yildan boshlab Parfiya podsholari o'z davlatlari hududlarini kengaytirib bordilar.

Paydo bo'lganligining dastlabki o'n yilligida Parfiya podsholigi Parfiyona va Arshak I qo'shib olgan Girkaniyadan iborat edi. Bu paytda Parfiya xalqaro siyosat maydonida unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmay, tashqi siyosatini asosan Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari bilan mustaqil bo'lishga qaratgan. Mil. avv. 230-228 yillar Salavka II ning Parfiyani qayta qo'shib olish uchun qilgan harakati muvaffaqiyatli chiqmadi. O'zini o'nglab o'nglab boshlagan Arshak I qo'shin to'plash, qal'alalarni mustahkamlash, yangi shaharlar barpo etishga kirishdi.

Parfiya davlatining ulkan imperiyaga aylanib xalqaro siyosat maydoniga chiqishi Mitridat I hukmronligi bilan bog'liqdir. O'ttiz besh yil (mil. avv. 171-137 yy.) hukmronlik qilgan bu podsho Ko'plab harbiy yurishlar qildi. Uning hukmronlik davrida g'arbga qilingan Ko'p yillik urushlar, ichki nizolar va beqarorlik tufayli Salavkiylar davlati zaiflasha boshlagan edi. Bundan unumli foydalangan Mitridat I dastlab Ekbatanni, keyin esa Hindistonni bosib oldi. Mil. avv. 141 yilda Bobil bo'sundirildi. Shu tariqa Mitridat I Parfiyani qudratli davlatga aylantirib, Arshakiylarning Ko'pgina erkinliklarini qayta tikladi.

Mil. avv. II asrning o'rtalarida yuechjilar sak qabilalarini Parfiyaning Sharqiy chegaralariga surib borgan. Saklar bilan bo'lgan janglarda Fraat III va Artabon II lar halok bo'ldilar. Mil. avv. 128 yilda Mitridat II taxtga o'tirdi. Uning hukmronlik davridan boshlab Rim va Parfiya kuchli raqiblarga aylanadi. Ikki kuchli saltanatning o'zaro munosabatlari Sharq va /arbdagi siyosiy jarayonlarni belgilab bera boshlaydi. Mil. avv. 88 yilda Mitridat II vafot etib Arshak IX nomi bilan Gotraz taxtga o'tiradi. Uning hokimiyat tepasiga kelishi mamlakat ichidagi siyosiy inqirozlar davriga to'g'ri keladi. Ba'zi davlatlar Parfiyadan ajralib keta boshlaydilar. Umuman, milodning III asriga qadar Parfiya davlatiga Arshakiylar sulolasi hukmronlik qildi. Milodning 207-222 yillarida Volozes V hukmronligi davrida Parfiya davlati ikkiga bo'linib ketdi (213 y.). Bular Volozes V hukmronligidagi Mesopotamiya va Artabon V hukmronligidagi Midiya edi. Aynan shu vaqtga kelib fors erlarida yangi kuchli davlat-sosoniylar davlati vujudga kelmoqda edi. O'zini o'nglab, oyoqqa turib olgan bu yosh davlat ko'hna va ulkan Parfiya saltanatini ag'darib tashladi.

Parfiyaning davlat boshqaruvi uchta - ahmoniylar, ellinistik va ko'chmanchi parn qabilalari an'analariga asoslangan edi. Oliy hokimiyat podsho qo'lida bo'lib, podsholik qilish

huquqi faqat Arshakiylar urug'iga berilgan. Podsho huzurida ikkita qarindoshlar kengashi hamda zardo'shtiy qohinlari va saroy zodagonlari kengashi faoliyat ko'rsatgan. Birinchi kengash ko'chmanchi parn qabilalari an'analarini aks ettirib, davlat boshqaruvida katta rol o'ynagan. Muhim davlat masalalarini hal etishda Moguston (Avestoda zardo'shtiy qohinlarining oliy kengashi ma'nosida eslatiladi) deb nomlangan qo'shma kengash o'tkazilgan. Manbalarda Arshakiylar saroyidagi «paxrakpat» - saroy qo'riqchilari boshlig'i, «arkpat» - qal'a boshlig'i kabi unvonlar eslatiladi.

Pliniy va Isidor Xarakskiy ma'lumotlariga ko'ra, Parfiya 18 ta satraplikka bo'lingan. Ahmoniyar satrapiyalaridan farqli o'laroq, Parfiya satrapiyalari ancha kichik bo'lgan. Bu ma'muriy okruglarning boshqaruvchilari satrap atalib, podsho tomonidan tayinlangan. Satrap faqat podshoga bo'ysunib, o'zining boshqaruv apparatiga ega bo'lgan.

Eski Nisodan topilgan parfiya hujjatlarida satrap Kofezat, otliq qo'shinlar qo'mondoni Tiridat va xazinabop eslatib o'tiladi. Davlat boshqaruvida avtonom shaharlarning ahamiyati katta bo'lgan. Bunday shaharlar davlatning g'arbida asosan, Mesopotamiyada joylashgan. Isidor Xarakskiy 20 ta Shunday shahar haqida ma'lumot beradi. Ularning Ko'pchiligi salavkiylar, ayrimlari parfiyaliklar tomonidan boshqarilib, Ko'pgina avtonom huquqlarga ega bo'lgan. Ularda Yunonlar, semitlar, eroniylar, parfiyaliklar yashaganlar.

Niso (Turkmaniston) shahridan topilgan hujjatlar (xumlarga bitilgan) Parfiya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida, arxeologik topilmalar esa Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm va Marg'iyona bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar haqida ma'lumotlar beradi. Parfiya qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Pompey Trog ma'lumotlariga ko'ra, "Parfiyada qullar Ko'p edi, qullarni ozod qilish davlat tomonidan man qilingan edi. Butun Parfiyada qullar mehnatidan sug'orish inshootlarini qurish maqsadida keng foydalanilgan". Mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo-sotiq ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Parfiya davlati besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoyning /arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qilgan.

Miloddan avvalgi III asrning O'rtalariga kelganda (miloddan avvalgi 250 yil) salavkiylar saltanatining O'rta Osiyodagi mavqei butunlay tushib ketdi. Saltanatning Sharqiy satrapliklari markaziy Hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortib, ularning Har biri mustaqil siyosat yurgizishga intildi. Ayniqsa, bu vaziyat Parfiya va Baqtriya satrapiklarida ko'zga yaqqol tashlanar edi. Bu vaqtda Baqtriya satrapi Diodot edi. Strabonning fikriga qaraganda Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishi, baqtriyaliklarning markaziy Hokimiyatga nisbatan isyoni edi. Baqtriyaning salavkiylardan ajralib chiqishiga Diodotdan tashqari, Evtidem ham aralashgan. Evtidem xuddi O'sha vaqtda SO'diyona Hokimi bo'lib, u Diodotga tobe edi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda Yunon-Baqtriyadavlatining salavkiylardan ajralib chiqishi Yunon zodagonlarining qo'zg'oloni xususiyatiga ega bo'lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil. avv. 256, 250, 248 va 246-245 yy.). Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hokimlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning Shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta erlar qo'shib olinadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Yunon-Baqtriya mulklarining chegaralari doimiy mustahkam bo'lmasdan harbiy-siyosiy sharoitdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Mil. avv. III asrning oxirlari O'rta Osiyoning janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma'lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Evtidem (Yunon-Baqtriya hukmdori) ularning hukmdori Antiox III ga "chegarada ko'chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o'tadigan bo'lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og'ir bo'lishi mumkinligini" bildiradi. Tadqiqotchilarning fikricha, Polibiy ma'lumot bergan ko'chmanchilar mil. avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun So'g'dni egallagan bo'lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya mulklarining vaqtinchalik Shimoliy chegarasi bo'lib qoladi. Shuningdek, /arbiy Hisor tog' tizmalari ham Shimoliy chegaralar bo'lgan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab-yashnagan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi va mil. avv. II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardan bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorobog'tepa, Kampirtepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar-joylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda Ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqriya davlati markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir necha viloyatlarga bo'lingan bo'lib bu viloyat hokimlari podshoga bo'ysunar edilar. Ba'zi tadqiqotchilar So'g'd va Farg'ona ham Yunon-Baqtriya tarkibiga kirgan desalar, ayrimlari bu davlatning chegaralari Amudaryodan nariga o'tmagan deyilar. So'nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan juda Ko'plab arxeologik topilmalar Amudaryoning o'ng va so'l qirg'og'i aholisining mil.avv. III-II asrlardagi o'zaro aloqalardan darak beribgina qolmay, bu erlarni Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda mil. avv. 250-140/130 yillar davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, bu davrda Diodot, Evtidem, Evkratid, Geliokl kabi podsholar hokimiyatni boshqarganlar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmiga kelib ko'chmanchilar zarbalari ostida Yunon-Baqtriya davlati inqirozga uchradi.

YAqin va O'rta Sharqning turli davlatlari, jumladan O'rta Osiyo hududlarida katta xronologik davr Yunon-makedon sulolalari siyosiy hukmronligi davri sifatida izohlanib fanda bu davr-ellinizm davri deb ataladi. Ellinizm-(Bolqon yarim orolidagi Ellada shahri nomi bilan bog'liq)bu aniq tarixiy mavjudlik bo'lib, iqtisodiy hayotda, ijtimoiy va siyosiy tuzumda, mafkura va madaniyatda ellin (Yunon) va Sharq unsurlarining o'zaro uyg'unlashuvi ifodasidir.

Qadimgi (antik) davrda ellin dunyosi Yunonistondan Hind daryosi vodiysiga bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan edi. Tadqiqotchilar, ellinlashuv darajasiga qarab bu hududni uchta mintaqaga bo'ladilar: 1. Ellada; 2 Kichik Osiyo, Suriya va Misr; 3.Efrat daryosining Sharqidagi viloyatlar. Bu hududlar tarixiy adabiyotlarda "Ellinlashgan Sharq" tushunchasida aks etgan bo'lib, uning tarkibiga Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonning Makedoniyalik Iskandar bosib olgan hududlari kirgan.

Makedoniyalik Iskandar yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va So'g'diyona shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. YOzma manbalar Iskandar nomi bilan bog'liq uchta shahar: Aleksandiya Oksiana (Oks bo'yidagi Iskandariya), Aleksandriya Marg'iyona (Marg'iyona Iskandariyasi), Aleksandriya Esxata (CHEkkadagi Iskandariya) haqidagi ma'lumotlar beradi. Ulardan tashqari, katoykiylar deb nomlangan Yunon harbiylari manzilgohlari ham mavjud edi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq bo'lgan turar-joylar, moddiy-ma'naviy madaniyat buyumlari, tanga pullarning topilishi bu hududlardagi mahalliy madaniyatga ellin an'analari (shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiiy-amaliy san'at, alifbo va boshqalar.) kuchli ta'sir etganidan dalolat beradi. Shu bilan birgalikda bu topilmalar mahalliy madaniyatdagi rivojlanish qadimgi davr (antik) Sharq va /arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishining ham guvohidir.

Shunday qilib, miloddan avvalgi III asr O'rtalarida davlatchiligimiz yana o'z taraqqiyotining ikkinchi mustaqillik pallasiga kirdi.

Mustaqillikka erishgan Baqtriya Diodot I davrida qudratli davlatga aylandi. Miloddan avvalgi 212 yilda Evtidem Yunon-Baqtriya davlatining podshosi edi.

Miloddan avvalgi 206 yildan boshlab Yunon-Baqtriya davlati uchun salavkiylar tomonidan endi Hech qanday xavf yo'q edi.

Evtidemning O'g'li Demetriy davrida (miloddan avvalgi 199-167 yillar) Baqtriyaning hududi kengayib Har jihatdan yuksaldi. Uning nomi bilan Ko'plab joylarda tangalar zarb etildi. Davlatni boshqarish borasida islohot O'tkazildi. Bunga ko'ra davlatni mayda Hokimliklarga bo'lib boshqarish joriy etildi. Demetriy mahal liy aslzoda vakillarini davlatni boshqarish ishiga

tortadi.

Nihoyat, miloddan avvalgi 141 va 128 yillar orasida Yunon-Baqtriyaga Shimoldan kelgan ko'chmanchi yue-chjilar barham berdilar.

Vatanimix tarixida muhim rol o'ynagan Sharqning bu davlati 120 yildan ortiq vaqt yashadi. Tarixchilar bu davrda oldin Baqtriyaga qaram bo'lgan, keyin, miloddan avval II asrda, mustaqil bo'lgan SO'diyona haqida ham ko'p gapiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T."Sharq", 1998.
2. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston xalqlari tarixi. T., "O'qituvchi", 1992. 1-jild.
3. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. (Eng qadimgi davrlardan milodning Y asrigacha) T. O'qituvchi. 1994.
4. Sh.Karimov, R.Shamsuddinov. «Vatan tarixi» Toshkent, "O'qituvchi", 1997.
5. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T."O'zbekiston", 1998.
6. O'zbekiston tarixi (talabalar uchun qisqacha ma'ruzalar matni), T., "Universitet", 1999.
7. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

11-MAVZU: Qang', Dovon va Xorazm davlatlari

R E J A:

1. ***Qang' va Xorazm davlatlarining tashkil topishi Hududlari va iqtisodiy hayoti.***
2. ***Madaniyati. Tashqi va ichki siyosati.***
3. ***Qadimgi Farg'ona davlati. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti. Madaniy taraqqiyot.***

-1-

Sirdaryoning o'rta oqimlarida, hozirgi Toshkent ba Sirdaryo viloyatlari hamda janubiy Qozog'iston yo'llarida yashobchi qadimgi shak qabilalarining makyedoniyalik Iskandar qo'shinlari ba salabkiylarga qarshi kurashlari jarayonida miloddan avvalgi III asrda yarim o'troq Qang' davlati tashkil topdi. Bu davlat xalqining asosini shu yerda yashobchi tub yerli aholi, bir qancha ko'chmanchi ba yarim ko'chmanchi qabilalar tashkil etadi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixida, jumladan, o'zbyek xalqi tarixida Qang' davlatining ahamiyati juda katta. Bu zaminda yashobchi qadimgi eron tilida so'zlobchi tub yerli xalqlar janubiy Sibir, Oltoy, SHarqiy Turkiston, Yettisub viloyatlarida yashobchi turkiy tilda so'zlashubchi qabilalar bilan yaqinlashadi. Natijada miloddan avvalgi II-I asrlarda Sirdaryoning o'rta oqimlari rayonlarida turkiy tilda so'zlashubchi yangi etnos bujudga kyela boshlaydi. Milodiy eraning boshlarida bu yangi etnos son jihatidan ko'payib, ko'pgina viloyatlarda o'z ustunligini ta'minlaydi ba ular alohida qang'ar elati bo'lib shakllanadi. Ana shu elat birligi asosida tarkib topgan Qang' davlatining yemirilishi bilan (V asr o'rtalarida) uning tarkibidagi elat ba qabilalar tarqalib kyetadi, uning o'rnida yangi siyosiy uyushmalar ba etnik birliklar bujudga kyeladi. Ana shunday siyosiy uyushmalardan biri ilk o'rta asrlarda Sirdaryoning o'rta ba quyi oqimlarida tarkib topib, ikki asr dabomida qadimiy etnik nomini saqlab qolgan qang'arlar qabila ittifoqi edi. Kyeyinchalik parchalanib kyetgan qang'arlar qabila ittifoqining ablodlari qang'lilar nomi bilan o'zbyek xalqi tarkibida singib kyetgan. Osiyocha quldorlik jamiyati sharoitida tashkil topgan Qang' davlatida oliy kyengash muhim rol o'ynagan. Davlat kyengashida qabila boshliqlari, xarbiy sarkardalar faol qatnashib, muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar hal etilgan. Podsho hokimiyati maslahat majlisi bilan xamnafaslikda ish yuritgan. Bu holat xarbiy dyemokratiya printsiplari asosida tashkil topgan davlat tizimida edi. Qang' davlatiga qarashli yerlar bir nyecha viloyatlarga bo'lingan. Ularni boshqargan boshliqlar jabg'u yoki yobg'ular dyeb atalgan. Qang'

xoqonlari mamlakatni mana shu jabg'ularga tayanib boshqarar ekan, ular, odatda, xoqonlarga yaqin kishilardan, ularning qabm-qarindoshlaridan, yirik urug' –qabila boshliqlaridan tayinlangan Qang' davlatiga tobe viloyatlarni boshqarish ishi mahalliy hokimlar qo'lida bo'lib, ular markaziy hokimiyatga boj to'lab turgan. Ana shunday tobe viloyatlarga qadimgi Xorazm, So'g'd yerlari, O'rol tog'olari rayonlari (alan ba yan qabilalari) kirgan.

Qadimgi manbalarda Qang' davlatining chegarasi aniq ko'rsatilmagan. Ammo Xitoy elchisi Chjan Tzyan bergan malumotdan bu muammoning yechimini topish mumkin.

Shunday qilib, Qang' davlatining ikkita markaziy bo'lgan Ulardan biri, Qang' (Qang'diz) bo'lib, u Toshkent bohasida, Sirdaryoga yaqin yerda joylashgan. Bu shahar miloddan avvalgi III asrda bunyod etilgan bo'lib, u Qang' podsholarining doimiy qarorgohi bo'lgan. Aris daryosining quyi oqimida joylashgan O'tror (Tarband) esa Qang' davlati xoqonlarining yozgi qarorgohi bo'lgan.

Qang'uy davlati miloddan avvalgi II asrning oxiri ba I asrning boshiga kyelganda buyuk davlat bo'lib, u Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yurgizar edi. Miloddan avvalgi 101 yilda Qang'uy Xitoy –Farg'ona mojarolariga aralashadi, ya'ni Xitoy Farg'ona urush ochib, uning poytaxti Ershi shahrini qamal qiladi. Qang'uy davlati farg'onaliklar tomonida turib, Xitoyga diplomatik tazyiq o'tkazadi. Xitoy uzoq dabom etgan Ershi qamali natija byermagach, mudofaachilar oldiga qator talablar qo'yadi ba ularning talabi qondirilgan taqdirda Ershi qamalini to'xtatishni aytadi. Xitoyliklar o'z maqsadlariga erishib Farg'onadan uchar arg'umoqlar olib ketadilar.

Miloddan avvalgi I asrda Qang'uy davlatinig harbiy –siyosiy kuchi syezilarli darajada qudratli bo'lishiga qaramay jamiyat taraqqiyotining har xil darajasida turgan ko'chmanchi ba yarim o'troq aholining uyushmasi edi. Davlat tyepasida ko'chmanchi qabilalar bakillari turardi. Xuddi shu dabrd qadimgi Xorazm ba So'g'diyonada kundalik hayotning barcha jabxalarida yuksalish sodir bo'lmoqda edi ba ular o'z tangalarini zarb etardilar. So'g'dda pul –tobar munosabatlarini yuksak rivojlanishda bo'lib, tangalarda so'g'd mafkura dunyosining aslini ko'tarish mumkin edi. Xorazmda esa “nomsiz podsho”larining tangalari ko'p bo'lib, ulardan Xorazm xukumdorining boshi ba yunon g'alaba xudosi Nikaning tasbiri tushirilgan. Tanganinig boshqa yuzida xudo yoki podshoning ot ustida turgan rasmi solingan.

Akademik YA.ulomovning ta'kidlashicha, Sirdaryo O'rta oqimi xavzasida, (Hozirgi Toshkent, qisman Sirdaryo viloyati va Janubiy Qozoiston hududida), miloddan avvalgi III asr boshlarida tashkil topgan Qang' davlati davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyatga ega. Bizningcha, makedoniyaliklar qo'shinlariga qarshi uyushgan mahalliy va ko'chmanchi qabilalar davlati bo'lgan Qang' davlati asosan, ko'chmanchilar davlati bo'lib, mahalliy xalq ularga mudofaa zaruratidan qo'shilgan. Shunga qaramay, Qang' davlatining davlatchiligimiz tarixida O'z o'rni bor.

Qadimgi manbaalarda Qang' davlatining qanday idora qilinganligi, uning davlat tuzilishi to'risida ma'lumotlar etib kelmagan. Ammo faqat bir marta to'rtinchi Xan sulolasi tarixida (miloddan avvalgi II-I asrlarga oid) Qang'uy podshosi O'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutishi haqida eslab o'tiladi. Demak, quldorlik jamiyati sharoitida tashkil topgan Qang' davlatida Oliy kengash asosiy rol o'ynagan.

Davlat kengashida qabila boshliqlari, Harbiy sarkardalar faol qatnashib, muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar Hal etilgan. Podsho Hokimiyati demokratik printsiplar asosida tashkil topgan davlat tizimi edi. Qang' davlatiga qarashli erlar bir necha viloyatlarga bo'lingan. Ularni boshqargan boshliqlar jobu yoki yobular deb atalgan. Qang' xoqonlari mamlakatni ana shu jobularga tayanib boshqarar ekan, ular, odatda, Hoqonlarga yaqin kishilardan, ularning qavm-qarindoshlaridan, yirik uru-qabila boshliqlaridan tayinlangan. Qang' davlatiga tobe viloyatlarni boshqarish ishi mahalliy Hokimlar qo'lida bo'lib, ular markaziy Hokimiyatga boj to'lab turgan. Ana Shunday tobe viloyatlarga qadimgi Xorazm, SO'd erlari, Ural to'ldi rayonlari (alan va yan qabilalari) kirgan.

Qang' davlati VII asr yashab, milodning V asri O'rtalarida emirildi. Markaziy Osiyo

xalqlari tarixida, jumladan, O'zbek xalqi tarixida bu yarim ko'chmanchi davlat zaminida yashovchi Qadimgi Eron tilining Shimoliy shaxobchasida so'zlashuvchi tubjoy xalqlar Janubiy Sibir, Oltoy, Sharqiy, Turkiston, Ettisuv viloyatlarida yashovchi turkiy tilda so'zlashuvchi qabilaar bilan yaqinlashdi.

Davlatchiligimiz tarixining ikkinchi bosqichida muhim rol o'ynagan davlatlardan biri Qadimgi Xorazm davlatidir. Qadimgi Xorazm tarixining bilimdoni S.P.Tolstov asarlarida massaget qabilalari ittifoqi, ularning Saksafar, Omarg va TO'maris kabi vakillari to'risida fikr yuritib o'tadi. S.P.Tolstov TO'marisni debriklar malikasi, Omargni esa saklarning podshosi edi, deydi. Saksafarga kelganda u siyovushiylar sulolasiga tegishli qadimgi Xorazm podshosi SHAushafor bo'lishi kerak, degan g'oyani olg'a suradi. S.P.Tolstovning bu mantiqiy o'xshatishida tarixiy haqiqat bo'lsa, u holda miloddan avvalgi VI asrda qadimgi Xorazm O'z hukmdoriga ega bo'lgan. Saksafar Xorazm davlatining ilk podsholaridan biri bo'lgan.

Bu aloqa yo'li atrofida bo'lgan aloqalarni tasdiqlovchi Farg'onadagi 900 dan ortiq mozor qO'ronlaridan topilgan ashyoviy topilmalardir. Farg'onaning arbidagi Qorabuloq mozoridan topilgan ashyolar ichida jangchi qurollari bo'lib, milodning II-IV asrlariga to'ri keladi. Topilgan matolar va ularning bezaklari Osiyoning arbi, O'rta er dengizi bo'yidagi xalqlarga taalluqli bo'lib, Xitoy to'qimachilari tomonidan takomillashtirilgan xolda yaratilganligi maolom bo'ldi. Qorabuloq topilmalari Xitoy bilan Sharqiy Turkiston, SO'd, Eron va Farg'ona vodiysining Pop yaqinidagi mozor arxeologik jihatdan O'rganilganda qalindan qalin qilib tobutlar yasab, jasadlar dafn qilinganligi maolom bo'ldi. Bu qabrlarda juda ko'p ashyoviy topilmalar aniqlandi. YAoni

Xitoy matolaridan tikilgan kiyim-boshlar, tO'qima sandiqchalar, savatchalar, bronza ko'zgu, qO'nircha, munchoq, uzuk, yoochtaroq va upadon topilgan. Urush qurollaridan esa murakkab O'q-yoy, bigiz, pichoq, musiqa asboblari va boshqa topilmalar Ko'plab uchraydi. Bu yodgorliklardan aniqlangan buyumlar milodning IV-VII asrlariga tO'ri kelib, qo'shni xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar keng miqyosda olib borilganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga Pop, Axsikent, O'zgan, Qashqar orqali Xitoyga O'tadigan aloqa yo'li ekanligini tasdiqlaydi.

Milodning III-VI asrlarida bo'lib O'tgan siyosiy voqealar, iqtisodiy-madaniy aloqalarga nisbatan O'z taosirini ko'rsatgan. Parfiyaning zaiflashuvi III asrlarga kelganda Eron sosoniylari davlatining shakllanishiga olib keldi. Sosoniylar davlati O'zlarining Sharqidagi zaiflashgan Kushonlar davlatini O'ziga qaratishga intilgan. Natijada sosoniylarning Sharqiy chegarasidan to Xitoygacha kengaygan.

Milodning IV-VI asrlarida O'rta Osiyoning katta xududi kidoritlar va eftalitlar tomonidan istilo qilindi. Eftalitlar sosoniylar bilan hududlar masalasida kurash olib borsa-da, ammo Vizantiyaga qarshi birgalikda kurash olib borganlar.

Eftalitlar bosib olingan joylardagi siyosiy boshqaruv ishlariga aralashmaganlar, balki vaqti-vaqti bilan soliqlarni yuib, O'z joylariga qaytganlar. Bu vaqtda Xindiston va Eron bilan aloqalar yanada kuchaygan. Buni Sharqiy Turkistondan topilgan sO'd yozuvlari, Qang'xa, CHoch, Quva shahar Harobalaridan topilgan ashyoviy materiallar tasdiqlaydi. Ayniqsa, SO'd, CHochdan topilgan kumush, oltin tanga pullari sosoniya, Vizantiya bilan savdo-sotiqning gullab-yashnaganligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyo bilan Xitoy iqtisodiy-savdo aloqalarining eng kuchaygan davri bu IX-XII asrlardir. Bu vaqtda Farg'onada 40, CHochda 50, Qozoistonda 70 dan ortiq shaharlar bo'lib, ular asosan savdo trassasi atrofida joylashgan bo'lib, ular taraqqiyotida savdo-sotiq asosiy rol o'ynagan. Shaharlarda hunarmandchilikning barcha sohaları mavjud bo'lib, o'z mahsulotlarini chetga chiqarganlar.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida tashkil topgach, Markaziy Osiyo va shu qatorda YAqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan teng asosda iqtisodiy-madaniy aloqalarni olib borishga kirishdi. Bu esa qadimdan boshlab xalqlar O'rtasida katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan, ammo keyinchalik O'z qimmatini yo'qotgan "Ipak yo'li"ni qayta tiklashni taqozo etardi. 90-yillardan I.A.Karimov boshchiligidagi Hukumatimiz O'z qadrini yo'qotgan "Ipak yo'li"ni tiklashga Harakat qilmoqdalar.

Savdo trassasi atrofida joylashgan davlatlar bilan aloqalarini qayta tiklashga bel boladilar. 1990-yil oktyabr oyida Samarqandda YUNESKO ishtirokida "Qadim va O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buyuk ipak yo'lining vudjudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida xalqaro seminar O'tkazildi. Bundan keyingi yillarda esa turli mavzularda "Ipak yo'li"ga baishlangan xalqaro uchrashuvlar, konferentsiyalar O'tkazildi. Bu esa mustaqil respublikamiz tomonidan qaror qabul qilinishi va shu asosda qo'shni xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun qadimgi "ipak yo'li"ni qayta tiklanish uchun keng miqyosda ishlar boshlanishga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. "Savdo uyidan ipak yo'lini tiklash sari", Tanlangan asarlar, 11, T."O'zbekiston", 1996, 31 bet.
2. Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T.1998.
3. Asqarov A. "O'zbekiston tarixi" (6-sinf), T.1994, 222 bet.
4. Ipak yo'li afsonalari. T."Fan", 1993.
5. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T."O'zbekiston", 1998.
6. Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi, T., "O'zbekiston", 1993.
7. Na sredneaziatskix trassax velikogo Shelkovogo puti. Ocherki istorii i kul'tur. T.1990.

8. Formirovanie i razvitie trass velikogo SHeikovogo puti v TSentralnoy Azii v drevnosti i srednevekov'e.

Tezisi dokladov mejdunarodnogo seminara YUNESKO. T.,1990.

9. Istoriya narodov Vostochnoy i Sentralnoy Azii s drevneyshix vremen do nashix dney. M.1986.

10. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

13-MAVZU: O'rta Osiyoda ilk yer egaligi munosabatlarining shakllanishi (IV- VII asrlar).
Xioniylar, Kidariylar, Eftaliylar davlati

REJA:

1. Feodal munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.

2. Xioniylar va kidariylar haqidagi yozma manbalar.

3. Xioniylar, kidariylar va sosoniylar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlar.

4. Milodiy V asr 1-yarmida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Eftaliylar davlatining vujudga kelishi

Mamlakatimiz hududida milodimizning IV—V asridan e'tiboran yerga egalik munosabatlari, ya'ni feodal ishlab chiqarish munosabatlari qaror topa boshladi. «Feodal» — lotincha katta yer egasi ma'nosini anglatadi. Turii mamlakatlarda u turlicha nomlarda ishlatilgan: Rusiyada pomeschchik — krepostnik, Polbshada — magnat, shlyaxta va h. k.

VI —IX asrlar oralig'idagi davrda bu hududda ilk feodal jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Turii mamlakatlarda feodal ishlab chiqarish munosabatlari turlicha ko'rinishda sodir bo'lgan. Feodal ishlab chiqarish usuli hech bir joyda biron tarzda to'liq shakllanmadi. Har bir mamlakat, har qaysi xalq va davlat uni o'zining tabiiy sharoitlariga, o'z an'alariga va hatto tarkib topgan o'z turmush tarziga moslashtirar edi. Jumladan. Rusiyada feodal yer egasi hisobdangan. Dehqonlar feodal yer etasi foydasiga tekin ishlab berishga majbur edilar. Dehqonlar dastlabki davrlarda haftada bir kun, so'ngra ikki kun, undan keyin uch kun, bora-bora esa butun hafta davomida feodal yerida ishlashga majbur qilingan. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimiz singari yer feodalning xususiy mulki, dehqon esa bunday mulkdan mahrum. Shu bois u pomeschchik yerida ishlamas ochlikdan o'ladi, oilani boqolmaydi. Feodalizmning bunday eng tugallangan namunasi bergan Rusiyada feodal-krepostnoylik tizimi XVI asrning o'rtalarida qonun yo'li bilan shakllantirilgan va 1861 yil 19 fevral Nizomi bilan krepostnoylik huquqi bekor qilinganga qadar harakatda bo'lgan. Shu boisdan shafqatsizlarcha olib borilgan krepostnoy feodal ekspluatatsiya zulmiga qarshi Rusiya dehqonlari Bolotnikov, Razin va Pugachyovlar rahbarligida o'z ozodliklari uchun uch marta qo'zg'olon ko'targanlar.

Mamlakatimiz hududida esa feodalizm, ya'ni yerga egalik munosabatlari ma'lum darajada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Bu yerda dehqon Rusiyadagi singari mulkdor feodal yer egasiga emas, baiki yerga bog'lanib qolgan edi. Tekin ishlab berja (bcirshchina) bu yerda iqtisodiy jihatdan foydali bo'lmaganligidan sug'oriladigan dehqonchilik hukmron bo'lgan butun Markaziy Osiyo hududida ekspluatatsiya shakli renta-soliq xarakterini kasb etgan. Renta solishni ma'lum hududtsagi jamoaga uyushgan erkin dehqonlar to'laganlar. Bu erkin dehqonlar

«kashovarzlar» deb, atalganlar. Yer egasi bo'lib olgan harbiy zodagonlar esa «dehqon» deb atalgan. «Dehqon» qishloq xo'jayini ma'nosini anglatadi. Kashovarzlarjamoas boshlig'i «dehqon»ga soliq to'laganlar. X asr tarixchisi Taboriy shu mabnoda bunday dehqonlarning qayerdan kelib chiqqanligini tushuntiradi. Go'yo afsonaviy podsho Monuchehr har bir qishloqqa bir dehqonni boshliq qilib tayinlab, bu qishloq aholisiga shu dehqonga bo'ysunish va uning uchun ishlashni buyurgan ekan. Bu hoi quidorlikka asoslangan eski shahariami tushkunlikka uchrashiga sabab bo'ldi feodallarnii-ig mulklari yonida juda Ko'p mayda xo'jalik markazlari vujudga kela boshladi. Kushon davlati inqirozga uchrab tarqab ketgach, ayrim vohalarda mustaqil mulklar paydo bo'ldi. Bu mulklarning o'z podshochalari bor edi. Ularning nomlari har vohada har xil

bo'lgan. Jumladan, Buxoroda — *buxorxudot*, Chog'aniyonda - *chog 'anxudot*, Vardanzida — *vardanxudot*, Toshkentda — *to 'dan*, Samarqand va Farg'onada — *ixshid*, Osrushanda — *afshin*, Xorazmda — *xorazmshoh*, Termizda — *termizshohi*, Iloqda — *dehqonlar* kabi. Dehqonlar bu podshochalami quilar va qaram kishilardan tuzilgan, yaxshi ta'lim olgan harbiy drujinalar — *choqarlari* bilan quvvatlab turganlar. Dunyoning boshqa qitbalaridan farqli o'laroq, Markaziy Osiyo xududidagi feodalizmning o'ziga xos xususiyati Shundaki, bu yerda cheklanmagan mustabid Sharqona ko'rinishdagi markazlashgan kuchli hokimiyaliHa intilish ustivorlik ahamiyat kasb etgan.

Mamlakatiiniz hududida ilk feodalizm davrida tashkil topgan yirik davlatlardan biri — *Eftaliylar* davlatidir, Eftaliylarning etnik jihatdan qaysi qabila — xalqqa mansubligi va qaysi tilda so'zlashganliklari to'g'risida fan olamida har xil fikriar bor. Ammo aksariyat Ko'pchilik olimlar eftaliylarni milodimizdan avvalgi I asr bilan milodimizning IV asri o'rtalarida Yettisuvdan va yanada Sharqroqdagi rayonlardan Orol dengizi bo'ylariga kelib qolgan *xunmlar* bilan aralashib ketgan holda Xun qabilalaridan turkiy tilini qabul qilgan Orol bo'yi *sak-massaget* qabilalarining aviodlaridirlar, degan g'oyani ilgari suradilar. Eftaliylar tarixiga oid ma'lumotlar rumolik tarixchi *Ammian Martsellin* (IV asr), vizantiyalik tarixchi *Prisk Paniyskiy* (V asr), *Prokopiyy Kcsariyskiy* (VI asr), *Feofan Vizantiyskiy* (VI asr), suriyalik yozuvchi *Zenob Glak* (VII— VIII asrlar), armanistonlik tarixchilar *Lazar Parbskiy* (V asr), *Favsto Buzanda* (IV asr), *Yerishe* (V asr) asarlarida berilgan. Birmuncha keyinroq yozilgan xitoy solnomalari «*Vey-Shu*» (VI asr) va «*Man-Shu*» (IX—X asr)da ham eftaliylar to'g'risida qimmatii manbalar bor.

Eftaliylar tarixi bilan rus Sharqshunos olimlari P. I. Lerh N. I. Veselovskiy, V. V. Bartolbd, A. Yu. Yakubovskiy, S. P. Tolstov, A. H. Bernshtam, chet ellik tarixchilardan Shnext, Druen, Markvart Xermon, Mak Govern va boshqalar ham shug'ullanganlar va qimmatii asarlar yozganlar. Eftaliylar turii tillarda, turlicha nomlarda talqin qilinadi: xitoylarda *Ye-da* yoki *I-da*, armanlarda — *Xettal* va *Tetal*, arablarda — *Xeylal*, yunonlarda — *Abdel*.

Tarixiy manbalaming guvohlik berishicha «eftaliylar» degan nomning o'zi V asming ikkinchi yarmidan e'tiboran paydo bo'lgan. Feofan Vizantiyskiyning ma'lumotlariga qaraganda eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon deb nomlangan. Arman tarixchilaridan biri esa eftaliylar degan nom «haft» (etti), ya'ni massagetlaming yettinchi qabilasi nomidan olingan deb hisoblaydi. Amma IV asrning o'rtalarida kushon, eftaliy va yana bir massaget qabilalari boshqa bir qabila bilan birlashgan. Arman tarixchilari bu qabilani «Xonlar», vizantiyalik tarixchilar esa «Xioniylar» deb ataganlar. Arman va suriyalik tarixchilar «Xonlar»ni kushonlar bilan bir xil bilishgan, vizantiyaliklar zsa ularni «Oq xunlar» deb atashgan. Bu yerda xi'onitlar badaniniig oqligi, o'troq turmush sharoiti va boshqa ko'chmanchi xunlarga nisbatan ancha yuqori madaniyat darajasiga egaligi e'tiborga olingan.

Birinci marta xioniylar Ammian Martsellin asarida qalamga olingan. 356 yilda xioniylar begi Grumbat o'z o'rni bilan Eron sosoniylari podshosi Shopur II (309— 379 yillar) tomonida turib Amida (Suriya) shahrini qamal etgan paytda ittifoqchi sifatida qatnashadi. Sosoniylar podshosi Varaxran V (418—438 yillar) xioniylarga qarshi qattiq kurashlar olib borgan. Bu davrda xioniylar Amudaryo havzasini egallab olib o'z hududlarini yanada kengaytirishga harakat qilayotgan edilar. Marv atrofida olib borilgan jangda xioniylar ustidan g'alaba qozongan Varaxran V o'z davlati chegaralarini Talqon (Marv bilan Balx oraligi) gacha kengaytirdi va bu yerda toshdan chegara minorasi qurdirdi. Undan keyingi sosoniylar podshosi Yazdigard II (438—457 yillar) xioniylarning to'xtovsiz bo'lib turadigan hujumlaridan himoyalaniib, qarorgohini Shimolga tomon, Shahrison — Yazdigard shahriga ko'chkrdi. Bu davrda u xioniylarning juda ko'p qishloq va shaharlarini vayron qildi hamda Balxan tog'i yaqinidagi Chol shahrida (hozirgi Krasnovodsk shahri yaqinida) o'rnashib olgan xioniylar podshosini o'ldirdi. Ammo ikkinchi yurish paytida (453— 454) Yazdigard qo'shini xioniylar tomonidan tor-mor keltirildi va uning o'zi qati elildi.

V asr boshlarida massaget qabilalari ittifoqidan yana bir qabilaviy guruh ajralib chiqdi. Ular kidariylar deb atalib, Tohariston hududlarida joylashgan edilar. Bu nom qabila boshlig'i va podshosi Kidar nomidan olingan. Kidariylar bir necha marta sosoniylar Eroniga hujumlar

uyushtirganlar. Ammo 456 yildagi bo'lgan jangda sosoniylar kidariylami tor-mor qiladilar. Kidariylar halok bo'lgan o'z podsholari Kidarning o'gli Kungas ("Skunxa" deb ataluvchi sak nomi bilan taqqoslang) boshchiligida Hindiqush orqali Qandahor (Peshovar)ga ketadilar va Shimoliy Hindistondagi Ciupta podsholigini o'zlariga bo'ysundiradilar.

Kidamiylar bu yerda 75 yil mobaynida hukmronlik qilganlar. V—VI asrlardagi tarixshunos olinilarning asarlarida (masalan, suriyalik Ieshu Stilit, vizantiyalik Prokopiyy Kesariyskmy, armanistonlik Sebeos va boshqalar) xioniylar eftaliylar bilan, ba'zilarida kushonlar bilan aynan bir bo'lgan deb yoritiladi. Bu hoi bizga bu qabilalar o'rtasidaga farq etnik xarakterda bo'lmasdan sulolaviy jihatdan farqlanadn, deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, 457 yildan e'tiboran eftaliy podshosi Vaxshunvor Chag'oniyon Tohariston vz Badaxshonni o'ziga bo'ysundiradi. Eftaliylarning kuchayib ketayotganligidan xavfsiragan sosoniylar shohi Peroz eftaliylarga qarshi yurish qiladi. Ammo u yengilib asirga tushadi va yordam so'rab Vizantiyaga nurojaat qiladi. Vizantiyadan yuborilgan pul ezaziga asirlikdan ozod qilingan Peroz e italiylarga ilgari bosib olingan Taliqon shahrini qaytarib berish va *Veraxran* V tomonidan belgilangan chegaradan nariga o'tmaslik majburiyatini oladi. Taliqon shahrida o'matilgan chegara minorasi fillar yordamida ko'chiriladi. Ammo Peroz o'z va'dasini bajarmaydi va eftaliylar ustiga ikkinchi marta qo'shin tortib keladi. Ikkinchi marta ham mag'lubiyatga uchrab, Suriya manbalarida ta'kidlanishicha, u ikkinchi marta asir tushadi. Sosoniylar shohi eftaliylarga kumush dirhamlar bilan to'ldirilgan qoplar ortilgan 30 ta xachir berish majburiyatini oladi. Lekin u faqat yigirmata xachir va shunga loyiq tangalar topa oladi, xolos. Maj burly atning qolgan qismi evaziga Peroz o'zining go'dak o'g'li Kovadni garovga qoldiradi va ikki yil davomida eftaliylarga katta hiroj to'lab turishga majbur bo'ladi. Bu xirojni Peroz aholiga og'ir jonboshi soliqlarini solish yo'li bilan to'laydi. Shu munosabat bilan arman tarixchisi Lazarb Perbskiy Peroz Eronni eftaliylarga sotganligini va lining hech qachon bu quilikdan qutula olmasligini zorlanib yozgan edi. Majburiyatdagi qarzni to'lab bo'lgan Peroz. o'zini eftaliylarga do'st qilib ko'rsatmoqchi bo'ladi va o'z singillaridan birini eftaliylar podshosi Vaxshunvorga xotinlikka taklif qiladi. Biroq Peroz singlisi o'rniga xotinlikka boshqa qizni yuborib Vaxshunvorni aldaydi. Vaxshunvor bunga javoban, eftaliylarning iltimosiga ko'ra Erondan kelgan harbiy maslahatchilarni kaltaklattiradi va o'ldiradi.

Peroz Vizantiya yordamida uchinchi marta eftaliylar ustiga yurish qiladi. Bu yurishda eftaliykir chegarasidan o'tgan Peroz o'z askarlari bilan ular uchun maxsus, ataylab tayyorlab qo'yilgan bo'ri uyalariga tushib qoladi va halok bo'ladi. Perozni tor-mor keltirgan eftaliylar Eronga juda katta o'lpon soliqlari soladilar va Marvni egallaydilar. So'g'dni esa ular allaqachon o'zlariga qaratgan edilar. So'ngra eftaliylar Kobul va Panjob vodiysini, Qarashar, Quchu, Qoshg'ar va Xo'tonni ham zabt etadilar. Umumiy xulosa Shundan iboratki, eftaliylar massagetlar aviodidir, ular kushonlar siyosatini davom ettiradilar va Markaziy Osiyoda yagona markazlashgan davlatni barpo etdilar. Eftaliylar qo'li ostida tarbiyalangan Perozning o'g'li Kovad davrida Eron eftaliylarga hiroj to'lashda davom o'tdi. Kovad hukmronligi davridagi (488—551 yillar) tengsizlik va ekspluatatsiya zulmiga qarshi xalq ommasi o'rtasida norozilik qo'zg'olonlari bo'lgan. Bu davrda barcha yerlarjamo qo'lidan tortib olinib «dehqon mulki»ga aylantirilgan. Barcha boyliklar va hokimiyat boylar qo'lda bo'lgan. Ayollar huquqi poymol qilingan. Boylar ko'ngil hushi uchun istagancha xotinlar olganlar, Bu hoi Mazdak boshchiligida qo'zg'olon kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Mazdakchilar — «Z» harfi bilan boshlanadigan to'rt narsaning aholi o'rtasida teng bo'lishini talab qilganlar: 1) *Zamin (yer)*; 2. *Zar (oltm)*; 3. *Zo 'rlik*

(*kuch-hokimiyal*) va 4. *ZOM (xotin)*. Kovad dastlab bu qo'zg'olonni himoya qildi va qo'llab-quvvatladi. So'ngra u bu qo'zg'olonga qarshi kurashdi va eftaliylar tomoniga qochib ketdi. Kovad hukmronligi davrida Eron bilan eftaliylar orasidagi munosabatlar ancha yumshab do'stona tus ola boshladi. Bu hoi eftaliylar orasida o'sgan Kovadning eftaliylar bilan shaxsiy do'stona munosabatlarining natijasi bo'lganligi ehtimoldan uzoq emas. Kovad eftaliylar podshosining qizi, ya'ni o'z jiyaniga uylanadi, Chunki uning opasi asirga tushgach, Vaxshunvorning xotini bo'lgan edi. Ikki tomon o'rtasidagi yaqinlik shu darajada kuchaydiki, eftaliylar 502 yilda Eron toinonida

turib Vizantiyaga qarshi urushda qatnashganlar. 506 yilda tuzilgan sulh bilimiga ko'ra Vizantiya tillasidan o'z ulushlarini olishga muvaffaq bo'lganlar. Eron bilan eftaliylar o'rtasidagi do'stona munosabatlar Kovadning o'g'li Xusrav I Anushirovon davrida ham davom ettirilgan. Chunki Xusrav I eftaliylarga yil sayin kumush hisobida belgilangan hirojni to'lab turgan. Ammo Turk xoqonlarining eftaliylarga qilgan hujumidan foydalanib Xusrav I 554 yilda eftaliylardan Toharistonni torlib oladi. 563—567 yillarda esa turk xoqoni Silsilul Eron bilan ittifoqda eftaliylariga qaqshatqich zarba beradi va bu podsholikni tobe ahvolga solib qo'yadi. Lekin VI asr oxirlariga kelib turk xoqonligi roziligi bilan eftaliylar Eronga qarshi urush olib bordi va Toharistonni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar. So'ngra Eronda boshlangan fuqarolar urushidan foydalanib sosoniylarga qaram bo'lishdan ozod bo'lgan eftaliylar allaqachon g'arbiy turkiy - xoqonlik ta'siriga tushib qolganliklaridan o'zlarining avvalgi mustaqilliklarini saqlab qololmadilar. Eftaliylar davlatining siyosiy markazi—poytaxti qayerda bo'lganligi to'g'risida qat'iy aniq ma'lumot yo'q. Taxminiy fikriga ko'ra bunday markaz Poykand yoki Balx bo'lgan deyiladi. Davlatning boshida podsho turgan. Podsholar Vizantiya tarixchisi *Prokopiyning* (VI asr) so'zlariga qaraganda vizantiyaliklar bilan forslar orasida mavjud bo'lgan adolatdan zarracha bo'lsada kam bo'lmagan adolatga suyanib faoliyat ko'rsatganlar. Odamlar asosan shaharlarda yashaganlar. Eftaliylar hukmronligi davrida quidorlikning yemirilib, asta-sekinlik bilan feodalizm qaror topa boshlaganligining guvoh bo'ladi. Bu davrda olib borilgan to'xtovsiz urushlar ishlab chiqarish kuchkirining inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi, sug'oriladigan yer maydonlari qisqardi, shaharlar sonjihatdan kamaydi. Eftaliylardan oldingi kushonlar davridayoq yer va qo'rg'omarga ega bo'lgan aslzodalar ajralib chiqib boshlagan, dehqonlar mahalliy - zodagonlarga ko'proq tobe bo'la borgan. Bu hoi feodal munosabatlarni shakllana boshlashi uchun shart-sharoit yetila borganligini ko'rsatadi. Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, ayrim qismigina ko'chmanchilik asosida yashagan, o'tovlarda istiqomat qilishgan.

Jamiyatda feodal munosabatlar paydo bo'la borishiga qaramasdan, quidorlik tuzumi va hatto ibtidoiy jamiyatning qoldiq sarqitlari ham saqlanib qolgan. Quilar mehnatidan foydalanish davom etgan. Xalqning urf-o'rdi va turmush tarzida, eski tuzum, davrining sarqitlari keng qo'llanilgan. Oily tabaqa vakillarida, patriarxal tuzum urf-odatign ko'ra ko'p xotinlilik hukm surgan.

Oddiy efhiliy vafot etganda tuproqqa qo'yilgan, boylarning murdasini esa maxsus tayyorlangan tosh dahma (yodgorlik toshi, maqbara) ga ko'mishgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdagi o'zgarishlar munosabati bilan eski tartibdagi shaharlar inqirozga uchrab yangi qo'rg'on, qal'alamg mustahkamlanishi ko'zga yaqqol tashlanadi. Bundan tashqiri yangicha tipdagi shaharlar, shahar-qapalar yuzaga keladi. Eftaliylar Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlar bilan keng ko'lamda savdo aloqalari olib borganlar, eichilik munosabatlari o'rnatganlar. Savdoda Xitoy va Vizantiya asosan ipak, oyna, turii meva-chevalar, qimmatbaqo toshlar, bo'yoqlar va boshqalar bilan muomala qilar edi. Bu savdo jarayoni da sosoniy tangalar bilan bir qatorda mahalliy tangalar ham qo'llanilgan buxorxudotlar tangasi, so'g'diy tangalar- Xorazm tangalari va hokazo.

Tarixiy yozma manbalarda eftaliylarning kundalik turmush va madaniyati haqida deyarli hech qanday ma'lumotlar saqlanmagan. Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, eftaliylar cho'qmorlar bilan jang qilganlar (forslar — kamonlar, arablar — nayzalar bilan), ular nihoyatda bahodir, jangovar va mard xalq bo'lishgan. Eftaliylarning liii haqida yuqorida eslatganimiz singari, aniq bir xulosaga ega emasmiz. Eftaliy podsholigida so'g'd tilining keng qo'llanilganligi to'g'risida manbalar yetarii darajada ma'lumot beradi. So'g'd yozuvidan tashqari, undan bir oz farq qiluvchi bug'or yozuvi, xorazmiy va eftaliy yozuvi keng tarqalgan. Eftaliylar davri xalq qo'shiqlari va eposlari Firdavsiy «Shohnoma»sida tasvirlangan. Eftaliylar podsholigida har g'il diniy g'oyalarga e'tiqod qilish davom etgan. Bunga asosiy sabab eftaliylamingjuda Ko'p xalqlami siyosiy birlashtirganligidir. Bu yerda Zardushtiylik Erondagiga nisbatan boshqacharoq shaklga ega bo'lgan. U Anaxit va Siyovushga ehtirom ko'rsatish bilan qo'shilib ketgan. IV asrda Navroz (Yangi yil) kuni Zardushtiylik erta tongda Siyovushning Buxorodagi qabriga kelib xo'roz so'yib qurbonlik qilganlar. Bundan tashqari Vaxsh, Mitra, Anaxit (quyosh)ga sirinish ham mavjud

bo'lgan. Manixeizm, Mazdak ta'limoti (Eron), buddizmning yoyilishi o'z yo'lida davom eta berdi.

Eftaliylar davri tarixiga oid ba'zi bir moddiy madaniyat yodgorliklari mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan. Bular Xorazm viloyati hududidagi Firqal'a (Qiyot - Beruniy yaqinida), Buxoro viloyatida Poykand va boshqalardir. Bu tarixiy obidalar xalqimizning eftaliylar davri madaniy va turmush hayoti to'g'risida qimmatli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Eftaliylar davrida shuhrat topgan yirik shaharlardan biri Paykent (Baykend) dir. Tarixchi Narshahiy Baykendni «Buxoro shahridan qadimiyroq» deb hisoblaydi. Bu shahar xarobalari va uning o'tmish tarixi ham yetarli darajada o'rganilgan emas. Yoki Bolaliktepa ibodatxonasidagi binoning devorlariga ishlangan suratlar rang-barangligini aytmaydismi, Qo'llarida qadahlar ushlab o'tirgan erkak va xotinlarning qiyofalari rangli bo'yoqlarda jonli bir suratda hayratomuz o'z ifodasini topgan. Bu daliliy ashyolar qadimgi ajdodlarimizning buyuk aql, tafakkur va ijod egalari bo'lganligini ko'rsatadi. Ammo markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va kichik-kichik mayda hukmdorlarning raqobatlari natijasida VI asming o'rtalariga kelib Eftaliylar davlati asta-sekin yemirila boshladi.

Tayanch tushunchalar:

Feodalizm, dehqon, kadivar, kashovar, chokar, qo'rg'on, yerga egalik qilish, Mazdak.

Nazorat savollari:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T., "O'zbekiston", 1998.
2. Sh.Karimov, R.Shamsuddinov. Vatan tarixi. T., "Sharq", 1996. 1-qism.
3. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston xalqlari tarixi. T., "O'qituvchi", 1992. 1-jild.
4. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., "O'zbekiston", 1998.
5. G'ulomov YA. Qadimgi madaniyatimiz izlaridan. T., "Fan", 1960.
6. Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi, T. "O'zbekiston", 1993.
7. Na sredneaziatskix trassax velikogo Shelkovogo puti. Ocherki istorii i kul'tur. T. 1990.
8. Formirovanie i razvitie trass velikogo Shelkovogo puti v Sentralnoy Azii v drevnosti i srednevekov'e. Tezisi dokladov mejdunarodnogo seminara YUNESKO. T., 1990.
9. Istoriya narodov Vostochnoy i Sentralnoy Azii s drevneyshix vremen do nashix dney. M., 1986.
10. Bichurin N. Sobranie svedeniy o narodax obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. T. 2. M-L., 1950.
11. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi (birinchi kitob) T.; "Sharq" 2010.

14-MAVZU: TURK HOQONLIGI R E J A:

- 1. O'rta Osiyoga turkiy qabilalarni kirib kelishi va xoqonlikni tashkil topishi***
- 2. Bumin va Istami hoqonlar faoliyati va VI asrni ikkinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy vaziyat.***
- 3. G'arbiy turk hoqonligi, To'nyabg'u faoliyati***
- 4. G'arbiy turk hoqonligining hududi, aholisi, xo'jaligi va madaniyati.***

Oltoy, Yettisuv, Markaziy Osiyodagi turli qabilalar va xalqlar VI asrga o'rtalariga kelib bu

qabilalar birlashib Turk hoqonligi deb atalgan davlatga asos soldilar. Lekin bundan VI asrga qadar turkiy qabilalarda davlat bo'lmagan deb bo'lmaydi. Bichurin, N. Gumilyov turkshunos olimlarning bergan malumotiga ko'ra ilk turkiy qabilalar Xitoy solnomalarida miloddan avvalgi 1756-yildan boshlab tilga olinadi.

Ammo bular turk nomi bilan emas, balki hun yoki hunlar nomi bilan atalgan. Turk so'zi milodimizning V asridan uchraydi. Xunlar turkiy qabilalarning avlodlari bo'lib juda boy, va tarixga ega. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizini bo'ylari, va Ovropea yerlarigacha cho'zilgan hududlarda yashaganlar.

Turkiy qabilalar to'g'risida turli afsonalar mavjud. Ulardan birida aytilishicha G'arbiy dengiz sohillarida yashagan turkiylarning ota-bobolari, ularga qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlangan. Bulardan 10 yosharli bir bola tirik qolib ona bo'ri sababli turkiy qabilalar saqlanib qolingan deyiladi. Ularga turk nomi Oltoydagi tog' nomidan berilgan.

Turklar avval Jurjonlarga qaram edi. Bu qaramlik Bumin hoqon davridan boshlab tugaydi yani 552-yilda Bumin Jo'jan xoni Anahuaning qiziga sovchi qo'yadi. Bu esa Anaxuani jaxlini chiqaradi. Natijada urush chiqadi.

Shunday qilib turk hoqonligiga asos solindi. va hoqon xitoy malikasiga uylanadi. Vay saltanati hukmdori Vendi bilan shartnoma imzolaydi. Bu esa yangi hoqonlikni mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Natijada 552-745 yillarda katta hududda turk hoqonligi vujudga keldi. Xitoy tarixchilari „qadim zamonlarda shimolda ko'chmanchilar hech qachon bu qadar kuchli bo'lmagan“ deydi. Va har bir honlarning Xitoy malikalariga uylanganliklarini ham takidlaydi. Xoqonlikni sakkizta qismlarga bo'lib boshqargan degan malumot ham uchraydi.

552-yil Bumin vafot o'tdi. Taxtga uning o'gli Qora Issiq o'tiradi. Bundan foydalangan Jo'jonlar hoqonlikka hujum uyushtiradi. Lekin Qora Issiq hujumni qaytaradi. Undan keyin taxtga uning ukasi Mug'onxon o'tiradi. Mug'on 20 yil taxtda o'tirdi. (552-553) yillarda hukmronlik qildi. Bu davrda turk hoqonligi har tomonlama yuksaldi. Mug'on xongacha ham amakisi Istami hoqonlikning g'arbiy qismlarini boshqarardi. U turk hoqonligini g'arbga yurishlarida boshchilik qildi. Unga yabg'u hoqon degan unvon berilgan.

Istami akasi vafotidan keyin Toshkent va uning atrofi, Qozog'iston, Yettisuv, Xorazm hududlarida mustahkam o'rtnashib oldi. Endi turk hoqonligini hududlari Amudaryo bo'ylarigacha yetib borib 562-3-567 yillarda Eftaliylarga Eronliklar bilan birga zarba berdi. Dastlab Eronliklar bilan turklarning munosabati yaxshi edi. Xatto Xusrav turk malikasiga uylanadi. Biroq turklar Eftalilarni tor-mor etgandan so'ng vaziyat keskin tus oladi. Turk hoqonini Eron bilan savdo aloqalari o'rnatishga intilishlari foyda bermaydi. Xusrav Maniakh boshchiligidagi elchilarni yaxshi kutib olmaydi. Elchilarni esa o'ldiradi. Bu esa turk hoqonligini Vizantiya bilan munosabatlarni yaxshilashga sabab bo'ldi. 558-yil turklar Ural va Volga bo'ylarini zabt o'tdi. 575-576 yillarda esa Shimoliy Kavkaz yerlarini egallab Qrimga kirib bordilar. Manbalarda turk hoqonligi Xitoyga 67 marta yurish qilganligi qayd etilgan. Xoqonlikda tez-tez g'alayonlar ham bo'lib turardi.

SHulardan biri 585-586 yillarda Buxoroda bo'lib o'tgan Abruy qo'zg'oloni edi. Bunga o'ta kuchayib ketgan jabr zulm sabab bo'ldi. Lekin qo'zg'olonni Qoracho'rin qo'shinlari tor-mor o'tdi. Abruy o'lim jazosiga hukm qilindi va qovoqari to'ldirilgan qopga solib o'ldirildi. Mana shu siyosiy vaziyatda, VI asrning 70-80 yillarida Enasoyning yuqori oqimidan Amudaryo bo'ylarigacha, Manjuriyadan to Kimmeriy Bosforigacha chozilgan maydonda Turk hoqonligi tashkil topgandi.

Turk hoqonligi turli tuman qabilalarni kuch bilan birlashtirish natijasida tuzilgan edi. Hamda kichik hokimlar ham mustaqil bo'lishga intilar edi. Bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy xokimlar tomonidan boshqarish hokimyatni tobora zaiflashtirdi. Buning ustiga Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat ahvolni yanada og'irlashtirdi. Oqibatda Turk hoqonligi VI asrni 80-yillarida 2 qismga Sharqiy va g'arbiy turk hoqonliklariga bo'linib ketdi. G'arbiy turk hoqonligi tasarrufiga O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismi kirar edi. G'arbiy xoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy madaniy jihattan Sharqiy hoqonlikdan mutlaqo ajralib turar edi. Sharqiy hoqonlikning assosiy qismini chorvador aholi tashkil qilgan, G'arbiy hoqonlik esa o'troq dehqonchilik,

hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan mashg'ul edi.

VII asrning birinchi yarmida G'arbiy hoqonlik nihoyatda kuchaydi. Uning sharqiy chegarasi Oltoygacha, janubda esa Sind daryosi bo'ylariga borib taqaldi. Xoqon To'nyabg'u hukimronlik qilgan davrda boshqaruv tartibi isloh qilindi. U 618-630 yillarda hukmronlik qildi. Viloyat hokimliklarini hoqonlik mamuryati bilan bevosita bog'lash uchun va ular ustidan nazoratni kuchaytirish uchun mahalliy hukmdorlarga „yabg'u“ unvoni tasis etildi. Natijada ular hoqonning noibiga aylandilar. Shu bilan birga O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirildi. Ular huzuriga hoqonning noiblari – tudunlar yuborildi. Biroq ichki kurash oqibatida G'arbiy Turk hoqonligi zaiflashib bordi.

G'arbiy turk hoqonligining hududiga yuqorida aytkanimizdek O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismi kirar edi. Uning markazi Yettisuvda edi. Turk hoqonligiga birlashtirilgan xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bo'ldi. Axolining bir qismi o'troq dehqonchilik bilan, qolgan qismi esa ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan. Aholining mehnatkash qismi „budun“ yoki „qora budun“ deyilgan. Urug' qabilalarining yirik vakillari esa „beklar“ deyilgan, jamoani hoqon yoki qurultoylar kengashi boshqargan. Patriarxal oilalarga „kadhudodlar“ boshchilik qilgan. G'arbiy turk hoqonligi markazlashgan davlat bo'lmagan, u o'nlab qabila uyushmalaridan tuzulgan ittifoq bo'lib, ularni har qaysisini alohida honlar idora qilgan. Ularning eng kattasi Samarqand hokimligi edi. Bu paytda shaharlarning maydoniham katta bo'lmagan. Masalan: Afrosiyobning 216gk ligi malum. Shaharlarda savdo sotiq ham yahshi rivojlangan. Poykand savdogarlar shahri deyilgan. „Erkaklari chakmon kiyib, sochlarini oldirib yurgan, ayollari esa sochlarini boshiga o'rab, qora ro'mol o'rab yurgan“ deydi Syuan Szyan.

Turk hoqonligi davrida ajdodlarimizning madaniyati o'sha davrga nisbatan rivojlangan edi. Bayramlar ham katta shodiyona bilan o'tkazilgan, bayramlarda kurash, kuch sinash kabi halq o'yinlari bo'lib turar edi.

Jamiyatda ayollarning obro'si katta bo'lgan. Masalan: O'g'il uyga kirsam avval onaga so'ng otaga salom bergan. Xoqonlikda so'g'd yozuvi, oromiy yozuvi, xorazm yozuvi bilan bir qatorda turk yozuvlari ham keng tarqalgan.

Turk xoqonlari Kultegin, Bilga hoqon, To'nyuquq sharafiga o'rnatilgan bitiklarda Turklarning taqdiri xavotirli bir masala qilib olingan. Vatan mustaqilligi uchun kurash, xalqni asoratdan olib chiqish, mustaqil mamlakatda qonun qoidalar joriy qilish haqidagi so'zlardan iborat edi. Bitiklardan birida „Ey turk xalqi to'kis ishonuvchansan, samimiy, nosamimiylikni ajratmaysan. Kim qattiq gapirsa, samimiylikni ham tanimaysan, shundayliging uchun tarbiya qilgan hoqonlarni so'zini olmay, har qayerga ketding. U yerlarda butunlay g'oyib bo'lding“ nomi nishonsiz ketding deyiladi.

Daliliy ashyolar VII asrda mamlakatimiz hududida savdo kuchli rivojlanganligidan darak beradi. 5 yoshga kirganda bolalar hisob-kitobni o'rganishgan. 20 yoshga to'lganda savdo bilan shug'ullangan.

VII-VIII asrlarda Turk hududidagi aholi diniy nuqtai nazardan turli tuman g'oyalar ta'sirida bo'lgan. Deyarli har bir urug', qabila va xalqning o'z diniy etiqodi bo'lgan. Shu sababdan turkiy qabilalarda ko'p hudolik keng tarqalgan. Lekin G'arbiy turk hoqonligini katta qismi otashparastlik diniga etiqod qilgan. VI-VII asrlarda turkiy xalqlar o'rtasida otashparastlik, buddizm, va xristian dinlari ham tarqalgan edi. Aholini yana bir qismi „qam“ diniga ham sig'ingan. Misol tariqasida Istami vafot etganda uning o'g'li minib yurgan oti va to'rt xizmatchisini qurbon qilganligi ham dalil bo'la oladi.

15-MAVZU: VI-VII asrlarda So'g'd, Farg'ona va Xorazm

REJA:

- 1. Sug'd mahalliy davlatining tashkil topishi.**
- 2. Choch mahalliy davlatining tashkil topishi.**
- 3. Farg'ona mahalliy davlatining tashkil topishi**

Feodal munosabatlar rivoj topib mamlakatning siyosiy jihatdan zaiflashuvi oqibatida u bir qancha mayda ilk feodal malakatlarga bo‘linib ketadi. V-VI asrlardayoq O‘rta Osiyoning ayrim viloyat va vohalarida yirik shaharlarga tayangan 15 dan ortiq mustaqil davlatlar tashkil topgan edi. Bunday davlatlarning eng yiriklaridan Sug‘dda ixshitlar, Toharistonda malikshohlar, Xorazmda xorazmshohlar, Choch va Eloqda budun va dehqonlar, Farg‘onada ixshitlar hukmronlik qiladi.

V-VII asrlarda bum ayda ilk feodal davlatlar, avval eftaliylar, so‘ngra Turk xoqonligi bo‘ysundirilgan bo‘lsada, ammo eftaliylar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to‘lab turish bilan ular o‘z mustaqilliklarini ma‘lum darajada saqdab qoladilar. Bu davlatlarning hukmdorlari o‘z atrofidagi mulkdor zodagon dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga tayanardilar. Chunki ular o‘zaro bir-birlari bilan dushmanlik kayfiyatida bo‘lib, shu boisdan biri ikkinchisidan cho‘chigan holda yashar edilar.

Ular orasida eng yirigi Sug‘dning ilk feodal davlatlar konfederatsiyasi edi. Bu ittifoqqa Zarafshon va Qashaqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Maymurg‘, Ishtixon, Kushoniya, Vardona, Buxoro, Kesh va Naxshob mulklari birlashgan edi. Bu mulklarning har biri o‘z xokimligi va harbiy chokarlariga ega edi. Ularning ko‘pchiligi Samarqand ixshidiga tobe bo‘lsada ammo Buxoro, Kesh va Naxshoblar deyarli mustaqil edi. Xatto ular o‘z tanga pullarini zarb qilardilar. Samarqand ixshidi saroyida ajdodlar ro‘xiga atab qurbonlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan. Unda o‘tkaziladigan har yilgi diniy marosimlarda viloyat hukmdorlarining barchasi qatnashardi. Yozma va arxeologik manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, Sug‘d hukmdorlari O‘rta Osiyo va chet el davlatlari bilan elchilik aloqalari olib borardilar. Masalan afrosiyobda ochilgan devoriy rasmlarda Sug‘d hokimi Varxumaning Chog‘aniyon, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlanadi.

Sug‘da aholi juda gavjum yashardi. Sug‘diylar hunarmandchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik va bog‘dorchilik, ayniqsa uzumchilikda nihoyatda omilkor edilar. Darg‘om, Nahripoy, Harkon kabi yirik anhorlardan sug‘orilgan Sug‘d yerlari juda hosildor edi. Sug‘orma dehqonchilik rivoj topgan bu diyorda g‘alladan tashqari, paxta va sholi ekilardi. Uning paxtasidan to‘qilgan surp va bo‘z matolaridan faqat so‘g‘diylar emas balki dasht aholisi kiyinardi. Sug‘dning sharbatli uzumlaridan musallas tayyorlangan. Samarqandning zarg‘aldoq shaftolisi Xitoy poytaxtida “Samarqandning oltin shaftolisi” nomi bilan dong‘i ketgan edi. Chorvachilikda mayda va yerik shohli hayvonlar bilan bir qatorda ot, xachir, eshak va tuyalar boqilar edi. Ayniqsa Sug‘dning xisori qo‘ylari va tulporlari juda mashhur edi. Buxoro, Kesh va Maymurg‘ yaylovlaridan uyur-uyur yilqilar muttasi Xitoyga xaydab borilardi.

Sug‘d shaharlari bu davrda hunarmandchilikning markaziga aylandi. Ularda to‘qimachilik, kulolchilik, ko‘nchilik, chilangarlik, temirchilik va zargarlik rivoj topadi. Temirdan xo‘jalik asboblari va uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tashqari qurol yarog‘lar: shamshir, xanjar, tabar, guzi, sovut, qalqon va dubulg‘alar yasalar edi. Hatto 718 y. da Sug‘diylar hadiya tarifasida yuborgan dubulg‘adan nusxa olib Xitoy qurolsozlari o‘z qo‘shinlarini dubulg‘alar bilan taminlaydilar. Sug‘d tog‘laridan oltin, jez, novshadil va yalama tuzlar kovlab olinardi. Shaharlarda hunarmandchilikning taraqqiyoti o‘z navbatida ichki va tashqi savdo aloqlarining kengayishiga imkon beradi. Sug‘ddan Markaziy Osiyo va Xitoyga qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan zeb-ziynatlardan tortib turli tuman matolar va dorivorlargacha olib chiqilardi. O‘sha zamonda Sug‘dda bola besh yoshga to‘lgach uni o‘qish yozishga hisobga o‘rgatar, balog‘atga yetgach, uni savdo karvonlariga qo‘shib tijorat safarlariga yuborardilar.

Ilk feodal davlatlaridan ya‘ni biri Toxariston edi. U hozirgi Surxondaryo viloyati, janubiy Tojikston va shimoliy Afg‘oniston hududlarida joylashgan. Bu mustaqil davlat Xuttalon, Chag‘oniyon, Termiz, Badaxshon, Qabodiyon, Vaxsh, Shuman, Shug‘non, Vaxon kabi 27 ta tog‘li va tog‘ oldi viloyatlarining birlashtirgan. Ular har birining o‘z hokimi va chokarlari bo‘lga Masalan, Chag‘aniyon viloyatining hokimi “chag‘onxudot”, Termizning hukmdori “termizshoh”, Xuttalonniki - „malik” yoki “sheri xuttalon” deb yuritiladi. Mahalliy hukmdorlarning eng kuchla

va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Qabodiyon, Shugʻnon va Vaxon viloyatlarining hokimlari boʻlib, ular harbiy kuchlar zarur paytlarda 50 minggacha chokar toʻplay olardilar.

Toxariston avval eftaliylar, soʻngra Turk xoqonligi tomonidan boʻysundiriladi. Manbalarda taʼrif etilishicha, VII—VIII asrlarda Toxariston aholisining yarmi mahalliy yarmi esa turklar boʻlgan. Uning bir qismi toxar, ikkinchisi turk, uchinchisi esa mahalliy tilda soʻzlashgan. Podshoh, zodagonlar va fuqarolar budda diniga sigʻinganlar, qator ibodatxonalar va kohinlar boʻlgan. 25 harfli yozuvi koʻndalangiga chapdan oʻngga qarab bitilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. Togʻliklari poʻstin va jun chakmon kiyishgan. Erkaklar soch va soqollarini qirtishlab, ayollari esa uzun soch qoʻyib yurishgan.

Toxariston aholisining asosiy qismi oʻtroq dehqonchilik bilan shugʻullangan. Asosan gʻalla va dukkakla ekinlar, qisman sholi va paxta ekilgan. Togʻoldi va togʻli joylarda asa bahorikorlik va uzumchilik rivoj topgan. Arxeologik topilmalar orasida pista, bodom, yongʻoq hamda oʻrik, shaftoli va olcha danaklari, shuningdek qovun va tarvuz urugʻlari qayd etilgan. Shunga qaraganda Toxariston aholisi bogʻdorchilik va polizchilik bilan ham shugʻullangan. Chorvachilikda mayda va yirik shohla hayvonlardan tashqari ot, xachir, tuya va eshak boqilgan. Ilk oʻrta asrlarda Toxaristonda boʻlgan sayyohlar uning pastak otlarining masofalarga qatnashda nihoyatda chidamli ekanini maqtab yozishgan.

Toxariston noyob tabiiy boyliklarga serob edi. U yerda qadimdan konchilik taraqqiy topgan. Birgina Badaxshonning oʻzidan lal, lojuvar, aqiq, kabi qimmatbaho toshlar va oltin, temir va jez kovlab alingan. Serjilo toshlar va madanlar zargarlik, chilangarlik va temirchilik ishlatilgan. Bu oʻlkada ayniqsa qurolsozlik yuksalgan edi. Chokarlar kamon, gurzi, choʻqmor, xanjar va shamshir bilan qurollangan. Ularning qoʻlida ajoyib toʻqima Balx sovutlari boʻlard. Toxaristonda shishasozlik ham ancha rivoj topgan edi. Rangdor shishalardan surmadonlar marjon va munchoqlardan tashqari xilma-xil buyumlar yasalgan. VIII asr boshlarida Toxaristondan Xitoyga olib chiqilgan qizil va zumrad rangli shishalalar xitoyliklarni lol qoldirgan. Toxaristonda ayniqcha toʻqimachilik yuksak darajada edi. Ip, jun va ipakdan rangli, guldor ta yoʻl-yoʻl matolar toʻqilgan. Qimmatbaho ipak va jun matolardan eso asosa zodagon dehqonlaru hukmdorlar kiyinishgan.

Toxariston juda koʻp mamlakatlarga elchilar yubortib ular bilan savda aloqalari olib barilgan. Chetga koʻplab qimmatbaho toshlar chiqarilgan. Mashhur Badaxshon laʼli esa jahon bozorlarid nihoyatda yuqori baholangan. Xuttalondae uyur-uyur zotlar, yilqilar olib chiqilgan. Toxariston dori-darmonlari esa Xitoyda juda qadrlangan. Bu ilk feodal davlat viloyatlarida Sugʻd tangalariga taqlidan soʻqilgan oʻz pullari ichki savdo muomalasida yurgan. Toxaristonning poytaxti qadimdan Balx boʻlgan.

Xullas, Toxariston mustaqil ilk feodal davlatlar qatorida tursa ham, lekan hali bir oz boʻlsa-da, markazlashmagan edi. Chunkt uniig har bir viloyati oʻzining vrisiyo sulolasiga mansub hokimlari tomonidan boshqarilgan. Ular alohida-alohida davlatchadarni eslatardi. Hatto ularning har biri oʻzga yurtlarga elchilar yuborardi. Shunday qilib, Toxariston ilk oʻrta asrlarda tashkil topgan mayda davlatchalar konfederatsiyasini tashkil etardi.

Bu davrda Fargʻona vodiysida yana b ilk feodal davlat xukm surardi. Qadida bu mamlakat Davan va Fragona deb yuritilgan. Uning podsholari “ixshid” deb atalgan poytaxti Koson va Axsikat shaharlarida joylashgan. Davan shimol tomondan Yettisuv, gʻarbdan Choch va Eloq, janubi-gʻarbdan Sugʻd, janubdan Toxaristo va sharqdan Sharqiy Turkiston viloyatlari bilai chegaradosh boʻlgan. Xitoy manbalarida tariflanishicha Fargʻona yerlarib juda hosildor boʻlib aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va shali ekkan. Unda bogʻu boʻstonlar va gulzorlar moʻl boʻlga. Koson, Axsikat va Kubo kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda haridorgir boʻlgan. Qoʻshni mamlakatlarga argʻumoqlar, boʻyoqlar, rang-barang shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

Fargʻona vodiysida oʻtroq aholi bilan bir qatorda togʻ va togʻoldi yaylovlarida koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi chorvadorlar yashagan. Qurama va Qarmazor togʻlari yon

bag'irlarida qaidan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu diyorda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Farg'onada qo'y, xachir va tuyalar boqilgan.

Shunday qilib VI-VIII asrlarda Farg'onada dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, xo'jaliklari va ichki hamda tashqi savdo rivoj topgan. U mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi. Strategik jihatdan qulay geografik o'rni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta'milangan Koson, Axsikat, Kubo kabi yirik shaharlari, tog' qal'alari, vodiy bo'ylab joylashgan qator-qator istehkomli qo'rg'onlari tufayli bu diyordagi kuchli harbiy imkoniyatga ham ega edi. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona O'rta Osiyoni siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan qudratli davlat bo'lgan.

V-VII asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita mustaqil ilk feodal davlatlari hukmronlik qilgan. Manbalarda ulardan biri Choch davlati, ikkinchis Eloq mulki nomlari bilan tilga olinadi. Chochning poytaxti Chochkat shahri bo'lib, podshohi "tudun" deb yuritilgan. Xitoy manbalarida Choch viloyati Shi va Chje-Shi nomlari bilan tariflanadi. Eloqning poytaxti Tunkat bo'lgan, hokimlari "dehqon" deb atalgan. V asrda Choch viloyati Eftaliylar davlatiga, VI asrda esa g'arbiy turk hoqanligiga bo'ysundiriladi. VIII asrda Choch va Eloq birlashib yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligini tiklab oladi. Choch va Eloq shimol va g'arb tomondan G'arbiy Turk xoqonligi, sharqdan Farg'ona va janubdan Ustrushona bilan chekkalangan edi.

Choch va Eloq sertarmoq xo'jalikka ega mamlakat edi. Unda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ayniqsa konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada rivojlangan. Ilk o'rta asrlarda Chirchiq daryosidan Zog'ariq, Bo'zsuv, Anhor va Kalkovuz kabi yirik sug'orish tarmoqlari qazib chiqarilib, Chochning ekin maydonlari nihoyatda kengaygan. Bu davrda Choch vohasi uzul-kesil shakllanib u 50 ga yaqin sug'orish shahobchalari vositasida sug'orilgan. Dehqonchilikda ko'proq arpa, bug'doy va tariq ekilgan. Ayniqsa Chochning poytaxt shahri atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, feodalar qo'rg'onlari va ko'shklari, obod qishloqlar qad ko'targan.

Choch va Eloq tog'lari oltin, kumush rangli madanlar temir va jilvador Choqmoq toshlarga boy edi. Bu tabiiy boyliklar tufayli qadimda bu o'lkada konchilik va unga asoslangan hunarmandchilik rivoj topadi. Oltin va kumushlar qazib olishda ayniqsa Eloq O'rta Sharq mamlakatlarida shuhrat topadi. Chotqol va qurama tog'larida joylashgan Ko'hisim, Lashkarak va Koni Mansurdan kumush Qo'shbuloq va Qizil olmasoy konlaridan oltin, Ungurlikon va Oqturpoq konlaridan esa feruza kovlab olingan.

Rangli va nodir madan konlarining o'zaro yaqinligi ayirbosh savdo bozori bo'lgan ko'chmachi chorvadorlar dashtining Choch va Eloqqa tutashib ketgani mamlakatlararo tashqi savdo aloqalarini bog'lovchi karvon yo'lining o'lka orqali o'tish bu viloyatlarda ichki va tashqi savdo saticiqning kengayib, shaharlarning govjumlashuviga imkon beradi.

Chochning mohir ustlari metallarda qurol-yaroq, uy-ro'zg'or buyumlari oltin va kumushlardan turli xildagi zeb-ziynatlar yasaganlar, teri oshlab, charm pishirib, paxta va jundan mato to'qiganlar, sopol va shisha idishlar yasab, ichka va tashqi bozorni hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'minlaganlar. Chochdan oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, g'alla, quruq meva va yilqilar chetga chiqarilgan.

Shahar aholisining bir qismi savdo bilan mashg'ul bo'lgan, VI-VIII asrlarda Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq qilishda chochliklar Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi o'rinda turgan. Choch poytaxti toshqi savdo munosabatlarining markazi edi.

VII-VIII asrlarda Chochda kumush va mis tangalar yasaydigan zarbxona bo'lgan. VIII asrda kumush dirhamlar hatto Eloqning kumush konlarida ham so'qilgan. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning rasmi, orqasiga gajak dumli sher yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa tangalar zarb etganlar. Shu davrda so'qilgan Chochning ayrim tanga pullari orasida podshoh bilan yonma-yon malika rasmi tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu, shubhasiz, ilk o'rta asrlarda Chochning ijtimoiy va iqtisodiy, ayniqsa siyosiy hayotida hukmdor tabaqaa ayollarining birmuncha nufuzga ega bo'lganligidan guvohlik beradi.

Bu davrda turkiy qabilalar o'troqlashuvining kuchayishi, chochliklar bilan olib borilgan doimiy iqtisodiy aloqalar tufayli Choch vohasi o'zaro madaniy muloqotlarning markaziga

aylanida. Chochda turkcha va sugʻd tillarida soʻzlashuvchi aholining safi kengayib boradi. Bioq choch oʻlkasi bu davrda Turk xoqonligiga tobe boʻlishiga qaramay, hali oʻzining tili, yozuvi va qadimiy madaniyati anʼanalarini saqdash qolgan edi. Bu yerda hali soʻgʻd tili rasmiy til sifatida yuritilib, davlat ishlariga oid xujjatlar, chaqa va tangalar zarb etish ishlari, hukmdorlar nomidan bitiladigan yozuvlar mazkur xatda ifodalanardi.

Chochning ijtimoiy tarkibi ham ilk feodal jamiyatigaxos edi. U mulkdor tabaqa-zodogon dehqonlar, mexnatkash tabaqa-erkin jamoa aʼzolari – ozolar; mulkdor tabaqaga mute-kadivarlar hamda erksiz qul va choʻrilardan iborat edi.

16-MAVZU: Arab xalifaligi davrida Movaraunnahr va Xuroson

R E J A:

- 1. Arab xalifaliging tashkil topishi .Muhammad (S.A.V)ning faoliyati.**
- 2. "Xulafoi roshidin- to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar" faoliyati.**
- 3. O'rta Osiyoga yurish..Arablar bosqinining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.**
- 4. Arablar zulmiga qarshi xalq ozodlik kurashlari**

Qadimgi Arabiston yarim orolida yashab kelayotgan arablar somiy qavmiga mansub boʻlib ,na tili na diniy eʼtiqodi va na kelib chiqishi tomonidan ularning Oʻrta Osiyo xalqlariga qon–qarindoshlik va tanishligi yoʻq edi. Arablar koʻpchiligi sahro va dashtlarda yashovchi koʻchmanchi chorvador tuyakashlar edi .Ular badaviylar deb yuritilgan . Dengizga yaqin joylarda katta –kichik vohalar va ularning markazida esa katta –kichik shaharlar qad koʻtargan . Vohalarda dehqochilik shaharlarda esa hunarmanchilik bilan kun kechiruvchi aholi yashar edi.

VI asr oxiri VII asr boshlarida arab jamoalari ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan juda qurama edi .Ular oʻrtasida urugʻ aymoqchilik va quldorlik munosabatlari hali kuchli boʻlgan . Mamlakat vohalarida tashkil topgan mayda hukumatlardan iborat boʻlib ular shahar zadagonlari tomonidan idora qilingan .

Yamandan shimol tomon yoʻnalgan karvon yoʻli Hijoz , Makka va Madina shaharlarini kesib oʻtgan . Misr Vizantiya va Suriya bilan bogʻlar edi .Bu yoʻl orqali olib boriladigon savdodan shaharlik sudhoʻr zadagonlar hamda badavlat qabilalarning urugʻ oqsoqollari manfaatdor edi .Shahar aholisining koʻchmanchi savdogarlar bilan olib borgan savdo aloqalari ayniqsa gavjum boʻlgan .Biroq mamlakatda hukum surgan siyosiy tarqoqlik , badaviy qabilalari oʻrtasidagi oʻzaro nizo totemistik va anemistik etiqodlar asosidagi butparastliklar mavjudligi bular oqibatida karvon yoʻllarida avj olib ketgan talonchilik ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishiga toʻsqinlik qilmoqda edi . Bu shubhasiz zadagon savdogarlar tabaqasining manfaatiga zid edi va mamlakatning iqtisodiy yuksalishiga putur yetkazmoqda edi .VII asrning boshlarida Arabistonda sodir boʻlgan bunday ijtimoiy siyosiy vaziyat mamlakatning birlashuviga olib keladi . Bunday harakatning asosiy tarafdori boʻlib , shaharlarning savdogar va hunarmand ahli koʻtarildi.

Bu harakat buyuk va birdan –bir haq yoʻl yagona etiqodga davat qilishdan boshlandi. Bu tavhidlik dini boʻlib u tarixda “tobelik”,”oʻtdi etish boʻyin egish manolarini anglatuvchi islom dini bilan shuhrat topdi.

Buyuk va yagona tangri ollohi akbarning yerdagi rasuli sifatida Arabistonning Makka shahrida dunyoga kelgan Muhammad binni Abdulloh (570-632) bu harakatga rahbarlik qildi .Islomni qabul qilib,Rasulullohga ergashgan uning izdoshlari oʻzlarini “muslim” yaʼni islom diniga sodiq , “itoatgor deb ataydilar .Muhammad 570-yili 20-aprelda Makka shahrida Quraysh qabilasining Hoshimiylar honodonida dunyoga keladilar . Quraysh qabilasining nufuzli honodoni hisoblangan Hoshimiylar Muhammad allayhuvasollomning bobolari Abdulmutallib Makkadagi Kaba iboathonasi kalitining nigohbon saqloʻvchisi boʻlgan .Ota –onalaridan yosh yetim qolgan Muhammad allayhivasallom avval holalari soʻng amakilari Abu Tolib qoʻlida tarbiyalanadi .amakilaring maslahatiga koʻra badavlat savdogar atyol Hadicha binni

Xuvaylidning savdo ishlaeiga boshchilik qiladilar . 25 yoshida unga bir davirda unga uyulanadi .Bu davrda Hadicha 40 yoshda edi. Muhammad alayhivasallom bir necha yillar moboynda diniy tafakkur va ibodat bilan mnuttasil shug'ulangan ,taqvodorlik bilan hayot kechirganlar .U kishi har doim Makka yaqinidagi Xiro g'orida oziq-ovqat va suv olib kelib ,g'orda bir necha kunlab qolib, toat –ibodat qilishni o'tdi qilganlar. Diniy manbalarda takidlanishicha Muhammad alayhivasallom payg'ambarlik faoliyatini 40 yoshida 610 yilning boshlaganlar . Vahiyning boshlanishi tog'risida “Sirat –ur rasululloh “ asarida keltirilgan rivoyatga qaraganda Muhammad alayhivasallom Xiro g'orida tunab qolgan kechalarining birida osmondan nido kel- gan farishta Jabroil “o'qi!” –deb buyurgan . “Men o'qishni bilmayman “ – deb javob qilganlar Muhammad alayhivasallom .Jabroil va yana bir necha marotaba o'qi deb qaytargan shu tariqa Muhammad s. a.v. hayotida birinchi ro'y bergan vahiy hodisaning vaqti haida barcha islom manbalaridagi malumotlar Quroning 97-qadr surasidagi malumotlarga asoslangan .U “Laylatul qadir” deb ataladi . Milodiy hisob bilan 610-yil 15-avgustdan 16-avgustga o'tar kechasiga to'g'ri keladi .Muhammad alayhivasallom yakka hudolikka asoslangan islom dinini g'oyasini xalq o'rtsida tashviqod qilishni boshlaganda juda katta qarshilik va to'siqlarga duch kelgan .Unga ishonib islomni birinchilar qatorida qabul qilganlardan Hadicha ,Abu Bakr, Zayd ibn –Xorisa ,Abu ur Rahmon ibn Avf ,Zubayr ibn Abot, Amir Xamza ,Usmon ibn Affon va boshqalardir.

Payg'ambarimiz Muhammad ta'limotiga qurayshlarning ummoviyalar xonodoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan zadagonlar qattiq qarshilik ko'rsatganlar .Ikki o'rtada ziddiyat g'oyat darajada keskinlashgach ,ma'lum davrdan beri Muhammad alyhissalom u yerdga ko'chib boradilar.Hijrat deb atalgan mazkur voqea 622-yil 24-sentabrda yuz berdi .Makkadan Yasribga ko'chib borganlar Islom tarixida “Muhojirlar” (Ko'chib kelganlar) ,islomni qabul qilgan yasribliklar esa “Ansorlar “(yordam-chilar) deb nom oladilar Shu davrdan e'tiboran Yasrib shahri Madina (payg'ambar shahri) nomi bila ataladigan bo'ldi. Musulmon yili taqvimini ham anashu sanadan boshlanadi.Keyinchalik islom adabiyotida Makka va Madina muqqadas markazlar sifatida “Makkai Mukarama “va “Madivnai Munavvara” deb atala boshladi .1631-yilda Muhammad Arabistonning ayrim mintaqalarida paydo bo'lgan ,sohta payg'ambarlar ustiga yurish qilib , butun boshli arabiston yarim orolini egallab ,kuchli davlatga asos soldi .632-yil 25-yanvarda Makkai Mukkaramaga so'ngi hajga safar qilgan Muhammad qattiq betob bo'lib qoldi .Muhammad nasroniy yil hisobida 632-yil 8-iyulda vafot o'tdi.Payg'ambarimiz vafotidan so'ng u kishining ishonchli noiblaridan yoki o'z o'rinbosarlari davlatni boshqargan .Shu tariqa tarixda ulkan Arab xalifaligi tashkil topdi.Islom musulmonlarida asosan to'rta xalifa katta ahamiyatga ega.Bulardan so'ng xalifalik Ummoviyalar sulolasiga o'tadi .Bu sulolaga Muoviya Sufyon asos solgan va 661-751-yillarda boshqargan .Ulardan so'ng hokimiyat Abbosiylar qo'liga o'tadi .Bu sulolaning asoschisi Abul Abbas As-Sa ffoh edi va bu sulola 751 dan 1258-yilgacha boshqargan .

Markaziy Osiyoning qulay va go'zal tabiiy iqlim sharoyiti hamda behisob boyliklari arblarni o'ziga tortib kelgan.Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda arablar 651-yilda Markaziy Osiyo chegaralari –Marv ,Balh kabi sha harlarda paydo bo'ldi .Arablarning hujumi davrida O'rta Osiyoda feodal tarqoqlik hukum surardi .Arablar yurishni ikki bosqichda olib borgan .Birinchisi 705-yilgacha davom etib faqat talonchilik va sinov yurishlari edi. Ikkinchisi esa O'rta Osiyoni butunlay egallashga qaratilib Qutay ba ibn Muslum davridan yani 705-dan 715-gacha davom o'tdi .Bu davr ichida arablar O'rta Osiyoni butunlay egallab xalifalikka bo'y sindirdi.Bosib olingan yerlarda islom dinini qattiq qo'llik bilan yoya boshladi .Xatto Qutayba masjidga kelganlarga avval ikki dirham keyin besh dirhamgacha maosh to'lagan .Birin ketin avval Balh710-yilda Kesh va Naqshab, 711-yilda Horazim ,712-yilda Samarqand ,713-yilda esa choch egallandi.715-yilga kelib arablar Farg'ona vodiysining qashqar hududigacha kirib bordi.

Arablar zabt etish jarayonida obod dehqonchilik vohalarini oyoq osti qilib, juda ko'p shahar va qishloqlarga o't qo'yib , vayron etdilar .Aholil turli majburiy ishlarga safarbar etildi.Turli hil soliqlar to'lashga majbur etildi.Bular qatorida “xiroj”,”ushur”,”zakot””jizya” kabilar bor edi

.Ibodatxonalar vayron etilib, jome masjidlari bino qilindi. Natijada aholining madaniy va ijtimoiy hayotiga salbiy tasir ko'rsatdi .

Markaziy Osiyo xalqlari arablar istilochilik yurishining birinchi kunlaridan boshlab o'z erki va ozodligi uchun muqaddas kurashga otlanganlar, ona Vatan tuprog'ining biror qarich yeri bo'lsa uni jangsiz va kurashsiz bosqinchilarga bermaganlar. Arablarga qarshi olib borilgan erk va ozodlik kurashining eng ztivorli tomoni shundaki, bu kurashda Movarounnahrning o'trok qadimiy yerlik aholisi bilan turk qabilalari doimo birgalashib yagona ittifoqda jang qilganlar

720—722 yillarda birinchilar qatorida arablarga qarshi So'g'diyonada qo'zg'olon ko'tarilgan. Bu qo'zg'olonga Samarqand hokimi G'o'rak va Panjikent hukmdori Divashtich boshchilik qilganlar. Har safar bo'lganidek so'g'dliklarning ozodlik va erk uchun kurashlarini turklar qo'llab quvvatlaganlar. Yettisuvdan, Turkash hoqon shaxzoda Kursul boshchiligida katta qo'shinni yordam berish uchun Samarqandga yuborgan. So'g'dliklarning birlashgan kuchlari arablarga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib bir necha sezilarli zarbalar berganlar. Bu paytda Xurosonda Said ibi Abdulaziz noib edi. U yumshoq tabiatli va ayni zamonda kiyim-kechakka o'ch bo'lganligidan "Xuzayna" (uy bekasi) laqabini olgan edi. Xurosonga yangi tayiilangan Said ibn Amr Al-Xaroshiy (721) so'g'dliklarga qarshi keskin choralar ko'rgan. U Iroqda ko'tarilgan halq ko'zg'olonini bostirishda o'zining shafqatsizligi bilan nom qozongan edi. Xaroshiy ko'rgan keskin choralardan jabr ko'rib norozi bo'lgan So'g'd aholisi mamlakatni tark etib, Farg'onaga ko'chishga qaror qilgan. So'g'd aholisidan taxminan 10 miig kishi yo'lga otlanib, Xo'jand shahriga yetib kelganlarida Farg'ona podshasi ularni shaharda joylashtira olmay Isfara hududlarida joylashishini taklif ettan. Bu birinchi guruh edi. Ikkinchi guruh Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida Zarafshon bo'ylab tog'lar oshib Obgar (Obargar) qal'asi oldidan o'tib ilgarilab borgan.

Birinchi guruh hali Isfaraga yetib bormasdan Al— Xaroshiy yuborgan arab qo'shinlari Xo'jandga yetib borganlar va so'g'dliklarni qamal qilgailar. Farg'ona hokimi so'g'dliklarga yordam bermagan. Qamalda qolgan so'g'dliklarni arablar batamom qirib tashlaganlar. Ba'zi ma'lumotlarda uch ming, yana boshqalarida esa yetti ming odam ana shu qirg'inda halok bo'lganligi takidlanadi. Arablar juda katta o'ljalarni qo'lga olganlar.

Said Al-Xaroshiy Divashtich boshchiligida Obargar yaqinida turgan panjikentliklarni tugatishga kirishadi. Shu maqsadda u Sulaymon ibn Abussari boshchiligida katta qo'shin jo'natadi. Bu qo'shin tarkibida Markaziy Osiyo hududlaridagi bir necha hokimlar, jumladan Xorazm vohkasi kuchlari ham bor edi. Umumiy qo'shinga rahbarlik qilish Musayyob ibn Bashir Ar-Riyohiyga yuklatiladi.

Qo'zg'olon ko'targan Divashtich boshchiligidagi kuchlar obargar qalasidan chiqib dushmani qarshi oladi. Bu jangda arablarning qo'li baland kelib, qo'zg'olonchilar Obargar qal'asiga chekinadilar. Qala arablar tomoindan qurshovga olinadi. Kuchlar nisbatining teng emasligini hisobga olgan Divashtich Sulaymonga qalani topshirishga rozi bo'ladi va o'zini Musayyob bilan birga Xaroshiy oldiga yuborishni so'raydi. Xaroshiy Divashtichni izzat-ikrom bilan kutib oladi, samimiy qabul kiladi, so'ngra Arbinjonga (ba'zi manbalarda Rabinjon — Kattaqo'rg'onga yaqin joyda) olib borib qatl etadi. Divashtich tanasi zardushtiylarning xilhonasi — novus devoriga qoqib qo'yiladi. Xaroshiy so'g'dliklar qo'zg'olonini bostirgach, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida "tartib" o'rnatadi. Unda ayniqsa Kesh va Nasaf katta taassurot uyg'otadi. U Sulaymon ibn Abussariyni bu shaharlarga hokim qilib tayinlaydi. Bundan tashqari Sulaymon ayni zamonda harbiy ishlarga, hamda hiroj to'plash bo'yicha ham boshliq edi Bunday masuliyatli ikkita lavozimga bir vaqtning o'zida u davrda hech kim qo'yilmasdi. Bu Sulaymonga bo'lgan o'ziga hos katta ishonch edi, albatta.

Arab istilochilariga qarshi kurash bir daqiqa bo'lsada to'xtamadi va u muttasil davom etdi. 723 yilda Farg'ona podshosi bosh ko'tardi. Uni Shosh, Nasaf aholisi va turklar qo'llab quvvatladi. Ittifoqchilarning birlashgan kuchlari arablarni Xo'janddan to Samarqandgacha bir necha zarbalar berib ta'qib etib bordilar. Bu voqealar shundan dalolat beradiki, so'g'dliklar

arablardan bir necha bor mag'lubiyatga uchragan bo'lsalarda ular o'zlarini hali batamom zabt etilgan deb hisoblamas edilar va arablarga qarshi kurashni davom ettira berdilar.

725—729 yillar davomida arab xalifaligining soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro va Xuttaliyonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu davrda Ashros ibn Abdulla As Sulomiy noib bo'lib u ikki tomonlama siyosat olib borib mahalliy aholining g'azabiga duchor bo'lgandi. U dastlab musulmon dinini qabul qilgan fuqarolardan hech qanday soliq olinmaydi, deb Xuroson va Movarounnahr aholisining ishonchiga sazovor bo'lgan edi. Ashros arablar kuchi islomda, islomni qabul qilgan mahalliy xalq arablarga hech qanday qarshilik qilmaydi, deb o'ylagandi. So'g'dliklar uning va'dasiga ishonib tezda islom diniga kirgan va musulmon bo'lgandilar.

Masalani qiziq tomoni shundaki ilgari xalq tomonida turib arablarga qarshi kurashgan Samarqand Hokimi G'o'rak endi Ashros siyosatiga qarshi chiqadi. Taboriy ma'lumotlariga qaraganda u Ashrosga hat yozadi. Bu hatda musulmonlikka o'tganlarga nisbatan tutilgan siyosat hirojning yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi xiroj oladigan odam qolmadi, deb uni ogohlantirgan emish. Shundan so'ng Ashros G'o'rakning haq ekanligiga hayotda ishonch hosil qilibdi va ilgari "kuch islomda" degan fikr o'rniga "arablar hukmronligining kuchi hirojda" degan shiorni ilgari suribdi. Ana shu asnoda Ashros islomni qabul qilgan va qilmaganlardan ham bir hilda, avvalgidek soliq yig'averishni buyuribdi. Bu tezda so'g'd aholisining keskin noroziligiga sabab bo'lib katta qo'zg'olonlarning boshlanishiga olib kelgan. Samarqandda boshlaigan bu qo'zg'olonga yetti ming kishi qatnashgan. Qo'zg'olon kengayib Buxoroga tarqalgan. Samarqand va Buxorodagi qo'zg'olon qatnashchilari o'zlarini musulmonlikdan chiqib kofirlikka qaytganliklarini ochiq-oydin e'lon qilganlar. Turklar qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatlab ularga yordam berganlar. Qo'zg'olon hamma yerni qamrab olgan.

Ayniqsa, 728 yil arablar uchun juda og'ir bo'lganligi qayd etiladi. Qo'zg'olonchilar ularni juda ko'plab hududlardan haydab chiqargapnar. Faqat G'o'rakning ikkiyuzlamali va sotqinlik siyosati tufaydi Dobussiya va Samarqand arablar qo'lida qolgan. G'o'rak bu ozodlik kurashida katta rol o'ynashi mumkin edi. Ammo u bu yo'lni tanlamadi. Faqat 729 yilda juda katta urinishlardan so'ng arablar yana Buhoroni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar. Turklarning qo'zg'olonchilarga ko'rsatgan yordamidan ta'sirlangan G'o'rak kechikib bo'lsada arablar bilan aloqani uzdi va sug'dliklaa qo'zg'oloniga qo'shildi. Bu uning ilgari obro'sining tiklanishiga sabab bo'ldi. Taboriy ayniqsa Kesh atrofida arablarga qarshi Shosh, Farg'ona qo'shinlari va turk lashkarlarining qaxramonlarcha jang qilganligini alohida ko'rsatadi. Bu olib borilgan janglar Samarqand, Buxoro va boshqa joylarni istisno qilganda Movarounnahr xalqining yana besh yil mobaynida arablar hukmronligiga bo'yosunmagan jasoratidan bir namunadir.

736—737 yillarda Tohariston va So'g'dda arablarga qarshi yana qo'zg'olon ko'tarilgan. Natijada arablarga qarshi juda og'ir ahvolga tushib qoladilar. Og'ir vaziyatdan qutulish mahsadida Xuroson va Movarounnahrning noiblari va amirlari bir necha marta o'zgartiriladi. Xususan Nasr ibi Sayyor (738—748) davrida ko'rilgan tadbirlar tufayli arab istizyuchilari o'lkada o'z mavqelarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldidar. U qo'zg'olonchilarni bostirish uchun Samarqand, Shosh, Farob va Farg'onaga bir necha bor qo'shinlar tortib bordi. Nasr ibn Sayyorning noiblik davri Markaziy Osiyo yerlariniig arablar tomonidan istilo qilinishi tarixida yangi va sungi davrdir. U ma'lum bir- muddat davomida mamlakatda nisbiy osoyishtalik o'rnata oldi. Nasr bunga qanday erishdi? Avvalo u oqsuyak dehqonlar o'rtasidagi nizolardan foydalandi, ularning ko'pchiligini o'z tomoniga og'dirib oldi. Oqsuyak dehqonlar, lashkarboshilar imtiyozlarini saqlashga alohida e'tibor berdi, ular o'tasida kon-qardoshlik va qarindosh-urug'chalik aloqalarini o'rnatishni har taraflama qo'llab-quvvatladi. Uzi bu sohada namuna ko'rsatib Tog'shoda Buxorxudotning qiziga uylandi. Va nihoyat Nasr ibn Sayyor moliyaviy islohot o'tkazdi. Unga ko'ra islom dinini qabul qilgan barcha kishilar juz'ya solihlaridan ozod qilindilar va barcha musulmonlar xuquq jihatdan tenglashtirildi. Yer egasi esa qaysi e'tikodda bo'lishidan qat'i nazar, xiroj solig'gi to'lashi shart qilib qo'yildi.

Albatta Nasr ibn Sayyor davridagi o'lka osoyishtaligi vaqtinchalik va nisbiy xarakterda edi. Xalifalikning sharqiy mustamlakalari hisoblangan Markaziy Osiyo hududlari erk va ozodlik

uchun kurashga bel bogʻlagan avlod-ajdodlarimizning ulugʻvor yangi chiqishlari arafasida turar edi.

Abu musulm qoʻzgʻoloni. Arablar bosib olgan hamma hududlarda, hususan Xuroson va Movarounnahrda kuchayib ketgan mustamlakachilik zulmi ommasining ummaviylar halifaligiga nisbatan nafrat va noroziligini kun sayin oshirib bordi. Mamlakatdagi umumiy siyosiy vaziyat bu sulola umrining tugab borayotganligidan dalolat berar edi. Oqibatda ummaviylarni siyosiy hokimiyatdan agʻdarib tashlashni oʻz oldiga bosh vazifa qilib qoʻygan raqib guruhlar paydo boʻla boshladi. Ana shunday guruhlardan biri abbosiylar edi

Bu sulolaga Muhammadning amakisi Abbosning evarasi Muhammad ibn Ali asos solgan. Abbosiylar ummaviylarni rasululloh avlodini qirib tashlashda ayblaydilar. Shu munosabat bilan Muhammad avlodidan boʻlgan abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishi etiqodi mustahkam islom yoʻlining tiklanishidir, deb talqin qilinadi.

Abbosiylar gʻoyasi harakatini tashviqot va targʻibot qilish maqsadida bu guruhning eng ishonchli va sodiq vakillari xalifalikning barcha hududlariga yuborildi. Ayniqsa ummaviylarning bosqinchilik va mustamlakachilik zulmi siyosatiga qarshi ommaviy xalq chiqishlari va qoʻzgʻolonlari kun sayin kuchayib borayotgan sharqiy viloyatlarga alohida etibor berildi. Dinovariyning bergan maʼlumotlariga qaraganda Xuroson va Movarounnahrning Marv, Buxoro, Samarqand, Kesh, Nasaf, Chagʻoniyon Marvirud, Hirot, Talikon, Bushanj va Seyston kabi hududlarida VIII asrning 30- yillaridayoq abbosiylar harakatini targʻib qilish avj olib ketgan edi. Targʻibotchilar barcha zulm va sitamlarning sababchisi qilib ummaviylar hukmronligini koʻrsatdilar va hokimiyatga abbosiylar kelgach, vaziyatning oʻzgarishiga daʼvat qiladalar. Ummaviylarga qarshi qoʻporovchilik harakati ayniqsa halifa Marvon II (744—750) davrida gʻoyatda kuchaydi. Abbosiylar bu davrda xalifalikning aholiga soladigan soliq miqdorlarining oshirilishi va mehnatkashlarni koʻplab hasharlarga majburan jalb qilinishi oqibatida kuchayib ketgan xalq noroziligidan ustalik bilai foydalandilar. Bu davrda ummaviylarga qartshi uyushtirilgan harakatga abbosiylarning eʼtiborli va obroʻli vakillaridan boʻlgan imom Ibrohim nbn Muhammad boshchilik qildi.

Xuddi mana shu davrda yani 746 yilda Xurosondaga abbosiylar harakatiga boshchilik qilish maqsadida Abu Muslum (asli ismi Abdurahmon ibn Asad, taxminan 727—755 yillar” bu yorga yuboriladi. Abu Muslimning tarjimai holi toʻgʻrisida bir-biriga qarama-qarshi maʼlumbtlar bor. Jumladan, Taboriyning yozishicha Kufaning Savad yaqinidaga Xutorniyn degan joyda tavallud topgan. U yoshligida bir boyning uyyda gumashta boʻlib ishlagan, sarrojlik qilgan.

Dinovariy esa, Abu Muslim yigitlik chogʻida Isfaxon atrofidagi bir qishloqda qul boʻlgan, degan maʼlumotni berada. Biroq Abu Muslim toʻgʻrisida batafsilroq va toʻlaroq maʼlumotni Taboriy yozganligidan uning maʼlumotlari haqiqatga yaqin boʻlishi ehtimoldan uzoq emasdir.

Imom Ibrohim ibn Muhammad Abu Muslimni Xurosonga joʻnatish oldadan unga bir qator aniq koʻrgazmalar va maslahatlar berdi. Abu Muslam Xurosonga yetib kelgach oʻzining qarorgohi kelib, Marv shahridan uch farsax gʻarbda Xarkon kanala boʻyidaga mustahkamlangan Safizanj qishlogʻini tanlayda. Abbosiylarning tamgʻasi tim qora rang boʻyogʻi boʻlganligidan Abu Muslim ham korlari bilan birgalikda oʻz kiyimlarini ana shu Safizanj qishlogʻida qora rangga boʻyab oladi. U oʻz faoliyatini Xuroson aholisining yuqori tabaqa vakillariga murojaatdan boshlada. U oʻz murojaatida islom dinining gʻoyaviy asosi boʻlgan Quroni Karimga va Muhammad alayhissalom sunnatiga amal qilishga davat etadi. Shu munosabat bilan Abu Muslim Muhammad avlodlarini qoʻllab quvvatlash va ularga boʻysunishga chaqirada. Abbosiylar harakatini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan bu murojaat tez orada katta ijobiy natajilar berda va har tarafdin Abu Muslim qarorgohiga madadkor kuchlar oqib kela boshladi. Taboriyning yozishicha ular otda, eshakda va koʻproq piyoda qurolli va qurolsiz kimsalar bulgan edi. Kunlardan bir kuni Abu Muslim xuzurida 60 qishloqning aholi toʻplangan va ular Abu Muslim bilan hamkor ekanligini bayon qilganlar. Taboriy bergan maʼlumotlarga qaraganda Marv shahri atrofidagi qishloqlarda juda koʻplab Abu Muslimga tarafkashlar toʻplangan. Jumladan, Saqodim qishlogʻidan aholisidan 900 piyoda va 5 otliq, Hurmuzfar qishlogʻidan esa 130 piyoda va 16 nafar

otliq askar kelgan. Abu Musl qo‘shinlari safi tobora kupan borgan. Shu boisdan Safizanj qishlog‘i har tomonlama mustahkam bo‘lsada u bu yerda uzoq qola olmas edi. Chunki bu qishloq ondi Abu Muslim uchun torlik qilib qoldi. U tez orada Moxuvon (Turkmaniston hozirgi Marv shahri) qal‘asiga ko‘chib o‘tadi. Bu qal‘a Abu Muslimning mustahkam markaz istehkomiga aylantiriladi. Bu yerda boshqaruv devoni, qo‘shin qozilar, mirshablar va soqchilar joylashtiriladi. Qal‘a atrofi devorlar bilan o‘rab olinadi va mudofaa xandalari qaziladi. Kal‘aga kiriladigan joyda ikkita darvoza o‘rnatiladi. Abu Muslim ummaviylarga qarshi ochiqdan-ochiq kurash yo‘lisha o‘tib o‘zi joylashgan qal‘ada bir qancha mustahkam istehkomlar barpo etadi. Xuroson hokimi Nasr ibn Sayyor Balx, Marvarid va Toharistondan keladigan oziq-ovqat yo‘llarini to‘shib qo‘yadi.

Abu Muslim o‘zi tuzgan qo‘shinda qattiq tartib—intizom o‘rnatdi. Qo‘shiniga kelib qo‘shilgan fuqarolar ro‘yxatga olindi ularga dastlab uch dirhamdan, so‘ngra besh dirham miqdorida oylik maosh belgilandi. Ro‘hyatdan o‘tgan fuqarolarning kattagina qismini har tomondan kelgan qullar tashkil etar edi. Qullarga qo‘shinning asosiy tarkibiga kirishga ruxsat berilgan. Chunki qullar aholi o‘rtasida eng past tabaqa hisoblanar edi. Shu bois boshqa tabaqa vakillari ular bilan bir safda turishni o‘zlari uchun or deb bilardilar. Abu Muslim Moxuvanga yaqin Shavval qishlog‘ida qullar uchun devonlar bilan o‘ralgan alohida joy tashkil qiladi va ularga Doud ibn Korrozni boshliq qilib tayinlaydi. Bu yerda qullar juda ko‘payib ketgach, ularni keyinchalik Abu Muslim Obivargga ko‘chiradi. Xullas Abu Muslim atrofida to‘plangan qo‘zg‘olonchi quchlar tarkibi har xil tabaqalarniig vzakillaridan iborat bo‘lgan va ularning bu qo‘zg‘olonda qatnashishdan ko‘zda tutgan maqsadlari ham bir bo‘lmagan. Bir toifalari Xurosondagi feodallashgan va ummaviylarga raqiblashgan kuchlao bo‘lib, bu kuchlarning asosiy maqsadlari hokimiyatini Ummaviylar qo‘lidan tortib olish va uni abbosiylarga topshirish orqali yangi hokimiyatda o‘z mavqelari mustahkamlashdan iborat edi. Ikkinchi toifalari Xuroson va Movarounnahrning mahalliy zodagon dehqonlari edi. Bu guruh abbosiylarni qo‘llab-quvvatlab siyosiy jihatdan arablar bilan teng huquqda bo‘lishning tarafdori edi. Bundan tashqari ular agar qulay vaziyat bo‘lib qolsa, o‘z Vatanlarini arab xalifaligidan ajratyab olib, uni mustaqil idora qilishni o‘z oldilariga makqad qilib qo‘ygan edi. Abu Muslimning o‘zi ham abbosiylar harakatiga huddi ana shu maqsadni ko‘zlab qatnashgan edi. Uchinchi, toifadagilar mazlum mehnatkash xalq vakillari, shahar hunarmandlari va kashovorzaridirlar. Bu ajoli tabaqalari ummaviylar zulmidan, haddan tashqari og‘ir soliqlardan va uzluksiz davom etadigan xasharlardan ozod bo‘lishni istar edilar. Va nihoyat to‘rtinchi toifa kuchlar — bu qullardir. Albatta qullarning eng asosiy istak orzusi bu qullik kishanlaridan xalos bo‘lish edi.

Abu Muslim Moxuvon qal‘asida ham uzoq qolmadi. U bu yerda to‘rt oycha chamasi turgach vaqtincha nisbatan qulayroq Alin qal‘asiga ko‘chib o‘tdi. Buning sababi shu ediki, Nasr ibn Sayyor Moxuvonga keladigan daryoyani qirqib qal‘ani suvsiz qoldirishi ehtimoli bor edi. Abu Muslim hali daryoning yuqori qiyasmini egallashga ulgurmagani edi.

Dinovariy bergan ma‘lumotlarga qaraganda Abu Muslim kuchlari safi va geografik doirasi tobora kengayib bordi. Uning qal‘asi atrofida Xirotda, Bushang, Marvirud, Talikon, Marv, Niso, Obivard, Tus, Nishopur, Seraxs, Balx, Chog‘aniyon, Tohariston, Xuttaliyon, Kesh, Nasaf va boshqa viloyatlardan 100 mingdan ortiq lashkar to‘plangan edi. Yetarli miqdorda kuch to‘planganligiga ishonch hosil qilgan Abu Muslim 747 yilda o‘zining qora rangli libos kiygan qo‘shinlarini ummaviylarga qarshi ochik kurashga da‘vat etdi.

Ummaviylarga qarshi Abu Muslim boshchiligidagi kuchlar xavfa tobora kuchayib borayotgan bir paytda Xurosonda hokimiyat tepasida turganlar o‘rtasida qabilaviy kurashlar goh pasayib, goh alanganib turdi. G‘oyatda ayyor siyosatdon bo‘lgan Nasr ibi Sayyor Abu Muslimga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bormoq uchun arab qabilalari ittfoqi birligini hammadan ko‘proq tushunar edi. Lekin u arab qabilalari bilan o‘zi o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etishga ojizlik qildi.

Bunday nizo Nasr ibn Sayyor bilan Marvning xo‘jayini Al-Kirmokiy o‘rtasida g‘oyatda kuchli edi. Oxir oqibatda ikki o‘rtada urush kelib chiqdi. Abu Muslim bu ikki o‘rtadagi nizodan foydalandi va Kirmoniyga yordam berishga va‘da qildi. Abu Muslim ko‘rsatgan yordamga

qaramasdan Nasr urushda g'alaba qozondi va Kirmoniyani asir olib, oyoq-qo'lini mixlab o'ldirdi. Bu bilan Xuroso hokimi Nasr ibn Sayyor juda katta xatoga yo'l qo'ygan edi. Chunki arablarning Asd qabilasining boshlig'i Kirmoniyani o'ldirilishi bu qabila a'zolari o'rtasida Nasrga nisbatan dushmanlik va o'ch olish tuyg'usini alangalatab yubordi. Darvoqe, Kirmoniy qatl etilgach, uning o'g'li Ali ibn Juday Kirmoniy Abu Muslim oldiga kelib Nasrga qarshi kurashda unga yordam berajagini ishor etdi. Tahlikaga tushgan Nasr ibi Sayyor 748-yilda Marvni jangsiz tashlab chiqdi va Nishopurga chekindi. Ammo Abu Muslum boshchiligidagi qo'zg'olonchi kuchlar Nasrga hal qiluvchn earbani berdalar. Bu mag'lubiyat ummaviylar hukmronligi taqdirini uzil-kesal hal qildd. Xalifa Marvon II o'z ixtiyoridagi barcha kuchlarni ishga solib abbosiylar harakatining g'oyaviy raxbari va rahnamosi Imom Ibrohim ibn Muhammad qatl ettirgan bo'lsa-da, Ummaviylar sulolasini halokatdan saqlab qola olmada.

Abu Muslim erishgan muvaffaqiyat uning obru etiborining arab xalifaligidagi keng yoyilishiga sabab bo'li. Unin qo'shini tobora yangi kuchlar hisobidan ko'payib bordi. Tez orada qo'zg'olonchilar Xurosonni egallab oldi va 749 yilda Iroq va Jazoirda ummaviylar qo'shinlariga bir necha bor qaqshatkich zarbalar berdalar. Shundan so'ng Abu Muslim lashkarlari poytaxt Damashqqa tomon yurish qildi va xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dardi. Bu janglarda lashkarboshi sifatida arab Kaxtaba va xurosonlik Xolid ibn Barmo o'zlarini ko'rsatdilar. Xalifalik taxti abbosiylar qo'liga o'tdi. Ular 750—1258 y. davomida xalifalikni o'z qo'llarida saqladilar. Taxtga birinchi bo'lib Muhammadniig amakisi avlodlaridan bulgan Abul-Abbos as-Saffoh (749—754) o'tirdi. Xalifalikning hamma hududlarida ummaviylar xonadonining vakillari va yaqiilari batamom qirib tashlandilar.

Shunday qilib arab xalifaligida davlat hokimiyati ummaviylar sulolasidan abbosiylar sulolasi qo'liga o'tdi. Abbosiylar faolayatining boshlang'ich davrida xalq ommasi berilgan katta-katta va'dalarning birontasi ham bajarilmadi. Ular hokimiyatni egallab olgach, mahalliy oqsuyak boy va zodagonlar bilan ummaviy hukmdorlar singari hamtovoq bo'lib oldilar. Ular bu yo'lni tutishga majbur edilar. Chunki birinchidan, bosib olingan ulkaldaga xalqlarni tutib turmoq uchun ularniig yordami kerak adi. Ikkiichidan esa, mahalliy hukmdorlar va oqsuyak zodagonlar sahroyi arablarga qaraganda ko'p asrlar davom etgan madaniy an'analar va tajribalarga aga edilar. Abbosiy hukmdorlarga ana shu an'ana va tajribalar asqotar edi. Shu bois ular mahalliy oqsuyak va zodagonlar vakillarini yuqori lavozimlar va mansablarga ko'tardilar. Ana shunday shaxslardan biri balxlik katta yer egasi Xolid abn Barmoq edi.

Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim so'zsiz suratda juda katta xizmatlar qildi. U o'z davrini yirik davlat arbobi va mashhur sarkarda edi. Abu Muslim Xuroson va Movarounnahr xalqiniig ummaviylar zulmidan noroziligidan foydalanib o'z orqasidan ergashtira oldi va ularni bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Biz Abu Muslim siymosida ikki yoqlama nsh tutgan shaxs timsolini ko'ramiz. Abu Muslimni xalq manfaatleri uchun kurash olib borgan qahramon shaxs deb bo'lmaydi. Sababi, u o'zinnng erishgan g'alabasidan keyin ko'tarilgan xalq ommasining adolatli chiqishlari va qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bostirdi. Ayni zamonda abbosiylarning xalifalikda yurg'izgan siyosatlari uchun Abu Muslimni javobgar shaxs deb ko'rsatish ham mumkin emas. Chunki u xalifa yurg'izgan siyosatga mutlaqo qarshi bo'lgan. Buning ustiga Abu Muslimning halifa bilan shaxsiy munosabatlari ham juda yomon edi. Xalifa Abu Muslimning shaxsiy jasorati, sarkardalik qobiliyati, uniig Xuroson va Movarounnahrdaigi katta obru-e'tiboridan ko'rqrar edi. Abu Muslim shuhratparast odam, u davlat to'ntarishi yasamokchi degan bahona bilan dastlab Iroqdan chiqarib yuborildi, so'ngra Xuroson va Movarounnahrda noib qilib jo'natildi. Vu davrda u o'z Vatanida katta ijobiy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlar bilan shug'ullandi, katta-katta qurilishlarni amalga oshirdi, suv inshootlari barpo qiladi va karvon yullari soldiradi. Biroq, shu narsani alohida qayd etish lozimki, Abu Muslim Xuroson va Movarounnahrda noib bo'lib turgan davrda mehnatkash xalq ommasining ahvolidan biror-bir ijobiy o'zgarish bo'lgani yo'q. Aksincha xalq ommasini ikki tomonlama feodal zulmn ostida azob chekdi, solihlar siyosati yana ham kuchaytirildi, mehnatkash ommaning joniga tekkan hashar ishlari tag'in ham avjga mindirildi. Xullas, demoqchimizki Abu Muslim ikki

oʻrtada arosatda qolgan yoʻlni tutdi. Aslida u oʻz Vataniniig arablardan mustaqilligini yuragi va qalbida pinhona saqlaganicha uni oshkor qila olmasdan bu dunyoni tark etdi.

Abbosiylar harakati va Abu Muslim qoʻzgʻolonidan xafsalasi pir boʻlgan Movarounnaxr aholisi abbosiylar oʻtkazgan zulm va ekspluatatsiyaga qarshi kurashni ummaviylar bilan kurash tugamasdanoq boshlab yuborgan edi. Buni biz Buxoro shahrida 750 yilda Sharik ibn Shayx Almaxriy boshchiligida koʻtarilgan qoʻzgʻolon timsolida koʻramiz. Asli arablardan boʻlgan Sharik Narshaxiyning “Buxoro tarixi” kitobida yozishicha shia mazhabida boʻlib, abbosiylik harakatiga qarshi boʻlgan. U “paygʻambarning kuyovi” toʻrtinchi xalifa Alining avlodlarigina xalifa boʻlishga haqlidir, degan gʻoyani ilgari surgan. Qoʻzgʻolonchilar biz “abbosiyarga boʻysunush uchun ummaviylarga qarshi kurashmadik” degan shiorni ilgari surdilar. Qoʻzgʻolon Markaziy Osiyo hududlarining kattagina qismiga yoyilgan va unda 30 ming kishi qatnashgan. Hatto Buxoro amiri Abdujabbor ibn Shuayb va Xorazm xoni Abdumalik ibn Xuzayl kabi nufuzli kishilar ham bu qoʻzgʻolonga tarafdorlik qilganlar. Qoʻzgʻolonning asosiy kuchi soʻgʻd va arab mehnatkashlar ommasi boʻldi. Buxorxudot ibn Togʻshoda esa boshdan boshlab bu qoʻzgʻolonga ashaddiy dushmanlik qilgan va oʻzining 10 ming kishilik qoʻshini bilan uni bostirishda qatnashib abbosiyarga homiylik koʻrsatgan. Chunki dastlab Abu Muslim bu qoʻzgʻolonni bostirish uchun Ziyod ibn Solih boshchiligida 10 ming koʻshin yuborib uni bostira olmagan edi. Faqat Togʻshoda bu ishga bosh qoʻshgach, qoʻzgʻolon bostiriladi. Shahar uch kun mobaynida yondiriladi. Ziyod ibn Solih qoʻzgʻolonchilardan qattiq oʻch oladi va ularni shafqatsizlarcha qirgʻin qiladi. Buxorodagi Sharik qoʻzgʻoloni bostirilgach arab lashkarlari Samarqand shahriga oʻtadilar va buxoroliklar qoʻshilgan xalqdan oʻch oladilar.

Movarounnahrda arablarga qarshi koʻtarilgan qoʻzgʻolon tufayli mamlakatda vujudga kelgan ichki ziddiyat va toʻpolonlardan foydalangan Xitoy davlatining qoʻshinlari sarkarda Gao-Syan-Chji boshchiligida Markaziy Osiyo hududiga bostirib kiradilar. 751 yilda Talos vodiysida Xitoy qoʻshinlari bilan Abu Muslim tomonidan yuborilgan lashkarlar oʻrtasida dahshatli jang boʻladi. Bu jang arablarning gʻalabasi bilan yakunlanadi.

Xuroson va Movarounnahrda abbosiylar hokimiyatini mustahkamlash uchun, butun qalbi-vujudi bilan kurash olib borayotgan bir paytda abbosiy xalifalar Abu Muslimni taxtga birinchi daʼvogar hisoblab uni yoʻqotish uchun tuzoq tayyorlamokda edilar. Nihoyat 755 yilda Xalifa Abu Jaʼfar Davonaqiy — Mansur (754—775) Makkaga yoʻlga otlangan Abu Muslimni oʻz saroyiga kirib oʻtishini soʻraydi. Qurolsiz va yolgʻiz saroyga kirgan Abu Muslimni Mansur poyloqchilari qoʻlga oladilar va uni oʻldiradilar. Bu dahshatli fojea Xuroson va Movarounnahrda abbosiyarga qarshi xalq harakatlarining yanada kuchli tus olishiga turtki boʻladi. Ana shunday harakatlardan biri Abu Muslimning oʻchini olish maqsadida 755 yilda Reyda Sunbod boshchiligida boʻlib oʻtdi. Bu qoʻzgʻolon Taboriy maʼlumotlariga koʻra 70 kun davom etgan. Qoʻzgʻolonchilar Rey, Nishopur va Kumis shaharlarini egallaganlar. Qoʻzgʻolon qattiqqoʻllik bilan bostirilgan, qoʻzgʻolonchilardan olti mingga yaqin kishi oʻldirilgan. Qoʻzgʻolon rahbari Sunbod qoʻlga olinib, qatl etilgan.

Sunbod qoʻzgʻoloni bilan bir vaqtning oʻzida Movarounnahrda ham abbosiyarga qarshi harakat boʻlgan. Bu qoʻzgʻolonning rahbari Ishoq degan kishi edi. U Abu Muslim harakatiniig otashin tarafdori boʻlgan, 772 yilda Ustoz Sis boshchiligida Xurosonda 300 ming kishini oʻz harakatiga ergashtirgan qoʻzgʻolon boʻlgan, 782 yilda Jurjonda isyon koʻtariladi. Lekin arablarga dahshat solgan va deyarli butun Movarounnahrni qamrab olgan harakat — bu Muqanna qoʻzgʻolonidir.

Muqanna qoʻzgʻoloni. Arab istilochilari istibdodiga qarshi Movarounnahrda eng katta qoʻzgʻolon 769 yilda boshlandi. Bu tarixda “Oq kiyimlilar” (chunki qoʻzgʻolonchilarning asosiy jangovar guruhi oq rangdagi kiyim kiygan edilar) yoki qoʻzgʻolon rahbarining iomi bilan Muqanna qoʻzgʻoloni deb yuritiladi. Bu qoʻzgʻolon deyarli butun Markaziy Osiyo hududlariga tarqaldi. Muqanna ism emas, balki laqabdir. Bu soʻz “niqobdor”, “pardali” maʼnolarini anglatadi. Muqannaning asli ismi Hoshim ibn Xakim boʻlib, uniig ismi va shaxsi toʻgʻrisida yozma manbalarda turlicha maʼlumotlar mavjud. Jumladan, Yaʼqubiy uni Hakim al-Aʼvar (bir koʻzli)

Xoshim deb atagan. Ibi Xallikan esa Muqannaning ismi Ota bo'lgan deydi. Muqannani yomon ko'rgan feodal zamoni tarixchisi Narshaxiy yozadi: "Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyshlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurardi» Muqannani faoliyati to'g'risida ham har xil rivoyatlar bor. Ba'zi birovlar uni qul bo'lganlar desalar, boshva birovlar u kir yuvish bilan shug'ullangan, yani ba'zi qismlar esa kigizchilik bilan mashg'ul bo'lgan deb rivoyat qiladilar. Manbalarda Muqannaning yoshlik chog'larida kundugarlik (ya'ni matolarga ohor beruvchi) bilan shug'ullanganligi ham qayd qilinadi. Narshahiy Muqannani yomon ko'rganligini sir saqlamagani holda uni aqlli va o'qimishli bo'lganini tan oladi. Darhaqiqat, u savodli va nihoyatda bilimdon bo'lgan. Muqanna Abu Muslim (750—755) qo'shinida kichik lashkarboshi edi va Abduljabbor Azdiy davrida (757—759) esa vazirlik darajasigacha ko'tarilgan. U Mazdak g'oyalarini ilhomchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy tenglik va erkin hayot davatini targ'ib etgan. Muqanna o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. U ilgari xudo Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Iso, Muhammad va Abu Muslamlarda qanday gavdalanagan bo'lsa menda ham xuddi shunday gavdalanadi, deb odamlarni o'z orqasidan ergashishga da'vat etadi. Shu bois uni xalifa Mansur qamoqqa olib yangi qurilgan Bag'dod zindoniga tashlaydi. Narshahiyning ma'lumotiga qaraganda Muqanna ancha vaqt zindonda yotib so'ng qochib Marvga keladi va 776 yilda Xalifaga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga rahbarlik qiladi. Bu haqda Beruniy aniq malumot beradi. "Undan keyin Marvda, Kava qimardon degan qishloqda Al Muqanna laqabi bilan tanilgan Hoshim ibn Hakim paydo bo'ldi. Uning bir ko'zi ko'r bo'lganligidan yuzini yashil ipak mato bilan bog'lab olardi. U Jayhun (Amudaryo) daryosidan o'tadi. Kesh va Nasafgacha yetib boradi, unga "oq kiyimlilar" va turklar qo'shiladi. Muqanna ularga (begona) mol-mulk va ayollarni olishga hamda o'zlariga qarshi turgan kishilarni o'ldirishga yo'l qo'yib beradi.

Muqanna Marvdan turib Markaziy Osiyoning turli viloyat va shaharlariga o'zining ishonch odamlarini jo'natadi. Ular joylarda Muqanna g'oyalarini targ'ib qiladilar. Muqannaga ixlosmand va tarafdor kuchlar ayniqsa Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida ko'pchilikni tashkil etardi. Narshahiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda Naxshab va Kesh atrofidagi aholini Muqanna g'oyalari orqasidan ergashtirishda asli arab Abdulla ibn Amirning xizmatlari katta bo'lgan. Muqanna Abdullaning qiziga uylangan edi. Shu bois u o'z qaynotasiga ishonganligidan Abdullani Qashqadaryo vohasiga ishonchli vakil sifatida jo'natgandi.

Muqanna so'g'dda "ok kiyimlilar" harakatining keng quloch yoyib rivojlanganligiga ishongach qo'zg'olonga bevosita rahbarlik qilish maqsadini ko'zlab o'zining 36 ming muxlisi bilan Jayhun daryosining o'ng qirg'og'iga o'tib, Naxshab va u yerdan Kesh shahriga yetib boradi. Kesh shahri yaqinidagi tog' tepasida bino qilingan Som qalasini o'zining mustahkam qarorgohiga aylantiradi. Tez orada butun Qashqadaryo vohasi qo'zg'olonchilar tomoniga o'tadi. "Oq kiyimlilar" harakati Zarafshon vohasiga ham yoyiladi. Samarqand bilan Buxoro ham aslida qz'olonning markazlaridan biriga aylanadi. Xatto buxorxudot Buniyot ibn Tog'shoda islom dinidan qaytib, Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olonchi vatanparvarlar tomoniga o'tadi. Tez orada Iloq (Ohangaron) vodiysi, Shosh, Farg'ona ham qo'zg'olonchilarni yoqlab chiqadi. Turk hoqoni ham o'z og'asi Kil boshchiligida Muqanna qo'zg'oloniga xayrixoh bo'lib qo'shin yuboradi. Xullas "oq kiyimlilar" qo'zg'olonining dovrug'i Xurosongacha borib yetadi va abbos hukmdorlarini vahimaga soladi. Muqanna qo'zgonining harakatlantiruvchi kuchlari Movarounnahrning turli feodal tabakalaridan iborat bo'lgan. Shu boisdan ham ular bu qo'zg'olonda qatnashib o'z oldilariga turlicha maqsad-muddaoni qo'yganlar. Ammo bu kuchlarning hammasiga xos bo'lgan g'oy, maqsad birligi bo'lgan, u ham bo'lsa, bosqinchi arablarni ona Vatan tuprog'idan haydab chiqarish, erk va ozodlik uchun kurash g'oyasidir. Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, ana shu ulug'vor vatanpparvarlik g'oyasini Movarounnahrda barcha aholi tabaqalari o'z vaqtida tushunib yetdilar va uni qullab-quvvatladilar, deb ayta olmaymiz. Muqanna harakatiga dushmanlik ko'zi bilan qaragan va bosqinchi arablarga yordam bergan kuchlar ham bor edi. Masalan, Naqshob atroflarida arablar tomonidan turib qo'zg'olonchilarga qarshi jang qilgan mahalliy boy feodal Ahmad Mudi ana shundaylardan

biridir. Bunday kuchlar xususan mulkdor tabaqalar va oqsuyak zodagonlar safida ko'proq edilar va ular xalq erki va ozodligi manfaatlariga nisbatan o'z shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yadilar.

“Oq kiyimlilar” qo'zg'olonidan dahshatga tushgan xalifa Abu Ja'far 775 yilda Muqanna qo'zg'olonini bostirish uchun Jabroil va Uqaba boshchiligida o'n ming qo'shin yuboradi. Lekin Samarqand ostonalarida arablar yengilib, katta talofat qo'radilar. Qo'zg'olonchilar hujumini janubga tomon davom ettiradilar va Termiz yaqinida qo'shimcha yordamga kelayotgan arab qo'shinlariga kutilmaganda hujum qilib, uni tor-mor keltiradilar. Natijada Naqshob va Chag'oniyon vodiylari batamom qo'zg'olonchilar tomoniga o'tadi.

“Oq kiyimlilar” qo'zg'olonining markazlaridan biri Buxoro va uning atrof hududlari bo'lganligini yuqorida ta'kidlagan edik. Muqanna tarafdorlari bu yerda ham juda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Biroq qo'zg'olonchilar Buxoroni qo'lga kirita olmaydilar. “Oq kiyimlilar” Buxoroga yaqin bulgan Norshoh qishlog'ini o'zlarining mustahkam qo'rg'onlariga aylantirgan edilar. Bu qishlok hokimi (ayol kishi edi) ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tga edi. Albatta, bu Buxoro uchun katta xavf ekanligini arablar yaxshi bilar edilar. Shuning uchun 776 yil aprelda Samarqand noibi arab qo'mondoni (u 775 yilda Samarqandga noiblikka tayinlangan edi) Jabroil va Buxoro amiri Husayn ibn Maozning birlagashgan kuchlari “oq kiyimlilar” qo'rg'oni Norshohga hujum boshlaydilar. Qo'zg'olonchi kuchlarga buxorolik Hakim ibn Ahmad, Ko'shkifazl degan joydan Xishriy va Bog'iy, G'ijduvondan Girdak ismli pahlavonlar boshchilik qildilar. Kuchlar teng emas edi. Qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchrab, ulardan 700 kishi o'ldiriladi. Qo'zg'olonchilar uchun bu mag'lubiyat eng katta yo'qotish edi. Ikki o'rtada sulh shartnomasi tuzilib, shartnomaga binoan qo'zg'olon qatnashchilari xato yo'ldan voz kechib, islom yo'lga qaytishalir o'z qishloqlariga tarqab ketishlari, qonuniy amirlarga bo'ysunishlari, musulmoalarni talamasliklari va ularga har xil zo'raonliklar qilmasliklari kerak edi. G'oliblar asa qo'zg'olonchilardan o'ch olmasliklari lozim edi. Ammo musulmon askarlari hali Buxoroga yetib kelishga ulgurmasdanoq Muqanna tarafdorlari yana qo'zg'olon ko'taradilar. Jabroil ibn Yahyo boshchiligidagi arablar yana orqaga katta kuch bilan qaytadilar va to'rt oy davomida -Norshoh qal'asini qamal qiladilar. Son jihatdan ustun bo'lgan arab qo'shinlari Norshoh ko'rg'ognining devori tagidan uzunasiga 50 gazli chuqur qazib, uni qulatgach qishloqqa bostirib kiradilar. Qattiq qirg'in bo'lib qo'zg'olonchilar yengiladilar. Norshoh kishlog'i egallanadi. Qo'zg'olon rahbarlari Hakim ibn Ahmad, Bog'iy va Xishriylar o'ldiriladi. Faqat Girdak qutulib qoladi va qayg'uli xabarni yetkazish uchun Muqanna huzuriga jo'nab ketadi. Arablar Norshoh qishlog'ida isyonchilarni qonga botirgach, o'zlarining butun diqqat-e'tiborlarini qo'zg'olonning markazi bo'lgan Samarqand va Keshga qaratadilar. Chunki hali butun Movarounnahr Muqanna qo'li ostida edi. Buning ustiga 777 yilda turk sarkardasi Qiyoqi Go'zi ham o'zining katta lashkari bilan Muqanna kuchlariga kelib qo'shilgandi. Qashqadaryo vohasidagi “oq kiyimlilar” kuchlariga Muqannaniig o'zi bosh bo'ldi. Samarqand va Zarafshon atrofidagi kuchlariga esa Muqanna tomonidan tayinlangan so'g'dli So'g'diyon ismli kishi rahbarlik qildi.

O'lkadagi vaziyat arablar uchun g'oyatda og'ir va tashvishli edi. Buni to'g'ri hisobga olgan Xalifa Mahdiy qo'shimcha harbiy kuch to'plash maqsadida Nishopurga keladi. Kurashning bu bosqichida Vuxorodagi oqsuyak feodal zodagonlar ham batamom arablar tomoniga o'tadilar va arab lashkarboshisi Maoz ibn Muslim boshchiligida katta qo'shin to'planadi. Narshahiyniig mubolag'a bilan bergan ma'lumotlariga qaraganda, Muqannaga qarshi to'plangan arablarning birlashgan kuchlari 570 miig kishidan iborat bo'lgan. Lekin shunday katta kuch bilan ham Jabroil ibn Yahyo va Maoz ibn Muslim boshchiligidagi istilochilar, qo'zg'olonchilar ustidan sezilarli yutuqqa erisha olmaganlar. Faqat 777-778 yillar davomidagi urush harakatlari chog'ida buxorolik bir kishi tomonidan iste'dodli sarkarda So'g'diyonning o'ldirilishi “oq kiyimlilar” uchun juda katta yo'qotish bo'lgan. Shundan so'ngina arablar Samarqandni ishg'ol qilganlar.

Muqanna qo'zg'oloniga qarshi kurashning haddan tashqari cho'zzilib ketganligi xalifa Mahdiyini juda tashvishga solayotgan edi. U qanday qilib bo'lmasin qo'zg'olonni tezroq bostirish uchun zarur choralar qo'radi. Shu maqsadda u arab lashkarlarining qo'mondonlik tarkibini keskin yangilaydi. Maoz ibn Muslim ham o'zining chaqirib olishini iltimos qiladi.. Arab qo'shinlariga

o‘zining johilligi va shafqatsizligi bilan nom chiqargan Said Xaroshiy bosh qo‘mondon etib tayinlanadi.

“Oq kiyimlilar” ga qarshi arablarning kurashi yangi davrga kiradi. 780—783 yillarni o‘z ichiga olgan bu kurash davrining bosh maqsadi “oq kiyimlilar” qo‘zg‘olonining bosh rahbari Muqannani tor-mor keltirishdan iborat edi. Bu davrga kelib mahalliy oqsuiyaklar va zodagon dehqonlar ozodlik va erk uchun olib borilgan kurash manfaatlariga xiyonat qilib, sotqinlarcha arablar tomoniga o‘tadilar. Ular Said Xaroshiy lashkarlar bilan birgalashib Muqanna boshchiligidagi vatanparvar kuchlarga qarshi jang qiladilar. Kesh shahri va Muqanna qarorgohi bo‘lgan nihoyatda mustahkam Som qal‘asi atrofida keskin va shiddatli janglar bo‘ladi. Mana shunday qaltis va nozik bir paytda Qulartegin boshchiligidagi turk suvoriylari Muqannaga yordamga keladilar. Xalifa Mahdiy esa arab qo‘mondonligiga yangi madad kuchlar yuboradi. Madad kuchlar yetib kelgach, arablar va mahalliy sotqin kuchlar birlashib, Muqannaning so‘ngi tayanchi bo‘lgan Som qal‘asini chor atrofdan qurshovga oladilar. Qo‘zg‘olonchilar bu siquvga bardosh bera olmaydilar va yengiladilar. Muqannaning og‘asi Qabzam 3000 va Som qal‘asi atrofida mudofaa janglariga qo‘mondonlik qilgan Sarham 3300 kishilik ko‘shin bilan sotqinlarcha Said Xaroshiyga taslim bo‘ladi. O‘zoq davom etgan kurash oqibatida Muqanna ko‘shinining tinkasi qurigan edi. Shu bois qo‘zg‘olon yengiladi va Muqanna halokatga uchraydi. Yozma tarixiy manbalarda Muqannaning taqdiri to‘g‘risida turlicha talqinlarga duch kelamiz. Tarixchi Taboriyning yozishicha, Muqanna o‘z halokatining muqarrarligiga ko‘ziga yetgach zahr ichgan. Som qal‘asiga kirgan arablar uning jasadini tonganlar va boshini kesib o‘sha davrda Halabda turgan xalifa Maxdiyga olib borganlar. Narshahiy bo‘lsa afsonaga o‘xshashroqk rivoyatni hikoya qiladi. Uning yozishicha Muqanna o‘zini yonib turgan o‘tga tashlagan. Bu fikrni Bar Yahudiy (Abul Faroj) ham takrorlaydi. Beruniy o‘zining “Xronologiya” asarida Muqannaning o‘limi xususida ikki xil rivoyat keltirgan. Bu rivoyatlarga qaraganda Muqanna o‘ldirilgan, ikkinchi rivoyatda esa Muqanna o‘zini o‘zi o‘tga tashlab o‘ldirgan, deyiladi. Muqannaning qachon vafot etganligi haqidagi fikr ham bir xil emas. Narshahiyning zzi Muqannaning vafoti to‘g‘risida bir-birini inkor etuvchi ikkita yilni tilga oladi bu 782 va 783 yillardir. Beruniy ma‘lumotiga ishonsak, Muqanna 785 yilda olamdan o‘tgan.

Shunday qilib, qariyb o‘n yil davom etgan va o‘z davrida jahonning eng yirik davlatlaridan biri hisoblangan Arab xalifaligini larzaga solgan Muqanna qo‘zg‘oloni yengildi. “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘olonining yengilganligining asosiy sabablari nimalardan iborat? Birinchidan, “oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloniga qarshi kurashgan arab istilochilariniig lashkarlari davlat hokimiyati qo‘shini bo‘lib u tartibli, uyushgan katta kuch edi va u doimiy suratda Arab xalifaligi tomonidan harbiy va moddiy tomondan ta‘minlanib turdi. Muqanna kuchlari esa nima bo‘lganda ham turli toifa va tabaqalarniig vaqtinchalik qurama uyushmasidan tashkil topgan edi va doimiy muntazam ta‘minlanib turadigan harbiy va moddiy zaxiraga ega emas edi. Ikkinchidan, Muqanna tomonida turib jang qilgan kuchlar turli toifa, tabaqa va guruhlariga mansub bo‘lganliklaridan ularda mustahkam birlik bo‘lmadi. Ularning kattagina qismi, xususan mulkdorlar, oqsuyak mahalliy hukmdorlar va zodagon dehqonlar dushman ustidan tez, yengil va osongina g‘alaba qozonishga ko‘z tutgan edilar. Urush cho‘zilib ketgach, va borgan sari dahshatli tus ola borgach vatanfurush kuchlar xoinlik, xiyonat va sotqinlik yo‘liga o‘tdilar, hatto arab bosqinchilari tomonida turib o‘z vatandoshlari, birodarlari, og‘a va inilariga qarshi jang qildilar. Arab bosqinchilari esa bundan ustalik bilan foydalandilar. Uchinchidan, “oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni onglilik va dasturiy kurash darajasidan ancha yiroqdagi olomon kurashining nisbatan rivojlangan bir ko‘rini edi. Albatta, biz qo‘zg‘olonga XX asr oxirlaridagi xalq ko‘zi bilan qarab uning oldida buyuk va yuksak talablar qo‘ya olmaymiz. Qo‘zg‘olon rahbari Muqannaning o‘zi ham zamonasining davriga hos vakili edi, ko‘p hollarda qo‘zg‘olonga bevosita o‘zi rahbarlik qila olmadi. Ko‘p vaqtini u malikalar davrasida sharob ichib o‘tkazdi.

Muqanna rahbarligida “oq kiyimlilar» qo‘zg‘oloni yengilgan bo‘lsada juda katta tarixiy iz qoldirdi va Movarounnahrda Arab xalifaligining mustamlakachilik, bosqinchilik ildizlariga bolta urdi. Bu qo‘zg‘olon xalq ommasining kuch-qudrati birlikda, hamkorlikda ekanligini ko‘rsatdi. IX

asrdan boshlab o'lkada tashkil topa boshlagan mahalliy markazlashgan feodal davlatlarning shakllanini ibtidosi ham "oq kiyimlilar" ko'zg'oloni davrlaridan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Muqanna qo'zg'oloni ayniqsa hozirgi sharoitda O'zbekiston fuqarolari Vatan mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun kurash olib borayotgan bir paytda g'oyat katta ijtimoiy siyosiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Muqanna va u bilan birga Vatan ozodligi va erki uchun kelgindi arab bosqinchilariga qarshi kurashgan fidoiy kaxramonlar timsoli ayniqsa yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida asrlar osha xizmat qilaveradi.

Muqanna qo'zg'oloni yengilgan va halokatga uchragan bo'lsa-da, "oq kiyimlilar" harakati darhol to'xtab qolgani yo'k, balki u yana bir necha o'n yillar mobaynida davom etdi va istilochi arablarning tinkasini quritib bordi. Bu albatta o'lkamiz xalqlarining erksevar, hurriyatparvar, haq va adolat uchun kurashda juda katta tarixoy an'ana ga ega bo'lgan jasur va mard xalq bo'lganliklaridan dalolatdir.

Tayanch tushunchalar:

Arab xalifaligi, Xuroson, Movarounnahr, mustamlakachilik, islom, Qur'on, xalq qo'zg'olonlari, Gurak, Abu Muslim, Sharik ibn Shayxulmahriy, sunna, shia, Muqanna, Rofe ibn Lays.

Nazorat uchun savollar:

1. Arab xalifaligi tashkil topishidagi siyosiy ahvol.
2. Movarounnahrning arablar tomonidan istilo qilinishi.
3. Arab xalifaligining mustamlakachilik siyosati.
4. Arab xalifaligiga qarshi xalq qo'zg'olonlari.
5. Gurak va Divashtich qo'zg'oloni va uning ahamiyati.
6. Abu Muslim qo'zg'oloni va uning mohiyati.
7. Oq kiyimlilar qo'zg'oloni.
8. Rofe ibn Lays qo'zg'oloni.

Adabiyotlar:

1. Ayniy. S. "Muqanna qo'zg'oloni". Dushanbe. 1993
2. Ahmedov. B. O'zbekiston tarixi xalqlari manbalari. Toshkent, 1991.
3. Belyaev V. A. Ilk o'rta asrlarda arablar, islom, Arab xalifaligi, M, 1965.
4. Muhammadjonov. A. R. Poykand shahri xarobalari. Toshkent, "Fan", 1988.
5. Qodirova T. Q. VIII va IX asr boshida Movarounnahr va Xurosonda dehqonlar qo'zg'olonlari tarixidan. Toshkent, 1965.
- Narshaxiy. M. Buxoro tarixi. Toshkent. "Fan". 1966.
6. Muhammadjonov. A. O'zbekiston tarixi, Toshkent, 1994.
7. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, 2000.
8. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, Toshkent, 1997.

17-MAVZU:

Movaraunnahr va Xurosonda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Tohiriylar va Safforiylar davlati

R E J A:

1. IX-X asrlarda O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Arablar hukmronligining zaiflashuvi va uning sabablari
2. Qarluqlar va O'g'uzlar davlatlari. Hududlari, aholisi, iqtisodiy va madaniy xususiyatlari.
3. Tohiriylar davlati. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Tohiriylar davlatining barham topishi.

IX- asrda Markaziy osiyo xududida haliham Arablar hukmronligi davom etardi erk va xurlik singari tarihiy ananalara sodiq bo'lgan ajdodlarimiz arab bosqinchilariga qarshi kurashni bir daqiqa bo'lsada to'xtatmadilar va mustaqil markazlashgan davlat barpo qilishga intildilar .

Toxiyrlar Hurosonni yirik oqsuyak yer egalaridan bo'lib , bu sulolaning asoschisi Toxir ibn

Husayn edi. Bu sulola asli Hirot viloyatining Bushang shaxridan edi .Toxir 809-813-yillarda Horun ar-Rashidning o'g'illari Mamun bilan Amin o'rtasidagi bo'lgan kurashda Mamun tomonida bo'ldi, unga Bog'dodni va xalifalik taxtini egallashga yordam berdi . Mamun 813-yilda xalifalik taxtiga o'tirgach Tohir ibn Husayn katta hurmat va etiborga loyiq nufuzli kishi bo'lib qoldi .821-yilda u Hurosonning noibi etib tayinlandi Movarounnahr ham Huroson noibligi tarkibiga kirar edi .uning qarorgohi Nishopurda edi Tohir o'z qo'l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan-ochiq harakat qildi . U noiblikka tayinlangan kundan bir yil o'tar-o'tmas , jome masjidida juma namozida o'qiladigan xutbadan halifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi bu o'sha davr uchun halifaga qarshi ko'tarilgan isyon bilan teng edi. Bu voqeadan ko'p vaqt o'tmay Tohir ibn Husayn to'satdan vafot o'tdi shundan keyin Huroson noibligi taxtiga Tohir ibn Husaynning o'g'illarri Talxa va Abulabbos Abdulloh novbat bilan o'tirdi. Abulabbos Abdulloh

Noibligi davrida (830-844) halifaga rasman qaram bo'lsada, amalda mustaqil davlatga aylanib poytaxtni Marvdan Nishopurga ko'chirdi buning eng asosiy sababi halifalik hukm ronligini havf ostiga qo'ygan xalq qo'zg'olonlari edi ana shunday qo'zg'olonlardan biri 806-yilda bo'lgan edi.Bu qo'zg'olonga isyonkor Arab lashkar boshisi Rafi ibn Lays boshchilik qildi.bu qo'zg'olonlarni bostirishda Somon ibn Asad faol qatnashdi . Bu ishda Somonning o'g'lilari Nuh, Ahmad,Yahyo va Ilyoslar katta hissa qo'shdilar.Ular aslida Somon qishlog'I oqsoqoli Somon hudodning avlodlari bo'lganlar. Somon ibn Asad va farzandlari xizmadlari evaziga Mamun Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn Asadni Farg'onaga ,Yahyoni Shoshga va Ustro'shonga, Ilyosni Hirotga noib etib tayinladi . bu voqea 819-820-yillarda sodir bo'lgandi 864/865-yilda Ahmad ibn Asad vafot o'tdi taxtga uning o'g'li Nasr ibn Ahmad o'tirdi Nasr oldida ikkita muhim vazifa turar edi. Birinchisi, ko'chmanchi qabilalarning hujimini zaiflashtirish bo'lsa, ikkinchisi Buxoro, Naqshob va Kesh hududlarini qo'shib olishdan iborat edi 874-yilda Buxoroni so'ngi Toxiriy Muxammad ibn Toxirning ukasi Husayin ibn Tohir qo'lga kiritdi Buxoroda Husayin ibn Toxir siyosatiga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarilib shaxar jamoasini yuqori tabaqalari Samarqanga Nasr ibn Ahmadga o'z vakillarini yubordilar va Somoniylar honodonidan biror kishini hokim qilib jo'natishni iltimos qildilar so'ngra Nasr o'z ukasi Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga hokim qilib jo'natdi.O'zini butun boshli Movaraunnahr hokimi deb hisoblagan Nasr ibn Ahmad kumush tangalar zarb qila boshladi.Nasr ibn Ahmad Ismoilni o'ziga tobe noib deb hisoblar va istagan paytda uni almashtirish mumkin deb o'ylardi.Ammo Ismoil akasiga bo'ysunishni ochiqdan-ochiq hohlamagan va Buxoroni mustaqil bo'lishiga intilgan.Bu narsa Ismoilning turli bahonalar bilan Samarqandga yuboriladigan soliqni to'lashni bosh tortganligida yaqqol nomoyon bo'ldi.Bu narsa 888-yilda aka-uka ortasida urush kelib chiqishiga sabab bo'ldi.Bu urushda Ismoil g'alaba qozonib butun Movaraunnahr hukumdoriga aylandi.Ismoil Somoniy (aqli,adola,shafqatli fikr va tadbir egasi) edi.U 892-yilda butun Movarounnahr hukmini o'z qo'lga olishga erishib , (haqiqatdan ham podsholikka loyiq va xaqli ekanligini) isbotladi.

2.

Ismoil Somoniy asosiy diqqat etiborini markazlashgan davlat tizimini joriy etishga qaratdi. Bu tizim asosini oily hukmdor dargohi va devonlar majmui tashkil etgan . Oliy hukmdor Amir unvoniga ega edi shu sababdan yozma manbalarda Amir Ismoil, Amir Ahmad kabi takidlarni uchratamiz. Devon boshqaruvi o'nta yo'nalishdan iborat bo'lib poytaxt Buxoroda joylashgan edi. Quyidagi devonlar mavjud bo'lib ularga: Bosh vazir devoni ,vaqflar devoni ,qozilik ishlari devoni kirar edi. Viloyatlar boshliqlari hokim, shahar boshliqlari rais deb yuritilgan. Somoniylar sulolasio hukmronligi davrida Movaraunnahrda xo'jalik taraqqiyoti faqat Markaziy Osiyoning gina emas balki Old Osiyoning ham yetuk hududlaridan biri hisoblanardi.Shahar bilan qishloq o'rtasidagi,o'troq dehqonchilik va ko'chmanchi qabilalar o'rtasidagi mahsulot ayr boshlashni kuchayib borishishi,karvon savdosining o'sishi o'lkaning qishloq xo'jaligini, kon ishlari va hurarmandchilikning rivojlanishi omili bo'ladi. IX-asrda Movaraunnahr asosan qishloq xo'jaligi mamlakati bo'lganligidan hatto hunarmandlar ham bu soha bilan shug'illanar edilar. Yozma manbalarga qaraganda Zarafshon, Qashqadoryo vohalari, Farg'ona, Eloq, Shosh va Xorazmda

IX-X-asrlarda bug'doy, arpa, sholi, tariq, g'o'za va boshqa ekinlar ekib dehqonchilik qilganlar. O'lkamiz o'z davrining yirik hunarmandchilik markazlaridan hisoblangan. Jumladan, Zandona va Iskijkat qishloqlarida to'qilgan bo'z matolar Eron, Iroq va Hindistondan tashqari joylarga ham olib ketilgan va mashhur bo'lgan. Somoniylar davrida Movaraunnahrda <<Buyuk ipak yo'li >> orqali bo'ladigan karvon savdosi katta ahamiyat kasb o'tdi. Karvon savdosi Markaziy Osiyo orqali Janubiy sharqiy Yevropa mamlakatlarini Sharq mamlakatlari, avvalo Mo'g'uliston va Xitoy bilan bog'lab turar edi. Bu yo'l Bog'doddan boshlanib, Hamadon, Nishopur, Marv, Chorjo'y, Buxoro, Samarqand, Shosh, Taroz, Qulon, Marki, Bolosog'un, Suyob, Issiqko'lning Janubiy qirg'og'I orqali o'tib, Sharqiy Turkiston orqali Xitoyga borar edi. O'lkamizda Somoniylar sulolasi hukmronlik qilgan asrlar voqea va hodisalarga boy, jo'shqin hayot mavjurgan davr bo'lib, davlatchiligimiz toraqqiyotida muhim bir bosqichdir. Chunki huddi anashu davrdan etiboran Arab bosqinchilariga qarshi erk va ozodlik uchun kurash olib borgan o'lkamiz halqlari o'zlarining markazlashgan mustaqil davlatlariga asos soldilar va bu davlatlar halqaro maydonda o'z munosib o'rniga ega bo'ldi.

-3-

Movaraunnahr hududlarida o'troq so'g'dliklar bilan bir qatorda ko'plab turk qabilalari ham yashaganlar, ularning ko'pchiligi Shosh va Farg'onada, qisman Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida istiqomat qilar edilar.

VIII-IX asrlarda turkey xalqlar til jihatdan Farg'ona va Shosh hududlarida yashagan so'g'dliklarga o'z tasirlarini kuchli bir tarzda o'tkazganlar va bu joyda turkiylashtirish kuchaygan.

Qoraxoniylar davlatini tashkil topishida boshqa turk qabilalari: qipchoqlar, kenjeklar, yabakular, qirg'izlar, o'g'uz-turkmanlar, qanchlar va so'g'dlilar ham faol qatnashganlar.

Qoraxoniylar davlati X asrni ikkinchi yarmida tashkil topdi., qoraxoniylar" so'zi Qarluqlarning islomni qabul qilgan boshliqlaridan biri Satuq Abdulkarim Qoraxon unvonidan kelib chiqqan. (qora so'zi qadimdan turkey xalqlarda buyuklik va ulug'lik manosida ishlatilgan) Xon hokimiyati madaniyatli bo'lsada Qarluqlar yoki chigillar qabilasidan chiqmadi, balki madaniy taraqqiyotda orqaroqda bo'lgan Yag'molardan chiqdi.

Buni Satuq Abdulkarim Qoraxonning yag'molar urug'idan bo'lganligi han ochiq oydin isbotlaydi. Qoraxoniylar sulolasining asoschisi Satuq Bug'roxon islom dinini qabul qilgach, yangi turk davlatini barpo qilish ishini boshlab berdi.

Manbalarda keltirilishicha Satuq Bo'g'roxon vorislari davrida Qoraxoniylar butun Tyanshan va Yettisuvni o'zlariga tobe qiladilar, so'ngra Movaraunnahr yetib boradilar.

Qoraxoniylar 990-yildan boshlab Movaraunnahrda o'z hokimiyatlarini o'rnatish uchun astoydil harakat qiladilar. 990-yillar ular Farg'onani egallab bu yerda o'z tangalarini zarb qilganlar. Eng qudratli hukmdorlardan bo'lgan Xasan Xorun Bo'g'roxon Isfijobni o'iga tobe qilib olgach 992-yilda Buxoraga hujum boshlaydi. Bu davrda Buxoro taxtida Nuh II ibn Mansur har qancha g'ayratli va qatiyatli hukmdor bo'sada, hech kimning madadiga ko'z tika olmas edi. Bo'g'roxonga qarshi yuborilgan turk harbiy boshlig'i Ayach tor mor qilinib asir olinadi. 999-yilda Nasr tomonidan Buxoroni olinishi bilan Somoniylar hukmronligiga butunlay chek qo'yildi. Albatta, Somoniylar 1005-yilga qadar yana o'z qaddilarini rostlash uchun qarshilik ko'rsatgan bo'ldilar. Ammo bu qarshilik voqealarni rivojlanib borishiga bir qadar bo'lsada tasir qilmadi. 1005-yildan etiboran esa Qoraxoniylarga qarshilik butunlay to'xtatildi. Qoraxoniylar qariyb yuz yil davomida mustaqil hukmronlikni nashidasini surdilar. 1005-yilga qadar davom etgan mustaqil taraqqiyot davrida Qoraxoniylar bepayon davlatga asos soldilar. ularning mulklari ga'rbda Buxoro va Sirdaryoning quyi oqimidan, sharqda Yettisuv va Qashqargacha cho'zilib ketgan edi. Qoraxoniylar honadonlari o'rtasida 1016-yilda boshlanib ketgan urug'chilik adovati urushlari tufayli 1041-yilda xonlik ikkiga bo'linib ketdi. Qoraxoniylarni so'ngi hukmdori usmon 1211-yilda Xorazmshoh Muhammad Oloviddin tomonidan o'ldiriladi. Qoraxoniylar urug'I batamom qirib tashlanadi.

Qoraxoniylar davrida Movaraunnahrda bir qator ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar va tadbirlar siyosiy va iqtisodiy hayotning hamma sohalarini o'z

ichiga qamrab olgan edi.

Somoniylar davrida vujudga keltirilgan davlat boshqaruvi tugatildi. Qoraxoniylar markazlashgan davlat boshqaruvi o'rniga mamlakatni udeal tizimi asosida boshqarishga o'tdilar. Qashqardan tortib amudaryogacha bo'lgan hamma yerlar Qoraxoniylar honadoning shahsiy mulki hisoblanib uning tepasida ulug' xon turgan. U ko'pincha Koshg'arda bazan Bolosog'unda bo'lgan. Qoraxoniylar honadoning boshlig'i huddi Erondagi singari „xonlar xoni“ „sultonlar sultoni“ nomi bilan yuritilgan. Manbalarda qoraxoniylar honadoning boshlig'i – xonlar xoni „tomg'achxon“ yoki „tobg'achxon“ deb nomlangan. Xonlar xoni idora qilayotgan qoraxoniylar davlati bir necha bo'laklarga, qismlarga –udellarga bo'lingan. Bu udellarning tepasida qoraxoniylar honadonlari avlodlari vakillaridan iloqxon unvonini olgan azolar turardi.

Somoniylar inqiroziga qadar qoraxoniylar davlatining markazi bolasog'un bo'lgan. XI asrda esa tamg'achxonlar ko'pincha Koshg'arda turganlar. Udel xonliklar orasida Movaraunnahrning ahamiyati kattaedi. Movaraunnahrning iloqxoni Samarqandda turgan.

Yozma manbalarda udellarni boshqarish tartibi tasvirlangan. Idora ishlarini tashkil etishda qoraxoniylar iloqxonlarga somoniylar hukmronligi davrida fuqaro amaldorlari bo'lib ishlagan shaxslar yordam berganlar. Qoraxoniylar ularni taqib qilmadilar. Somoniylar davridagi idora etish tartib qoidalarining ko'pchiligi qoraxoniylar davrida ham saqlab qolindi. Iloqxonlar qoshida vazirlar, sohibberdilar, mustafilar bo'lgan.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida o'troq dehqon aholisi o'rtasida feodal munosabatlarning rivojlanish jarayoni ancha tez suratlar bilan borganligi. Sinfy tabaqalanish kuchayganligi ko'zga tashlanadi.

Aholining to'tta toifasi: boylar, o'rta holler, kambag'allar. Shuningdek mulksizlar aniq belgi kasb o'tdi.

Qoraxoniylar davrida aholi dexqonchilik, xunarmandchilik, chorvachilik, ovchilik, va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Qoraxoniylar davlatida butun siyosiy tizim g'oyat ulkan yer fondi hisobidan yashagan. Bu yer fondi bir necha turlarga bo'lingan. 1. *sulton yerlari* 2 *vaqf yerlari* Qoraxoniylar va saljuqiylar istelosi tufayli Movaraunnahr va Eronda juda ko'plab ko'chmanchi turk qabilalari kelib joylashdi.

Ularning ko'pchiligi o'troqlasha boshladilar va o'troq mexnatga ko'chdilar. Ammo qoraxoniylarning qo'shin boshliqlari o'troq turmish sharoitiga o'tishlari uchun zarur deb topmadilar. Chunki, ularning juda ko'p pada mollari va yaylovlari bor edi. Ular iloqxonlarga zarur bo'lgan hollardagina

shaxarga tushar va hizmatni ado etar edilar. Shunday qilib, Somoniylar va Qoraxoniylar hukmronligi davrida feodal yer mulkchiligining eski shakli qoldiqlari bilan bir qatorda feodal yer egaligining yangi shakllari ham paydo bo'ldi va tez rivojlandi.

5.

X asr oxirlariga kelib Movaraunnahr hududida turkiy halqlar sulolalarining hukmronlik mavqei brogan sayin kuchayib boradi ular o'z tarixlari davomida birin ketin birqancha davlatlarni tashkil etdilar. Bu xalqlarning davlatchilik an'analari islom dinini qabul qilganlaridan so'ng ham davom o'tdi. Anashunday musulmon – turk davlatlaridan biri – G'aznaviylar davlati edi. Bu davlatning tamal toshini Alptakin qo'ydi. Sabuqtakin davrida g'aznaviylarning quyoshi chiqqan bo'lsa, Maxmud G'aznaviy podsholigi yillarida eng porloq va qudratli kunlarni o'z boshidan kechirdi. X asrga kelib G'azna shaxrining mavqei har tomonlama ortdi va turkiy sarkardalarning diqqatini o'zig' atorta boshladi. G'azna mamuriy-siyosiy jihatdan somoniylarga qaram edi. Biroq g'azna hukmdorlari alohida mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqish ishtiyoqi bilan yashaganlar. Bu ishga astoydil kirishgan shaxs Somoniylar lashkarboshisi Turk g'ulomlaridan bo'lgan Alptakindir. U 962-yilda maxalliy hokmni ag'darib tashlab G'aznada o'z hukmronligini o'rnatdi. G'aznada , hokimyatni qo'lga olib mustaqil davlat barpo etishga ikkinchi marta urinish 977-yilda g'oyatda qobilyatli va idrokli hukmdor Sabuqtakin tomonidan amalgam oshirildi. Sabuqtakin Alptakin g'ulomi bo'lib, uni Alptakin nishopur shahrida qulbozorida sotib olganligi takidlanadi

Maxmud G'aznaviy va uning o'g'li Masud devon honasida hizmat qilgan tarixchi olim Abul

Fazl Bayhaqiy „ Mas’ud tarixi “kitobida qiziq bir voqeani keltiradi. Uning yozishicha, bu hikoyani hijriy 450-yilning yoz faslida unga alloma Abul Muzaffar Alaviy aytib bergan. Bu hikoyatga ko’ra, amir Voziy uning bobosiga hiroj solig’ni kamaytirib, imtiyoz bergan. Bobosi amir Sabuqtakin boshchiligidagi qo’shinda xizmat qilar ekan. Bobosi amir Sabuqtakinni istedodli sarkarda, Somoniylarga hindistonni zabt etib bergan fotih, ohko’ngil va odil inson deb takitlaydi

997-yilda Sabuqtakin vafatidan so’ng hokimiyat tepasiga uning katta o’g’li Maxmud kelishi kerak edi. Ammo ota taxt vorisligini kichik o’g’li Ismoilga bashorat qilgan edi. Ismoil taxtni 7 oy boshqaradi, holos. Tabiatan betadbir, kalta fahm, takabbur va landavur taxt vorisi viloyat hokimlarining isyonu hurujlariga bardosh bera olmadi. Bundan foydalangan Maxmud katta qo’shin bilan G’aznaga bostirib kirdi va taxtni egalladi. U tarixda Maxmud G’aznaviy nomi bilan shuxrat topdi va g’aznaviylar sulolasiga asos soldi. „siyosat noma “ , „ Chaxor maqola” , „ Miftoxul- adl “ va boishqa asarlarda , to’plam va solnomalarda Maxmud G’aznaviy adolatli, fuqoro parvar tadbirkor, sermulohazali va kelajakni oldindan ko’ra biladigan, har qanday murakkab muammolarni aql bilan odilona hal etishga intiladigan shox sifatida tasvirlanadi.

18-MAVZU: SOMONIYLAR DAVLATI

R E J A:

1. Movarounnahrda Somoniylar davlatining tashkil topishi uchun shart-sharoitlar.
2. Somoniylar davlatining tashkil topishi va davlat boshqaruvidagi islohotlar.
3. Somoniylar davrida yer egaligi va iqtisodiy hayot.
4. Somoniylar davrida islom dini va madaniy hayot.

VIII asr oxiri-IX asr boshida xalifalikni larzag’a keltish gan ogir siesiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o’zgartirishga majbur etdi. IX-XII asrlarda O’zbekiston hududida turli boshqaruv usullari va ma’muriy tizimiga ega bo’lgan turli sulolalar boshqargan bir qancha davlatlar xukm surdi. Xalifalikka qarshi kuchayib borayotgan qo’zg’olonlar xalifalarning maxalliy zodagonlarga bog’liqligini kuchaytirib yubordi va viloyatlarni boshqarishda maxalliy zodagonlarning roli ortti. Shu jarayon oqibatid Xurosonda toxiriylar xonadoni xukmron mavqeni egallay boshladi. Sijiston (Seiston) xokimi Abulmuxammad Talxa ibn Abdullox qo’lida xizmat qilgan Rozik shu xonadon boshlig’i bo’lib, uning Musxab, Xusayn va toxir ismli o’g’illari bo’lgan. Ular birgalikda Xirot viloyatidagi Bo’shanj shaxrini boshqarganlar.

Xorun ar Rashid (786-809) vafotidan so’ng uning o’g’li Amin xalifa bo’ldi. Bu vaqtda Xurosonda noiblik qilayotgan Abdullox (keyinchalik Maxmun laqabini olgan) toxir qo’shinlari yordamida taxtni akasidan tortib oladi. Maxmun xalifa bo’lgach, 813 y toxirni sipoxsalor, 821 yil esa Xuroson noibi etib tayinlaydi. Toxir vafotidan so’ng Xurosonni Talxa (828-844) boshqardilar. Abdullox o’zini xalifalikdan mustaqil deb e’lon qildi va Marv (keyinchalik Nishodur) davlat poytaxti bo’ldi. Toxiriylar davlatiga ko’ra tabariston, Jurjon, Ray, Kimron, Xuroson, Seyiston, Movarounnaxrning Janubiy qismi kirgan. Garchi, xalifa Maxmunga o’z xizmatlari evaziga Somonxudot nabiralari Movarounnaxr viloyatlarini (Nux-Samarqand, Axmad_farg’ona:, Yaxyo-Choch, Istaravshan, Ilyos-Xirot) boshqarish xuququini qyolga kiritgan bo’lsalarda, Toxiriylar davlatiga qaram edilar.

IX asr o’rtalarida quyi tabaqadan bo’lgan Safforiylar mavqei kuchaydi. Yaxqub ibn Lays va uning Amr, Toxir, Ali ismli ukalari bilan birgalikda 861 yil Sijistonni, 867 yil Xirot va Bushanjni, 869 yil Kirmon va Forsni qo’lga kiritdilar. Xurosonda eng yuqori mavqega erishgan safforiylarga xalifa Muxtamid (870-892) Yaqubni Balx va toxariston xokimi etib tayinlash to’g’risida yerlik jo’natdi. 873 bil Yaxqub toxiriylar xukumdori Muxammad ibn toxir qo’shinlarini mag’lubiyatga uchratib, toxiriylar davlatiga barxam berdi. Toxiriylar sulolasi vakillari quydagilardan iborat: toxir ibn Xusayn 821-822. Talxa ibn toxir 822-828. Abdullox ibn toxir 830-844. Toxir II ibn Abdullox 844-862. Muxammad ibn toxir 862-873.

Toxir ibn Xusayn Xuroson noibi bo'lgan vaqtda Nishopur davlat markazi edi. Shu vaqtda Xuroson noibligiga quyidagi viloyatlar kirgan: Movarounnaxr, Xorazm, Seyiston, Kuxiston, Kirmon, Kumis, tabariston, Jurjon. Xar bir viloyat o'z navbatida bir qancha ma'muriy birliklarga bo'lingan. Jumladan, movarounnaxrda 300000 qishloq mavjud bo'lib, ular 30 dan ortiq ma'muriy birlikka bo'lingan. Xar bir ma'muriy birlikda qozi, pochta ishlari boshlig'i, xiroj yig'uvchi va boshqa amaldorlar bo'lib, ular viloyatlar noiblariga bo'ysungan. Nishopurda davlatning asosiy xarbiy tayanchi bo'lgan xarbiy kuchlarning shadiyak deb nomlangan davlatning eng asosiy siyosatlaridan biri islomlashtirish siyosati bo'lgan.

Toxiriylar davlatida jamiyat bir qancha ijtimoiy toifa va qatlamlarga ajralgan edi. Ular mulk, martabasi va mansablariga ko'rabir-birlaridan farqlanganlar. Raiyat orasida kashovarz, kishtukorkunanda. Chorakor, barzikor singari ijtimoiy qatlamlar bo'lgan. Yirik va mayda yer egalari dexqon deb yuritilgan. Ijaraga berilgan yerlar muzoraxa deb atalgan. Davlat tomonidan makka safariga-xajga borayotganlarga aloxida g'amxo'rlik qilganlar. Bunday kishilar raboh yoki ibni sabil deb atalgan. Ilgari yirik zadogonlar xisoblangan va bu vaqtda kelib kambag'allashib qolgan kishilar «axli buyutot» deb yuritilgan. Xalifaning buyruq va farmonlarini bajaruvchilar, unga tobe xukmdorlar soxibi xaros deb atalgan.

Toxiriylar davlati boshqaruvida xuquqiy munosabatlar asosan islom dini qonun-qoidalari va ko'rsatmalariga tayangan xolda olib borilgan. Davlatni xuquqiy jixatdan mustaxkamlashga ko'p xarakat qilgan xukmdor Abdullox edi. U barcha soxa va jarayonlarni o'zining maxsus odamlari orqali nazorat qilar va xar qanday qonun buzilishlari uchun javobgar amaldor va mansabdorlarni shafqatsiz jazolardi. Uning buyrug'iga ko'ra qonunshunoslar suvdan foydalanish, sun'iy sug'orishdagi turli baxslarni hal etish, sug'orish tizimi xaqida «kitob al kuniy» qonunlar to'plami ham yaratilgan va bu narsa toxiriylarda xuquqiy munosabatlar va qonunlarning amal qilinishiga katta e'tibor brilganligini ko'rsatadi. Somoniylar davlatining asoschisi Somon qishlog'i oqsoqoli (Balx yoki Termiz yaqinida) Somonxudot avlodlari asos solgan. Xalifa Ma'mun ularning xizmatlari evaziga movarounnaxrning viloyatlari xokimligini topshirgan edi. 839-840 yy Nux ibn Asad Isfijobni bosib oldi. So'g'dning bir qismi va Farg'ona xokimligini qo'lga kiritdi. Somoniylar davlatining yuzaga kelishida Axmad ham katta xizmat qildi, uning Nasr, Yaxqub, Asad, Ismoil, Isxoq va Xomid kabi o'g'illari bor edi. 842 yil Nux ibn Asad vafot etgach, Samarqand uning ukalari Axmad va Yaxyo xukmi ostiga o'tdi, keyinchalik xokimlikni Nasr (865-892) davom ettirdi. 856 yil Yaxyo ibn Asad vafotidan so'ng, Choch va Istaravshan xokimligi Axmadning ikkinchi o'g'li Yaxqub qo'lga o'tdi. Keyinchalik bunday tashabbus Ismoil ibn Axmad qo'lga o'tdi va 874 y Buxoro xokimi bo'ldi. Movarounnaxrni birlashtirish tarafdori bo'lgan Nasr ibn Axmad bir qancha hududlarni o'z xokimligiga qo'shib oldi va natijada 875 yil xalifa Muxtamiddan Movarounnaxrni boshqarish uchun yerlik olishga erishdi. Ismoil esa akasiga buyunishni istamadi va 888 y u bilan to'qnashdi va faqatgina Nasr vafotidan so'ng (892) Movarounnaxrning yagona xukmdori bo'lib qoldi. Uning kuchayishidan xavfsiragan xalifa 898 yil Movarounnaxr xokimligidan Ismoilni tushirib, o'rniga safforiylardan Amr ibn Lays tayinlangani xaqida yerlik yubordi va bu ikki o'rtada urush kelib chiqishiga olib keldi. 899 va 900 yy to'qnashuvlarda Ismoil g'alabaga erishib, Xurosonni ham o'ziga qo'shib oldi va shu tariqa yirik davlatga aylangan Somoniylar davlati X asr oxirigacha xukm surdi.

Somoniylar xalifalikdagiga o'xshash boshqaruv tizisini o'rnatdilar. Davlat boshlig'i amir bo'lgan. Amirlikning ma'muriy tizimi quydagicha bo'lgan: - dargox (amir saroyi va devon) (davlat idorasi).

Saroydagi eng yuqori mansab xojib ul buzurg va soxibi xaros edi. Davlat boshqaruvi Buxoro Registo atrofida joylashgan o'nta devon ixtiyorida bo'lgan. Bular quydagilar edi:

- Devoni vazir yoki xojayi kalon.
- Devoni mustavfiy (moliyaviy ishlar)
- Devoni amid. (devoni rasoyil, devoni insho) (Elchilik ishlari)
- Devoni soxibshurot (Sipoxiylar va shoh saroyini moddiy ta'minoti)
- Devoni soxibbarid (Davlat elchilari va xokimlar ustidan maxfiy naz)

- Devoni muxtasib (Tosh-tarozu, shariat ishlari nazoratchisi)
- Devoni mushrif (Xazina kirim-chiqimi va boshqa davlat ishlari)
- Devoni kozi
- Devoni ziyo
- Devoni mamlakai xos (davlat mulklari boshqaruvchisi)

Barcha devonlarning viloyat. Shaxar va tumanlarda bo'limlari bo'lib, xokimlarga bo'ysungan faqatgina Devoni barid markaziy davlatga bo'ysungan. Shaxarlar maxsus tomonidan boshqarilgan. Amaldorlar o'rtasida ruxoniylar, ayniqsa, shayxulislom mavqei bilan bo'lgan. Davlat qo'shinlari muntazam va yollanma qo'shinlardan iborat bo'lib, yollanma qo'shinlar maxalliy xokimlar ixtiyorida bo'lgan.

Somoniylar davlati sud ishlari va xuquqiy munosabatlarni amalga oshirish shariatga asoslangan edi. Sud ishlari qozilik devoni tomonidan boshqarilgan va uni qozikalon, mufti, raislar amalga oshirganlar. Og'ir jazoga loyiq jinoyatchilarni amir va qozikalon sud qilganlar, o'lim jazosi aksariyat xollarda Registon maydonida amalga oshirilgan. Somoniylar davrida yirik yer egalari-dexqonlarning mavqei ortdi va ular xatto viloyatlar xokimlari darajasigacha ham ko'tarila boshladi. Ziroatchi kadevarlar, ijarachi barzikorlar, qullar qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lsa, xunarmandlar va savdogarlar ham ijtimoiy xayotda faol ishtirok etardi.

Somoniylarda yer egaligi quydagicha shaklda edi: Mulki sultoniy, xususiy mulk, vaqf mulklari, jamoa mulki. Somoniylar davrida yerlar qaytadan taqsimlandi va oqibatda yangi yer egaligi shakli paydo bo'ldi. Yer egalari bu yangi gurux asosan sipoxiylardan chiqqanlar edi. Voxadagi yerlarning asosiy qismi Zarafshondan bosh olgan kanallar orqali sug'orilgan. (Shohrud, Karmina, Shopurkom, Xarkanrud, Gav, Xitraf, Samjon) Qorakuldaryo), Paykand, Daymun, Arvon, Navkand, Romiton, Varaxsha, Xama, Xaramkom va boshqalar).

Birin-ketin O'rta Osiyoda tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlardai so'ng, Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy, 900 yilda Xurosonni ham safforiylardai tortib olib ulkan davlat barpo etdi. Xalifa somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmrolig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Shu tariqa IX asr oxirlariga kslib Movarounpahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo'ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan yirik feodal davlat - Somoniylar davlagi tashkil topadi.

Somoniylar mamlakatii boshqarishda davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat o'nga devon (devoni vazir, devoni, mustafi, dsvoni amir al-mul, devoni sohib ash-shurat, devoni sohibi muayid yoki borid, devoni mushrif, devoni mumallikayi xos, devoni muhtasib, devoni avqof, devoni qazo az-ziya) boshqaruvida idora etilgan. Somoniylar hokimiyati yirik zamindorlarning manfaatini himoya qiluvchi mustaqil feodal davlat edi («mulki sultoniy», «mulk yerlari», «vaqf yerlari») X asr oxiriga kelib mamlakatda avj olib keggan o'zaro urushlar uning iqqisodiy va siyosiy qudratiga katga putur yetkazdi va somoniylarning qoraxoniylar davlatadan mag'lubiyatga uchrashiga olib keldi. XI asr boshlarida somoniylar davlati hududlari va ikki davlat qoraxoniylar va g'azlaviylar davlatlari naydo bo'ldi.

Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qildilar. XI-XII asrlarda O'rga Osiyoda mulkchilikning yanga turi-iqta' tartiboti o'rnatilali («mulki sultoniy», «iqta», «vaqf srlari» mulk srlari»). XII asrning 30-yillari oxirida movarounnahr Sharqdai kelgan ko'chmanchi Qoraxitoylar hujumiga duchor bo'ldi.

IX-XII asrlarda mamlakat ma'naviy xayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqolar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va utning imlosi joriy etildi.

Movarounnahrda ko'p o'tmay hatto ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq bilgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Mahalliy bilimdonlar o'z vatanida quvg'in ostiga olinib, kurgina tolibi ilmlar xalifalikning markaziy shaharlari Damashq, Kohira, Bog'dod, Kufa va Basraga borib

bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Davlatni boshharishda abbosiylar ma'muriyati ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi, chunki arablar orasida shu davrda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, borlari ham zaif edi.

Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag'dod shahri edi. Bag'dodda «Bayt ul hikma» (donishmaidlar uyi) tashkil etilgan edi. «Baytul xikma»da Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibi Abdulloh Marvaziylar ta'lim olganlar. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Uning ildizlari O'rta Osiyo, ayniq, Xorazm, shuningdek Bobil, Eron, Hindostonning antik dunyosiga va kadimgi madaniyatiga borib taqalar edi. IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abusalx Masihiy, Abulhayr Xammar, Abunosir Arron va boshqalar edi.

1998 yil Ahmad Farg'oniyning 1220 yilligi nishonlandi. Ahmad Farg'oniy astronom, matematik, geograf edi. Bag'dod yaqinda Raqoq nomli mavzda rasadxona qurilishiga boshchilik qilib, astronomiya maktabini tashkil etadi. Uning «Astronomiya asosi», «Samoviy harakatlar», «Yulduzlar haqidagi fan» nomli asarlari mashhurdir.

Muhammad ibn Muso Xorazmiy mashhur matematik, astronom, geograf, tarixchi edi. Vatandoshimiz algebra faniga asos soldi. Uning «Al-jabr», «Zij», «Quyosh soati haqida risola», «Sur'at ul-arz», «Usturlob holati haqida risola» kabi asarlari Sharq va G'arb mamlakatlarida ilmiy fikrlarning rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Abu Nasr Farobiy Sharq falsafasining ulug' mugafakkiri bo'lib, kadimga dunyo falsafiy merosini saqlashda va rivojlashirishda katta hissa qushdi. U 160 dan ortiq asar yozgan, ulardan «Aristotilning «Metofizika» asari maqsadlari haqida», «Musiqi kitobi», «Baxt-saodatga», «Siyosat al-madoniya» shular jumlasidandir.

Abu Ali ibn Sino ikki sohaga- meditsina va falsafaga qiziqdi va bu sohalarida katga yutuqlarni qo'lga kiritdi. («Al-qonun fit-tab», «Kitob ush-shifo», «Donishnoma», «Risolat at-tayr»). XVII asrga qadar Yevropada tibbiyot tajribasi va fani Ibn Sino g'oyalari ta'siri ostida bo'lgan.

Xorazm madaniyati xorazmlik ulug' olim Abu Rayhon Beruniyning nomi bugan bog'langan. Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan bo'lib, «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Meteorologiya» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. Beruniy ilm-fanning hamma sohalarini yaxish bilgan qomusiya olim edi. U astronomiya, geologiya, gidrostatika, geografiya, tarix fanlarga katga hissa qushdi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fandar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir Abu Abdullo Rudakiyning drozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»si, Gardiziyning «Zayn-ul-bahor» («Go'zal xabarlar») asari, Majididin Almoning «Tarixi mulki Turkiston» («Turkiston tarixi»), nizo-mulmulkning «Siyosatnoma»si, Yusuf Xos Xojibniig «Qutadg'u bilik» asarlari shu davrga oid bo'lib, undan tashkari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Amak Buxoriya, So'zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar.

Bu davr O'rta Osiyoda me'morchilik san'ati ham kurkirab rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Mag'oki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarquton minorasi, Ko'hna Urganchda Faxriddin Roziy) maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi, Talxojanbobo masjidi va boshqa yodgorlikgar me'morchilik sana'tining yorqin namunalari hisoblanadi.

IX-XII asrda dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddik Marg'iloniy, Abu Xafs kabir Buxoriy kabi ulamolar islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shlilar. Islom dini ta'limotaning ravnak va targibotini kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rin egalladi. Tasavvuf ta'limoti rivojlanib O'rga Osiyoda uning turli xil yo'naliishari (XII asrda Turkisgoida Yassaviy, XIV asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiy) paydo bo'ldi va tarqaldi.

Tayanch tushunchalar:

Movarounnahr, Somonxudot, devon, yer egaligi, islom dini, iqto yer egaligi, madaniy hayot, turk g'ulomlari, vazir devoni, mushrif, avqof.

Nazorat uchun savollar:

1. Movarounnahrda Somoniylar davlatining tashkil topishi uchun qanday shart-sharoitlar paydo bo'ldi.
2. Somoniylar davlatining tashkil topishi va davlat boshqaruvidagi islohotlar.
3. Somoniylar davrida yer egaligi va iqtisodiy hayot.
4. Somoniylar davrida islom dini va madaniy hayot.
5. Somoniylar davlatining parchalanib ketishi sabablarini aniqlang.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent. O'qituvchi. 1993.
2. Negmatov N. Somoniylar davlati. Dushanbe 1977.
3. Narshahiy. M. Buxoro tarixi. Toshkent. 1966.
4. Muhammadjonov. A. O'zbekiston tarixi, Toshkent, 1994.
5. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, 2000.
6. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi, Toshkent, 2010.

19-MAVZU: Qoraxoniylar davlati

R E J A:

1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.
2. Qoraxoniylar davlatida davlat boshqaruvi va xo'jalik hayoti.
3. Qoraxoniylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy hayot va islom dini.

Qoraxoniylar davlatiga X asr o'rtalarida Sotuk Bugroxon (915-955) tomonidan asos solindi. Qoraxoniylar davlati Yettisuv hududlarida Qorluk davlati (756-940) o'rinda tashkil topdi va 942 yil Sotuk Bugroxon Bolasogunni bosib olgach, yozini xoqon deb e'lon qildi. Qoraxoniylar davlatiga yag'mo va chigil qabilalar ham birlashdilar. Sotuk vaqtidayoq davlat ikki qismga bo'linib ketgan bo'lib, birining poytaxti Bolasogun, ikkinchisining markazi dastlab Tarozi, keyinchalik Koshgar bo'lgan va ularni xoqonlar yoshlariga asosan boshqarganlar. Qoraxoniylar davlati kuchayib bordi va ayni vaqtda inqirozga uchrash boshlagan somoniylarga qarshi xarbiy yurishlar uyushitirib, 996 yilda uni mag'lubiyatga uchratdi. 1001 yilda Sulton Maxmud G'aznaviy qoraxoniylar xoni Nasr bilan shartnoma tuzib, Amudaryoni Qoraxoniylar va G'aznaviy o'rtasidagi chegara etib belgiladi. Shu tariqa Qoraxoniylar davlati hududlari Qoshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona kabi viloyatlar bilan chegaralandi.

XI asr o'rtalarida tamgaxon unvonini olgan qoraxoniy Ibroxim ibn Nasr g'arbiy Qoraxoniylar davlati poytaxtini O'zgandan Samarqandga ko'chirdi. 1068 yildan boshlab Ibrohim ibn Nasr o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurashlar boshlanib ketdi va unda Shamsulmulk Abulxasan Nasr ibn Ibrohim (1068-1080) g'alabaga erishdi.

1080 yilda Shamsulmulk vafot etgach, xokimiyat uchun kurash avj oldi va bundan foydalangan saljuqiy Malikshoh 1089 yilda Movarounnaxrga bostirib kirdi. Buxoro va Samarqand bosib olingach, xon Axmad asir olindi. Malikshoh Axmad bilan sulx tuzib, uni taxtida qoldirdi, biroq Axmadning saljuqiylarga itoatkorligi uchun 1095 yilda o'ldirishdi.

1102 yilda Qoraxoniylar taxtiga Arslonxon o'tirdi (1102-1130) va saljuqiylardan yarim mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Arslonxon nisbatan norozilik oshgach, u xokimiyatni o'g'li Nasrga topshirdi, biroq Nasr fitnachilar tomonidan o'ldirildi. Arslonxon Marvdan Sulton Sanjarni yordamga chaqirdi va bu imkoniyatdan foydalangan Sanjar 1130 yilda Samarqandni bosib oldi.

XII asr boshlarida Bolasogunni egallagan qoraxitoylar Movarounnaxr ichki hududlariga

xujum qilib kelib, 1138 yilda Xo‘jandni, 1141 yilda Katvon cho‘lida Sulton Sanjar va Samarqand xukmdori Maxmudning qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratib, Samarqand va Buxoroni egalladilar. So‘nggi qoraxoniylar qoraxitoylardan ozod bo‘lgan bo‘lsada, 1212 yilda ularning oxirgi xukmdori Usmon Muxammad Xorazmshoh tomonidan o‘ldirildi va davlat Xorazmga qo‘shib olindi.

Qoraxoniylar Movarounnaxrni egallagach, bu yerda markazlashgan boshqaruv xokimiyati o‘rni alohida mulk boshqaruvi tizimi egalladi. Xar bir viloyat mahlum siyosiy mavqega ega xolda elixonlar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi, davlatning oliy xukmdori xoqon, xonlar xoni yoki tamgachxon deb yuritilgan.

Ettisuvdan turib Movarounnaxrni boshqarishning murakkabligi bu yerdagi Samarqand elixoni mavqeini kuchaytirib yuborgan. Qoraxoniylar saroyida Somoniylarda bo‘lganidek bir qancha amaldorlar bo‘lsada, imom, sayid, shayx, sadrlarning mavqei kuchli bo‘lgan.

Qoraxoniylar davlat boshlig‘i lavozimi merosiy xisoblanib, ma‘muriy idoralar ikkiga-dargox va devonga bo‘lingan. Ulug‘ xojib lavozimidagi amaldor xoqon va fuqaro o‘rtasidagi qushi (xarbiy lageri) xonto‘y deb atalgach, bu yerda xar doim to‘qqizta bayroq xilpirab turgan. Elchilar yalavoch yoki yalafar deb atalgan, davlat el va viloyat hududlariga bo‘lingan.

Qoraxoniylarning davlat tepasiga kelishi Movarounnaxr jamiyati xayotida ham o‘zgarishlar yasaldi. Alohida mulklar boshqaruvi, ma‘muriy idoralar somoniylar davridagi tartiblarga muvofiq kelar, ijtimoiy mansab va boshqalarda farq katta emasdi. Bu davrda dexqonlar o‘zlarining ijtimoiy tuzumdagi xukumronlik mavqeini yo‘qotdi. Qoraxoniylar davriga kelib, jamiyatning ijtimoiy bo‘g‘inlari quydagicha shakilga ega bo‘ldi:

- eloqxon-xoqondan keyingi pog‘onada turuvchi amaldor. U xoqon xonadoniga mansub bo‘lib, viloyatning mulk soxibi xisoblangan:
- iqtidorlar-qoraxoniylar davlatining tayanch qatlami, martabalariga ko‘ra bir-birlaridan farq qilganlar
- islom dinining peshvolari-imomlari, sayyidalar, shayxlar, sadrlar.
- Xokimlar, raislar, muxtasiblar va xokazo.
- Tariqchilar-ziroatchilarning turkcha nomi.
- Xunarmandlar
- Savdogarlar
- Ko‘chmanchilar-chorvadorlar.

Qoraxoniylar davrida oddiy xalq butun deb atalgan. Soliq to‘lovchi fuqaro raiyat, qabila boshliqlar bek, savdogarlar sart deb atalgan. Xoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy yer-mulklar xisoblangan. Qoraxoniylarda xuquqiy munosabatlar islom dini an‘analariga asoslangan xolda yuritilgan va islom dini peshvolarining mavqei davlatda birmuncha yuqori bo‘lgan. Shuningdek, qoraxoniylar ko‘chmanchi turkiyqabilalarga xos tartib-qoidalarga ham rioya etganlar manbalarda keltirilgan (Nizomulmulk, Ibn al Asir va boshq).

Shunga qaramay, qoraxoniylar raxbarlari islom dini va shariatga amal qilish bilan o‘z davlatlarining xuquqiy asoslarini saqlay olganlar, va unga qattiq rioya etganlar.

Xorazm davlati o‘z mustaqilligiga g‘aznaviylar va saljuqiylar xukmronligiga qarshi kurash jarayonida erishdi. Xorazmshohlar markaziy davlat boshqaruvi «al-majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan bo‘lib, unga vazir boshchilik qilgan.

Vazir bevosita shohga bo‘ysingan va uning vazifalari Quyidagilardan iborat bo‘lgan:

-asxob ad-davovin, ya‘ni, devon

amaldorlarining boshlig‘i bo‘lib, yuqori mansab soxiblarini ishga tayinlash va bo‘shatish bilan shug‘ullangan.

-davlat amaldorlariga nafaqa (arzaq) belgilash.

-davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy maxsulotlar bilan ta‘minlashni belgilash.

- solliq va xazinani nazorat qilish.
- xukmdorni xalqaro aloqalar, rasmiy marosimlarda rasmiy tanishtirish, raiyat bilan munosabatlarda vositachilik qilish.
- xukmdorni xalqaro aloqalar, rasmiy marosimlarda rasmiy tanishtirish, raiyat bilan munosabatlarda vositachilik qilish:
- xukmdorga muntazam xamroxlik qilish, qo‘shinga boshchilik qilish.

Vazirliklarda sadr, dastur, xojayi buzurg kabi unvonlar bo‘lgan. Xorazm vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, Nishopur, Isfaxon, Balx, Xirotdan chiqqan shaxslardan tayinlangan. Xorazmshohlar saroyida shuningdek, quydagi qator lavozimlar ham mavjud edi:

- Xojib ul-kabir yoki xojib ul-xos hukmdor shaxsi bilan bog‘liq masalalar va ularga doimiy xamroxlik, eng zarur vazifalarni bajarish bilan shug‘ullanganlar.
- Ustozdor-barcha xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanuvchi amaldor.
- Amir oxur-otxona boshlig‘i lavozimi.
- Amir shikor-sultonning ov ishlari boshlig‘i.
- Tashtdor, Sharobdor, kissador, choshnigir, davotdor, farrosh, amir al-alam va boshqa unvonlar xorazmshohlar saroyi boshqaruv tizimini tashkil etgan.

Manbalarda keltirilishicha (muxammad Bag‘dodiy), Xorazmda axolining turli qatlamlari va ular o‘rtasidagi tafovutlar o‘ziga xos shakillangan: Sayyidlar–payg‘ambar avlodi sanalib, katta xurmatga sazovor bo‘lgan. Imomlar va olimlar–ijtimoiy hayotda ancha ustunlikka ega bo‘lgan va davlat ishlariga o‘zlarining maslahatlari va yo‘l–yo‘riqlari bilan ta’sir etgan.

- Qozilar va hokimlar–xuquq va tartibot ishlarini nazorat qilgan va amalga oshirganlar.
- Tasavvuf vakillari–faqirona hayot kechirganlar, xalq tomonidan nihoyatda e‘zozlangan, hukmdorlar ham ularni hurmat qilganlar va ulardan ko‘pincha duo tilaganlar.
- Oqsoqollar - qishloq, qasaba, urug‘ qabilalari boshliqlari.
- Amaldorlar va sipohiyalar.
- G‘oziyalar – islom dini uchun kurashuvchilar.

Mehnatkashlar qatlami va martabalar o‘rtasidagi farqlar somoniylardagi singari edi. Bu davrda ham iqto‘ yerlari berish davom etgan.

Tayanch tushunchalar:

Qoraxoniylar, hojib, yag‘mo, jikil, qarluq, davlat boshqaruvi, islom dini, ijtimoiy hayot,

Nazorat uchun savollar:

1. Somoniylar davlati o‘rnida qanday davlatlar tashkil topdi.
2. Qoraxoniylar davlatining asosini tashkil qilgan qabilalarni aniqlang.
3. Qoraxoniylarning davlat boshqaruvi haqida ma’lumot bering.
4. Qoraxoniylar davrida yer egaligi qanday bo‘lgan.
5. Qoraxoniylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy hayot va islom dini.

20-MAVZU: G‘aznaviylar va Saljuqiylar davlatlari

R E J A:

- 1. G‘aznaviylar davlatining tashkil topishi.Xorazmning bosib olinishi.**
- 2.Saljuqiylar saltanatining tashkil etilishi.Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.**
- 3. Saljuqiylar davlatining barham topishi.**

G‘aznaviylar davlati. G‘aznaviylaranning siyosiy va kuch sifatida yuzaga kelishi va yuksalishi masalasida ham biz sovet tarixshunosligidagi mavjud ba’zi bir qarashlarni qabul qila olmaymiz. Chunki ilgari g‘aznaviylarni (demak, ularning zamonini ham), asosan, salbiy tomondan ko‘rsatishga intilib kelingan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunonchi, bu sulola asos

topgan Gʻazna viloyati “isyonkor turk lashkarboshilari”ga boylik orttirish uchun qulay joy sifatida sharhlanib, oʻz-oʻzidan shu yerda kuchga kirgan va mazkur shahar (viloyat) nomila tanilgan gʻaznaviylar sulolasi tarixi ham goʻyo huddi shunday maqsad yoʻlida yuzaga kelgan va faoliyat koʻrsatganday bayon etilgan. Aslida esa tarixiy voqelik sabablari bir nechta.

Birinchi, Ismoil Somoniydan keyin somoniylar orasidan har jihatdan yetuk, yuqori darajada siyosat yurgʻiza oladigan arbob yetishib chiqqani yoʻq. Buning oqibatida somoniylar oʻz ichki, yaʼni sulolaviy imkoniyatlaridan koʻra koʻproq mavjud siyosiy muhit qonun-koidalariga bogʻliq boʻlib qolganlar. Siyosiy muhitni esa bu vaqtda nufuzli lashkarboshilarsiz Tasavvur qilib boʻlmasdi. Gʻazna viloyatidagi, kuchlar siyosiy faolligining oshishi va borrib-borib alohida bir sulola darajasiga koʻtarilishi ham huddi shunday yirik lashkarboshila nomi bilan bogʻliq boʻlganini biz quyida yaqqol koʻramiz.

Ikkinchi, Turkiston mintaqasida siyosiy taraqqiyotning oʻziga xos tomonlaridan biri-bu davrda xuddi madaniy hayotdagi kabi bir qator oʻziga yarasha kuchli davlat arboblarning, siyosiy sulolalarning yuzaga chiqishidir. Gap bu yerda shunday holning yaxshi-yomonligida emas, oqibatlaridan qati nazar, shunday vaziyat sodir boʻlgan va bu bilib qoʻyilsa har jihatdan foydalidir.

Gʻaznaviylar sulolasi qandaydir “oʻljaparastlik” ketidan emas, balki mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar muhitida yuzaga kelganligiga doir guvohliklar manbalarda yetaruli darajada topiladi. Yuqorida biz somoniylar saroyida yirik lashkarboshilar tutgav mavqe haqida aytib oʻgʻgan. 961 yili somoniy hukmdor Abdumalik oʻlimidan soʻng vazirlar taxtga marhumning oʻgʻlini oʻtkazadilar. Bunga, manba tili bilan aytganda “Somoniy xonadoni uchun maqtovgʻa loyiq xizmatlar qilib kelgan hamda noiblik va lashkarboshchilik yoʻlini tuggan” Alptegin qarshilik qiladi. Shu tariqa davlat arkonlari va Alptegin oʻrtasidagi muxoliflik kuchayib avjiga chiqadi. Lashkarboshi Buxoroni tark etadi. Xatto shundan keyin ham ziddiyatlar tugamay, oxirida Alptegin va Buxoro qoʻshinlari oʻrtasida toʻqnashuv sodir boʻlib, buxorolik lashkar magʻlubiyatta uchraydi. Somoniylar xonadoni va Movarounnahr bilan aloqani uzgan Alptegin Gʻazna viloyatini oʻz hukmronligini oʻrnatadi. Uning vaftidan (963) soʻng Gʻaznada navbati bilan Amir Ishoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piri, Amir Sabukteginlar hukmronlik qiladilar. Gʻaznaviylar sulolasiga asos solgan ham aslida ana shu Sabuktegin boʻladi. Shu bilan birga Gʻaznaning mintaqa siyosiy markazlaridan biriga aylanishda birinchi salmoqli qadamni Alptegin qoʻganini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Zikr qilinganidek Alptegin somoniylar bilan aloqani uzgan boʻlishiga qaramay somoniylar Gʻaznada mujassamlashgan va quloch yoyib borayotgan siyosiy-harbiy kuchga doimo ehtiyoj sezib kelganlar. Buning yaqqol isbotini Sabuktegin va somoniy Nux III (976—997) oʻrtasida Kesh atrofida boʻlib oʻtgan uchrashuv (bunda Sobuktegin Nuxni qoʻllab-quvvatlashi haqida vada bergan) yo boʻlmasa 994 yili somoniylarning eng ashaddiy dushmanlaridan Abu Ali Simjuriyning tor-mor etilishida Sabuktegin tuggan asosiy oʻrin orqali koʻrish mumkin. Sabukteginning obroʻ-eʼtibori soʻngi yillarda shu darajada yuqori boʻlganki u “dinu davlat himoyachisi (Nosir ad-din va ad davla)” faxriy unvotni bilan mashhur edi.

Gʻaznaviylarning ham rasman, ham amalan siyosiy kuch sifatida tan olinishi 996 yiliga toʻgʻri keladi. Yuqorida qoʻrib chiqilganidek, qoraxoniylar bir necha marta Buxoroga tahdid soladilar. Tilga olingan yili esa Sabuktegin somoniylarni qoraxoniylar “changali” dan saqlab qoladi. Somoniy Nux III raqib oldidagi zaifligini sezgan hodda unga murojaat qiladi. Sabuktegin esa Buxoroni qoʻlga olib, qoraxoniylar bilan kelishuvga imzo chekadi. Bunga koʻra Amudaryodan janubda joylashgan barcha viloyatlar Sabukteginning nomiga muxirlanadi. Uning vafotidan (997) keyin avqaliga taxtga bir oz muddat uni ygʻli Ismoil va 998 yildan esa boshqa farzandi Mahmud chiqadi. Gʻaznaviylar qudrati va shuhratini oshirgan hukmdor ham aslida ana shu Mauhmud hisoblanadi. Chunonchi, uning hukmronligi davrida (998—1030) Xorazm, Xuroson, Seyiston, Qobul, Gʻazna, Shimoliy Hindiston qabi viloyatlar va makonlar gʻaznaviylar izmida boʻlgan. Mahmudning oʻlimidan soʻng taxtga uni oʻgʻli Muhammad oʻtiradi, vaholanki, undan katta oʻgʻli (Masʻud) ham bor edi. Oʻsha zamonda yozilgan manbalar sharhiga koʻra, Mahud taxtni kichik oʻgʻli Muhammadga vasiyat qilish bilan birga, unga “Akang Masud bilan

qarama-qarshilikka borma, agar u senga qarshi chiqsa, urushib yurma, (bekor) nobud bo'lasan" degan. Haqiqatdan ham tez orada Mas'ud va Muhammad o'rtasida muxolifat yuzaga keladi. Masudning Muhammaddan ustun bo'lganligi zamondash tarixchilar ham tan oladilar. Xulldas, shu yilning o'zidayoq Masud taxtni egallaydi.

Ilgarilari ham ko'p marta ko'ganimizdek odatda, buron-bir sulala tarixida muayyan bekamu ko'st, doimi "oshig'i olchi" siyosatchi tarix sahnasiga bir marta chiqadi. G'aznaviylar ham bundan mustasno emasdilar. Shushning uchun ham Mas'ud davri (1030—1041) asosan Mahmud sa'y-harqatlari bilan qo'lga kiritilgan natijalarini saqlab qolish yo'lidagi urinishlari yillari bo'ldi, desak to'g'ri bo'ladi. Birinchidan 1034 yili Xorazm g'aznaviylar ta'sir doirasidan chiqadi Ikkichidan esa Xurosonda boshqa bir siyosiy sulola saljuqiylarning kuchayib borishi ham xuddi mana shu Mas'ud davriga to'g'ri kelgan. 1035 yilgi kelishuvga binoan Mas'ud saljuqiylarga (Yabg'u, To'g'ril, Dovud boshqa qabilalarga) Niso, Farova Dehiston valoyatlarin maskan va yaylov sifatida berishga majbur bo'ladi. Vaqt o'tishi bo'lib kuch-qudrat orttirgan saljuqiylar 1038 yili Nishopurni egallaydilar. Shu yilgi Saraxs atrofidagi Mas'ud bilan jangda mag'lub bo'lishlariga, qaramay, ko'p o'tmay – 1040 - yili Marv va Saraxs oralig'idagi Dandonaqonda saljuqiylar g'aznaviylarga chunonan zarba beradilarki, shundan so'ng Subuktegin avlodlari o'zlarini o'nglay ololmaydilar. Xuroson qo'ldan ketadi. Garchi Mas'ud o'g'li Mavdud (1041—1049) o'z xonadonining ilgarigi mvqeini tiklashga urngan bo'lsada, buning uaddsidan chiqa olmagan. Chunki fursat qo'ldan ketgandi. G'aznaviylar bundan buyon faqat G'azna viloyati va Shimoliy Hindistondagina hukm yurgizishga qodir bir xududiy sulolaga aylanib qolganlar. Biroq nima bo'lganada ham 1187 yilga qadar ular o'z faoliyatlarini to'xtatmaganalari yo'q. Mavduddan so'ng sulolaga navbati bilan Ali, Abdurashid, Ibrohim, Mas'ud II, Arslonshoh, Bahromshoh, Xisravshoh, Xisrav Maliklar yetakchilik qilganlar.

G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi bilan diqqatini jalb etadi. U ko'p jihatdan somoniylar, qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o'xshash. Bu tabiiy hol. Chunki ilgari ham ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday boshqaruv tizimi (shakli) mavjud ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitga bog'liq bo'ladi. Boshqa tomondan esa g'aznaviylar hukmronligi ostida bo'lgan Xuroson, Seyiston, Kobul, G'azna kabi viloyatlar mintaqaning ajralmas tarkibiy qismlari bo'lib kelganliklari nazarda tutsak, boshqaruvchilik taraqqiyotidagi o'xshashliklar, yangiliklar sababi ma'lum bo'ladi.

Demak, boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham ko'rilganidek, dargohga oliy hukmdor (g'aznaviy hukmdorlar "Amir" unvoniga ega bulganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida "hojiblik" xizmati alohida etiborga loyiq. G'aznaviylar davri bo'yicha manbalarda biz hojiblikning quyidagi shakllariga duch keddik: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador. Ulug' hojib nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman mamlakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo'lgan. Bunga ishora beruvchi bir necha misollar keltiramiz. Mahmudning o'limidan keyin Muhammadning taxtga o'tirishiga bosh-qosh bo'lgan va qisqa muddatga bo'lsada boshqaruv ishlarini o'z ixtiyorida mujassamlashtirgan ham ulug' hojib Ali Qarib bo'ladi. Rasmiy marosimlarda ulug' hojib oliy hukmdorga eng yaqin joyni egallagan. Unga g'oyat muhim vazifalar yuklatilgan. Katga ahamiyat uasb etuvchi janglarda ulug' hojibga qo'shinning eng salmog'li va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipohsolar o'ng qanotga, ulug' hojib esa chap qanotga qumondonlik qilgan. Ulug' hojib o'ta jiddiy harbiy yurishlar, maxsus saralangan qismlarni tekshirish, ta'minotini joyiga qo'yish tadbirlarida ham faol bo'lgani ma'lum. Oliy hukmdor va ulug' hojiblararo munosabatlar nechog'lik bo'lgan shundan ham ko'rish mumkinki, Mas'ud ulug' hojib Ali Qaribga yo'llagan bir maktubida unga "fozil (ulug') hojib, birodar" deb murojaat qiladi. Saroy hojibining vazifasi tushunarli — u saroy eshikog'asi bo'lgan.

Hojibga kelsak, fikrimizcha, hojiblik, umuman olganda, qandaydir bir ijtimoiy-siyosiy tabaqa sifatida ko'proq namoyon bo'ladi. Faraz qilish mumkinki, o'z davri uchun hojiblik

ritsarlik tushunchasiga yaqin bo'lsa ajab emas. Masalan, manbalarda shunday ma'lumotlarga ham duch kelamiski ular kengroq mulohaza qilinsa, mazkur faraz beasos emasligi ravshan bo'ladi. "Tarixi Mas'udiy" da o'qiyamiz: "Amir Abdurazzoq... viloyat amirligi xal'atini kiydi... Uning ikki g'ulomiga esa qora (chakmon) berdilar, hojiblik uchun". "Hojib Badr va hojib Erteginlarga ikkita qimmatbaho xal'at berdilar. Badrqa ulug' hojiblik (hal'ati), Erteginga esa g'ulomlar boshlig'i (xal'ati) berildi. Hojiblar bir vaqtning o'zida shihna yo sipohsalor mansabiga ega bo'lganlarini ham eslatib o'tish joizdir. (Hojiblar odatda qora chakmon va ikki uchli kuloh kiyib yurganlar.)

Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (oliy hukmdor shaxsiy xujjatlari, yozuv-chizuvi bilan bog'liq ishlarga bosh-qosh xizmatchi), pardador (mahram, sir saqlovchi, pinhona vazifalarni bajaruvchi), martabador (saroydagi o'rta darajadagi amaldor), farrosh (saroydagi kichik xizmatchilardan) xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqlanuvchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatlarning ham o'z o'rnini bo'lgan.

Devonlar (vazirliklar) ijroiya idoralari bo'lganligi o'z-o'zidan tushlunarli. Manbalarda bunday devonlardan beshtasining nomi tilga olinadi; vazir devoni, yani bosh vazir devoni; harbiy ishlar devoni, deplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, xujjatlarni rasmiylashtirish, tuzish devoni; hisob-kitob, ya'ni moliya devoni; pochta-xabar devoni. Mazkur devoklarning vazifalari haqida ilgari ham so'z yuritganimiz uchun bu borada yana to'xtalib o'tirmaymiz. Garchi manbalarda mushriflik (davlat nazorati), muxtasiblik devonlari tilga olinmasada, ammo shunday xizmatlar mavjudligidan ularning markaziy devonlari ham bo'lgan degan xulosa chiqadi (masalan, shahar mushrifi, viloyat mushrifi mansablari bo'lganligi aniq).

Viloyat boshlig'ini voliy deganlar va uni oliy hukmdor tayinlagan. Viloyat ijroya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini rais deb ataganlar. Shahar miqiyosida shihna, qutvol (qal'a komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar).

Bilamizki, g'aznaviylar, ayniqsa, Mahmud davrida qudratly qo'shinga ega bo'lganlar. Oliy hukmdorlik hukmdorning o'z ixtiyorida bo'lganligi tabiiy. Bosh qo'mondonlikka (silohsalor) esa sulolaning eng ishonchli, asosan, shu xonadon namoyandasi tayinlangan. Masalan, Mahmud bunday mansabga ukasi Muhammad Yusufni loyiq topgan. Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar salor, o'rta darajadagilari sarhang deyilib, oxirgilari xayllarga (bir necha o'n otliqlarga) boshchilik qilganlar. Harbiylar o'z pochta, qozilik xizmatlariga ega edilar. G'aznaviylarning ham saralangan jangovor qismlari (gvardiya) bor edi, ammo ular to'g'ridan-to'g'ri dagoh ixtiyorida bo'lgan.

G'aznaviylarning tashqi aloqalari masalasida ikki narsaga e'tibor bersh lozim: ularning mintaqa hududidagi munosabatlari va mintaqadan tashqaridagi aloqalari. G'aznavilarni mintaqaning Movarounnaqr, Farg'ona, Yettisuv, Sharqiy Turkiston ismlarida hukmron bo'lgan qoraxoniylar bilan munosabatlari haqida bir qadar to'xtalib o'tgandik. 1001 yilgi Mahmud G'aznaviy va Nasr Qoraxoniy o'rgasidagi kelishuvga binoan Amudaryo ikki tomon manfaatlarini ajratib turuvchi chegara hisoblangan.

Garchi bu ahnoma keyinchalik bir necha marta (asosan qoraxoniylar tomonidan) buzilib turgan bo'lsada, umuman olganda, daryo ikki tomon uchun chegara bo'lib qolavergan. Buning sababini quyidagicha tushuntirish mumkin. G'aznaviylar uchun xuddi o'zlari kabi kuchga to'lib turgan qoraxoniylar bilan munosabatlarini keskinlashtirishdan ko'ra Xorazm va Shimoliy Hindistonni bo'ysundirish ham real, ham moddiy jihatdan ancha nafli edi. Buni shundan ham bilib olsa bo'ladiki, Mahmudning o'zi Shimoliy Hikdistonga bir necha marta harbiy yurish uyushtirgan, Xorazmni bo'ysundirgan (1017 yili). Shu manoda Mahmud ko'proq uzoqni o'ylaydigan, mintaqadagi umumiy siyosiy vaziyatni yaxshi biladigan siyosatchi sifatida gavdalanadi. Ham hududi, ham siyosiy-harbiy, iqtisodiy jihatlardan o'ziga yarasha qudratga ega bo'lgan qoraxoniylar bilan birdaniga keskin siyosat yurgizish kaltabinlik bo'lardi. Shimoliy Hindistonda, keyinchalik Xorazida erishilgan siyosiy-harbiy yutuqlardan so'ng esa g'aznaviylar qoraxoniylar bilan nafaqat tengma-teng raqobatlasha oladigan, balki ulardan ustunroq mavqega

ham yetishadilar.

Saljuqiylar bilan munosabatda ham Mahmud uzoqni koʻzlab ish tutadi. Garchi bu vaqtda saljuqiylar yetuklik darajasidan yiroq boʻlsalarda, lekin umuman jiddiy harbiy kuch sifatida Xurosonga xavf tugʻdirishlari mumkin edi. Ayniqsp, Mahmudning Shimoliy Hindistonga uyushtirgan yurishlari chogʻida bunday xavf voqelikka aylanishi ehtimolga yaqin boʻlgan. Shuning uchun ham 1025 yili turk-oʻgʻuz urugʻlaridan bir qismiga (toʻrt miig chodir) Xurosondan manzil beradi. Keyinchalik Masʻud davrida ular kuchayib, gʻaznaviylarga qarshi zarba beradilar.

Shimoliy Hindiston bilan aloqalarga kelsak, sovet tarixshunosligida bu oʻlkaga nisbatan gʻaznaviylar tuggan siyosat bosqinchilik, oʻljaparastlik, talon-torojlik xatti-harakatlari orqali tushuntirib kelingan. Fikrimizcha, bunday yondashuv koʻp ham toʻgʻri emas. Chunki shimoliy Hindiston, birinchidan, oʻz davrida mintaqaning tarixiy tarkibiy qismi boʻlgan. Ikkinchidan, markazlari Gʻazna boʻlgan gʻaznaviylar uchun Shimoliy Hindiston qoʻshni oʻlka boʻlgani tabiiy. Xuroson yo Seystonga nisbatan ularning intilishlari va umuman siyosatlari qanchalik tabiiy boʻlsa, Shimoliy Hindiston nisbatan ham shunday edi. Uchinchidan, gʻaznaviylar taʻsir doirasida boʻlgan Shimoliy Hindistondagi mahalliy sulolalar, siyosiy kuchlarning mustaqillikka intilishlari, ularga qarshi kurashish, qarshilik koʻrsatishlari ham oddiy hol boʻlgan. Shularni nazarda tutgan holda gʻaznaviylarning Xorazm yo Shimoliy Hindistonga harbiy yurushlarni oʻsha davr siyosiy, iqqisodiy, xalqaro munosabatlari orqali baholash maqsadga muvofiq boʻladi. Albatga, biz har doimdagidek toʻkilgan qon va koʻrilgan talafotlarni oqlay olmaymiz.

Gʻaznaviylarning mintaqadan tashqaridagi aloqalari haqida soʻz ketsa, Arab xalifaligi bilan munosabatlar toʻgʻrisida toʻxtalishga toʻgʻri keladi. Gʻaznaviylar shu zamonga kelib ilgarigi qudratini yoʻqotgan xalifalik xurmatini oʻrniga qoʻyishga harakat qilganlar. Zero, bu ularning manfaatlariga mos kelar edi. Yaʼni, birinchidan, Arab xalifaligi shunchalar zaif ediki, mintaqadagi biron-bir siyosiy sulola (masalan, qoraxoniylar, xorazmshohlar va gʻaznaviylarning oʻzlari ham) uni real qudrat sifatida tan olmasdi. Demak, xalifalik tomonidan gʻaznaviylarga qarshi harbiy xavf-xatar yoʻq edi.

Tashqi aloqaar haqida soʻzni xorijiy mehmonlarni qabul qilish marosimiga oid quyidagim lavha bilan tugallasak. Bayon 1032 yilda Masʻudning Arab xalifaligining oliymaqom elchisini qabul qilish haqida “Tong yorisha boshlagan zamon toʻrt miig saroy gʻulomi (yaʼni gvardiya A.Z.) amirlik saroyining ikki tarafidan bir necha qator boʻlib saf tortdilar. (Shundan) ikki ming nafari ikki uchli kuloh (kiyib) va oʻnta popugi (osilib turgan) kamar (taqib) olgandilar. Har bir gʻulom kumush gurzi (tutib turardi). Qolgan ikki ming (gʻulom) toʻrta par qadalgan kulohda edilar. Bellaridagi kamarga oʻqdon, qilich, kamonni tutib turuvchi qayish mahkamlangan, har bir gʻulomning qoʻlida kamon va uchtadan oʻq. Barcha (toʻrt ming gʻulom) qimmatbaho nafis ipaklikdan (tikilgan) chakmonda edi. Xos gʻulomlardan uchyuztasi amir (yaʼni oliy hukmdor — A. Z.) oʻtirgan supa yaqinida har tomondan saf tortib turardilar. Ularning kiyimlari yanada koʻrkam boʻlib (boshlarida) ikki uchli kuloh, kamarlari zardan, gurzilari ham zarrin. (Oralaridan) bir necha kishilarning kamarlari javohirlar bilan bezatilgandi. Yana ellik-olmish nafar (gʻulom) nariroqda Dilmon saroyi oʻrtasida qalqon boʻlib turardilar. Dargoh ulugʻlari, viloyatlar voliydari, hojiblar — barchasi ikki uchli kulogʻda, zar kamarlar taqib olganlar. Saroy tashqarisida martabadorlar turardilar. Fellarning soni ham koʻp edi. Lashkar esa shay boʻlib qimmatbaho nafis ipaklik kiyimda, soyabonlar (ostida), (har bir qism) oʻz qurol-yarogi belgilari bilan bir-birlariga qarama-qarshi tomonlarga saflangondilar, (xuddi) shular oras elchi oʻtishi kerak edi. Elchini boshlovchi bezatilgan otlarni olib koʻpchilik hamroxligida (tashqariga qarab) yuradi. (U yerda) elchini otga mdiradilar. (Soʻng uni boshlab keldilar.) Shunda burgʻu, katta kichix nogʻoralari ovozi yangrab ketdiki, goʻyo qiyomat kuni kelganday (deysan kishi). Elchini ana shunday ulugʻvor takalluf bilan kuzatib bordilar. Bunday (qabul marosimini) u umrida koʻrmagandi. Gʻoyatda hayratga tushgan hodda u koʻshka qadam qoʻydi. Amir (yaʼni oliy hukmdor — A. 3), Olloh undan rozi boʻlsin supa oldida taxtda oʻltirardi. Xalifa elchisi salom berdi. U qora (kiyimda) edi. Javobni ulugʻ xoji Ahmad Xasan berdi. Amir yonida undan boʻlak hech kimsa oʻltirmagandi. Qolgan barcha tik turardi. Xojib Abu Nasr elchisining tirsagidan tutib oʻltirishga

undadi. (Tarixi Bayhaqiy)

G'aznaviylar davrida qurilish ma'rifiy ishlarga ham katta etibor berilganai ma'lum. G'azna, Balx, Nishopur, Shimoliy Hindiston shaharlarida madrasalar, masjidlar, xonaqohlar saroylar ko'proq qurilgani manbalarda o'z aksini topgan. Madrasalarda turli sohadagi fanlardan dars berilgan, ilmi toliblar uchun o'z zamonasida boy hisoblangan kutubxonalar eshigi doimo ochiq bo'lgan. (Majma al-Ansob kitobi).

X asr ikkinchi yarmiga kelib G'azna shahri Xurosonning siyosiy markaziga aylangan edi. G'aznaviylar dablatiga tajribali ba dobyurak turk kumondoni Sabuktegin asos solgan (962). G'aznaviylar dablati Sabukteginning ugli Sulton Maxmud (998—1030) dabrida musulmon dunyosining eng kuchli dablatlaridan biriga aylandi. Royatda epcil diplomat, moxir siyosat arbobi bo'lgan Maxmud qoraxoniylar bilan o'zaro kelishubga binoan UZINING shimoliy chegaralarini anikdab, garbda Kasgashgacha bo'lgan hudud-larni rasmiy jihatdan mustahkamlab oladi. SHu tariqa, uning dablati tarkibiga hozirgi Afgoniston, O'rta Osiyoning katta kdsmi, SHimoli-SHarq?sh Eron ba SHimoliy Xind erlari kirgan.

Maxmud G'aznaviy temir intizomli, yaxshi harbiy tayyorgarlik kurgan, zamonabiy aslaxa-anjomlarga ega boltan katta qo'shin tashkil kilgan. U bu qo'shinga bosh bulib kuplab istilochilik yurishlari uyushtirgan ba son-sanoksiz boyliklarni qo'lga kirshtan. Jumladan, u SHimoliy Xindistonga 17 marta harbiy yurishlar uyushtirgan. Maxmud 1019 yilda Kanauja shahrini zabt etganda u erdan 20 mln. dirxam, 57 ming qo'l ba 350 ta filni ulja kilib olib kelgan. 1010—1015 yillarda Xurosonning Rur biloyati xam unta taslim bo'lgan.

Xorazmning bosbb olshshpsh. Geografik jihatdan kupay makonda joylashgan, xalqaro savdo karboni markazla-ridan biri bo'lgan boy-badablat o'lka Xorazmni egal-lash, u erda hukm surayotgan Ma'mun ibn Ma'mun (999— 1017) hokimiyatini agdarib tashlashni Maxmud G'aznaviy uz tashki siyosatining markaziga kuydi. Buning us-tiga xalifa Kodirning Xorazm podshosi Ma'munni «Ayn Ad Daula ba Zayn Al milla» — «Davlat kuzi ba dindorlar jamoasining kurki» unboni bilan siylashi Maxmud G'aznaviyning gashini keltirdi. U turli baxr-nalar bilan Xorazmning ichki ishlariga aralasha boshlaydi. 1017 yil baxr-rida Ma'mun qo'shinida yuz bergan fitna oqibatida shox. ba uning yakin kishilari katl kilinadi. Mamlakatda beboshliklar, tartibsizliklar kuchayadi. Bundam foydalangan Maxmud Usha yilning yozida katga qo'shin bilan Xorazmga yurish kdyab, uni uziga buysundiradi. Maxmud UZINING bosh xrijibi, asli ke-lib chikishi turk bo'lgan Oltintoshni xorazmshox. unbo-ni bilan bu erga hukmdor etib tayin etadi. Ana shu ta-rikd, Xorazm 1040 yilgacha, ya'ni G'aznaviylar dablati iicroziga kadar uning tobeligida bo'ldi.

Sulton Maxmud dabrida G'aznaviylar dablati har tomonlama rivojlanib bordi. Mamlakat poytaxti Raz-nada ba boshqa shaharlarda kugshab oliy imoratlar, masjidu madrasalar, kurkam karbonsaroylar barpo etildi. Dexxonchilikni rivojlantirish uchun kanal-lar, ~ariklar kazildi, tUgonlar kurildi. Islom ruxr-niylari katta imtiyozlarga ega bo'ldilar. Sulton Mah-mudning UZI adolatparbar hukmdor bulyb, ilm-ma'rgi-fatga katga e'tibor berar edi. Uning saroyida ilmu fan arboblari, adabiyot axlining anjumanlari munta-zam utkazib turilardi. Ulur alloma Abu Raisoy Beru-niyning xam Sulton saroyida kup muddat faoliyat kursatganligi buni isbot etadi.

Birok; Maxmud G'aznaviy bafotidan sung (1030) uning u>li Mas'ud dabrida (1030—1041) bu dablat, bir to-mondan, ichki feodal zidtsiyatlarning kuchayishi ba, ikkinchi tomondan, saljukd1Y turklarning ketma-ket xujumlari, xususan, 1040 yilda Dandanakonda berilgan zarbadan sung o'zini o'nglab oloLmadi ba UZ musta-kdpligini butunlay yuk;otdi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixida muxim iz krldirgan Saljukiylar dablati dastlab IX asrning ikkinchi yarmi ba X asr o'rtalarida Orolbuyi ba Kaspiybuyi hududlarida yashagan uguzlar ittifoki negizida shakllangan edi. Uning dastlabki poytaxti Sirdaryo etaklaridagi YAngikent bo'lgan. Tarixiy man-balarda uruzlarning 22 yoki 24 kabiladan iborat bo'lgan-ligi kayd etiladi. Bular chobdir, chandir, emreli, ich-dir, yazir, salir, k.oradoshli, baet, koyi ba shu kabi-lardir.

Yaqin va O'rta Sharq, qisman Movarounnahrda saljuqiylar sulolasi boshqargan davlat (1038—1308). S.d.ga Saljuqning nevarasi Sulton Tug'ulbek asos solgan. Saljuq turklari II-a.ning 20-

y.larida harbiy xizmatlari evaziga Xurosonda Mahmud G'aznaviydan ko'plab mulklar olganlar. Biroq keyinchalik g'aznaviyalar ularga qarshi lashkar jo'natib, Arslon Isroil ibn Saljuqni asir olishgan va Hindistondagi harbiy qal'ada tutqunlikda saqlashgan (1032 y. u hibsda o'lgan). Saljuqiylar g'aznaviyalarga qarshi olib borgan ko'plab muvaffaqiyatli janglaridan so'ng Nishopurni egallab, o'z rahbarlari Tug'ulbek sulton deb e'lon qildilar (1038). Dandanakon jangiadgi g'alabadan so'ng u Xuroson hukmdori deb e'lon qilindi. Asta-sekin saljuqiylar Xuroson, Xorazm, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq (Bag'dod bilan birga)ni o'zlariga buysundirdilar. Bag'dodda Tug'ulbek nomiga xutba o'qitilgan. Abbosiyor xalifasi al-Koim (hukmronlik davri: 1031-75) hokimiyatni Tug'ulbekka topshirib, uni sulton hamda Sharq va G'arb podshohi deb tan olishga majbur bo'lgan va qizini unga xotinlikka bergan. Tug'ulbek Rayni, uning ukasi Chag'ribek Dovud (990—1060) Marvni o'zlariga poytaxtqildilar. 1050 y.da Tug'ulbek poytaxtni Raydan Isfahonga ko'chirgan

Alp Arslon va Malikshoh xukmronliklari davrida saljuqiylar Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam o'rinish olishgan. Ular Vizantiya imperatori Roman IV Diogening 200 ming kishilik qo'shinini yengib (1071), butun Kichik Osiyoni (1071—81), keyinchalik Suriya va Falastinni eabt etishgan. Armamiston, Gruziya, Shirvon ham bo'ysundirilgan. Shu davrda Balx Termiz (1044), Buxoro, Samarqand (1089), keyinchalik Farg'ona vodiysi saljuqiylar qo'l ostida birlashgan. Hatto Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham ularni ustunligini tan olishgan. Alp Arslon poytaxtni Isfaxon Marvga ko'chirgan. Saljuqiylar qo'shinlari Arabiston ya.o.dagi Yaman va Baxrayn yerlarini ham o'z tasarruflariga olishgan. Malikshoh hukmronligi davrida S.d. harbiy-siyosiy jihatdan juda kuchli bo'lgan. Bu vaqtda poytaxt yana Isfahonga ko'chirilgan. 11-a.oxirlarida S.d. Sharqiy Turkistondan O'rta yer va Marmar dengizlarigacha bo'lgan katta hududni o'z ichiga olgan. Bu davlat Xitoy bilan Vizantiya o'rtasida joylashgan. Salibchilarni Sharqqa qilgan yurishlarini to'xtatishda saljuqiylarning xizmati katta bo'lgan.

11-a.oxirlaridan boshlab S.d. parchalana boshlaydi. Chunki 1-salib yurishi natijasida S.d. Gruziya, Shirvon hamda Kichik Osiyoning sohil bo'yi hududlaridan, Suriya va Falastinning bir qismidan ajralgan (1096-99). S.d.dan bir necha mustaqil sultonliklar ajralib chiqqan. Mas. Kermon sultonligi (1041—1187), Shom (Suriya) sultonligi(1074-1117), Ko'niya sultonligi va b. saljuqiy sultonlar o'g'uz va b. turkiy urug'lar boshliqlari, jasur jangchilarga iqto in'om qilganlar. Mas. Malikshoh saltanatni 12 ta viloyat-mulkka ajratib, ularni amirlar va lashkarboshilarga iqto tariqasida bergan. Katta-katta mulklarga ega bo'lgan iqtodarlilar esa mustaqil bo'lishga harakat qilganlar. Malikshoh vafoti (1092)dan so'ng, uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash avj oldi. Aka-uka sultonlar Mahmud (hukmronlik davri 1092-94) Barqiyorug Malikshoh II (hukmronlik davri: 1104— 25), G'iyosiddin Muhammad (hukmronlik davri: 1105—18) ayrim hokimlarning isyonlarini bostirish bilan birga ismoiliylar harakati, xususan, hashshoshiylarga qarshi kurash olib borishga majbur bo'lganlar.

Buyuk S.d. taxt uchun kurashlar oqibatida sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'lingan. G'arbiy qismga kirgan G'arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjonn Iroq sultonligi (1118—94) iomi bilan sulton G'iyosiddin Muhammadning o'g'li sulton Mahmud (hukmronlik davri: 1118-31) boshqarishni boshlagan. U Xamadonni o'ziga poytaxt qilgan. Sharqiy qism asosan, Xuroson, Seyiston, Xorazm va Movarounnahrda iborat bo'lib, unga sulton Malikshohning ken ja o'hli sulton Sanjar hukmronlik qilgan va poytaxti Marv bo'lgan. Sanjarning qudrati avjga chiqqan davrlarda g'arbiy saljuqiylar ham uning siyosiy ta'siri ostida bo'lishgan, G'aznaviyalar davlati esa unga 1117 y.dan tobe bo'lgan. Biroq Sharqdan Qoraxitoylarning Movarounnahrda bostirib kirishi Samarqand yaqinida bo'lgan mashhur Qatvon jangi (1141 y. 9 sent.) da ular qarluqlar bilan birgalikda saljuqiylar va qoraxoniylarning birlashgan qo'shinini tor-mor qilishi natijasida Sanjarning kuch-qudrati zaiflasha boshlab, u Movarounnahr, keyinchalik Xurosonning asosiy qismidan ajraladi. Anushteginiylardan Qudbiddin Muhammad, xususan, Otsiz davrlarida Xorazm ham S.d.dan ajralib chiqib o'z mustaqilligini tiklagan. Otsiz, hatto saljuqiylar poytaxti Marvni egallab, Nishopurni qamal qilgan (1141—42). Sanjarning vafoti (1157) dan so'ng saljuqiylarning Xurosondagi hokimligi tugagan. Xuroson g'uzlar (o'g'uzlar) tasarrufiga kirgan. 1117 y.

saljuqiylarning Shom (Suriya) sultonligi, 1187 y. Kermon sultonligi ham tugatilgan. Xorazmshohlar 12-a. 2-yarmidan boshlab gʻarbiy saljuqiylarning Iroq sultonligiga kuchli zarbalar berishgan. Xorazmshoh Takash Iroq sultonligini ham tor-mor qilib, oʻz davlatiga qoʻshib olgan (1194). Faqat Kichik Osiyodagi Koʻniya (Anadolu yoxud Rum) sultonligi 14 a. boshlarigacha hukm surgan.

Davlatni boshkarish. S.d. tepasida oliy hukmdor — sulton (sulton ul-aʼzam) turgan. Uning nomidan xutba oʻqilib tanga zarb etilgan. Taxt otadan bolaga meros sifatida oʻtgan. Mulk, yer-suv taqsimlash muhim davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, amaldorlar ishini nazorat qilish va b. sulton vakolatlari doirasiga kirgan. Saljuqiylarni boshqaruv tizimi somoniylar, qoraxoniylar, gʻaznaviylarni singari ikkiga: dargoh va devanlarga boʻlingan. Ulugʻ hoji, horis amiri (amiri horis), salohdor, xos vakil, alomdor, jondor, tashtdor, sarhang, miroxur dargohdagi asosiy lavozimlar sanalgan. Bosh vazir devoni aʼlo — markaziy boshqaruv tepasida turgan. Devoni tugʻro, devoni istifo(moliya devoni), devoni ishraf (nazorat devoni), devoni arz (harbiy vazirlik) kabi rasmiy devonlar bulgan. Viloyat boshliqlari (voliylar) ham oʻz devonlariga ega boʻlishgan. Voliylar sulton tomonidan tayinlangan boʻli ular viloyat hayoti bilan bogʻliq barcha sohalar: moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari rahbarlik qilgan. Tuman va shahar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham deyarli shunday boʻlgan.

S.d.da, ayniqsa Buyuk saljuqiylardan Tugʻrulbek, Alp Arslon, Malikshoh, Sanjar davrlarida iqtisodiy va madaniy hayotda katta koʻtarilish yuz bergan. Hunarmandchilik taraqqiy qilgan: toʻqimachilik, kulollik, zargarlik, oynasozik, temirchilik, koʻnchilik va gilam toʻqish rivojlangan. Buyuu ipak yoʻli ulkan saltanatning markaziy shaharlari orqali oʻtgan. Sharqiy Yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy mamlakatlari bilan savdo aloqalari gurrak rivojlangan. Malikshoh Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi savdoni jonlantirish uchun Xuroson va Iroq savdogarlarini boj toʻlovidan ozod qilgan. Kaspiy dengizi orqali Turkistonga neft maxsulotlari keltirilgan. Ichki savdo ham rivojlangan. Mamlakatda sof oltindan zarb etilgan dinor (qizil dinor) joriy etilgan. Bundan tashqari, mahalliy dinor (rukniy) va mis dirhamlar ham boʻlgan.

Madaniyati. S.d.da ilm-fan va madaniyat rivojlangan. Ayniqsa, Eron, Iroq va Movarounnahrda madaniy yuksalish yuqori boʻlgan. Nishopur, Isfaxon, Basra, Xirot, Marv, Buxoro, Samarqandda madrasalar bunyod kilingan. Xususan, buyuk vazir Nizomulmulk qurdirgan Bagʻdoddagi Nizomiya madrasasi (1067) butun jahonga mashhur boʻlgan. Nizomulmulk lavlatni boshqarish asoslari haqida “Siyosatnoma” asarini yaratgan. Munajjim va riyoziyotchi olim Umar Xayyom loyihasiga koʻra, Isfahonda rasatxona qurilgan. U Malikshoh topshirigʻiga koʻra, rasadxonada kuzatuv ishlarini olib borgan va sostoniylarning shamsi taqvi taqvimini isloh etib, Yangi taqvim (“Malikshoh taqvimi yoxud Jalol erasi”) ni tuzgan (1079). Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Saʼdiy Sheroziy, Umar Xayyom fors sheʼriyatining soʻnmas durdonalarini yaratishgan. Muhamma Gʻazoliy, Farididdin Attor, Xoja IOsuf Xamadoniy kabi islom ulamolari va sufiylar ijod qilishgan.

S.d.da riyoziyot va ilmi nujum (Bahovuddin Abubakr Marvaziy, Sharafiddin Tusiy, Abulhasan Ali Marvaziy, Abul Muzaffar Isfizoriy, Zahiriddin Gʻaznaviy), tibbiyot va kimyo (Ismoil Jurjoniy, Faxriddin Roziy), tarix (Zahriddin Nishopuriy, Sadriddin Xusayniy, Anushirvon Koshoniy, Abu Bakr Ravondiy), adabiyot (adib Sobir Termiziy, Nosir Xusrav, Anvari, Asiriddin Axsikatiy, Rafʼiy Marvaziy va b.) sohalariga oid koʻplab bebaho asarlar yaratilgan. Bu davrda Nishopur, Marv, Isfahon, Ray, Xamadon kabi poytaxt shaharlar shuningdek, Buxoro, Samarqand, Termizda koʻplab meʼmoriy yodgorliklar qurilgan. Marv gullab yashnagan, u “Marvi Shohijaxon” — “Shaharlar shohi” deb ulugʻlangan. Tarixchi va sayyoh Yoqut Xamaviy Marvda boʻlganida bu yerda 10 ta yirik kutubxona borligini koʻrgan va ulardan foydalangan. Termiz yaqinidagi Paygʻambar orolida Zulkifl majmuasi (11—12-a.lar), Sulton Saodat meʼmoriy majmui (11—18- a.lar), Jarqoʻrgʻon minorasi (1109), Marvda Sulton Sanjar maqbarasi (12- a.) va b. meʼmoriy obidalar qurilgan. Saljuqiylarni Kuniya sultonligida ham madaniyat taraqqiy etgan. Kichik Osiyoning islomlashish jarayoni kuchayib, tasavvufning mavlaviylik, bektoshiya kabi tariqatlari shakllangan, axiylik (javonmardlik) va qalandarlik kuchaygan. Jaloliddin Rumiy,

Yunus Emro (1240—1320), Xoja Bektosh Vali (1248—1338), Sadridin Ko‘nyoviy, Shahobiddin Suhravardiy singari mashhur mutasavviflar yetishib chiqqan. Ko‘niya (Ikoniya), Sivas, Qaysariya, Nikeya sh.lari yirik madaniy markazlar hisoblangan. Bu paytda «O‘g‘uznoma» dostonining yozma varianti shakllangan, latifada Xo‘ja Nasriddin (Afandi) obrazi (Turkiston va Anadoluda) yaratilgan.

21-MAVZU: Xorazmshohlar davlati

REJA:

1. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.
2. Xorazmshohlar davlatining Movarounnahrda siyosati.

Xorazmshohlar davlati qadimgi davrdan 13 asr o‘rtalariga qadar Xorazm hududida hukmronlik qilgan sulolalar (siyovushiylar, afrig‘iylar, ma‘muniylar, oltintoshlar, anushtiginiylar). Xorazmshohlar davlatini xorazmshohlar boshqargan. Markazi, asosan, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bulsa ham, rivojlangan davrlarida, ayniqsa, 13 asr boshlarida shim.da Kaspiy dengizining shim.sohillari, jan.da Xindukush tog‘lari, sharqda Qashqargacha yetgan. Arxeologik ma‘lumotlar Ko‘zaliqir, Qo‘yqirilgan qal‘a, Tuproqqal‘a Kat qalalarini poytaxt shahar bo‘lgan shahar deb taxmin kilishga imkon beradi. Yozma manbalar Kat qal‘asini afrig‘iylar sulolasi vakillarining so‘ngi qarorgohi bo‘lganligini tasdiqlasa, Gurganj (Kuhna Urganch) sh. ma‘muniylar va anushtiginiylar sulolasining poytaxti bo‘lgan.

Abu Rayxon Beruniy ma‘lumotlariga qaraganda, xorazmshoh unvonini olgan dastlabki sulola siyovushiylar hisoblanadi. Mil. av. 8-a.da shakllangan Qadimgi Xorazm (q. Xorazm) davlatida axomaniylar va undan keyingi afrig‘iylar sulolasi asoschisi Afrig‘gacha (305 y.) bo‘lgan Xorazmshohlar davlati haqida to‘la va aniq ma‘lumotlar yo‘k.

Beruniy bu haqda: “Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldlar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko‘chib, Turk podshohlari (ustidan) hukmronligini yurg‘uzgan edi”, deb yozgan.

Kayxusrav bilan Afrig‘ davri oralig‘ida “xorazmshoh” unvoniga sazovor bo‘lgan shohlardan bizga Kayxusrav (taxm. mil. av. 1200—1140 y.), Saksafar (taxm. mil. av. 519—517 y.), rasman (taxm. mil, av. 329—320 y.), Xusrav (taxm. Mil. av. 320 y.) nomlari ma‘lum. Bu davrlarga oid arxeologik manbalar Xorazmshohlar davlatida suniy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik, savdo-sotiq ancha rivojlanganidan darak beradi. 1938—40, 1954—56 va 1965—75 y.lardagi arxeologik-etnografik ekspeditsiyalar natijasida o‘rganilgan yodgorliklardan topilgan moddiy-madaniy topilmalar Xorazmda ilm-fan, san‘at, haykaltaroshlik yuksak darajada rivojlanganidan darak beradi. Bu yodgorliklarning yuqori qatlamlari va hozirgacha saqlanib qolgan qismlarning ko‘pchiligi asosan, afrig‘iylar sulolasi davrida qurilgan.

3-a.da Xorazm hududida iqtisodiy-siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lib olgan bir nechta hokimliklar vujudga kelgan. Tuproqqal‘a saroyi zallarining birida boshiga toj kiygan va qo‘lida burgut ushlagan podsho haykalining topilishi, shuningdek, Anqaqal‘a yaqinida ham boshida toj, qo‘lida burgut ushlagan kishi rasmi solingan tanganing topilishi va shu joyda earb qilinganligi mahalliy sulola hokimiyati o‘rnatilganligidan guvohlik beradi. Topilgan tangalarda lotin alifbosidagi “S” harfiga o‘xshash siyovushiylar tamg‘asining borligi, bu sulola siyovushiylar avlodidan bo‘lishi mumkinligini kzsatadi. Mil. 3- a. o‘rtalarida Kushon podshohligidagina emas, balki butun o‘rta Sharqda katta siyosiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Kushonlar sulolasi bilan bir vaqtda arshakiylarning hukmronligi yemirilai. Xorazmda kushonlar bilan kurash va ichki siyosiy larzalar qudratli mahalliy sulolani vujudga keltiradi. Bu sulola o‘z tangalarini zarb qiladi va shaharlarda o‘zlariga saroylar quradi. Shunday qilib, 3-a.da Xorazmda kushonlar bilan kuramda g‘olib chiqqan siyosiy guruh — afrig‘iylar sulolasiga asos solinadi.

Xorazm eftaliylar (5-a.ning 2- yarmida — 6-a.ning o‘rtalari) davrida ham, turklar (6-a.ning 2- yarmi — 7- a.ning 1—yarmi) davrida ham o‘zining siyosiy mustaqqilligini saqlab qoldi.

Vizantiyalik tarixchi Menandr, Xorazm 6-a.iing 60-y.larida Vizantiya va turklar bilan diplomatik aloqalar olib borilganligi to‘g‘risida to‘liq bo‘lmagan ma‘lumot beradi.

Arab manbalarida Xorazmning arab lashkarboshilari Salim ibi Ziyod va Umaviya ibn Abdulloh tomonidan ikki marta buysundirilganligi to'g'risida gapiriladi. Aslini olganda bu yerlarga ham Movarounnahr shaharlariga nisbatan qilinganidek, talon-toroj yurishlari uyushtirilib turilgan. Faqat 8-a. Boshidagina Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi qo'shinlar Xorazmni uzil-kesil bosib oldilar. Qutayba xorazmliklarning tarixiy adabiyoti va madaniy merosini yaratgan va saqlab kelgan olimlarni qirib yuboradi va quvg'in qiladi. Shuning uchun ham, arablargacha bo'lgan Xorazmshohlar davlati tarixiga oid yetarli yozma manbalar uchramaydi.

Arablarining shafqatsiz zulmi va quvginiga uchragan xorazmshohning ukasi Xurzod tarafdorlaridan bir guruhi Bulon boshchiligidagi 712 y.dan 730 y.gacha Xazar xoqonligi hududlariga ko'chib, mustahkam o'rtnashib, bu yerda ular armiya, davlatni boshqarish ishlarini o'z qo'llariga oldilar. Ular harbiy mavqelarini mustahkamlab Kavkazda arablar egallagan yerlarga xavf sola boshlaydilar.

Bu davrda Urganch voliyi va Xorazmshohlar davlati xalifalikka to'g'ridan-to'g'ri buysunib, har qaysisi alohida-alohida xiroj to'lab turishgan. Xorazmshohlar davlati hukmdorlari o'z mavqelarini mustahkamlash uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirishgan. 751 y. xorazmshoh Shaushfirning elchilari Xitoyga kelganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Kuchli larzalardan tushkunlikka uchragan Xorazmshohlar davlati 9— 10-a.larda Arab xalifaligining yemirilishi tufayli ketma ket O'rta Osiyo va Sharqiy Eronda paydo bo'lgan yirik mustaqil davlatlar tohiriylar, safforiylor va somoniylar qo'l ostida bo'lgan.

Tarixiy va arxeologik ma'lumotlarga qaraganda 10-a. oxirlarida Xorazm iqtisodiy jihatdan juda tez rivojlana boshlaydi. Bunga shaharlarning o'sishi dalil bo'la oladi. Agar, Tabariy 712 y.da Xorazmda uchta shahar bo'lganligini ko'rsatib o'tsa, Istaxriy 10-a. boshlarida Xorazmda shaharlar soni o'ntaga yettanligini ko'rsatadi. 985 y.larda esa, Maqdisiyning yozishicha, Xorazmdagi shaharlarning soni o'ttiz ikkitaga yetgan. Arxeolog qazilma vaqtida topilgan kulolchilik mahsulotlari bu shaharlarda hunarmandchilik tez rivojlanganligidan darak beradi. Arab manbalariga qaraganda 10— 11-a.larda Xorazm yirik savdo markaziga aylangan. Xorazm savdogarlari, hoz. Qozog'iston va Turkmaniston o'rnidagi dashtlarda yashovchi aholi bilan Volga bo'yidagi Xazariya va Bulg'or podsholigi hamda Sharqiy Yevropadagi slavyan olami bilan keng ko'lamda savdo ayirboshlash ishlarini olib borgan. Shar. Yevropa savdoning o'sishi natijasida Xorazmshohlar davlatining shim.-g'arb tomonidan eng chekka istehkomi bo'lgan Urganch Xorazmda bu savdoning birinchi ahamiyatga ega bo'lgan markaziga aylangan. "Hudud ul-olam" muallifining tarificha, "Gurganch" qad. zamonda Xorazm mulklari jumlasiga kirgan shahar bo'lib, uning alohida podshosi bor. Shahar podshosining "Gurganch miri" deb ataydilar. Uning alohida bo'lib ajralib chiqishini — mamlakatning iqtisodiy jihatdan gurullab o'sishi, Volga bo'yi bilan bo'lgan savdo aloqalarining rivojlanishi hamda siyosiy tarixiy sharoit bilan bog'langan holda tushunish mumkin.

10-a.ga oid yozma manbalarda qayd qilinishicha xorazmliklar qo'shnilari o'g'uzlar bilan muvaffaqiyatli jang qilib turgan. Xorazmliklar Xazar xoqonligida muhim rol o'ynaganlar, xoqon qo'shinlaridagi asosiy qism ulardan iborat bo'lgan. 992 y. somoniy Nuh ibn Nasr o'z poytaxti Buxorodan maxrum bo'lib, Amul (Chorjo'y) ga qochadi va shu yerdan turib istilochilarga qarshi kurashni uyushtirmoqchi bo'ladi. Xorazmning ikkala hokimi unga yordamga keladi. Nuh ularning ko'rsatgan yordami uchun Xurosondagi ikkita yirik mulkini taqdim qiladi: xorazmshoh Abu Abdulloh Muhammadga Obivardni, Urganch amiri Ma'mun ibn Muhammadga Niso sh.ini beradi. V. V. Bartold ko'rsatib o'tganidek, Nuh Xurosonning itoatsiz hokimi Abu Aliga qarama-qarshi shunday ish qilgan edi. Shunisi qiziqki Abu Ali Nisoni hech qanday qarshiliksiz Ma'munga topshiradi, lekin Abu Abdulloh yuborgan vakillarini Obivardga kiritishdan bosh tortadi. Gardiziyning hikoya qilishicha, isyonkor Abu Ali 995 y. bahorida Nuhning vassali va lashkarboshisi sifatida harakat qilgan Sabukteginning lashkarlaridan yengilgach, dastlab Rayga qochadi, so'ngra Nishopurga qaytishga harakat qiladi. Sabuktigining o'g'li Mahmudning qo'lga tushadi va uncha katta bo'lmagan guruh bilan Xorazmga Ma'munning panohiga qochadi. Lekin

uni xorazmshohning askarlari ushlab oladilar va Katga keltiradilar. Bu voqeani ikki Xorazm davlati o'rtasidagi kurashning uzil kesil barham topishiga bahona bo'ladi. Ma'munning qo'shini Katni ishg'ol qilgan va ozod qilingan Abu Alini, Ma'mun Urganchda tantana bilan kutib olgan. Asir olingan sunggi afrig'iy ham shu yerga keltirilgan. Ma'mun o'zining azaliy dushmanini qatl qilishga buyuradi. Xorazmning ikkala qismini o'z hokimiyati ostida birlashtirib, xorazmshoh unvonini oladi.

Shu tariqa 995 y.da afrig'iylar sulolasi barham topib, ma'muniylar sulolasi hukmronligi boshlanadi. Shu davrdan boshlab Gurganchj (Ko'hna Urganch) Xorazmshohlar davlatining poytaxti bo'lib kelgan.

Ma'muniylar sulolasida 3 ta shoh davlat hokimiyatini boshqargan. Ma'mun ibn Muhammad (995—997), Ali ibn Ma'muv (997—999), Ma'mun ibn Ma'mun (999—1017). 10-a. oxiri — 11- a. boshlarida O'rta Osiyodagi og'ir siyosiy vaziyatga qaramasdan qisqa vaqt xukmronlik qilgan ma'muniylar sulolasi Xorazmshohlar davlatini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirdi.

Mamuriy jihatdan bu davlat viloyatlarga, viloyatlar esa, shahar va qishloqlarga ajratilib boshqarilgan. Ular davrida Xorazmda davlat boshqaruvining ancha takomillashgan tizimi vujudga keldi. Xorazmshoh davlatning oliy hukmdori, hokimi mutlaq hisoblangan. Gurganchda shoh saroyi qoshida markaziy boshqarma — devonxona tashkil etilib, uning tarkibida ziroat, savdo tijorat, moliya, soliq ishlari shahar va qishloqlarda osoyishtalikni saqlash harbiy ishlar va boshqa davlat ahamiyatiga ega vazifalar bilan shug'ullanadigan mahkamalar bo'lan. Saroyning eng yuqori lavozimlaridan biri vazirlik lavozimi bo'lib, u xujayibuzruk (bosh xo'ja) unvoniga ega bo'lgan. U levonxona ishlariga javob bergan, katta safar paytida podsho nomidan davlatni idora qilgan.

Ma'muniylar davrida Xorazmshohlar davlatida ilm-fan, madaniyat ravnaq topib, Xorazm Ma'mun akademiyasi tashkil qilindi. Unda xizmat qilgan buyuk qomusiy olimlar, allomalar uzlarining ajoyib kashfiyotlari va asarlari bilan Xorazmshohlar davlati ning mavqeini o'z davri va keyingi davrlar uchun yuksak darajaga ko'tardilar. Viroq bu madaniy yuksalish uzoq davom etmali. 1017 y.da Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etildi. Shu bilan ma'muniylar sulolasiga chek kqo'yildi. Mahmud G'aznaviy o'z sarkardalaridan biri Oltintoshni xorazmshoh lavozimiga tayinlaydi. Oltintoshlar sulolasidan ham 3 ta xorazmshoh hukmronlik qilgan. Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan Saljuq turklari bilan g'aznaviylar o'rtasida nizo chiqib, 1040 y.da Dandanakon sh. yonida ular o'rtasida qattiq janglar bo'lib, Saljuq turklari g'olib chiqadilar. Ular g'aznaviylar mulkini qo'lga kiritib, Xorazmni ham qaram qiladilar. Oltintoshlar sulolasining so'ngga vakillari saljuqiylar qo'lida turli lavozimlarda xizmat qilganlar, lekan ularga xorazmshoh unvoni beralmagan.

Xorazmni 1040 y.dan Saljuq sultonlari tomonidan tayinlangan hokimlar boshqargan. Ana shunday turk hokimlaridan biri anushteginiylar sulolasi asoschisi Anushtegin Garchoi (1077—97) edi. 1097 y.da Anushtegin vafotidan keyin Xuroson noibi Dodbek Habashiy uning o'g'li Qutbiddin Muhammad (1097-1127)ni Xorazm noibi qilib tayinlab, unga xorazmshoh unvonini beradi. Qutbiddin Muhammadning adolatli va sadoqatli xizmati evaziga Sulton Sanjar (1118—57) uning o'g'li Otsiz (1127—56)ni Xorazm taxtiga tayiilaydi. Dastlab, Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilgan Otsiz 1130-y.lar oxirlarida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyatdan foydalanib, mustaqil Xorazmshohlar davlatini tuzishga harakat qilib, uning bilan tinimsiz urush olib boradi. Otsiz vafotidan keyin taxtga o'tirgan El Arslon (1156—72) mahalliy hokimlar va qoraxitoylarga qarshi kurash olib bordi. Uning vorislari Sultonshoh Muhammad (1172) va Alouddin Takash (1172—1200) hokimiyat uchuv 1193 y.ga qadar o'zaro kurash olib bordilar. Takash o'z vorisi Muhammad Xorazmshohga (1200—20) markazlashgan mustahkam davlat va tashqiliy jixatdan qudratli qo'shinni meros qoldirgan bo'lsa, uning o'z so'zlari bilan aytganda, o'g'li Jaloliddin Manguberdi (1220—31)ga parokanda saltanatni meros qilib qoldirdi. 1231 y. da Jaloliddin Manguberdi vafoti bilan xorazmshoh unvoni hamda saltanatni boshqargan sulolalar ham yakun topaxi. Sulton Shohruxning Xorazmdagi noibi amir Shohmalik (1413—26) umrining oxirigacha

Xorazmshoh unvonini o'zida saqlagan. Shuningdek, uning o'g'li Nasriddin Sulton Ibrohimga ham meros tariqasida xorazmshoh unvoni o'tgan. U Abul xayrxon tomonidan Xorazmdan quvilganiga qadar xorazmshoh deb atalgan. Bundan keyingi Xorazm hukmdorlaridan hech biri bu unvonga ega bo'lmagan.

12—13-a. boshlari Xorazm davlatchiligining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Bu davrda Xorazmda anushteginiylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar Otsiz, Takash va Sulton Muhammad Xorazmshohlar mamlakatni boshqarishning yanada mukammal tizimi, tartiboti va uslublarini yaratganlar. Saltanatniig eng oliy lavozimi vazirlik bo'lib, ular Sadr, Xo'jayibuzruk va Nizomulmulk (mulkning tayanichi) unvonlari bilan yuritilgan. Vazir faqat oliy hukkdor oldida hisobdor bo'lgan. Saltanatning barcha amaldorlari va harbiy boshliqlar ham vazirga itoat qilganlar, uving oldida hisobdor bo'lganlar.

Sulton Muhammad Xorazmshoh o'z podsholigining so'ngida saroyda yana bir oliy mahkam a ya'ni vakillar Kengashi nomi bilan yuritilgan davlat Kengashi ta'sis etad i. Kengash ishida oliy hukmdordan boshqa yana tajribali, bilimli 6 ta vakil ishtirok etadi. Davlat kengashida eng dolzarb masalalar muhokama etilib, qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilingan. Xorazmshohlar davlatida ulug' hojib, amir oxur, amir shikor, mutasarrif, toshtdor, qissador, davlatdor, farrosh, amir ul-alam kabi yuqori lavozimlar ham bo'lgan.

Xorazmshohlar davlatida davlat hokimiyati markazlashgan va takomillashgan boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Mahalliy va markaziy hokimiyatning keng vakolatli mahkamalari yordamida mamlakat idora qilingan. Davlatning mahalliy hokimiyat organlari markaziy hokimiyatning kuchli nazorati ostida bo'lgan.

Katta hududda markazlashgan yirik siyosiy birlikning vujudga kelishi tufayli davlatning siyosiy mavqeyi ortdi, unda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, shaharlar yuksaldi. Xo'jalikning turli sohalaridagi o'sish umumiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun omil bo'ldi. Poytaxt Gurganch yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylandi. Shaharlar rivoji uchun savdo, ayniqsa, xalqaro savdo muhim o'rin tuggan. Xorazm davlatining savdo karvonlari nafaqat o'z hududi bo'ylabgina emas, balki undan tashqariga, jan.da Hindistonga g'arbda Arabiston va Yevropaga qatnagan.

Xorazmshohlar davlati tarkibiga kiritilgan hududlardagi bir qancha shaharlarda ilm-ma'rifat, madaniyat yuksaldi. Movarounnahr, Xuroson, Fors, Ozarbayjon va Iroq o'lkalari o'rtasida madaniy aloqalar kuchaydi. Ushbu davrning taniqli olimlari jumlasiga Rashididdin Votvot, Ismoil Isfahoniy, Tohir Faryobiy, Abulfayz Axsikatiy, Sayfuddin Buxoriy, Abulmajid Jadiy, Ali Ismoil Jurjoniy, Ali Xorazmiy, Abul Hasan Xorazmiy, Najib Bakron, Mahmud al-Chag'miniy, Fariduddin Attor, shayx Najmiddin Kubro, Muhammad Axsikatiy, Abdulloh ar-Roziy, Mahmud Samaraqandiy, Ma'sud Xo'jandny, Mahmud Zamaxshariy, Abdulkarim as-Sam'oniyy va b.ni kiritish mumkin. Ularning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, o'sha davrda ilm-fan ham tabiiy, ijtimoiy sohalar bo'yicha rivojlanganini ko'ramiz.

Xorazmda hukmdorlik qilgan sulolalar davri tarixi O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligi va adaniyati tarixining ajralmas qismi hisobdanadi

22-MAVZU: IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosondagi madaniy hayot. Uyg'onish (Renessans) davri rivoji

R E J A:

1. Madaniyatning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'рни.

2. Sharq dunyosining buyuk daholari.

3. Badiiy adabiyot.

4. Islom madaniyati. Hadislar va tasavvuf ilmi.

Vatanimiz tarixiy tarakkiyotida muxim iz tsrldirgan K—XII asrlar nafakdt uning sarxadlarida mustakdl dablatalarning bujudga kyoli-shi, ijtimoiy-urtisodiy rivojlanib borishi bilano' balki shu bilan birga ularning madaniy jihatdan xam jidtsiy yutukdar ba Uzgarishlarga erishganligi bilan ham tabsiflanadi. CHunki arablar istilosi ba tobeligi asoratidan xalos bUlib, Uz mustakil dayugat tuzilmala-bo'lgan O'rta Osiyo xalqlary tarixan kiska'dabrdabomida ham moddiy, xam: mamaeboy madaniyatni rabnah toptirishda ancha ilgarilab ketdilar. Zero, IX— XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari xayotida chinakam uygonish dabri bulib, u buyuk ajdodlarimiz daxrsi, akl-zakobatini butun insoniyat olamiga tarannum eta billi.

Somoniylar ba krraxoniylar dabrida bunyod etil-gan yuksak modtsiy madaniyat obidalari, osori-atiqala-ri, Buxoro, Samarqand singari shaharlarning betak-ror meъmorchilik namunalari, ularning ilm-maъri-fat maskanlari sifatidagi roli, Xorazmdagi mashxur Maъmun ; akademiyasi, uning Muxammad al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn al-Xammor, Dbu *Saxd*, Ibn *Irok*, singari ulur namoyandalari, Sulton Maxmud dabrida G'azna-biylar dablataida bunyod etilgan oliy imoratlar kuri-lishi, yuksak sabiyada muntazam utkazib turilgan il-shSH anjumanlar — bularning xamma-xammasi O'rta Osiyo xalqlari milliy uygonish dabrining nechoglu muxim, ulugbor o'zgarishlar ba siljishlarga boy bo'lganligidan yakddl dalolat beradi;

O'rta asrlar dabrining nufuzli tarixchisi Abu Man-sur as-Saolibiy (961— 1038)ning kuyidagi fikrlari nafakat somoniylar dabrining madaniy yuksalishi, balki shu bilan birgalikda usha zamondagi boshka mus-takil dablatalrda yuz bergan o'lkan o'zgarishlar jarayo-ni uchun ham birdek taalluklidir. Uning yozishicha, Buxoro somoniylar dabridan boshlab, «shon-shuxrat ma-koni, saltanat kaъbasi ba zamonasining ilgor kishi-lari jamlangan, er yuzi adiblarining yulduzlari por-lagan hamda uz dabrining fozillari yishlgan joy edi».

2

Batanimizning o'rta asrlardabri tarixiga nigoximizni tashlar ekanmiz, bu mukaddas, serfayz zaminda etishib chikib, uzlarining ser-kirra, betakror ijodi, fabqulodda salohiyati bilan olamni lol krldirgan, jahon tsibilizatsiyasiga bebaxr xissa kushgan kuplab buyuk allomalarimiz nurli siy-mosi k5b ungimizda yorokin namoyon buladi. Muxammad ad-Xorazmiy, Abu Rayxrn Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu yasr Forobiy, Ax>lad Fargoniy, Abu Abdullox. *"*" Narshaxyy, Abdul4»zl Bayuъiy, Maxmud Zamaxshariy, BURX.ONIDDIN Marginoniy*, Umar CHagminiy kabi ilm-fan yulduzlari ana shular jumla-sidandir. Ulyrning xdr biri fanning turli soxalari-da kalam tebratgan, katta ilmiy kashfiyotlar yarata olgan krmusiy bilim soxiblaridirlar. Al-Xorazmny (783—850) matematika, astronomiya, geometriya, geografiya ba tarix fanlari soxasida mapщur bo'ldi. Ay-niksa olimning «Al-jabr bal mukabala» asari mashxu-ri jahon bulib, u algebra, x.ozirgi algoritm yaratili-shiga asos bo'ldi. Uning «Xind arifmetikasi xakida kitob»i xam fan tarixida katga urin tutadi. Шу asar tufayli SHarq, ba G'arb xalqlari qadimiy Xindistonning katga yutugi — o'nli hisoblash sistemasi bilan taniqdilar.

Abu Rayhon Beruniynng (973—1048) ilmiy merosi ham xayratlanarlidir, Tarixiy manbalarda uning 150 dan ziyod ilmiy asarlari mabjuddigi tilga olinadi. Ulardan fatsat 30 ga yakini bizgacha etib kelgan. «K,a-dimgi xalqlardan krlgan yodgorliklar», «Xindiston», «Xorazmning ajoyib kiщilari», «Al-K,onun al-Maъ-sudiy», «Geodeziya» nomli bebax.o asarlar shular jumlasidandir. Batanimiz tarixining juda kup kirralari allomaning mazkur asarlarida tulak.onli tarzda yori-tib berilganligi xam x.ozirgi ablodlarni xayratga so-liSHi tabiiydir.

Beruniyning asrdoshi ba safdoshi bo'lgan Abu Ali ibn Synoning (980—1037) ijodi xam keyingi ablod-lar uchun bitmas-tuganmas ilmiy xazina manbaidir. Olimning ilmiy

